

CONFIDENTIAL
This document contains information that is exempt from disclosure under the Freedom of Information Act, 5 U.S.C. 552, and is being disseminated on a "need-to-know" basis only. It is to be controlled, stored, transmitted, and disposed of in accordance with the policies and procedures of the Department of Defense. Do not disseminate this information outside the Department of Defense without the express written approval of the appropriate authority.

GAARDLAND,
BRADLEY
COMMUNICATIONS

CONFIDENTIAL

CONFIDENTIAL

CONFIDENTIAL

CONFIDENTIAL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**S.A. ABDULLYAEV, B.D. XAJIYEV,
Q.Q. MAMBETJANOV**

**O'ZBEKISTONNING
IJTIMOIY-IQTISODIY
RIVOJLANISH STRATEGIYASI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi
Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan Respublika oliy ta'lim muassasalari
magistratura bosqichi 5A 230101 – «Iqtisodiy nazariya» mutaxassisligida
tahsil olayotgan magistrantlar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.*



Toshkent – 2018

UO'K 323(575.1)

KBK 66.3(5ŷ)я7

A 15

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi.

Darslik. S.A.Abdullayev, B.D.Xajiyev, Q.Q.Mambetjanov. – T.: «Barkamol fayz media», 2018. – 424 bet.

Ushbu darslikda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi to'g'risidagi turli xil nazariyalar, ularning mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekistonda davlatning iqtisodiy siyosati, "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" va uning asosiy yo'nalishlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, darslikda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash, iqtisodiy islohotlarni yana-da chuqurlashtirishga yo'naltirilgan davlat iqtisodiy siyosatining amalga oshirilayotganligi natijasida O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanayotganligi ko'rsatib berilgan bo'lib, u Respublika bo'yicha oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichining 5A230101 – «Iqtisodiy nazariya» yo'nalishlarida tahsil olayotgan magistrantlar uchun darslik sifatida tavsiya etiladi.

Ushbu darslikni tayyorlashda Q.Q.Mambetjanovning doktorlik dissertatsiyasi ishida ko'rsatilgan barcha ilmiy yangiliklar va taklif qilingan nazariy-uslubiy hamda amaliy tavsiyalardan samarali foydalanildi.

UO'K 323(575.1)

KBK 66.3(5ŷ)я7

ISBN: 978-9943-5517-1-8

© S.A.Abdullayev, B.D. Xajiyev,
Q.Q. Mambetjanov 2018

© «Barkamol fayz media» 2018

KIRISH

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash bo'yicha tanlangan strategik vazifalar, ularning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholining moddiy farovonligini yuksaltirishga erishmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida – "2017-yilda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5 foizni tashkil yetdi, eksport hajmi qariyb 15 foizga ko'paydi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 854 million dollarga" yetdi¹ – degan fikrlaridan ham mamlakatda oxirgi yillarda barqaror o'sish sur'atlarining saqlanib qolayotganligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda raqobat kurashi tobora kuchayib, shiddatli tus olayotgan va jahon bozori konyukturasi keskin o'zgarib borayotgan murakkab vaziyatda hamda mamlakat aholisi soni va ularning iste'mol tovarlariga bo'lgan talabining oshib borishi hisobga olinib, Respublika iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va YaIMning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash vazifalari qo'yildi. O'zbekiston Respublikasining kelajakda mamlakatni yana-da rivojlantirishga mo'ljallangan strategik vazifalarida "2030-yilga borib mamlakatimizda YaIM hajmini kamida 2 barobar oshirish..."² masalasining qo'yilishi va Prezident Sh.M.Mirziyoyevning – "Makroiqtisodiy barqarorlikni yana-da mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish – eng muhim ustuvor

¹ Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 23.12.2017-y.

² I.Karimov. "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yana-da keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir". – T.: "O'zbekiston" 2016-y. 26-b.

vazifamizdir”³ – deb ta’kidlashlaridan hamda “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da “...yalpi ichki mahsulotning yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash”⁴ vazifasining belgilab qo‘yilishi Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash naqadar dolzarb masalalardan ekanligi ko‘rinib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni⁵da mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini jadal rivojlantirish hisobiga YaIM hajmi va o‘shirish sur‘atlarini oshirish, olib borilayotgan islohotlar samaradiligini ko‘tarish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy hayotni har tomonlama rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Butun jahonda «O‘zbek modeli» nomi bilan tan olingan o‘zimizga xos va mos rivojlanish modeli yo‘lida dadil qadamlar bilan borayotganimiz qo‘lga kiritilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarning bosh omili bo‘lmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga

³ Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. // Xalq so‘zi. 16.01.2017-y.

⁴ “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”. http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. // Xalq so‘zi. 08.02.2017-y.

bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida «...Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning «O‘zbek modeli»ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o‘z ishimizda doimo suyanamiz»⁶, deb ta’kidlab o‘tildi.

“O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida yuzaga keladigan asosiy muammolar, ularning yechimlari, O‘zbekiston Respublikasini jadal rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bilan tanishtirish hamda ularning ushbu masaladagi fikrlash doirasini kengaytirishdan iborat.

Fanning vazifalari – iqtisodiy rivojlanish to‘g‘risidagi turli xil nazariya va qarashlar; iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari; iqtisodiy rivojlanish mexanizmlarining amal qilish qonuniyatlari; O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari; ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashda davlat siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari; ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning xorij tajribalari kabi bilimlar bilan talabalarni qurollantirishdan iborat.

“O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi” fani fundamental fanlardan biri bo‘lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu fanni o‘rganish jarayonida o‘qitishning ochiq, muammoli va vizual ma‘ruzalar o‘tkazish, insert, klaster va aqliy hujum kabi ilg‘or pedagogik hamda axborot texnologiyalari qo‘llaniladi. Darslikda fanning mohiyatini, iqtisodiy rivojlanish omillarini ochib beruvchi eng asosiy mavzular va muammolar o‘z aksini topgan.

⁶ Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. // Xalq so‘zi. 16.01.2017-y.

1-MAVZU. «O‘ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISH STRATEGIYASI» FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. «O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fanining maqsadi va vazifalari

Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo‘li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishdir. Aholi farovonligini oshirib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy o‘‘sish darajasi va sur‘atlariga bog‘liq. Shu sababli mazkur bobning tahlili, avvalo, fanning maqsad va vazifalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mohiyati, uning darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, iqtisodiy o‘‘sishning mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlarini bayon qilishga bag‘ishlanadi.

Ushbu kursning vazifasini matiqan to‘rttaga ajratgan holda ko‘rsatish mumkin:

1) bilish vazifasi – har qanday fan kabi «O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fani ham fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, u ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning mazmun-mohiyati, amal qilish qonuniyatlari va mexanizmlari, O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish tamoyillari va strategiyasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi fikrlarni kengaytiradi;

2) amaliy vazifasi – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minashning aniq mexanizmlari, yo‘nalishlari, strategik va taktik (qisqa muddatli rejalar) rejalar hamda harakat dasturlarini ishlab chiqish bilan belgilanadi;

3) uslubiy vazifasi – «O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fani mamlakatdagi real ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlar tahlili, o‘zgarish tamoyillari va shundan kelib chiqqan holda olingan xulosalar boshqa ijtimoiy va tarmoq fanlari uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi;

4) g‘oyaviy-tarbiyaviy vazifasi shundan iboratki, uning yordami-da talabalar, mutaxassislar va iqtisodiyot ilmi o‘rganuvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, milliy istiqloq g‘oyasini talaba yoshlar ongiga singdiradi, ularni millat manfaatlarini yo‘lida iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, milliy pul qadrini oshirish, milliy tovarlarni jahon miqyosida xaridorgir bo‘lishini ta‘minlash, mamlakat aholisining turmush darajasini ko‘tarish ruhida tarbiyalaydi. Ushbu fan talaba yoshlarga moddiy ne‘matlar inson mehnatining mahsuli ekanligini tushuntirib, ularni mehnat hamda cheklangan resurslarni tejash ruhida tarbiyalaydi.

«O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fani makroiqtisodiyot darajasida tahlil qilib, uning sohalari, ko‘rsatkichlari, omillari va iqtisodiy o‘‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ko‘rsatadi hamda davlatning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatida ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu fanning maqsadi, eng avvalo, ilmiy bilishdan iboratdir. Shundan kelib chiqadiki, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni kuzatish, ulardagi shakl va mazmun o‘zgarishlarini, ichki bog‘lanish va aloqalarni, ziddiyatlarni, qonun-qoidalarni, tushunchalarni bilib, birinchi navbatda, talabalarga, iqtisodchi mutaxassislariga va iqtisodiy taraqqiyot bilan qiziquvchi boshqa xodimlarga o‘rgatishdan iboratdir.

Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari fanining biz qayd qilgan amaliy, nazariy, uslubiy va tarbiyaviy tomonlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Amaliy iqtisodiyot nazariy bilimga ega bo‘lishni, u bilan qurollanish zaruriyatini taqozo yetadi. Nazariy bilim esa, oldindan ko‘ra bilish va amaliy harakat yo‘lini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi.

Umuman olganda, ushbu fan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sirlarini bilishdagi ilmiy qo‘llanmadir.

«Pirovard maqsadimiz bo‘lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun

ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos – bu milliy g'oya, milliy mafkuradir»⁷. Shu aqidadan kelib chiqib, «O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fani kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish vazifasini ham bajaradiki, bu iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun «O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fani Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning so'zlagan nutq va ma'ruzalarida ko'rsatib berilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari, uning o'ziga xos yo'li, qonun-qoidalari, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida mamlakat oldida turgan iqtisodiy muammolar va vazifalarning chuqur tahlilini, uni yechish yo'llarini ko'rsatib bermog'i lozim.

«O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fani ijtimoiy fan bo'lib, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, huquq, siyosatshunoslik, tarix kabi ijtimoiy fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir, ulardan uslubiy va ilmiy ozuqa oladi va ularga manba bo'lib ham xizmat qiladi. Lekin ularning hech biri ushbu fanning o'rnini bosa olmaydi, chunki ularning o'z vazifasi va predmeti bor.

«O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fanining predmeti – O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish maqsadida moddiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, davlatning iqtisodiy siyosati, uni amalga oshirish strategiyasi va mexanizmlari hisoblanadi.

«O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fanining o'ziga xos tadqiqot usullari mavjud bo'lib, ulardan eng muhimi ilmiy abstraksiya usulidir. Iqtisodiy jarayonlarning mohiyati

o'zgarishini o'rganishda mikroskoplardan, kimyoviy laboratoriyalardan foydalanib bo'lmaydi, bunda abstraksiya kuchi ishga solinadi.

Ilmiy abstraksiya usuli – tahlil paytida halal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tiborni qaratishdir. Bu usul yordamida o'rganilayotgan voqea va hodisaning ichki, ko'zga ko'rinmaydigan mohiyati, uning asl mazmuni bilib olinadi.

Tahlil va sintez usuli. Tahlil – bu o'rganilayotgan bir butunni alohida qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish. Sintez – bu o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab umumiy xulosa chiqarishdir. Murakkab iqtisodiy tizimlar ana shu yo'l bilan o'rganiladi, iqtisodiy tizim butunicha tasvirlab beriladi.

Mantiqiylik va tarixiylikning birligi usuli. Ushbu fanda tarixiylik dalili tarixiy rivojlanish nuqtai-nazaridan tadqiqot olib borish zarurligini taqozo qiladi. Chunki iqtisodiy jarayonlar tarixiy jarayon sifatida rivojlanadi. Mantiqiylik usulida jarayonlar faqatgina tarixiy nuqtai-nazardan emas, shu bilan birga asosiy ichki zarur qonuniy bog'lanishlar bo'yicha ham tahlil qilinadi.

Foydalanilayotgan usullar ichida eksperiment ma'lum o'rin egallaydi, iqtisodiy o'sishning keskin o'zgarishi bosqichlarida, jumladan, iqtisodiyotning inqiroz va beqarorlik bosqichlarida eksperimentdan keng foydalaniladi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish paytida eksperiment alohida o'ringa ega. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish, ya'ni ilmiy tajriba, eksperiment o'tkazish hisob-kitob vositasiga asoslanish va ilmiy yo'nalishlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlilni qo'shib olib borish. Mikroiqtisodiy tahlilda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lmish korxonalar va firmalarning ichki jarayonlarini alohida iqtisodiy subyektlarning xatti-harakati, xulqi tadqiq qilinadi. Bu

⁷ Karimov I.A. "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz". – T.: «O'zbekiston», 2000. 463-b.

tahlilda alohida olingan tovarlarning xarajatlari, kapital va boshqa resurslardan foydalanishning, narx tashkil topishining, ish haqi to'lashning, talab va taklif tarkib topishining shakl va mexanizmlarini o'rganish markaziy o'rin tutadi.

Makroiqtisodiy tahlil makromutanosiblikni ta'minlash asosida milliy iqtisodiyotning to'laligicha faoliyat qilishi tadqiqoti bilan shug'ullanadi. Milliy mahsulot, bahoning umumiy darajasi, inflyatsiya, ishchi kuchining ish bilan bandligi masalalari bu tahlil obyekti bo'lib hisoblanadi. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot o'zaro bog'langan va bir-biri bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Induksiya va deduksiya biriga qarama-qarshi bo'lgan, ammo o'zaro bog'liqlikdagi fikrlash usulidir. Fikrning xususiy faktlardan umumiy faktlarga qarab harakati induksiya, aksincha, umumiy faktlardan xususiy faktlarga tomon harakati deduksiya deb ataladi.

Iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilishda ikki tomonlama yondashuv usuli. Bunda barcha iqtisodiy jarayonlar qiymat va nafilik nuqtai-nazaridan tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi. Aks holda bir tomonlamalikka yo'l qo'yilib, yanglish tasavvurga va noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilishda taqqoslash, statistik, matematik va grafik usullaridan keng foydalaniladi. Ayniqsa, hozirgi davrda grafik usulni keng o'zlashtirish va qo'llash zarurdir. Grafiklar nazariya modellarini ifodalashda vositachi bo'lib xizmat qiladi. Aniqroq qilib aytganda, grafik usul o'zgaruvchi miqdorlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rgazmali qilib tasvirlaydi.

Bu usullar yordamida iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning mazmunini, ulardagi o'zgarishlarni, kelib chiqish sabab-oqibatlarini bilish mumkin bo'ladi.

1.2. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy o'sish tushunchalarining mazmun-mohiyati.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti juda serqirra jarayon bo'lib, u o'z ichiga iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, aholi hayotining sifati va shart-sharoitlarining takomillashuvini oladi. U hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o'zgarishlarni, ijobiy va salbiy tomonlarni olib notekis boradi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ifodasini real YaIM hajmining oshishi hamda aholi jon boshiga nisbatan ko'payishida topadi.

Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir xil sur'atlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto qisqarish davrlari ma'lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo'lsa, jahon va milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishni YaIM mutloq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'ladi. Odatda biron-bir mamlakat iqtisodiy o'sishini YaIM mutloq hajmining ortishi orqali o'lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash esa, mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini tavsiflaydigan mazkur ko'rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular

birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.


Shunga ko'ra, iqtisodiy o'sishning barcha tavsifi yillik o'sish sur'atlarining foizdagi o'lchovida to'liq o'z ifodasini topadi:

$$O'S = \frac{YaIM_{joriy} - YaIM_{bазis}}{YaIM_{bазis}} \times 100\%$$

bu yerda: O'S – iqtisodiy o'sish sur'ati, foizda; $YaIM_{bазis}$ – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi; $YaIM_{joriy}$ – joriy davr (yil) dagi real YaIM hajmi.

Shuningdek, iqtisodiy o'sish mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayib borishini ham anglatadi. Milliy ishlab chiqarish natijalarining miqdor jihatidan ko'payishi va sifat jihatidan takomillashib borishi pirovardida ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining o'ng tomonga qarab siljishiga olib keladi. Aytaylik, 2017-yildagi milliy ishlab chiqarish hajmi (I_{2017}) 2010-yildagi (I_{2010}) ga nisbatan o'sdi. Bu o'sish o'z navbatida milliy ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining ham kengayishiga olib keladi (1.2.1-rasm).

Investitsion tovarlar



1.2.1-rasm. Iqtisodiy o'sish natijasida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi

Chizmadan ko'rinadiki, iqtisodiy o'sish natijasida yalpi ichki mahsulot miqdori ortadi, bu esa, aholi turmush farovonligini oshishiga olib keladi. Iqtisodiyot mavjud ehtiyojlarni yana-da to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning ahamiyati to'g'risida gapirilganda uning darajasini ham e'tiborda tutish lozim. Iqtisodiy o'sish sur'atlarining ahamiyatlilik darajasi turli mamlakatlar real YaIMning hajmidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Real YaIM hajmi nisbatan kichik bo'lgan mamlakatlar uchun 8–10% darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati me'yordagi holat sanalishi, real YaIM hajmi juda katta bo'lgan mamlakatlar uchun 2–3% darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati esa ahamiyatli ko'rsatkich hisoblanishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «70 qoidasi» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, mamlakatimizdagi o'sish sur'atining 7,8% darajasida

YaIMni 2 baravar oshirish uchun 9 yil talab etiladi (70:7,8). Holbuki, iqtisodiy o'sishning 2000-yildagi 4,0% darajasida bu ko'rsatkichga 17,5-yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atining yana-da oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi.

Tovar va xizmatlar hajmining o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana bir korxonalar quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yana-da ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxonalar qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan

qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ko'proq ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari haqida so'z yuritiladi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida naflilik (moddiy-ashyoviy) va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

Iqtisodiy o'sishning naflilik (moddiy-ashyoviy) ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyatsiya ta'siriga berilmaydi), biroq ularni universal holda qo'llab bo'lmaydi (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda har xil ne'matlar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin). Qiymat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo ularni har doim ham inflyatsiya ta'siridan to'liq «tozalash» mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki o'zgarimas narxlarda hisoblanadi. Chunki bunda ijtimoiy naflilikning umumiy ko'rsatkichi bo'yicha o'sish darajasini aniqlash mumkin bo'ladi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

1) YaIM va milliy daromadning mutloq hajmi va uning o'sish sur'ati;

2) YaIM va milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati;

3) YaIM va milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati.

Yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiy o'sishni aniqlashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha bo'ladi. Masalan, agar diqqat markazida iqtisodiy salohiyat muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan foydalanish ko'proq mos keladi. Alohida mamlakat va mintaqalardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustuvorlik beriladi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligining o'sishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanganlik darajasi;
- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;
- v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;
- g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YaIM (YaIM) ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston o'zining iqtisodiy rivojlanish modelini izchil amalga oshirishi natijasida, boshqa sobiq ittifoqi mamlakatlariga nisbatan eng qisqa muddatlarda, ya'ni 1996-yildayoq iqtisodiy tanazzulning oldini oldi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minladi va iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish bilan bog'liq asosiy iqtisodiy masalalarni amalga oshirishga kirishdi.

O'zbekiston iqtisodiyoti 1996–2003-yillar davomida o'rtacha yillik 4% o'sish darajasi bilan rivojlandi. Iqtisodiyotning turli xil tarmoqlari va sohalarini tarkibiy o'zgartirish, qulay ishblarmonlik muhitini yaratish, tarmoqlarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlari natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004-yildan boshlab yillik 7–9 % darajasidagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qila boshladi.

YaIMni tarmoqlar bo'yicha tahlil qilib o'rganish – yahlit iqtisodiyotning tarkibiga kiruvchi alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi o'rni va hissasini aniqlashga yordam beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda yaratilayotgan YaIMning tarkibida sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, shu jamladan, aholiga pullik xizmat ko'rsatish kabi sohalarning o'rni va hissasi salmoqli o'rinni egallaydi.

Keyingi yillarida sanoat tarmog'i va xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyatini yana-da kengaytirilishi natijasida YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining (2000-yilda 34,4 foizdan 2016-yilda 17,6 foizga) bosqichma-bosqich kamayish tendensiyasi saqlanib qoldi. Shu bilan birga, YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining kamayishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ijobiy o'rtacha yillik o'sish sur'atlari fonida sodir bo'ldi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar taklif omillari deb ham atalib, iqtisodiyotning o'sish layoqatini belgilab beradi:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Bu omillar har birining yalpi mahsulot hajmiga ta'sirini baholash orqali iqtisodiy o'sishni tavsiflash mumkin.

Ma'lumki, yalpi milliy (ichki) mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi, ya'ni:

$$Y = f(L, K, N),$$

bu yerda:

Y – yalpi milliy (ichki) mahsulot;

L – ishchi kuchi sarflari;

K – kapital sarflari;

N – tabiiy resurslar sarflari.

Bu funksional bog'lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

1) mehnat unumdorligi (Y/L) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;

2) mehnat sig'imi (L/Y) – jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

3) kapital samaradorligi (Y/K) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;

4) kapital sig'imi (K/Y) – kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

5) tabiiy resurslar samaradorligi (Y/N) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan tabiiy resurslar xarajatlariga nisbati;

6) mahsulotning resurslar sig'imi (N/Y) – tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

7) ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L) – ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda Yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlardan tashqari yana keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb yetadi. Bu ko'rsatkichlar, boshqa omillar sarfi o'zgarmagani holda, har bir alohida omil sarfining qo'shimcha o'sishi ta'sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi hajmini belgilab beradi:

1) keyingi qo'shilgan mehnat unumdorligi ($\Delta Y/\Delta L$);

2) keyingi qo'shilgan kapital unumdorligi ($\Delta Y/\Delta K$);

3) keyingi qo'shilgan tabiiy resurslar unumdorligi ($\Delta Y/\Delta N$).

Bu ko'rsatkichlar yalpi mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmining o'sishida har bir omilning hissasini namoyon etib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Y = (\Delta Y/\Delta L)L + (\Delta Y/\Delta K)K + (\Delta Y/\Delta N)N,$$

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutloq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi taklif va taqsimlash omillari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o'sishi va sifatining yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o'sishni ro'yobga chiqaradi.

Iqtisodiy o'sishda resurslarni taqsimlash omillari ham o'z o'rniga ega bo'lsa-da, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur.

Fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o'z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda, fan-texnika taraqqiyoti deyilganda pirovard mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg'unlashtirishni taqozo qiluvchi yangi usullarning topilishi ham tushuniladi. Amaliyotda texnika taraqqiyoti va kapital qo'yilmalar (investitsiyalar) mustahkam o'zaro bog'liq, texnika taraqqiyoti ko'pincha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qo'yilishga olib keladi. Masalan, atom energiyasidan foydalanish bo'yicha texnologiyani qo'llash uchun atom elektrostansiyalarini qurish zarur bo'ladi. Bir qarashda texnika taraqqiyoti tarixiy va shiddatli ro'y berish tavsifiga ega bo'ladi. Gaz va yoqilg'i dvigatellari, konveyer va yig'ma liniyalar bizning hayotga o'tmishning eng muhim yutuqlari sifatida kirib keldi.

Real mahsulot ikki asosiy usulda ko'paytirilishi mumkin:

- 1) resurslarning ko'proq hajmini jalb etilishi;
- 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo'li bilan.

Respublika oldida texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo'llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi.

Mehnat unumdorligining o'sishini aniqlab beruvchi asosiy omil har bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma'lum vaqt ichida, kapitalning hajmi mutloq ko'payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq o'ssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi.

Ta'lim va malakali tayyorgarlik mehnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha yuqori ish haqiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo'yish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko'rsatkichi ta'lim darajasi hisoblanadi. Hozirgi davrda Respublikamiz iqtisodiyotida band bo'lganlarning 30%ga yaqini oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega. Lekin oliy va yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganlar, aniq sohalardagi bilimlari darajasi bo'yicha boshqa rivojlangan mamlakatlardagi ishchilardan ancha orqada va ko'pchiligi o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat turida band emas. Shu sababli keyingi yillarda Respublikamizda maktab, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida ta'lim berishning progressiv tizimlari joriy qilinmoqda, kasb-hunar kollejarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ham ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda.

Amaliy hayotda iqtisodiy o'sishni susaytirib turuvchi omillar ham mavjud bo'ladiki, ular mehnat muhofazasi, atrof muhitning ifloslanishi kabi holatlar natijasida kelib chiqadi. Keyingi yillarda Respublikamizda davlat tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash va sog'lig'ini muhofaza qilishni tartibga solishda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Bu o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshirish tegishli xarajatlarni taqozo qiladi. Shu orqali mehnat unumdorligini oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar boshqa tomonga jalb qilinadi.

1.3. Iqtisodiy taraqqiyotning mezon va ko'rsatkichlari

Har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasini ifodalovchi eng asosiy ko'rsatkichlardan biri bu – yalpi ichki mahsulot (YaIM)dir. Uning to'g'ri va aniq hisoblanishi har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, uning jahon hamjamiyatiga kirib borish imkoniyati hamda jahon iqtisodiyotidagi tutgan o'rnini belgilab beradi. Shu sababli YaIM harakat shakllarini chuqur o'rganish, tahlil qilish va shu asosda hisobchilik tizimini takomillashtirishni obyektiv zarurdir.

YaIMning takror ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha harakati Ushbu ko'rsatkichni hisoblashning uchta usulidan foydalanishni taqozo qiladi:

1. Qo'shilgan qiymatlar (ishlab chiqarish) usuli.
2. Harajatlar (pirovard iste'mol) usuli.
3. Daromadlar (taqsimlash) usuli.

Bu uchala usulni qo'llash YaIM harakatining barcha fazalarini (davrlarini) kompleks tadqiq qilishga, daromadlardan foydalanish hamda ularni shakllantirish jarayonlarini o'rganishga yordam beradi.⁸

⁸ Q.Q.Mambetjanov Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy hisoblar tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2012-y. 26-b.

Qo‘shilgan qiymat usuli bo‘yicha hisoblangan YaIM hajmi yahlit iqtisodiyotning tarkibiga kiruvchi alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi o‘rni va hissasini aniqlashga yordam beradi.

Qo‘shilgan qiymat bu – korxonada yalpi mahsulotidan ularni yaratishda ishlab chiqarish jarayonida sarflangan joriy xarajatlarni ayirib tashlangandan keyin qoladigan qismidir. Ya’ni:


$$QQ = YaM - Or.M \quad (1)^9$$

Bu yerda: QQ – qo‘shilgan qiymat; YaM – yalpi mahsulot; Or.M – oraliq mahsulot.

Tadqiqotlar hozirgi kungacha mavjud bo‘lgan iqtisodiy qarashlarda qiymat, qo‘shilgan qiymat va qo‘shimcha qiymat tushunchalarining bir-biridan farqlanish mezonlari chuqur o‘rganilmaganligini ko‘rsatdi.

Bizning fikrimizcha, qiymat bu – yaratilgan tovar yoki xizmat nafiligi va unga sarflangan mehnat sarflarining puldagi ko‘rinishidir. Qo‘shilgan qiymat esa, qiymatning tarkibiy qismi hisoblanib, u ishlab chiqaruvchi tomonidan yangidan yaratilgan qiymatdir. Qo‘shimcha qiymat esa, qo‘shilgan qiymat tarkibiy qismining bitta unsuri, ya’ni, foyda, boshqacha aytganda, qo‘shimcha mahsulotning sotilgan qismi xolos. Qiymat ham, qo‘shilgan qiymat ham ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida yaratiladi. Qo‘shimcha qiymat esa, faqat ayriboshlash jarayonida shakllanadi. Qiymat va qo‘shilgan qiymatning umumiy va farqli tomonlari hamda ularni tashkil qiluvchi unsurlarni quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin (1.3.1-rasm).

Qo‘shilgan qiymatdan ishchi kuchi – ish haqi, tadbirkor – foyda (foiz), davlat soliq shaklida o‘z ulushini oladi.



1.3.1-rasm. Qo‘shilgan qiymat unsurlari¹⁰

YaIMni qo‘shilgan qiymatlar usuli bo‘yicha hisoblash – iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlaridagi qo‘shilgan qiymatlar hamda mahsulotlarga sof soliqlarni jamlashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ushbu usul bilan hisoblangan YaIM hajmi iqtisodiyot tarkibiga kiruvchi alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi o‘rni va hissasini aniqlashga yordam beradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakatimizda yaratilayotgan YaIMning tarkibida sanoat (qurilishni qo‘shgan holda), qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarning o‘rni va hissasi salmoqli o‘rinni egallaydi (1.3.1-jadval).

⁹ O‘sha manbaa.

¹⁰ Mualliflar ishlanmasi

1.3.1-jadval
O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning ishlab chiqarish tarkibi, foizda¹¹

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	
YaIM, jami:	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	87,5	89,4	90,8	91,4	91,7	91,8	91,4	91,2	89,5	
Mahsulotlarga sof soliqlar	12,5	10,6	9,2	8,6	8,3	8,2	8,6	8,8	10,5	
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymat:	100	100	100	100	100	100	100	100	100	
Ulardan:										
Sanoat (qurilish bilan)	23,1	29,1	33,3	32,8	32,4	32,4	32,6	33,0	32,9	
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	34,4	29,5	19,8	19,4	19,2	19,0	18,9	18,3	18,1	
Xizmatlar sohasi	42,5	41,4	46,9	47,8	48,4	48,6	48,5	48,7	49,0	

1.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, hukumatimiz tomonidan iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilganligi natijasida sanoat (qurilishni qo'shgan holda) ishlab chiqarishining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yilda 23,1 foizdan 2010-yilda 33,3 foizga, 2016-yilda esa, 32,9 foizga qadar oshdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi salmog'ining 2000-yildagi 34,4 foizdan 2010-yilda 19,8 foizga, 2016-yilda esa, 18,1 foizga qadar pasayishi mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibining takomillashib, unda sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi yildan yilga oshib borayotganligini anglatadi. Shu bilan birgalikda yalpi ichki mahsulot tarkibidagi sof soliqlar hissasining 2010-yildagi 12,5 foizdan 2016-yilga kelib 10,4 foizga qadar qisqarganligi mamlakatda soliq yukining tobora pasayib borayotganligi ko'rsatadi.

¹¹ <https://stat.uz/uz/statinfo/milliy-hisoblar/2072-2000-2016-yillar-uchun-iqtisodiy-faoliyat-turlari-kesimida-o-zbekiston-respublikasining-yalpi-ichki-mahsuloti-hajmi> – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti

YaIM real hajmining o'sishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishini umumlashtirgan holda aks ettiruvchi, aholining o'sib va o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini, turmush sifatini yaxshilash qobiliyatini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiy o'sishni uning mezonlari bo'yicha turlarga ajratib o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sish mezonlarini aniqlash bo'yicha qator tadbirlar ishlab chiqildi¹². Shularni hisobga olgan holda, bizning fikrimizcha, iqtisodiy o'sishni uning mezonlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Sekinlashgan iqtisodiy o'sish (2% dan past);
2. Mo'tadil iqtisodiy o'sish (2%-4%);
3. O'rtacha iqtisodiy o'sish (4%-6%);
4. Barqaror iqtisodiy o'sish (6% dan yuqori).¹³

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda 2005–2016-yillarda barqaror iqtisodiy o'sishga erishildi (1.3.2-jadval).

1.3.2-jadval
Iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'sish sur'atlari (foizda)¹⁴

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	
YaIM	103,8	107,0	108,5	108,3	108,2	108,0	108,0	107,9	106,8	
Sanoat (qurilish bilan birga)	101,8	105,3	105,6	104,8	107,0	109,2	107,9	108,2	105,6	
Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi	103,2	105,9	106,7	106,9	107,2	106,8	106,9	106,8	106,8	
Xizmat ko'rsatish	105,4	107,6	111,0	111,4	109,3	107,8	108,5	108,4	108,1	

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011–2015-yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yana-da chuqurlashtirish chorolari to'g'risida"gi 2011-yil 7-yanvardagi №PP-1464 sonli qarori.

¹³ Q.Q. Mambetjanov Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarining milliy hisoblar tizimiga ta'siri. – T.: "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali. 2016-y. №9 son.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

1.3.2-jadval ma'lumotlariga asoslanib, O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotini 2000-yildan keyingi davrlarda ikkita bosqichga bo'lish mumkin: birinchi bosqich – 2000–2004-yillardagi o'rtacha iqtisodiy o'sish (YaIM 4–4,5 foizga) erishilgan davr; ikkinchi bosqich – 2005–2016-yillar keyingi barqaror iqtisodiy o'sish davri (kamida 7 foiz). Mamlakatimizda oldingi-yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati sanoatda 5,6 foiz, qishloq xo'jaligida 6,8 foiz va xizmat ko'rsatish sohalarda 8,1 foizga teng bo'ldi. Hozirgi murakkab sharoitda Respublikada bunday ijobiy natijalarning qo'lga kiritilishi puxta o'ylangan, eksportga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy siyosatning to'g'ri olib borilishi, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida chuqur tarkibiy o'zgarishlarning izchilligini ta'minlayotgan qulay investitsion muhitning mavjudligi, oqilona byudjet-soliq siyosati kabi qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasidir.

Hozirgi kunda YaIMni qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblash jarayoni korxonalar va tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan rasmiy ma'lumot hamda turli xildagi majburiy hisobotlar asosida amalga oshirilmoqda. YaIMning bu usulini tanlash mavjud axborot bazasining xususiyatlari va uning ishonchliligi bilan bog'langan. Biroq, ilmiy kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, ushbu usul hisob-kitob ishlarida muayyan kamchiliklarga ega.

Birinchidan, xizmat ko'rsatish sohasining axborot ta'minoti yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Natijada bu sohaning ulushi yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini to'liq topmayapti.

Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohasini ifodalab beruvchi turli xil hisobot shakllari talab darajasida ishlab chiqilmagan, bu esa, ularning faoliyatini to'laligicha o'rganish imkoniyatini bermayapti.

Bugungi kunda Respublikamizda bozor xizmatlaridan farqli o'larok nobozor xizmatlarining qiymati ishlab chiqarish xarajatlari va asosiy vositalarning eskirishi hajmida hisoblanadi. Buning natijasida esa, nobozor xizmatlarini ko'rsatuvchi iqtisodiyot subyektlarining qo'shimcha mahsuloti sotilmagan bo'lib qoladi. Bir qator nobozor xizmatlarini ko'rsatuvchi sohalarda ko'rsatgan xizmatlarining

qiymati to'g'ri hisoblanmasligi evaziga mamlakatda yaratilayotgan YaIM hajmini buzib ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, YaIM hajmini qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblash jarayonida nobozor xizmatlarining hajmini xuddi bozor xizmatlari hajmini hisoblagandek yondashishimiz zarur. Foyda miqdorini esa xuddi shu tur xizmatlar ko'rsatilayotgan sohalarda olinayotgan foyda bilan shartli ravishda teng deb olish kerak.

Bundan tashqari, hozirgi kunda mutaxassislar orasida munozarali bo'lgan bitta jihatni aytib o'tishimiz zarur. Bir qator xizmatlar o'zlarining xarajatlarini qoplamaydi. Masalan, uy-joy xo'jaliklarining xizmatlarini oladigan bo'lsak, turar joy fondining xarajatlarini shu turar joylardan keladigan ijara va boshqa to'lovlar to'liq qoplamaydi. Shuning uchun ushbu sohalarda yaratilayotgan xizmatlar qiymati YaIM miqdorining sun'iy kamaytirilib ko'rsatilishining oldini olish uchun turar joy ijara haqi va boshqa to'lovlarni haqiqiy xarajatlar miqdorida belgilash zarur.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda norasmiy faoliyat (oilaviy biznes, magazinlar, yordamchi xo'jalik, yakka tartibdagi mehnat faoliyati kabilar) sohasi ham sezilarli darajada kengaydi. Iqtisodiyotning norasmiy sektori tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish bo'yicha ochiq faoliyat yurituvchi sektor hisoblanadi, lekin ular muntazam ravishda tegishli statistik hisobotlarni topshirmasligi sababli ushbu faoliyat natijalarini hisobga olish imkoniyati cheklangan. Bu esa, YaIM hajmi va uning dinamikasini aniq baholash imkoniyatini bermaydi, buning oqibatida esa hufyona va norasmiy iqtisodiy faoliyat natijalari yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topmaydi.

Bizning fikrimizcha, norasmiy faoliyat yurituvchi iqtisodiyot subyektlarining ishlab chiqarish natijalarini tanlama uslubni yanada takomillashtirish orqali hisobga olish zarur.

YaIM hajmini qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblash jarayonida ko'pchilik iqtisodchilar ishlab chiqarish sohasiga uy bekalarining ko'rsatadigan uy yumush xizmatlarini ham kiritishni

taklif qilishadi. Bular – kir yuvish, ovqat tayyorlash, uy-joy hamda uy jihozlarini toza holda tutish, bola tarbiyasi va shu kabi xizmatlardir. Ularning fikricha bunday xizmat turlarini shartli ravishda bozor baholarida hisobga olish kerak va ularning qiymatini ham YaIM tarkibiga kiritish zarurdir. Aks holda mamlakatda yaratilgan YaIM hajmi sun'iy ravishda kamaytirilib ko'rsatiladi.¹⁵

Bizning fikrimizcha, uy bekalarining bunday xizmatlarini YaIM hajmini hisoblaganda e'tiborga olmaslik kerak. Chunki ular juda katta hajmda ko'rsatiladigan nobozor (pulsiz) xizmatlar bo'lib, shartli ravishda pulda o'lchanadigan bo'lsa, bozor iqtisodiyotining natijaviy ko'rsatkichlariga putur yetkazadi, ya'ni ularning tarkibida shartli ravishda pulda o'lchanadigan nobozor xizmatlar salmog'i haddan tashqari oshib ketadi. Bu esa YaIM hajmining sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilishiga olib keladi.¹⁶

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari sanoat tarmoqlarida diversifikatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Diversifikatsiya – yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovar va xizmatlar hajmi hamda ular assortimentining kengayish jarayonidir. Uning darajasini MHT tamoyillari asosida hisoblash hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, Respublikamizda diversifikatsiya darajasini hisoblash ishlarini amaliyotga kiritish iqtisodiy hodisa va jarayonlarning o'zgarish tendensiyalarini o'rganishda, sanoatning tarmoq va sohalari o'rtasidagi mutanosiblik hamda muvozanatlikni tahlil qilishda, istiqboldagi vazifalarni belgilashda juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun diversifikatsiya darajasini bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali har tomonlama baholash maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi quyidagilardan iborat:

¹⁵ K.R.Makkonell, S.L.Bryu «Экономикс» 14-ое издание, учебник. -М.: Инфра, 2002. стр. 151..

¹⁶ Q.Q.Mambetjanov O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlarini qo'shilgan qiymatlar bo'yicha aks ettirishdagi asosiy muammolar. Real sektorda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda innovatsion texnologiyalar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqola va tezislar to'plami. – T.: "TDIU". 07.04.2017-y. 150-152-b.

Yalpi ichki mahsulot tarkibida qo'shilgan qiymat ulushini ifodalovchi ko'rsatkich. Ushbu ko'rsatkich yahlit iqtisodiyot va uning tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatning yalpi ichki mahsulotga nisbati orqali aniqlanadi:

$$Q.Q.u = (QQ/YaIM)*100 \quad (1)^{17}$$

Bu yerda: Q.Q.u – yalpi ichki mahsulot tarkibida qo'shilgan qiymat ulushi;

QQ – qo'shilgan qiymat;

YaIM – yalpi ichki mahsulot.

Iqtisodiyotning tarmoq va sohalorida yaratilgan yalpi mahsulot tarkibida qo'shilgan qiymatning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, modernizatsiya darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi yoki aksincha.

Sanoat tarmoqlaridagi diversifikatsiyalashuv darajasining ma'lum mezonlar asosida baholanishi istiqboldagi vazifalarni belgilab olishda muhim ahamiyatga ega. Uning darajasini quyidagi mezonlar asosida guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Diversifikatsiyaning past darajasi (20% dan past);
2. Diversifikatsiyaning mo'tadil darajasi (20% dan 50% gacha);
3. Diversifikatsiyaning o'rtacha darajasi (50% dan 60% gacha);
4. Diversifikatsiyaning yuqori darajasi (60% dan yuqori).¹⁸

Diversifikatsiya darajasining keyingi ko'rsatkichi bu – yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida yangi turdagi tovar va xizmatlarning ulushidir. Yangi turdagi tovar va xizmatlar – korxonalar tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, modernizatsiyalash natijasida yaratilgan mahsulotlardir.

Yalpi ichki mahsulot tarkibida yangi turdagi tovar va xizmatlarning ulushi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

¹⁷ Q.Q. Mambetjanov Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarining milliy hisoblar tizimiga ta'siri. – T.: "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali. 2016-y. №9 son.

¹⁸ Q.Q. Mambetjanov Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarining milliy hisoblar tizimiga ta'siri. – T.: "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali. 2016-y. №9 son.

$$YATXU = (YATXQ/YaIM)*100 \quad (2)^{19}$$

Bu yerda: YATXU – ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot tarkibida yangi turdagi tovar va xizmatlarning ulushi; YATXQ – yangi turdagi mahsulot qiymati; YaIM – yalpi ichki mahsulot.

YaIM tarkibida yangi turdagi tovar va xizmatlarning ulushi ularning darajasi bo'yicha quyidagi mezonlar asosida guruhlanishi maqsadga muvofiqdir:

1. Past daraja (15% dan past);
2. Mo'tadil daraja (15% dan 20% gacha);
3. O'rtacha daraja (20% dan 30% gacha);
4. Yuqori daraja (30% dan yuqori).²⁰

Yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini kengaytirish ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash dasturlari va chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Muayyan davrda mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmida yangi turdagi tovar va xizmatlar ulushining ortishi tarmoqda ular nomenklaturasi tarkibida ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotgani hamda diversifikatsiya jarayonlarining chuqurlashayotganini bildiradi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari natijasida sanoat tarmoqlarining asosiy kapital uchun investitsiya kiritishi va texnik-texnologik jihatdan qayta qurollanishi yana-da jadallashadi.

Korxonalarini texnik-texnologik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiyalashga kiritilgan investitsiyalar darajasi quyidagi mezonlar asosida guruhlariga bo'linadi:

1. Past daraja (4% dan past);
2. Mo'tadil daraja (4% dan 10% gacha);
3. O'rtacha daraja (10% dan 15% gacha);
4. Yuqori daraja (15% dan yuqori).²¹

¹⁹ Q.Q. Mambetjanov Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarining milliy hisoblar tizimiga ta'siri. – T.: "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali. 2016-y. №9 son

²⁰ Q.Q. Mambetjanov Yalpi ichki mahsulot tarkibiy qismlari va harakat shakllarining amal qilish qonuniyatlari. "Moliya" ilmiy jurnali. 2018-yil, №1-son.

²¹ Q.Q. Mambetjanov Yalpi ichki mahsulot tarkibiy qismlari va harakat shakllarining amal qilish qonuniyatlari. "Moliya" ilmiy jurnali. 2018-yil, №1-son

YaIMni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblaganda – iqtisodiyot subyektlari, ya'ni, uy xo'jaliklari, davlat va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat (ijtimoiy) tashkilotlarining pirovard iste'mol uchun qilgan barcha xarajatlari umumlashtiriladi. Bundan tashqari, yalpi jamg'arma, tovar va xizmatlarning eksport – importi qoldig'i ham hisobga olinadi, ya'ni:

$$YaIM = \sum PI + YAJ + EIQ \quad (1)^{22}$$

Bu yerda: PI – pirovard iste'mol; YAJ – yalpi jamg'arma; EIQ – tovar va xizmatlarning eksport – importi qoldig'i.

1.3.3-jadval

Pirovad iste'mol xarajatlari, yalpi jamg'arma va sof eksportning asosiy unsurlari²³

I. Pirovad iste'mol harajatlari	
1.	Uy xo'jaliklarining shaxsiy iste'mol uchun harajatlari.
2.	Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarining aholining shaxsiy iste'molini qondirish uchun qiladigan harajatlari.
3.	Davlat muassasalarining aholining shaxsiy iste'molini qondirish uchun qiladigan harajatlari.
4.	Davlat muassasalarining aholining jamoaviy iste'molini qondirish uchun qiladigan harajatlari.
II. Yalpi jamg'arma	
1.	Asosiy kapital yalpi jamg'armasi.
2.	Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarning o'zgarishi.
a)	Zahiralar (yil boshiga) (plyus)
b)	Zahiralar (yil oxiriga) (minus)
3.	Sof xarid qilingan qimmatbaho buyumlar.
a)	Harid qilingan qimmatbaho buyumlar (plyus)
b)	Sotilgan qimmatbaho buyumlar (minus)
III. Tovar va xizmatlarning sof eksporti	
1.	Tovar va xizmatlarning eksporti (plyus)
2.	Tovar va xizmatlarning importi (minus)
YALPI ICHKI MAHSULOT	

²² Q.Q. Mambetjanov Yalpi ichki mahsulotni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblash usullarini takomillashtirish. "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali. T.: 2017-yil, №9-son

²³ O'sha manba.

Iqtisodiyot barcha subyektlarining pirovard iste'mol uchun xarajatlari, yalpi jamg'arma va sof eksport turli xil unsurlardan tashkil topadi. Ushbu unsurlarni 1.3.3-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Uy xo'jaliklarining pirovard iste'mol uchun xarajatlari bu – ularning o'z iste'moli uchun bozorda turli xil tovar va xizmatlar sotib olishga, turar joy uchun har xil to'lovlarga qilingan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatda uy xo'jaliklarining pirovard iste'mol xarajatlari darajasidan kelib chiqqan holda o'sha mamlakatning rivojlanganlik darajasiga ham baho berish mumkin. Ayniqsa, pirovard iste'mol xarajatlari tarkibidagi nisbatdan aholining turmush farovonligini bilish mushkul emas. (1.3.4-jadval)

1.3.4-jadval

YaIMning pirovard iste'mol yo'nalishlari bo'yicha tarkibi²⁴

	1991y.	1995y.	2000y.	2005y.	2010y.	2016y.
YaIM – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Pirovard iste'mol xarajatlari	77,0	72,9	80,6	64,3	64,8	74,4
uy xo'jaliklari	54,9	50,1	60,9	47,4	47,9	57,5
davlat boshqaruvi organlari	20,7	22,3	18,7	15,9	15,8	16,1
UXKNT	1,4	0,5	1,0	1,0	1,1	0,8
Yalpi jamg'arilish	26,8	24,2	19,6	28,0	26,6	24,9
asosiy kapitalning yalpi jamg'arilish	25,1	33,0	24,0	22,0	27,3	27,8
moddiy aylanma vositalari zaxirasining o'zgarishi	1,7	-8,8	-4,4	6,0	-0,7	-2,9
Tovar va xizmatlar eksport-importi saldosi	-3,8	2,9	-0,2	7,7	8,6	0,7
Eksport	35,3	31,6	26,5	37,9	33,1	18,8
Import	39,1	28,7	26,7	30,2	24,5	18,1

1.3.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, pirovard iste'mol xarajatlaridagi asosiy ulush uy xo'jaliklari hissasiga to'g'ri

²⁴ <http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1451-makroiqtisodiy-ko-rsatkichlari-tahlili>

keladi va ularning salmog'i 1991–2016-yillarda 44 foizdan 63 foizgacha tashkil yetdi.

Kuzatilayotgan davrda YaIM tarkibida davlat muassasalarining pirovard iste'molga qilgan xarajatlari ulushi sezilarli darajada o'zgarib turdi va 1991-yildagi 20,7 foizdan 2016-yilda 16,1 foizga kamayish tendensiyasiga ega bo'ldi.

Notijorat tashkilotlari tomonidan uy xo'jaliklariga ko'rsatilgan nobozor xizmatlarining YaIMdagi ulushi o'rtacha 1,1 foizni tashkil yetadi.

Yalpi jamg'arilish asosiy fondlar va moddiy aylanma vositalari o'sishini ifodalaydi. 1991–2016-yillarda yalpi jamg'arilishning ulushi barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lib, YaIMning o'rtacha 25 foizini tashkil qildi. Yalpi jamg'arilishning asosiy ulushini asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi tashkil qilib, iqtisodiyotda investitsion faollikni ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkichning ulushi 1991-yildagi 25,1 foizdan 2016-yilda 27,8 foizgacha o'sdi.

Kuzatilayotgan davr mobaynida tovarlar va xizmatlar sof eksportining YaIMdagi ulushi o'rtacha 2 foizni tashkil qildi (eksport 30,5%, import 28,5%).²⁵

Hozirgi kunda aholining iste'mol hajmiga ular qo'lga kiritgan uzoq muddat iste'mol qilinadigan barcha buyumlarning qiymati kiritilgan.

Bizning fikrimizcha – iste'mol hajmiga uzoq muddat iste'mol qilinadigan buyumlar qiymatining barchasini emas, balki ularning ma'lum qismini, ya'ni shu yilda iste'mol qilinadigan qismini kiritish maqsadga muvofiq bo'lardi. Iste'mol hajmini belgilashning bunday usuli shaxsiy uy-joy eskirishini belgilashda tadbiiq qilinadi. Iste'mol xarakteri nuqtai nazaridan qaraganda, uy-joyning iste'mol qilinishi, uzoq muddat iste'mol qilinadigan tovarlarning iste'mol qilinishidan farq qilmaydi. Shuning uchun ham bu usulni qo'llash asoslidir. Iste'mol tarkibida uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarning faqat

²⁵ <http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1451-makroiqtisodiy-ko-rsatkichlari-tahlili>

yillik amortizatsiyasini hisobga oladigan bo'lsak, aholining yakuniy iste'mol hajmi kamayadi va jamg'arma qismi oshadi.²⁶

Aholi turmush tarzining sifat jihatdan yaxshilanishida, ularning ma'naviy, madaniy, siyosiy, diniy va shu kabi bir qator ehtiyojlarining qondirilishida uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarining o'rni beqiyosdir. Shu sababli MHTda ushbu tashkilotlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari sektori bu – uy xo'jaliklarining ayrim guruhlariga bepul xizmat ko'rsatadigan iqtisodiy bo'g'inlardir. Bularga, sog'liqni saqlash, ta'lim, san'at va madaniy xizmat qilish, diniy nazorat, dam olish tashkilotlari, kasaba uyushmalari va boshqalar kiradi. Ular davlat tomonidan moliyalashtirilmaydigan hamda nazorat qilinmaydigan tashkilotlar hisoblanadi. Bu tashkilotlarning moliyaviy resurslari turli xil hayriyalar, uy xo'jaliklarining to'lovlari va mulkdan keladigan daromadlardan iborat.

Hozirgi kunda mamlakatimizda uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari tarkibiga kiruvchi iqtisodiy bo'g'inlarni hisobga olishda bir qator muammolar mavjud. Bu notijorat tashkilotlarining ayrimlarini ushbu sektorga kiritish yoki kiritmaslik masalalari bilan bog'liq. Shu yerda ayrim turdagi notijorat tashkilotlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Notijorat tashkilotlari – bu asosiy maqsadi foyda olish bo'lmagan tovar yoki xizmatlar ishlab chiqaruvchi tashkilotlardir. Bunday tashkilotlarning moliyalashtirilishi va nazorat qilinishi jismoniy yoki huquqiy shaxslar, turli xil korporatsiyalar hamda davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Notijorat tashkilotlari bozor yoki nobozor tashkilotlari ham bo'lishi mumkin. Ularning u yoki bu tashkilot turiga kiritilishi ularning moliyaviy xarajatlarining qoplanish tavsifiga bog'liq bo'ladi.

²⁶ Q.Q.Mambetjanov Yalpi ichki mahsulotni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblash usullarini takomillashtirish. "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali. T.: 2017-yil, №9-son

Bizning fikrimizcha, notijorat tashkilotlarini sektorlar bo'yicha guruhlashda (uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlaridan boshqa) ularning tashkilotchilari qaysi sektorda bo'lsa, o'sha sektorga kiritish kerak. Faqatgina uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari alohida sektor sifatida amal qilishi maqsadga muvofiqdir.²⁷

Davlat boshqaruv muassasalari sektori bu – foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan, har xil byudjet tashkilotlari va muassasalari sifatida namoyon bo'ladigan bo'g'indir.

Ushbu sektorning eng asosiy vazifasi iqtisodiyotni tartibga solish, uning barqaror rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'lganligi sababli turli xil sohalarda o'ziga xos dasturlarni ishlab chiqadi va uning amaliyotdagi ijrosini ta'minlaydi.

Davlat muassasalarining pirovard iste'mol uchun qiladigan xarajatlari aholining ham shaxsiy, ham jamoa iste'molini qondirish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvi organlarining pirovard iste'molga qilgan xarajatlari ikki asosiy guruhga bo'linadi:

- a) yakka tartibdagi tovarlar va xizmatlarga ketgan xarajatlar;
- b) jamoa xizmatlariga ketgan xarajatlar.

Yakka tartibdagi tovarlar va xizmatlarga qilingan xarajatlar yakka tartibdagi iste'mol uchun mo'ljallangan va davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar tomonidan moliyalashtiriladigan davlat muassasalarining iste'mol tovarlari va xizmatlariga (sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot, madaniyat va sport muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan nobozor xizmatlar) qilgan xarajatlaridan tashkil topadi.

Jamoa ehtiyojlarni qondiruvchi davlat muassasalarining yakuniy iste'molga qilgan xarajatlari korxonalar va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiluvchi, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriluvchi

²⁷ Q.Q.Mambetjanov Yalpi ichki mahsulotni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblash usullarini takomillashtirish. "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali. T.: 2017-yil, №9-son

xizmatlarni o'z ichiga oladi. Bu xizmatlar faqat alohida uy xo'jaliklarining ehtiyojlarini emas, balki butun jamiyat yoki aholining ayrim guruhlari ehtiyojlarini ham qondiradi (mudofaa, umumiy davlat boshqaruvi, shosse xo'jaligi, shuningdek ilm-fan, aholi punktlarini obodonlashtirishga qilingan xarajatlar va boshqalar).

Fikrimizcha, mamlakatda YaIMni xarajatlar usuli bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy nizomda²⁸ yalpi jamg'arma unsurlari to'liq hisobga olinmagan. Yalpi jamg'arma tarkibiga nizomda ko'rsatilgan unsurlar bilan birgalikda sof harid qilingan qimmatbaho buyumlar qiymatini ham kiritish maqadga muvofiqdir. Ularga qimmatbaho tosh va metallar, antikvariatlar, asar va rasmlar, badiiy ishlanma kabilar kiradi. Lekin bu, ularning hammasini qimmatbaho buyumlar sifatida korxonalar balansida ko'rsatish kerak, degani emas. Chunki ulardan daromad olishning imkoni bo'lmay qoladigan vaziyatlar ham uchrab turadi. Shuning uchun ham ular turkumiga faqat daromad olishni mo'ljallab, investitsiyalarga muqobil variant sifatida harid qilingan qimmatbaho buyumlarni kiritish zarur. Real hayotda investorlar bozorda moliyaviy aktivlar narxlarini o'zgaruvchan bo'lib qolgan vaziyatlarda daromad olish maqsadida ularni emas, balki, oltin yoki boshqa qimmatbaho toshlarni harid qilishni ma'qul ko'rishadi. Nafaqat investorlar, balki, uy xo'jaliklari ham qimmatbaho buyumlarni kelajakda daromad olish va eng asosiysi, naqd pul mablag'lariga zarur bo'lib qolgan paytda tezda almashtirish maqsadida harid qilishadi.²⁹

Asosiy fondlar yalpi jamg'armasi mamlakatda yaratilayotgan YaIM hajmiga juda katta ta'sir qiladigan omillardan sanaladi. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqotlar uchun xarajatlarni YaIM tarkibida yangicha talqin qilish mamlakatning iqtisodiy salohiyatini namoyon qilishda, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini xalqaro taqqoslashda hamda jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2011-yil 1-apreldagi qaroriga asosan ishlab chiqilgan "Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom".

²⁹ Q.Q.Mambetjanov Yalpi ichki mahsulotni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblash usullarini takomillashtirish. "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali. T.: 2017-yil, №9-son

Ilmiy-tadqiqot bilan bog'liq bo'lgan faoliyat – bu insoniyat va jamiyat rivojlanishida turli xildagi ixtirolarni yaratish hamda ularni hayotga tadbiq etish bilan bog'liq bo'lgan, muntazam ravishda bilim, ko'nikma va malakani oshirib borishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyatdir. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining hajmi bozor va nobozor ishlab chiqaruvchilari tomonidan muayyan subyektlarning buyurtmalari yoki o'z tashabbuslariga asosan olib boriladigan tadqiqot ishlarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz statistika amaliyotida ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining hajmi, ya'ni shu sohaga qilingan xarajatlar oraliq iste'mol sifatida hisobga olinadi. Bu esa, o'z navbatida, YaIM tarkibida ushbu xarajatlarning hisobga olinmasligiga sabab bo'ladi. Natijada pirovard iste'mol bo'yicha YaIM hajmi past darajada namoyon bo'ladi. Vaholanki, ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari (bilim, ko'nikma va malaka zahiralari) kelgusidagi iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratadi.

Bizning fikrimizcha, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini, ya'ni shu sohaga qilingan sarf-xarajatlarni mamlakatimiz milliy hisoblar tizimida aks ettirishga boshqacharoq yondashish zarur. Ushbu sohaga qilingan xarajatlarni xuddi bino-inshoot, texnika-texnologiya, kompyuter dasturlari va shu kabilarga qilingan sarflar singari asosiy kapitalning yalpi jamg'armasi sifatida hisobga olish zarur. Chunki ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalaridan ham ishlab chiqarish jarayonida uzoq-yillar davomida bir necha bor foydalanish mumkin. Lekin ayrim yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar ham borki, ular o'z egasi yoki butun bir jamiyatga ma'naviy tomondan nafli bo'lsada, iqtisodiy foyda olib kelmaydi. Ular uchun qilinadigan xarajatlarni oraliq iste'mol sifatida hisobga olishni davom qildirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, harbiy sohadagi qurol-aslaha va ularni yetkazib beruvchi vositalar uchun qilingan xarajatlar kapital jamg'arish sifatida emas, balki davlat boshqaruv organlarining oraliq iste'moli shaklida hisobga olinadi.

Bizning fikrimizcha, agarda harbiy sohadagi qurol-aslaha va ularni yetkazib beruvchi vositalar bir-yildan ortiq muddat xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lsa, u holda ularga qilingan xarajatlarni asosiy kapital yalpi jamg'armasi sifatida hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tavsiyalarning ahamiyati shundaki, pirovard iste'mol bo'yicha yalpi ichki mahsulotni hisoblash jarayonida yalpi jamg'arma hajmining oshishi hisobiga YaIM miqdori ham sezilarli darajada bo'yicha hisoblaganda iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida hosil bo'lgan yalpi jamg'arma ko'rsatkichi ham hisobga olinadi. YaAlpi jamg'arma asosiy fondlar yalpi jamg'armasi, moddiy aylanma vositalar o'sadi. Bu esa, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yana-da yorqinroq namoyon etishga yordam beradi.³⁰

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy taraqqiyot, ekstensiv iqtisodiy o'sish, intensiv iqtisodiy o'sish, iqtisodiy o'sish omillari, iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlari, iqtisodiy resurslar, uslubiyat, ilmiy bilish tamoyillari.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. «O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fanining predmeti nimadan iborat?
2. Ushbu fan boshqa iqtisodiy fanlar ichida qanday o'rin tutadi?
3. «O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fanining qanday vazifalari mavjud?
4. Ushbu fan vazifalarining bugungi kundagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Ushbu fanni o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi?

³⁰ Q.Q.Mambetjanov Yalpi ichki mahsulotni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblash usullarini takomillashtirish. "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali. T.: 2017-yil, №9-son

2-MAVZU. IQTISODIY RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi klassik nazariyalar

Iqtisodiy rivojlanish to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun, eng avvalo, ushbu tushunchaga oid nazariya va qarashlarni chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli mazkur bobning tahlili iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi turli xil qarashlar, nazariya va g'oyalalar, qolaversa, mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish nazariyalarining vujudga kelishi va shakllanishini bayon qilish bilan boshlanadi. Tahlil davomida iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha A.Smit, A.Marshall, J.Keynslarning hamda hozirgi zamon monetarizmi, institutsionalizm va liberalizm oqimlari namoyondalari qarashlarining mazmun-mohiyatini yoritib berishga ham o'rin ajratiladi.

XVIII asr o'rtalarida Angliya boshqa mamlakatlarga nisbatan manufakturadan fabrikaga o'tishga yaqin turar edi. Angliya sanoat inqilobi arafasida edi. Mamlakatning sanoat mahsulotlari jahon bozorida yuqori baholangan va talab tobora ortgan, ammo davlat tomonidan kiritilgan savdo-sotiqdagi proteksionizm siyosati, feodalizm davridagi bir qancha tartib va cheklashlar, qonunlar davr talabiga javob bermay qo'ydi, ularning borligi kapitalizm rivojiga to'sqinlik qilar edi.

Angliya sanoati egalari erkin sohibkorlik faoliyatini kuchaytirishni, feodalizm qoldiqlarini tugatishni talab qilardi. Shu sababli sohibkorlar sinfi yangi kapitalistik ishlab chiqarish usulini ilmiy jihatdan to'la tahlil qiladigan iqtisodiy ta'limotlarga muhtoj edi.

Shunday qilib, XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi choragida Buyuk Britaniyada boshqa davlatlarga nisbatan iqtisodiy g'oyalarning rivojlanishi uchun nihoyatda qulay sharoitlar yuzaga keldi, bu g'oyalalar A.Smit ta'limotida o'z aksini topdi.

A.Smit merkantilizm, ilk klassik maktab va fiziokratizm g'oyalari mukammal o'rganib, shular asosida yangi iqtisodiy maktabning shakllanishini nihoyasiga yetkazdi. Aslini olganda u bozor iqtisodiyoti asosini yaratdi.

A.Smit 1766-yilda o'zining bosh asari – «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot»ni yozishga kirishdi, bu asar 1776-yil martda Londonda chop etildi. Asarda insoniyat tomonidan ilgari yaratilgan iqtisodiy bilimlar mujassamlashtirildi va umumiy nazariy tamoyillar asosida nisbatan batartib iqtisodiy fanlar tizimiga aylandi.

Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti va uning moddiy turmush darajasini oshirish muammolari A.Smit tadqiqotining predmetini tashkil yetadi. Qanday shart-sharoitlarda va qanday qilib insonlar yuqoriroq moddiy turmush darajasiga erisha oladilar degan fikr asarning asosiy g'oyasini aks ettiradi.

Iqtisodiy taraqqiyot bilan sanoat tovarlari narxi pasayish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxi esa o'sish tendensiyasiga ega deb hisoblaydi.

Iqtisodiy taraqqiyotning shaxsiy manfaat va stixiyali qonunlarning o'zaro nihoyatda samarali harakati sharoitlarini A.Smit «*tabiiy tartib*» deb atagan. A.Smit va uning izdoshlari bu tushuncha bir tomondan iqtisodiy siyosatning tamoyili va maqsadi bo'lsa, ikkinchi tomondan bu iqtisodiy harakatni o'rganish uchun nazariy konstruktsiya yoki modeldir deb tushunishgan. Demak, jamiyatga naf keltiruvchi faoliyatni biror harakat bilan cheklamaslik kerak, degan xulosa chiqariladi. Bu tamoyilga ko'ra quyidagilar taklif etiladi:

- ishchi kuchining erkin harakati;
- savdoda (yer savdosida ham) to'la erkinlik;
- sanoat va ichki savdoni hukumat tomonidan reglamentatsiya qilishga qat'iy qarshilik;
- erkin tashqi savdo (proteksionizmga qarshi).

Olimning bu g'oyalari keyinchalik to'la amalga oshdi.

A.Smitning iqtisodiy qarashlari asosida shunday g'oya yotadiki, unga ko'ra jamiyat boyligi ishlab chiqarish jarayonida mehnat tufayli paydo bo'ladi. U kapitalistik ishlab chiqarishning manufaktura bosqichini tahlil qilish asosida iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili mehnat taqsimotidir, degan xulosaga keldi va buni o'z tadqiqotlarining boshlang'ich punkti deb qabul qildi.

Smit foyda normasi va foizning past darajasini iqtisodiy rivojlanish va «millatning ravnaqi» ko'rsatkichi deb xarakterladi, ammo foyda normasining pasayib borish tendensiyasini tushuntirib bera olmadi.

A.Smit erkin raqobat davridagi Buyuk Britaniyadagi iqtisodiy siyosatni asoslashga katta e'tibor berdi. U ishlab chiqaruvchilarga iqtisodiy erkinlikni ta'minlashni, davlatning iqtisodiy hayotga aralashmasligini talab qilardi. Ammo mamlakatning mudofaa manfaatlari iqtisodiyotdan ham ustun bo'lishi mumkin degan fikri bor, ya'ni bu ba'zi paytlarda davlatning iqtisodga aralashuvi zarur deganidir. Smit iqtisodiyotda davlat sektorining samarasizligini ko'rsatib, «*hukumat har doim va istisnosiz buyuk isrofgarchidir*» deydi. Shu sababli davlatning faqat uch funksiyasi tan olinadi: 1) huquq-tartibot; 2) mamlakat havfsizligini ta'minlash; 3) jamiyatga zarur bo'lgan (ammo xususiy sektor tomonidan tuzilmagan) ijtimoiy korxonalar va muassasalarni ta'minlash.

Smit zamonaviy davlatning soliq siyosatining nazariy asoslarini yaratdi. Soliqlar fuqarolarning kuchi va imkoniyatiga mos kelishi, ishga yaroqli har bir kishiga alohida belgilanishi kerak, soliq imkoni boricha arzon, uning shakli va olinish vaqti esa to'lovchi manfaatiga mos kelishi zarur.

Sanoatchilar manfaatlarini himoya qilgan olim lendlordlar, ya'ni yirik yer egalari belgilangan soliq imtiyoziga qarshi chiqdi. Yer rentasi davlat solig'i qo'yiladigan eng qulay obyektidir. Smit foydadan olinadigan soliq samarasiz degan xulosa chiqardi. Korxonalar

egasi foydani saqlash uchun o'z mahsulotiga yuqori baho qo'yish bilan soliq og'irligini iste'molchi ustiga yuklaydi. U ish haqidagi olinadigan soliq ham mahsulotga loyiq emas deb hisoblaydi. Bu soliqni ham korxonaga egasi to'laydi, chunki tirikchilik minimumini ta'minlashi kerak.

Smit savdodagi proteksionizmga (davlat tomonidan cheklashlar, soliq, bojxona va boshqalar), tashqi savdodagi har qanday cheklashlarga qarshi edi. U nochor ahvolga tushib qolgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi uch omilni ko'rsatib bergan edi: 1) mamlakatda tinchlik, osoyishtalik bo'lishi va saqlanishi; 2) me'yordagi yengil soliqlar tizimi; 3) davlat iqtisodiyot ishlariga hadab aralashavermasligi zarur, iqtisodiyot tabiiy ravishda amalga oshaveradi.

A.Smitdan keyin **A.Marshall** (1842–1924) iqtisodiyotda neoklassik (yangi klassik) yo'nalishning yetakchi vakili va marjinalizmning «Kembrij maktabi» lideri sifatida maydonga chiqdi. U 1902-yildan boshlab yangi «Ekonomiks» fanini kiritdi va siyosiy iqtisod fani asta-sekin siqib chiqarildi. Marshall marjinalizm g'oyasini musbat ravishda aniqladi.

Uning tadqiqot metodida klassik maktab g'oyalariga vorislik mavjud bo'lib, ular yana-da rivojlantiriladi. A.Marshall insonlarning iqtisodiy faoliyatini «sof» iqtisodiy nazariya pozitsiyasida turib, xo'jalikning ideal (benazir) modelini tadqiq yetdi. Ammo bir qancha iqtisodiyotning mo'tadilligi (muvozanati) bilan bog'liq marjinal g'oyalar orqali u bu fanni «xususiy» hol, ya'ni firma, soha (mikroiqtisodiyot) darajasida qaraydi. Bunday yondoshuv olim yaratgan «Kembrij maktabi» va XIX asr oxiri – XX asr boshidagi ko'pchilik neoklassiklar uchun xosdir. Ammo shuni alohida ta'kidlash kerakki, A.Marshall o'zidan oldin o'tgan ortodoks klassiklardan farqli ravishda, iqtisodiy kategoriyalarni «Isbot» talab etuvchi u yoki bu asosiy chegaralanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

U korxonada ishlab chiqarish hajmlarini o'stirish davomida solishtirma ishlab chiqarish xarajatlari o'zgarishi qonuniyatlari

aniqlandi. Korxonaga ishlab chiqarish masshtabini oshirganda undan keladigan nafning miqdori muammosi qarab chiqiladi. Marshall xususan shuni qayd qiladiki, odatda raqobatli iqtisodiyotda yirik korxonaga (firma) o'z tovariga narxni pasaytirishni ta'minlaydi, bu esa, raqobatchilar oldida ustunlikka olib keladi (malaka oshuvi, maxsus mashina va asbob-uskunalarini qo'llay olish tufayli). Eng muhimi bunday iqtisoddan butun jamiyat manfaat ko'radi.

«Reprezativ firma» (o'rtacha firmaning turi) tushunchasi kiritiladi. Uning hajmi ma'lum tovarni ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan ortadi, bu esa ham ichki ham tashqi foyda keltiradi, chunki mehnat sarflari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari pasayadi.

Bundan olim ikkita iqtisodiy qonun borligi to'g'risida xulosa chiqaradi: 1) o'sib boruvchi foyda va 2) doimiy foyda. Birinchisiga ko'ra, mehnat va kapital sarflari hajmi ortishi bilan odatda ishlab chiqarishni tashkil etishni mukammallashtirishga olib keladi, mehnat va kapitaldan foydalanish samaradorligini oshiradi, proporsional (mutanosib) ravishda yuqoriroq foyda keltiriladi. Ikkinchisiga ko'ra, mehnat va boshqa xarajatlar mahsulot hajmini proporsional o'sishiga olib keladi. Olim fikricha, real hayotda bu ikki tendensiya doimo bir-biriga qarama-qarshi turadi.

1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi sanoat jihatidan rivojlangan va past rivojlangan mamlakatlarga katta zarba berdi. Avvalgi (klassik, neoklassik) ta'limotlar tadqiqotida mikroiqtisodiy tahlil (alohida korxonaga) asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, inqiroz katta ishsizlik sharoitida boshqacha, makroiqtisodiy tahlil (davlat, jahon) ga zarurat tug'ilgan edi. Fanning bu sohasida hozirgi davrning taniqli iqtisodchisi J.M.Keyns muhim kashfiyotni yaratdi.

Xuddi shu davrda ijtimoiy iqtisodiyot masalalarida munozara kuchaydi. Unda erkin xo'jalik faoliyati va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, trestlar va sindikatlar, proteksionizm va fritrederlik muomalalari ko'ndalang bo'lib turar edi. Shu davrdagi ilmiy tadqiqotlar muammosi hozirgi kunda ham nihoyat dolzarb, chunki

davlatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishi masalasi uzul-kesil hal etilmagan. Bu borada ikki yo'nalish hukmron. Keyns ta'limotiga to'la asoslanuvchilar – keynschilar va unga qisman qo'shiluvchilar neoliberallardir.

XX asrning birinchi yarmida iqtisodiy inqirozlarning dambadam takrorlanishi tufayli ko'pgina «kapitalizmni tartibga solishga» oid iqtisodiy g'oyalar soni ko'paydi. Ana shunday yo'nalishning yorqin tarafdori bo'lib ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns (1884–1946) Shuhrat qozondi. Uning bosh asari – «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) kitobidir. Uning barcha asarlaridagi bosh masala kapitalizmni oqlash, uning inqirozlarsiz rivojini ta'minlashning abadiyligini isbotlashga urinishdir. Uning yaratgan nazariyasi iqtisodiyot ta'limotlari tarixida alohida o'rin egallaydi va bu o'ziga xos inqilob bo'lib, hozirgi davrda ham ahamiyatlidir. Keyns asosiy asarining boshidayoq klassik maktabga qarshi ekanligini bayon yetdi.

Keyns ta'limotining asosiy va yangi g'oyasi shuki, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi mukammal va o'z-o'zini avtomatik ravishda tartibga sola olmaydi. Shu sababli maksimal darajada bandlikni va iqtisodiy o'sishni faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi ta'minlay oladi. Bu ish davridagi amaliy iqtisodiyotdagi konkret ahvol bilan chambarchas bog'liq edi. Yetakchi olimlarning ta'kidlashicha (J.K.Gelbreyt, M.Blaug), firmalar, monopoliya va oligopoliyalar faoliyatidagi tengsizlik nisbatan kichik doiradagi odamlarning faoliyati bilan bog'liq, bu tengsizlik prinsipida davlatning aralashuvi bilan tuzatilishi mumkin edi.

Keynsning umumiy bandlik nazariyasi quyidagilarga asoslanadi: Ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad va, demak, iste'mol ortadi, ammo iste'mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad ortishi bilan «jamg'arishga intilish» kuchayadi. Uning fikricha, asosiy psixologik qonun shundan iboratki, odamlar odatda daromadlar ortishi bilan iste'molni ham o'stiradi, ammo bu o'sish

daromadlar darajasida bo'lmaydi. Oqibatda daromadlar o'sishi bilan jamg'arish ortadi va iste'mol nisbati kamayib boradi. Natijada «samarali talab» kamayadi, talab shunday yo'l bilan ishlab chiqarish hajmlariga va bandlik darajasiga ta'sir yetadi.

Iste'mol talabining yetarlicha o'smasligi yangi investitsiyalarga xarajatlarning oshuvi yo'li bilan qoplanishi, ya'ni ishlab chiqarish iste'molining ishlab chiqarish vositalariga qarab oshuvi yo'li bilan qoplanishi mumkin. Shu sababli investitsiyalarning umumiy hajmi bandlik hajmini belgilashda hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Keynsning fikri bo'yicha investitsiyalar hajmi investitsiyalarga bo'lgan intilishga bog'liq. Sohibkor investitsiyalarni kapitalning «eng yuqori samaradorligi» foiz darajasigacha pasaygan paytgacha kengaytiradi (foyda normasi o'lchanadigan rentabellik). Qiyinchilik shundaki, kapitalning rentabelligi pasayadi, foiz darajasi esa mo'tadil bo'ladi. Bu holat yangi investitsiyalar uchun imkoniyatni pasaytiradi, demak, bandlik o'sishi ham kamayadi. Kapital «eng yuqori samaradorligi»ning pasayishi kapital massasining o'sishi, shuningdek, kapitalist-tadbirkorlarning bo'lajak daromadlariga ishonchsizlikka «moyilligi» bilan tushuntiriladi. Keyns ta'limoti bo'yicha bandlikning umumiy hajmi uch omilga – «iste'molga moyillik», «eng yuqori samaradorlik» va foiz normasiga bog'liq.

Keyns ochgan «asosiy psixologik qonun» uning fikricha istalgan jamiyat uchun qo'llanilishi mumkin va iste'mol talabining kamomadi asriy tendensiyaga ega hamda barcha uchun yagona iste'mol qonuni mavjuddir.

Keyns foizga alohida e'tibor beradi, uni pul qarzi uchun berilgan haq deb hisoblaydi. Uning fikricha, foiz muomaladagi pul miqdoriga va «likvidlilik afzalligi»ga bog'liq. Uning miqdori «likvidlilik afzalligi»ga to'g'ri va muomaladagi pul miqdoriga teskari proporsionaldir.

Keynsning umumiy nazariyasida investitsiyalarning umumiy bandlik hajmini aniqlashdagi asosiy roli to'g'risidagi tezis

muhimdir. Ular iste'mol talabining yetarli emasligini to'ldirishi (kompensatsiyalash) kerak. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish masalasi iste'mol talabi oshuvidan alohida qaraladi. Investitsiyalarning ko'payishi ishlab chiqarishga qo'shimcha ishchilarni jalb etishga olib keladi, bu esa bandlik, milliy daromad va iste'mol o'sishini ta'minlaydi. Yangi investitsiyalar tufayli bandlikning dastlabki o'sishi yana qo'shimcha bandlikni vujudga keltiradi, chunki qo'shimcha ishchilarning talabini qondirish zarurati tug'iladi. Qo'shimcha bandlikning o'sish koeffitsientini Keynes *multiplikator* deb ataydi, u bir tomondan investitsiyalar o'sishi, ikkinchi tomondan bandlik va daromadlarning o'sishi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi.

Multiplikator formulasi

$$K = \frac{Yw}{Jw};$$

bunda **K** – multiplikator koeffitsienti, **Yw** – daromad o'sishi; **Jw** – investitsiya o'sishi. Multiplikator «iste'molga eng yuqori moyillik» bilan bog'liq, chunki u iste'molga ketgan sarflar o'sishining daromadlar o'sishiga nisbatini bildiradi. «Iste'molga eng yuqori moyillik» qancha yuqori bo'lsa, multiplikator ham shunchalik katta va demakki, bandlik yaxshi bo'ladi. Keynes bir qancha hisob-kitoblarga asoslanib, AQShning multiplikatorini aniqladi, u 2,5 ga teng ekan. Bu daromadlar o'sishi investitsiyalar ortishidan 2,5 marta ortiq, degani, ya'ni 1 dollar investitsiya 2,5 dollar daromad keltiradi.

Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish uchun foiz normasini tartibga solish taklif etiladi. Uningcha, davlat muomaladagi pul miqdorini oshirish yo'li bilan foiz darajasini tartibga solish imkoniyatiga ega. Muomaladagi pul miqdorini oshirish amalda inflyatsiya (pulning qadsizlanishi)ni qo'llash demakdir, ammo bunda ssuda foizi kamayadi va pul ishlab chiqarishga qo'yish uchun rag'batlantiriladi.

To'la bandlikni ta'minlash uchun faqat investitsiyalarni emas, balki milliy daromadni ham tartibga solish taklif etiladi. Buni hal qilish vositasi sifatida soliqlarga murojaat qilish kerak deyiladi. Aholining «jamg'armalari»ni muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni oshirish talab etiladi va bu omonatlar davlat investitsiyalarini oshirish uchun foydalanilishi mumkin deyiladi. Shu vaqtning o'zida boylarning solig'ini oshirishga qarshilik qilinadi. Keynes o'z taklifini quyidagicha tushuntiradi: Mehnatkashlarning soliqlarini oshirishdan maqsad – ularning «jamg'armalari»ni kamaytirish va iste'molni rag'batlantirishdir. Real ish haqini pasaytirish uchun inflyatsiya asosida narx-navoni oshirish yo'li tavsiya etiladi. Real ish haqini pasaytirmasdan to'liq bandlikni ta'minlash mumkin emas, degan fikr ishchilarga uqtiriladi.

Keynsni hozirgi davrda hammaga yaxshi tanish ibora bo'lgan «*aralash iqtisodiyot*»ning otasi deyish mumkin, bu iqtisodiyotda hukumat hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Sof iqtisodiyot deyarli hech qaysi davlatda yo'q. Keynsning iqtisodiy g'oyalari birinchi navbatda «buyuk inqiroz» ta'siri ostida paydo bo'ldi. 1929–1933-yillardagi bu buyuk inqiroz Amerikani larzaga keltirdi, ishlab chiqarish yarmiga (50%)ga qisqardi. 17 mln odam ishsiz edi (25%), 9 mln omonatchi kuyib qoldi. Ana shunday sharoitda iqtisodiyotni qutqarishning muhim yo'li – hukumat xarajatlari ekanligi ko'rsatib berildi. Keynes o'zining asosiy asarining birinchi satrlaridan boshlab «klassik iqtisodiy maktabga qarshi» ekanligini yozadi.

Shuni aniq qilib aytish kerakki, Keynes ta'limoti inqirozlar, urushlar va urushdan keyingi davrlar uchun samarali bo'ldi, chunki favqulotda holatlar davrida davlatning roli kuchli bo'lishi kerak. Amalda esa, ayniqsa 2-Jahon urushidan so'ng g'arb mamlakatlarini sotsialistik orientatsiyasi kuchaydi (davlat mulki oshib bordi), davlat byudjeti qarzlari ko'payib, ishsizlik ham o'sgan, inflyatsiya kuchli. Bu ijtimoiy ishlarni ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar oqibatidir deb tan olinmoqda. Ishsizlikni ish haqini pasaytirish yo'li bilan hal etish

tarafdorlari ham mavjud, ammo pul massasini ko'paytirish, ya'ni emissiya yo'li ko'pchilikka oson ko'rinadi. Bu konsepsiya ma'lum davr mobaynida inflyatsiya bo'lmagan holda minimal ishsizlik darajasini isbotlashga imkon beradi.

2.2. Iqtisodiy taraqqiyot tushunchasiga hozirgi zamon oqimlari namoyondalarining qarashlari

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida olamda bo'lib o'tgan aniq ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli jahondagi mamlakatlarning salohiyati keskin o'zgardi, ilgari ilg'or bo'lgan davlatlar 2-o'rinlarga (Angliya, Fransiya), nisbatan qoloq bo'lgan davlatlar esa 1-o'rinlarga chiqib olishdi (AQSh, Germaniya). Xuddi shu davrda yetakchi mamlakatlarda erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotdan ko'pincha monopolistik iqtisodiyotga o'tish kuchaydi. Monopoliya kuchayishi monopol foyda olishga imkon yaratdi va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir qila boshladi. Shu sababli antimonopol choralar qo'llash g'oyasi ilgari surildi va bu birinchi AQShda ro'y berdi. Keyinchalik (va hozirda) barcha davlatlar bunday chorani qo'llaydilar.

Antitrest siyosati yo'li bilan iqtisodiyot ustidan ijtimoiy nazoratning turlicha metod (usul)lari qo'llanila boshlandi. Ana shu usullarning nazariy asoslari yuzaga keldi va hozirda ham mavjud.

Iqtisodiy ta'limotlardagi institutsionalizm yo'nalishi AQShda XX asrning 20–30-yillarida keng tarqaldi, ammo u ancha oldin, XIX asrning oxirlarida vujudga kelgan (T.Veblenning 1899-y. chiqqan «Bekorchi sinflar nazariyasi» asari bilan bog'liq). Bu yo'nalish nomi lotincha «instituto» – urf-odat, ko'rsatma, muassasa so'zidan olingan va kapitalizmning imperializm bosqichiga o'tishi bilan bog'liq ravishda ro'y berdi, chunki bu davr rivojlanishi erkin raqobatga asoslangan avvalgi davr ta'limotlari bilan izohlash mumkin bo'lmay qoldi.

Bu ta'limot yo'nalishi vakillarining fikricha, institutlar jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladilar. Bu tushuncha tagida ijtimoiy hodisalar, masalan, oila, davlat, monopoliya, kasaba uyushmalari va boshqa muassasalar yotadi, ya'ni jamoat ruhining namoyon bo'lishi, yurish-turish va o'ylash usulini xalqning ma'lum guruhlar uchun odatiy, an'anaviy, shuningdek huquqiy, ahloqiy va boshqa ko'rinishlarini o'z ichiga oladi. Bu yo'nalish mafkurachilarining fikricha, iqtisodiy kategoriyalar bo'lgan xususiy mulk, soliq, pul, kredit, foyda, savdo va boshqalar jamiyat ruhining paydo bo'lishi shaklidir. Demak, ular obyektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini to'la tan olmaydilar va jamoat ruhiyatining evolyutsiyasini tahlil yetadilar. Institutsionalizm ma'lum ma'noda neoklassik yo'nalishga muholifdir.

Neoklassiklar bozor iqtisodiyotini o'zini-o'zi boshqara oladigan (A.Smit fikri) sistema deb qarasarlar (sof iqtisodiyot fani), institutsionalizm tarafdorlari iqtisodiyot rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari moddiy omillar bilan birga tarixiy kontekstda qaraladigan ma'naviy, ahloqiy, huquqiy va boshqa omillarga ham bog'liqdir deb o'ylaydilar.

Demak, bu yangi yo'nalishning tadqiqot predmeti sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, shu bilan birga noiqtisodiy muammolarni tahlil etish ilgari suriladi. Shu bilan birga, tadqiqot obyektlari, ya'ni institutlar birinchi yoki ikkinchi darajali deb qaralmaydi va bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmaydi.

Institutsionalizmga xos bo'lgan uslubiy xususiyatlar quyidagilardir:

1) neoklassikaga xos abstraksiyaning yuqori darajasi va ayniqsa baho nazariyasining ortodoksal statik xarakteridan qoniqmaslik;

2) iqtisodiy nazariyani boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyaga intilish yoki fanlararo yondoshuv ustuvorligiga ishonch;

3) klassik va neoklassik nazariyalarda empirizm (tajribaga suyanish) yetishmasligidan norozilik, chuqur miqdoriy tadqiqotlar o'tkazishga chorlash.

Bu yo'nalishning vujudga kelishi, shakllanishi va evolyusiyasining ma'lum tarixi bor. Uning mafkurachilari T.Veblen, J.Kommons, U.Mitchell asarlarida iqtisodiy sikl va inqirozlar tarixi bo'yicha faktik materiallar jamlangan. Bu olimlar jamiyat a'zolari uchun xos bo'lgan urf-odat, an'ana, odob-ahloq, instinktlarni o'rganish bilan shug'ullanadilar. Ularda nazariy tadqiqotdan ko'ra, yozib borish, qayd etish uslubi ustunroqdir.

Institutsionalizm evolyusiyasini uch davrga bo'lish mumkin:

1. 20–30-yillarda institutsionalizmning keng tarqalishi. Bu davrning bosh mafkurachisi T.Veblendir (1857–1920), uni J.R.Kommons (1862–1945), U.Mitchell (1874–1948), J.Gobson (1858–1940), U.Gamiltonlar faol himoya qildilar.

2. Urushdan keyingi kechki institutsionalizm. Bu davr mafkurachilari iqtisodiyotdagi qarama-qarshiliklarni izohlab berish bilan birga F.Ruzvelt tomonidan ilgari surilgan «Yangi kurs» islohotlarini amalga oshirish bo'yicha tavsiyanomalarni ham ilgari surdilar. Ular demografiya va antropologiyani o'rgandilar, ishchilar harakatining kasaba uyushmalari nazariyalarini ishlab chiqdilar. 50-yillarda J.M.Klark «Iqtisodiy institutlar va insonlar farovonligi», A.Berli «Mulksiz hokimiyat» va «XX asr kapitalistik inqilobi» kitoblarini chop yetdilar, G.Minz o'zining maqolalarida aksionerlar soni ortishi, kapital mulkning kapital funksiyadan ajralish jarayonini qayd yetdi.

3. 60–70-yillarda ijtimoiy-institutsional yo'nalish, ya'ni neoinstitutsionalizm paydo bo'ldi. 60-yillardagi institutsionalizm asoslari amerikalik nazariyotchi A.Lou va shvetsiyalik iqtisodchi G.Myurdal tomonidan ishlab chiqildi. Hozirgi davrdagi ijtimoiy-institutsional yo'nalish ta'limoti J.K.Gelbreyt va R.Xeylbronlerlar tomonidan davom ettirilgan.

Institutsionalizmdagi uchta asosiy oqimni ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-psixologik;
2. Ijtimoiy-huquqiy;
3. Empirik yoki kon'yunktur-statistik.

Lekin, shu bilan birga, barcha yo'nalishlar uchun xos bo'lgan umumiylik ham mavjud. Ularning barchasi ozmi-ko'pmi burjua jamiyatini ahloqiy-psixologik jihatdan tanqid ostiga oladilar, iqtisodiyot fanida reformistik yo'lni oqlaydilar va bu oqim olimlari burjua jamiyatini mutloq maqtashdan chetlangandirlar.

Bu yo'nalish g'oyalariga baho berib, g'arb iqtisodchilari institutsionalizmni «Formalizmga qarshi g'alayon» deb qaramoqdalar, uni klassik iqtisodiy maktabga qarama-qarshi qo'ymoqdalar. Bu yo'nalishning paydo bo'lishi va avvalgilaridan farq qilishi vaqt va sharoit taqozosi tufaylidir, chunki kapitalizm avvalgi davrdagidan keskin o'zgardi, davlat va jamoat tashkilotlari, ayniqsa, kasaba uyushmalarining roli ortib ketdi. Ularni hisobga olmaslikning iloji yo'q edi.

Ikkinchi tomondan bu yo'nalishning «norozilik qayfiyati» «eng yuqori naf nazariyasi»ga ham qarshi qaratilgan edi. Agar bu nazariya mikroiqtisodiy tahlil bilan shug'ullansa, institutsionalizm makroiqtisodiy tahlilni amalga oshiradi. «Yuqori naf» vakillari jamiyat asosiy iqtisodiy subyekti sifatida Robinzon (alohida individ) ni tanlashsa, institutsionalizm mafkurachilari kollektiv – jamoa «psixologiyasi»ni birinchi o'ringa qo'yadilar. Ular «Yuqori naf» nazariyasiga qarshi chiqib, jamiyatning stixiyali rivoji o'miga ishlab chiqarishni boshqarishda ijtimoiy tadbirlar qo'llashni afzal ko'rdilar.

Boshqa maktablardan farqli ravishda, institutsionalizm iqtisodiy hayotning ba'zi ijtimoiy tomonlarini tanqidiy o'rganishni asos qilib oldi, ammo davlat monopolistik kapitalizmi tizimini qo'llab-quvvatladi.

Ularning g'oyalarida «Ijtimoiy nazorat»ni himoya qilish orqali yangi sharoitda iqtisodiyotni tartiblashni tashkil etishni lozim, deb

ko'rsatiladi. Ayniqsa, bu sharoitda huquqiy masalalarni rivojlantirish muammosi dolzarb qilib qo'yildi. Ular «erkin sohibkorlik» va marjinalizmga qarshi chiqib, iqtisodiyotda avtomatik barqarorlik mexanizmi borligini inkor yetdilar va iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy tahlil qilishning tarafdorlari edilar. Keynsdan ancha avvalroq ular davlat iqtisodiyotga faol aralashishi kerak, degan fikrni ilgari surdilar.

Neoliberalizm keynschilik bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ldi va XX asrning 30-yillarida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mustaqil qarashlar majmuasidan iborat. Ilmiy nazariya va amaliy hayotda neoliberal iqtisodiy jarayonlarga davlatning ma'lum darajada aralashuvi tufayli cheklanmagan erkin raqobat g'oyasining ustuvorligiga asoslanadi. Agar keynschilik iqtisodiyotda davlatning faol aralashuvini boshidanoq zarur, deb qarasa, neoliberalizm davlatning nisbatan passiv tartibga solishini qo'llaydi. Keynschilik modellarida iqtisodiyotning turli sohalarini investitsiyalash, hukumat buyurtma va xaridlari hajmini kengaytirish, soliq siyosatini kuchaytirish bo'yicha davlat chora-tadbirlari majmuasiga ustuvorlik beriladi. Bu siyosatning o'ta keng qo'llanilish oqibatlarini iqtisodiy tarixdan ma'lum bo'lgan davlat byudjeti kamomadi va inflyatsiyaga olib kelishida ko'rinadi.

Neoliberalistlar iqtisodiyotni liberallashtirishni, erkin baho shakllanish prinsiplaridan foydalanishni, iqtisodiyotda xususiy mulk va nodavlat tuzilmalarining yetakchi bo'lishini qo'llaydilar. Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini esa «tungi qorovul» yoki «sport sudyasi» qabilida bo'lishi ko'zda tutiladi. Bu yo'nalishning yirik vakili L.Erxard aytganidek «Raqobat mumkin bo'lgan hamma yerda, tartibga solish – zarur bo'lgan yerda» amalga oshuvi kerak. Davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki cheklangan bo'lib, tadbirkorlarning erkin va mo'tadil faoliyati iqtisodiyotdagi muvozanatni saqlashning asosiy sharti sifatida qaraladi.

XX asrning 30-yillarida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini

cheklash maqsadida muqobil neoliberal markazlar tashkil etildi. Buning sababi shundaki, 2-jahon urushi arafasida paydo bo'layotgan militaristik g'oyalar nihoyatda kuchli bo'lib, ko'p mamlakatlarda (Germaniya, Italiya, AQSh, Buyuk Britaniya...) davlatning iqtisodiyotga aralashuvi keskin kuchayadi.

Neoliberalizmning eng yirik markazlari Germaniya, AQSh va Angliyada vujudga kelib, shunga muvofiq Frayburg maktabi (etakchi vakillari – V.Oyken, V.Ryobke, A.Ryustov, L.Erxard va b.), Chikago maktabi, uni «monetar maktab» deb ham ataydilar (etakchi vakillari – L.Mizes, M.Fridmen, A.Shvari va b.), London maktabi (etakchi vakillari – F.Xaek, L.Robbins va b.).

Fransiyada neoliberal g'oyalarning taniqli vakillari sifatida iqtisodchilar J.Ryueff, M.Alle va boshqalarni keltirish mumkin. Bu olimlar o'sha davridayoq yagona ilmiy-amaliy platformani ishlab chiqish uchun harakat boshladilar. 1938-yili Parijdagi konferensiyada neoliberalizmning asosiy prinsiplari xalqaro ko'lamda e'lon qilindi. Bu neoliberalarning yig'ilishi (forumi) «Lippman kollokviumi» deb xam ataladi, buning sababi shuki, o'sha yili amerikalik iqtisodchi A.Uolter Lippman «Erkin shahar» kitobini e'lon qildi va undagi g'oyalar neoliberal prinsiplar bilan hamohangdir. Parijdagi qo'llab-quvvatlangan neoliberal umumiy prinsiplarning mohiyati shundan iboratki, davlatlar erkin raqobat qoidalarini qaytarishga g'amho'rlik qilishlari va ularni barcha xo'jalik subyektlari tomonidan bajarilishini ta'minlashlariga ko'maklashuvi so'raladi. Bu hujjatda xususiy mulk ustuvorligi sharti, bitimlar erkinligi va bozorlar erkinligi davlat yo'li bilan faqat ekstremal (urush, stixiyali ofat, katastrofa va b.) holatlardagina qayta ko'rilishi mumkin deb hisoblanadi.

2-jahon urushidan so'ng neoliberalizm prinsiplari dastlab G'arbiy Germaniya (GFR) da amaliy jihatdan muvaffaqiyatli tatbiq etildi. Bu yerda 1948-yildan boshlab bu g'oyalar Adenauer-Erxard davlat doktrinasi statusiga aylantirildi. Neoliberalizmning

taniqli nemis nazariyotchilari V.Rebne, A.Ryustov va boshqalar ozodlik va insonparvarlik bahonasida monopolizm vujudga kelishining barcha ko'rinishlarini tanqidiga boshchilik qildilar. V.Oyken va uning safdoshlari Frayburg universitetida 1948-yildan «Ordo» nomli yillik to'plamni chiqara boshladilar, bu jurnal barcha davlatlar uchun neoliberalizmning nazariy minbari rolini o'ynaydi. V.Oyken tomonidan tanlangan «Ordo» so'zi yig'ma bo'lib, erkin bozor xo'jaligining «tabiiy tizimi» ma'nosini beruvchi mazmunga ega edi. Neoliberalizm G'arbiy Germaniya doktrinasi «Oyken maktabi» ta'siri ostida hatto «Ordoliberalizm» deb atala boshlandi.

GFR neoliberalizm nazariyotchilari «erkin bozor» va adolatli taqsimot prinsiplarini «ijtimoiy tenglik» prinsipi g'oyasi bilan birga qo'shishga muvaffaq bo'ldilar. Birinchi marta uning konseptual g'oyasi A.Myuller-Armakning «Xo'jalik boshqaruvi va bozor xo'jaligi» (1947) kitobida izohlanadi va bunda «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» matni ham birinchi bor qo'llanilgan. Bu sohadagi ishlanmalar V.Rebke, L.Erxard, V.Oyken (asli tarixchi) va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

60–70-yillarda neoliberalizm konsepsiyasi «ijtimoiy bozor xo'jaligi» modelini yaratish va amalga oshirish prinsiplari institutsionalizmning «barcha uchun farovonlik jamiyati» konsepsiyasi bilan hamohangdir. Chunki ikkala modelda insonni inson tomonidan ekspluatatsiya va sinfiy antegonizm inkor etiladi. Bu modellardan bundan tashqari davlatning faol ijtimoiy vazifasi (funktsiyasi) g'oyasi bor. Davlat barcha fuqarolarga ijtimoiy xizmatni olish va ular farovonligini oshirish uchun teng huquq va teng imkoniyatlar yaratishi zarurdir. Bunda jamiyatning turli qatlamlarida aksionerlar sonining ortishi bilan birga, barcha ijtimoiy institutlar barqarorligining o'sishi, asosiy mehnatkash aholining ertangi kunga ishonchi va boshqalar ko'zda tutiladi.

Keynchilik neoliberalizmga muqobil ravishda Chikago maktabi vujudga keldi, uning monetar (pul bilan bog'liq) g'oyalari Chikago universitetida 20-yillarda paydo bo'ldi. Ammo neoliberal yo'nalish harakatida amerika monetarizmi mustaqil pozitsiyasini faqat 50-yillar oxiri va 60-yillar boshida egalladi. Bunda **M.Fridmen** (1912) nashrlari muhim ahamiyat kasb yetdi (1976-yilgi iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati). Fridmen va uning safdoshlari Keynsning pulsiz omillari (masalan, investitsiyalar) o'rniga aynan pulli omillarni afzal ko'rdilar.

1958-yil A.U.Fillipsning empirik egri chizig'i paydo bo'lishi bilan pul hisobidagi ish haqining yillik foiz o'zgarishi va ishsizlik darajasi (hissasi) o'rtasidagi bog'lanish aniqlandi. Bunda 1861-1913-yillar Angliyadagi real ma'lumotlardan foydalanilgan. 1964-yil P.Samulson o'zining mashhur «Ekonomiks» darsligining 6 nashriga shu grafikni kiritdi va uni Fillips egri chizig'i deb atadi. Avvalgi tadqiqotlarda (masalan, Keyns) inflyatsiyasiz to'la bandlik iqtisodiy siyosatning maqsadi sifatida qarab kelinar edi. Bu egri chiziqqa ko'ra, narxlar mo'tadilligi va ishsizlik nomuvofiq hodisalar bo'lib chiqdi, ya'ni ishsizlikni kamaytirishga inflyatsiyani kuchaytirish yo'li bilan erishiladi, inflyatsiyani pasaytirish esa odatda ishsizlar ko'payishini taqozo yetadi. Shunday qilib, bir vaqtning o'zida turg'un narxlar va to'la bandlikka bo'lgan ishonch, barqaror narx va to'la bandlik o'rtasida tanlash bilan o'rin almashdi.

M.Fridmen va uning safdoshlari Fillips egri chizig'ini har tomonlama o'rganib, u (egri chiziq) har doim ham turg'un emasligi ma'lum bo'ldi, ayniqsa 60-yillar oxirida ko'pgina mamlakatlarda inflyatsiya o'sishi «mantiq»qa qarama-qarshi ishsizlikning pasayishi emas, balki uning o'sishi va 70-yillar boshida esa inflyatsiya va ishsizlikning bir vaqtda o'sishi bilan ro'y berdi.

M.Fridmen iqtisodiy jarayonlarda pul, pul massasi va pul muomalasi ahamiyatini ko'tarishga harakat qildi. Pulning

aslida neoliberal monetar konsepsiyasi AQShning Respublika (1969–1970-yillar Nikson prezidentligi davrida) hukumati tomonidan sinovdan o‘tdi (bunda M.Fridmen prezident maslahatchisi edi). Ammo monetar iqtisodiy g‘oyalar AQShning keyingi prezidenti davrida yaxshi natija berdi. Tarixda va iqtisodiyotda reygonomika deb nom olgan bu siyosat dollar real mustahkamlangan bir sharoitda inflyatsiyani kamaytirish mumkin bo‘ldi, R.Reygan prezidentlik davrida yangi 14 million millioner – tadbirkor paydo bo‘ldi. Demokrat B.Klinton (8 yil) prezidentligi davrida ham shu siyosat davom ettirildi va yaxshi natija berdi.

Fridmen konsepsiyasi asosiy masala davlatning qattiqqo‘l pul siyosatidir (boshqalardan, masalan, Keynsdan farqi). Bu Fridmenning «ishsizlik tabiiy normasi» tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, kon‘yutura holatiga bog‘lanmagan holda, har yili pul massasi 3–4 foizga doim va turg‘un (stabil) ravishda oshirib borilishi kerak. AQShning qator-yillar davomida yalpi milliy mahsuloti o‘shishi o‘rtacha sur‘atlarini hisobga olib, milliy iqtisodiyotning maksimal mumkin bo‘lgan darajasi aniqlanadi.

Fridmenning «ishsizlik tabiiy normasi» konsepsiyasi institutsional, shuningdek qonuniy hujjatlarga asoslanadi (masalan, kasaba qo‘mitalari, minimal ish haqi to‘g‘risidagi qonun).

2.3. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot to‘g‘risidagi nazariyalarning shakllanishi

O‘zbekiston mustaqillik ostonasida jamiyatni totalitar tizimdan ikkinchi bir, bozor munosabatlari tizimi asoslariga ijtimoiy larzalarsiz o‘tkazish chuqur o‘ylangan, nazariy asoslangan ta‘limotning ishlab chiqilishiga muhtoj edi. Bu ta‘limot birinchi Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Bu boradagi jahon tajribalari shundan dalolat beradiki, o‘tish davri turli inqiloblar, ixtiloflar, fuqarolar urushi va yana boshqa turli majorolar bilan kuzatilgan bir paytda o‘tish davrining “O‘zbek modeli” jamiyat ijtimoiy asoslarini

bosqichma-bosqich yaratib borish asnosida barqaror rivojlanish omillarini namoyon qildi.

O‘tish davri qonuniyatlari shundan dalolat beradiki, har bir davr ikkinchi bir rivojlanishning zaminini yaratadi va keyingi istiqbol qadamlarga poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bunday vorisiylik shubhasiz, agar tanlangan qadamlar davr ehtiyoji va talablariga mos kelsa, uning shakli mazmuniga muvofiq bo‘lsa, amalda ro‘yobga chiqadi. Aksincha, teskari kelsa, ijtimoiy ziddiyatlar jamiyat rivojini turg‘un tuynuk sirtmog‘iga tortadi. Shu sababli insoniyat tarixida istiqloq yo‘lini tanlagan ayrim davlatlar tajribasi ko‘zlagan maqsadlariga olib kelmay, parokandalik girdobiga botganligini yaxshi bilamiz. O‘zbekiston ham mustaqillikning dastlabki kunlarida ana shunday murakkab ijtimoiy qonuniyatlarning mavhum tanlovlariga ro‘baro‘ keldi. Lekin, yana boshqa bir, ammo, hamohang qonuniyat borki, bu millat shaxslari va o‘zligini anglashga intilayotgan xalqning mushtarak maqsadlari, yakdil muddaolaridir.

Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan evolyutsion yo‘lining “O‘zbek modeli” zaminida ortiqcha ijtimoiy larzalarsiz, barqarorlik asosida, bosqichma-bosqich jamiyat ijtimoiy imkoniyatlarini hisobga olish orqali demokratik jamiyatni shakllantirishga qaratilgan ta‘limotni o‘zida mujassam etganligi, ayni paytda, bu yo‘lining millat turmush madaniyatiga xosligi bilan e‘tirof etildi. Tadrijiy bosqichga xos xususiyatlar jamiyatda amalga oshiriladigan islohotlar ketma-ketligi, muntazamlilik, izchillik, uyg‘un xarakterlariga ega bo‘ldi. Bunday tamoyilga bo‘lgan ehtiyoj jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy bo‘shliqlarini to‘ldirishga, tashkil etishga, yaratilishiga, shakllantirilishiga, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Insoniyat XXI asrga kelib, ma‘muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining mohiyatini chuqurroq anglash bilan bir qatorda, uning

asoratlariga barham berishga astoydil kirishganini namoyon etmoqda. Hususan, O'zbekiston Respublikasi uchun sobiq mustabid tuzum merosi va sohta mafkuraning oqibatlarini quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Bir yoqlama rivojlangan, mo'rt, zaif iqtisodiyotga asoslangan markazga qaram yarim mustamlaka mamlakat.

2. Boy mineral xomashyo resurslaridan nazoratsiz va ayovsiz foydalanishga hamda paxta yakkahokimligiga asoslangan iqtisodiy tizim.

3. Mahalliy xomashyolarni qayta ishlash quvvatlarini ibtidoiy darajadali, ishlab chiqarishning texnologik asbob-uskuna va butlovchi qismlar, shuningdek yoqilg'i ta'minotida markazga qaramlik.

4. Eng muhim oziq-ovqat mollari (un, shakar, go'sht-sut mahsulotlari) va boshqa xalq iste'moli mahsulotlarining chetdan keltirilishi.

5. Paxta xomashyosi mahsulotlarining suv tekinga tashib ketilishi, oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega materiallar jahon bozorida o'ta xaridorgir bo'lgan boshqa qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan keladigan foydadan O'zbekiston xazinasiga tushmaslik.

6. Iqtisodiy o'sish sur'atlari samaradorligi ko'rsatkichlarining salbiy darajadali ortib borishi, moliya-pul tizimining butkul ishdan chiqishi.

7. Xorijiy mamlakatlar bilan bevosita tashqi iqtisodiy aloqalarning cheklanganligi.

8. Qishloq joylarda yashirin ishsizlik, shahar va qishloqdagi turmush darajalaridagi farqning ortib borishi.

9. O'zbekiston aholisi turmush darajasi ko'rsatkichlarining sobiq SSSRdagi eng oxirgi o'rinlardan biriga tushib qolganligi.

10. Ekologik muammolarning keskinlashuvi, yer-suv resurslaridan ayovsiz foydalanish, yerlar sho'rlanishining ortishi, cho'l zonalarining kengayishi.

Yuqorida keltirilgan xulosalarni isbotlovchi dallillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. 1991-yilda etishtirilgan paxta xomashyosining bor-yo'g'i 3,5% i pirovard iste'mol uchun Respublikada qayta ishlangan.

2. 1990-yilda Respublikada mavjud korxonalarining 38% sobiq ittifoq, 54% sobiq ittifoq-respublika, bor-yo'g'i 8% korxonalar Respublika mulkchiligi tasarrufida bo'lgan.

3. 1988-yilda 4349.3 mln. ga ekin maydonlarining 125.3 ming ga maydoni (2.8%) aholining shaxsiy tomorqalarini tashkil etgan.

4. «1930-yilda Respublika aholisining 70% ga yaqinining jami daromadi tirikchilik o'tkazish uchun zarur bo'lgan eng quyi darajadan ham past edi. Ayni mahalda Rossiya va Ukrainada aholining 30 % ga yaqinagina shunday ahvolda kun kechirgandi».

5. Ma'lum sabablarga ko'ra, Respublika hozirgi xalq xo'jaligi va aholi juda qattiq ehtiyoj sezayotgan tovarlarning 65% gacha bo'lgan qismini tashqaridan keltirishi majbur edi. Yoqilg'i, stanoklar, asbob uskunalar, yog'och-taxta va yog'och materiallari to'g'risida gapirmasak ham bo'ladi. Ular ham chetdan keltirilgan.

Keltirilgan ma'lumotlar va dalillar asosida bozor munosabatlariga o'tish zaruriyati to'g'risida birinchi Prezident I.Karimov shunday degan – "...Bozorga o'tish muqarrar. Bu – davr amri, obyektiv reallikdir. Ayni vaqtda bozor faqat maqsad emas, balki yangi qadriyatlarni shakllantirish, odamlar faoliyatining sifat jihatdan tubdan yuqori darajasiga erishish uslubi va vositasidir.³¹

³¹ Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li". T., O'zbekiston, 1992, 44-bet

Bozorga o'tish zaruriyati tashqi va ichki omillardan ham kelib chiqadi.

Tashqi omillar:

1. Jahon hamjamiyatining geopolitik tarkibida ijtimoiy dunyoqarashda chuqur sifat o'zgarishlarni amalga oshirish.
2. Davlatlararo hamkorlikda integratsion jarayonlarning kuchayishi.
3. Yagona xalqaro me'yorlar, qoidalar va andozalarga o'tilishi bilan yagona siyosiy-iqtisodiy jarayonlarning shakllanishi.
4. Sotsialistik deb atalgan lagerning parchalanishi va ma'muriy-buyruqbozlik tizimining barham topishi.
5. Moddiy turmush farovonligi va iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha Farbdan ortda qolishning kuchayishi va iqtisodiy tizim tanazzuli.

Ichki omillar:

1. Mustabid tizim qusurlari va direktiv rejalashtirishning salbiy oqibatlari.
2. Davlat mulkchiligining yakkahokimligi tufayli mulkning va shaxsning ajratilishi va ijtimoiy serxarajatlilikning ortib borishi.
3. Xarajatlarni tejashdan manfaatdorlikning yo'qligi, piravardida esa, resurslarni samarasiz taqsimlanishning kuchayishi.
4. Mehnat unumdorligini oshirishdan rag'batlantirishning pasayishi va mehnatga ishtiyoqsizlik va loqaydlikning ortishi.
5. Texnika va texnologiya rivojlanishidagi turg'unlik.
6. Iqtisodiy hayotda mulkning mutlaq davlatlashtirilishiga qarshilik munosabati sifatida pinxoniy iqtisodiyotning kuchayishi.
7. Ijtimoiy hayotda talab va taklif muvozanatini ta'minlash samaradorligining pastligi.
8. Direktiv markazlashgan rejalashtirish tizimining hududlar va xo'jaliklar talablarini qondirishda muvofiqlashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi. Natijada, quyi bo'g'inlarda – xaridor va sotuvchi, iste'molchi va ishlab chiqaruvchilar orasidagi

bevosita bog'liqlikni ta'minlashga ma'muriy rejalashtirishning salbiy ta'siri.

9. Korxonalararo raqobatning yo'qligi tufayli samaradorlikka moyillikning pastligi.

10. Xomashyo serxarajatligiga asoslangan investitsion talabning kuchayishi.

11. Sotsialistik xo'jalik yuritishda fondlarning markazlashgan taqsimotiga asoslanganligi tufayli ko'proq resurslar taqchilligi namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida esa, sotish qiyinchiligi ishlab chiqarish qiyinchiligidan muhimroq hisoblanadi.

12. Korxonalarining pul mablag'lari bilan ta'minlashda yagona davlat bank tizimining faol ishtirok eta olmasligi. Bank tizimining pul mablag'lari oborotidan manfaatdorlikning pastligi. Ayniqsa, kredit siyosatining mijozlar moliyaviy imkoniyati bilan bevosita bog'lanmaganligi.

13. Davlat byudjeti vakolatining keng qamrovliligi turli bo'g'indagi xo'jaliklar daromadiga bog'liq bo'lib, uning to'planishi va taqsimlanishi to'liq markazlashtirilgan. Korxonalarining byudjetdan moliyalashtirilishi zahiralardan samarali foydalanishni rag'batlantirmagan.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimining eng muhim ayanchli oqibatlaridan biri – mut'e shaxs «sovet kishisi» ning shakllanishi hisoblanadi. Mazkur shaxs tafakkuri mafkuraviy qarashlar, g'oyaviy kurashlar, chalg'ituvchi dalillar tuzog'iga asir qilindi. Taraqqiyotparvar insoniyat erishgan yutuqlardan bebaxra qoldi.

Sobiq tizim o'z iqtisodiy g'oyalarida ish kuchining qaerlardadir tovar sifatida sotilayotganligini tanqid qiladi-yu, o'zidagi inson resurslariga e'tibor faqat kundalik moddiy ehtiyojlarni arang qondirish darajasida qolib ketganligini inkor yetadi. Keyinroq, 1999-yilga kelib, birinchi Prezident I.Karimov bu haqda ta'kidlaganidek – "Shunday ulkan salohiyatga ega bo'lgan mamlakatni kamsitadigan og'ir ahvolga solib qo'yib, u qonuniy haqli ravishda o'ziga qarashli

bo'lgan mablag'ni markazdan dotatsiya sifatida so'rab, aytish mumkinki, yolvorib olishga majbur edi. Boz ustiga, noinsoniy g'oya hukmron bo'lgan mustabid tizim o'zining bor mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlar edi. Ularning milliy va diniy tuyg'ularini qo'pol ravishda kamsitar edi. O'z ona tilini, milliy an'ana va madaniyatini, o'z tarixini bilmaslik, ko'plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi. Milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilardi. Biz eski tizim o'z o'rnini osonlikcha bo'shatib bermasligini, uning zaharli mafkurasini odamlar ongini tez va yengil o'z ta'siri iskanjasidan chiqarmasligini yetarli darajada o'zimizga tassavvur qilishimiz va hisobga olishimiz zarur edi».³²

Yuqoridagilar va boshqalarni hisobga olgan holda, O'zbekiston mustaqillik davrida ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor munosabatlariga o'tishni zarur deb topdi.

XX asr nihoyasiga kelib, shakllangan iqtisodiy taffakur va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari to'g'risidagi qarashlarda erkin itisodiy tartibga solish g'oyasi ham, markazlashtirilgan tarzda rejalashtirish g'oyasi ham inqirozga uchraganligii bayon etilmoqda. Jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi yo'llarini ishlab chiqdi, tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti mana shu yo'lga asos qilib olingan.

O'tish davri ko'xna Yevropa mamlakatlarida bir necha yuz yilni tashkil etgan bo'lsa, mustamlakachilikdan ozod bo'lgan Osiyo va boshqa qit'a mamlakatlarida bir necha o'n-yildan iborat bo'ldi. Masalan, Buyuk Britaniya – 200-yil, Fransiya – 150-yil, Germaniya va AQSh – 50–100-yil.

Boshlang'ich shart-sharoitlarga ko'ra yondashilgan guruhlash mezoniga asosan tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun 3 ta yondashuv va yana bir turdagi urinish mavjud. Bular:

³² Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li". – T.: O'zbekiston. 1992, 62-b.

1. Uzoq davom etgan evolyutsion taraqqiyotni bosgan rivojlangan mamlakatlardagi aralash iqtisodiyot;

2. An'naviy (oddiy va bozor, patriarxal feodal munosabatlariga) iqtisodiyot asosida shakllanayotgan madaniylashgan bozor munosabatlari;

3. Rejalashtirilgan buyruqbozlik iqtisodiyoti negizida shakllanayotgan bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat;

4. Sotsializm g'oyalarini samarali bozor iqtisodi vujudga keltirish bilan qo'shib olib borishga urinayotgan sotsialistik iqtisodiyotning Xitoycha yo'li.

Yuqoridagi yondashuvlar asosidagi tahlillar ko'rsatishicha, bozor munosabatlarining rivojlanishi birorta ham mamlakatda benuqson va tekis kechmagan.

Bozor mexanizmlarini ideallashtirish ham katta xato bo'ladi.

Shuning uchun ham «O'zbekiston tanlab olgan yo'l Respublika va uning xalqining manfaatiga nihoyatda mos keladigan ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir»³³.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy xususiyatlari akademiklar S.S.G'ulomov, M.Sharifxo'jayev, professorlar A.O'lmasov, N.To'xliyev, Yo.Abdullayev, Sh.Shodmonov, A.Razzoqov kabilarning tadqiqotlarida batafsil bayon etilgan.

Biroq, bozor iqtisodiyotiga oid tushunchalarni bayon etishdagi yondashuvlarda ayrim farqlar ham mavjud. Masalan, prof. A.A. Razzoqov bozor munosabatlarining 3 ta shakli mavjudligini qayd yetadi. Bular:

1. Yovvoyi bozor (dastlabki paytlarda);

2. Ma'muriy-buyruqbozlik bozori (sobiq SSSR va sotsialistik deb atalgan mamlakatlarda);

3. Boshqariladigan bozor (hozirgi deyarli barcha rivojlangan yetakchi mamlakatlarda).

³³ Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li". – T.: O'zbekiston. 1992, 62-b.

Ayni paytda prof. A.O'Imasov ta'kidlashicha, «Tarixan bozor iqtisodiyotining 2 turi bo'lgan: yovvoyi va madaniylashgan bozor iqtisodiyoti».

Islohotlarning «O'zbek modeli» nimalarga asoslanadi degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

– bozor iqtisodiyoti va demokratiya tamoyillariga asoslanadigan jamiyatni barpo etish;

– SSSR parchalangandan keyingi O'zbekistonning haqiqiy holati;

– xalqning mentaliteti va tarixiy an'analarga islohotlarni amalga oshirishning u yoki bu sur'atlariga aholining tayyorlik darajasi;

– «Shok terapiyasi» dan voz kechish.

Demak, islohotlardan asosiy maqsad – yurtimizning yanada rivojlanishi, xalqimizning farovonligi, jahon hamjamiyatidan o'zimizga munosib o'rin egallashdan iborat. XXI asr boshida O'zbekiston taraqqiyotining Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan strategiyasida quyidagi muhim ustuvor yo'nalishlar mavjud. Bular:

– iqtisodiyotning izchil o'sishi va samaradorligini oshirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish asosida xalq turmush darajasining barqaror va uzluksiz yaxshilanib borishini ta'minlash hamda aholini kuchli ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratish;

– siyosiy va iqtisodiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatdor va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmni shakllantirish;

– shaxsiy manfaatlarni mamlakat, xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash asosida jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish.

Xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, inson taraqqiyoti zamirida O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy tamoyillar jumlasiga quyidagilar kiritilgan:

– YaIM o'sish sur'atlarining aholi o'sish sur'atlaridan ustun kelishi, pirovardida esa, turmush daraja yaxshilanishi uchun zamin yaratildi;

– uzoq muddatli istiqbolda o'sish omili bo'lgan asosiy kapitalga sarmoya kiritishning yuqori sur'atlari ta'minlandi;

– iqtisodiy o'sishning ijobiy sur'atlari sharoitida inflyatsiya sur'atlarining barqarorlashishi natijasida, aholining real daromadlari va turmush darajasi yaxshilandi.

Shuningdek, islohotlar tajribasini umumlashtirishda turlicha yondoshuvlar shakllanmoqda. Ulardan biri bozor munosabatlariga o'tishning ijtimoiy muammolarini hal etilishi 3 bosqichga taqsimlanadi:

1-bosqich (1991–1994);

2-bosqich (1994–1997);

3-bosqich (1997-yildan hozirgi paytgacha).

Birinchi bosqichning maqsadi aholi turmush darajasining keskin pasayishi va ishsizlikning keskin oshishiga yo'l qo'ymaslik bo'ldi. Bu bosqichda davlat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iste'mol bozorini himoya qilish uchun iste'mol mollarni me'yoriy tarqatish tizimi, talon va kuponlar joriy etildi. Ijtimoiy kam ta'minlanganlar uchun imtiyozlar saqlandi.

Ikkinchi bosqichning maqsadi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish, inflyatsiyani jilovlash bo'ldi. Natijada mulkdorlar sinfi shakllandi. Xorijiy omillarga bog'liq bo'lgan o'zak tarmoqlarini mustahkamlash choralari ko'rildi. Milliy valyuta inflyatsiyasini maqbul darajada jilovlash imkoni yaratildi.

Uchinchi bosqich maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarishga qaratildi. Iqtisodiyotda miqdor va sifat siljishlari, kichik biznes va tadbirkorlik uchun huquqli sharoitlar yaratildi, ishsizlikning yashirin va turg'un holatlarini bartaraf etishga oid choralar ko'rildi. Aholi daromadlarining yangi

turlari – mulkdan va tadbirkorlikdan ham shakllana boshladi. Aholi kam ta'minlangan qatlamlar qashshoqlashuvi kamaytirildi. Boqimandalik chekindi. Mehnat va tadbirkorlik faolligi ortdi.

Asosiy tayanch tushunchalar

A.Smit, A.Marshall, J.Keyns, M.Fridmen, institutsionalizm, neoliberalizm va monetarizm oqimlari, «tabiiy tartib», proteksionizm siyosati, erkin tashqi savdo, «Reprezativ firma», o'sib boruvchi foyda va doimiy foyda, multiplikator, «aralash iqtisodiyot», antitrest siyosat, neoliberalizm, monetar g'oyalar.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Nima uchun A.Smit manufaktura ishlab chiqarishining mafkurachisi bo'lib qoldi?
2. A.Smitning pul, qiymat, daromadlar, ish haqi, kapital va takror ishlab chiqarish to'g'risidagi ta'limotlariga qisqacha izoh bering.
3. Xalq boyligi qanday omillarga bog'liq?
4. Nochor ahvolga tushgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun nima qilmoq kerak?
5. Davlat iqtisodiyotga nima uchun aralashuvi kerak?
6. Keyns ta'limotiga qanday shart-sharoitlar asos qilib olingan?

3-MAVZU. O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-IQTISODIIY RIVOJLANISH KONSEPSIYASI

3.1. Iqtisodiy taraqqiyotning turli xil konsepsiya va modellari

Sobiq ittifoq parchalanib ketgandan so'ng mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini qidirib, yangi jamiyat qurishning o'ziga xos modelini ishlab chiqdi. Bunda ilk asos vazifasini kishilarning o'z qadriyatlarini tizimi va aniq maqsadni ko'zlab tutilgan yo'l, milliy an'analar va tarixiy shart-sharoit, real ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhit, odamlarning tarkib topgan turmush tarzi va dunyoqarashi o'tagan.

Natijada hozirgi dunyo ijtimoiy taraqqiyotining g'oyat xilma-xil betakror yo'llarini, milliy iqtisodiyotlarning shakllanishini, sifat jihatidan yangi turmushga erishish usullarini o'rganish va bilish uchun nihoyatda qulay imkoniyat beradi.

Jamiyatni taraqqiy ettirish va iqtisodiyotni isloh qilish yo'llarining xilma-xilligi bir qancha omillarga bog'liq. Avvalambor, bunga ularning aniq maqsadni ko'zlab yo'naltirilishi va iqtisodiyotning amal qilish prinsiplari sabab bo'ladi. Rivojlanayotgan yosh mamlakatlar o'z oldilariga erishish osonroq bo'lgan maqsadlarni qo'yib, «muqobil rivojlanish» nazariyasining turli konsepsiyalariga tayanib, o'z yo'llarini mana shu konsepsiyalar doirasida izlashga majbur edilar. Bu konsepsiyalarning asosiylari quyidagilar:

– «Asosiy ehtiyojlar» konsepsiyasi. Aholining eng kam tirikchilik ehtiyojini kafolatli tarzda ta'minlash va ish bilan band qilish muammolarini hal etish ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadidir;

– «Maqbul yoki tegishli texnologiya» konsepsiyasi. Bu konsepsiya aholi bandligini ta'minlaydigan va mahalliy xomashyoni, avvalo qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlashga qaratilgan sermehnat texnologiyani rivojlantirish zarurligiga asoslanadi;

– «O‘z kuchiga jamoa bo‘lib tayanish» konsepsiyasi. Bu konsepsiya mavjud zaxiralardan to‘liqroq foydalanishga va rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiy etgan mamlakatlarga qaramligini kamaytirish maqsadida ular o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan;

– «Yangi xalqaro iqtisodiy tartib» konsepsiyasi. Bu konsepsiya rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan mustamlaka holatidan qutilishga va iqtisodiy qoloqligini tugatishga, teng huquqli sheriklar sifatida tan olinish, xomashyo va sanoat mollariga o‘z manfaatlariga muvofiq keladigan yangi narxlarni, xalqaro savdo me‘yorlarini, valyuta kursini belgilashga, zamonaviy texnologiyalarni sotib olish imkoniyatlarini kengaytirishga bo‘lgan umumiy intilishlarini aks ettiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pgina andozalari, iqtisodiy yo‘llari Yuqorida ko‘rsatilgan konsepsiyalar va nazariyalarning o‘ziga xos qo‘shilmasidan iboratdir.³⁴

Tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning boshlang‘ich shartlariga ko‘ra, ilmiy tafakkur bir-biridan mutlaqo farq qiluvchi uch xil yondashuvni ajratib ko‘rsatadi. Bular islohotlarning o‘ziga xos jihatlari ham belgilab beradi. Birinchisi, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va rivojlantirish, uzoq davom etgan evolyutsion taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan rivojlangan mamlakatlarda aralash iqtisodiyotni shakllantirishdir. Ikkinchisi, rivojlanayotgan mamlakatlarning eng oddiy va bozor patriarxal-feodal munosabatlarini ko‘rinishlariga ega bo‘lgan an‘anaviy iqtisodiyotini madaniy bozor munosabatlariga aylantirishdir. Uchinchisi, sobiq sotsialistik mamlakatlarning yakkahokimlik tartibidan, ma‘muriy-buyruqbozlik boshqaruv va markazlashtirilgan rahbarlik usulidagi rejalashtirishdan bozor munosabatlariga, demokratik jamiyatga o‘tishdir.

Sotsialistik iqtisodiyotning xitoycha yo‘lida o‘z aksini topgan sotsializm g‘oyalari samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish bilan qo‘shib olib borishga urinish ham mavjud.

³⁴ Karimov I.A. "O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li". – T.: O‘zbekiston, 1993, 20–21-b.

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga revolyutsion yo‘l bilan, ya‘ni jadal usulda yoki evolyutsion yo‘l bilan, ya‘ni bosqichma-bosqich o‘tish mumkin. Birinchi holda, tub islohotlarni o‘tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni batamom sindirish talab etiladi. Bu "falaj qilib davolash usuli" deb ataladi va uning tarafdorlari shu usul bilan samarali iqtisodiyotni vujudga keltirishni orzu qiladilar.

Nazariya va amaliyot eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini ortiqcha talofat va shikastlarsiz vujudga keltirish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu – evolyutsion yo‘l bo‘lib, u ancha izchil va muqarrar hisoblanadi hamda ijtimoiy larzalar xavfini kamaytiradi.

Jahonda milliy taraqqiyot modellari ko‘p. Ular o‘sha mamlakat tub aholisi – millatning nomi bilan ataladi. Masalan, amerika, nemis, shved, yapon, xitoy singari milliy modellar ma‘lum.

Har bir milliy model o‘sha mamlakat aholisining mentaliteti, tarixiy va madaniy qadriyatlarini, siyosiy tuzumi, ijtimoiy tarkibi, tabiiy – iqtisodiy shart-sharoitlari, ishlab chiqarish omillari va resurslari, iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi kabi holatlardan kelib chiqadi.

Qanday model to‘g‘risida gap bormasin, asosiy maqsad samarali iqtisodiyotni barpo etish, xalq turmush darajasini yuksaltirishdan iboratdir. Biron-bir modelni tanlash pirovard maqsad emas. Model, eng avvalo, mavjud tabiiy, ishlab chiqarish va buyuk aql-zakovatning amaldagi ifodasidir.

Shimoliy Amerika, xususan AQSh modelida bozorda davlatning xo‘jalik faoliyatidagi roli eng past darajaga tushirilgan. Davlat asosan uchta vazifa — barqarorlik, qonun oldida barcha fuqarolarining tengligini ta‘minlash, infratuzilmani rivojlantirish yo‘li bilan biznes va tadbirkorlik faoliyatiga ko‘maklashish hamda o‘zini o‘zi boqishga qurbi etmaydiganlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish

bilan shug'ullanadi. Bu model bozorning keskin, shiddatli yo'li bo'lib, korxonalarining zarar keltirib ishlashini, dotatsiyani rad qiladi. Bu yo'l bir qarashda ancha maftunkor tuyulsa-da, ammo xalqni, ayniqsa, uning kam ta'minlangan tabaqalarini ancha qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin. Amerika modeli narxlarning erkin shakllanishi, subsidiyadan voz kechish, tashqi savdo uchun ochiq iqtisodiyot, davlat korxonalarini xususiylashtirish, chet el sarmoyadorlarini jalb qilish, samarasiz korxonalarni yopish va ortiqcha ishchilarni bo'shatishni ko'zda tutadi. Bu yo'l muayyan keskinliklar – g'oyat yuqori narx-navo, ishsizlik, daromadlarning pasayishi, tashqi qarzning oshishiga ham olib keladi. Ammo bunday yo'qotishlar erkin bozorga o'tish bilan bog'liq. Uzoq muddatli foyda bilan keyinchalik qoplanishi mumkin, albatta.

Bu model aksiyadorlik mulkining intensiv qayta taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Bu modelda korxonaga tovar sifatida qaraladi. U «qismlarga» bo'linib ham, fond birjasi orqali ham sotilishi mumkin. «Amerikacha» iqtisodiy taraqqiyot modelining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ishlab chiqarish konsentratsiyalashuvining g'oyat yuqoriligi va yirik biznesning iqtisodiyotda muhim o'rin tutishidir. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, korporatsiyalarning tovar aylanmasi mamlakatdagi jami tovar aylanmasining 90 foizini tashkil yetadi. Mavjud 4 milliondan ortiq sanoat korporatsiyasidan besh yuztasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 40 foizini ishlab chiqaradi³⁵. Ushbu korporatsiyalarning katta qismi transmilliy korporatsiyalar hisoblanadi va ularning xorijdagi korxonalari ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlari AQSh yalpi ichki mahsulotining 1/3 qismini tashkil yetadi³⁶.

Moliya kapitali darajasida konsentratsiyalashuv ko'rsatkichlari yana-da yuqori. Garchi mamlakatda bir necha ming tijorat banki faoliyat yuritsada, ulardan elliktasi jami bank aktivlarining 1/3 qismiga egalik qiladi.

³⁵ Экономика США. // Под ред. В.Б.Супяна// – СПб.: Питер, 2003. – с.514.

³⁶ Черников Г.П. Мировая экономика. М.: Дрофа, 2003. – с.297.

Yirik banklar va sanoat korporatsiyalari strategik alyanslarni tashkil yetadi. Bunday yirik moliya-sanoat guruhlarini mamlakat yetakchi iqtisodiy markazlarini o'z ta'sir doirasiga qamrab olishi tabiiy. Mutaxassislar fikricha, hozirgi kunda AQSh iqtisodiyotida yigirmadan ortiq ana shunday alyans faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyotning «amerikacha» modelida inson omilining roli ham yuqori ekanligini ta'kidlash lozim. AQSh muhojir-ajnabiylar mamlakati hisoblanadi. Amerika davlati muhojirlar tomonidan barpo etilgan. Ommaviy muhojirlik AQSh aholisi milliy tarkibining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Hozirgi amerika millati – dunyoning turli qit'alaridan, eng avvalo, Yevropadan ko'chib kelgan odamlarning etnik yaxlitligi natijasidir. Garchi AQShda yuzdan ortiq millat va elat istiqomat qilsa-da, ularning 80 foizini yevropaliklar, 12 foizini qora tanli amerikaliklar, 5 foizini ispan tilida so'zlashuvchi amerikaliklar tashkil yetadi. Mahalliy xalq (avvalo, hindular) soni bir foizga yaqin, xolos.

Iqtisodiy adabiyotlarda Yevropa mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyot modellari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- nemis iqtisodiy taraqqiyot modeli;
- britanacha taraqqiyot modeli;
- fransuzcha taraqqiyot modeli;
- iqtisodiy taraqqiyotning «shvedcha modeli».

Nemis iqtisodiy taraqqiyot modelining o'ziga xosligi shundaki, unda asosiy e'tibor ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, ijtimoiy-huquqiy davlat qurilishiga qaratilgan. Nemis «iqtisodiy mo'jizasi» iqtisodiyotga davlat aralashuvi va erkin bozor tamoyillaridan maqsadga muvofiq foydalanishga asoslanadi. Germaniyada iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillari jumlasiga «Marshall rejasi»ga muvofiq keng miqyosli yordamdan foydalanish, «inson kapitali» sifatining yuqoriligi, jahon xo'jalik aloqalarida faol ishtirok etish, mo'tadil ichki iqtisodiy siyosatni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta'sirida uzoq vaqt davomida narx barqarorligi saqlanib turgan holda, mamlakatda yalpi ichki

mahsulotning yillik o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati 8,5 foizgacha yetdi¹¹. Aynan shu davrda «nemischa sifat», «nemischa mehnatkashlik», «nemischa mas'uliyat» kabi tushunchalar paydo bo'ldi.

Britanacha taraqqiyot modelida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ustuvor o'ringa ega. Davlat kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda, yangi tarmoqlarni rag'batlantirishda, ilmiy yo'nalishni rivojlantirishda, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat ko'plab kichik korxonalarining yirik kompaniyalar bilan o'zaro shartnoma imzolashida vositachi rolini bajaradi. Kichik korxonalar esa bunday shartnomalar orqali barqaror bozorga, ta'minot va moliyalashtirish manbasiga ega bo'ladilar, yangi texnologiyalar va ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalaridan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Fransuzcha taraqqiyot modeli «dirijizm» tamo-yillariga asoslanadi. Garchi «neoliberal inqilob» natijasida davlatning tadbirkorlik faoliyati birmuncha qisqargan bo'lsa-da, Franiyada davlat tadbirkorligi AQSh darajasidan 3 barobar yuqoridir. Davlatning tartibga solish faoliyati ham sezilarli darajada saqlanib qolgan. Bugungi kunda Fransiya hukumati umummilliy tuzilmaviy dastur, yangi tarmoqlarni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, faol ijtimoiy siyosat yuritish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir o'tkazmoqda. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat byudjeti asosiy o'rinda turadi. Fransiya milliy daromadining 54 foizi davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanadi.

Iqtisodiy taraqqiyotning «shvedcha modeli»da ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash ustuvordir. «Shvedcha» modelning iqtisodiy asoslari quyidagilardan iborat:

➤ aralash iqtisodiyot (bozor mexanizmi va davlat tomonidan faol tartibga solish usulidan birgalikda foydalanish);

➤ ishlab chiqarish sohasida xususiy mulkchilik kombinatsiyasi va «iste'molning jamoalashuvi»;

➤ ijtimoiy xizmatlarda davlat-kommunal sektori rining yirikligi;
➤ cheklangan mikroiqtisodiy siyosatning bandlik va investitsiyalarning yuqori darajasini saqlab turish bo'yicha selektiv chora-tadbirlar bilan uyg'unlashuvi.

Milliy iqtisodiy taraqqiyot modellarining Yevropa modellari (Germaniya, Shveysariya, Niderlandiya, Shvetsiya) ko'p hollarda Germaniyadagi mashhur daryo nomi bilan – «Reyn modeli» deb ham ataladi. Bu model aksioner korxonalar mulklari tarkibining barqarorligi bilan tavsiflanadi. Bu modelda iqtisodiy faoliyat «falsafasi» katta rol o'ynaydi. Unga ko'ra korxonaga umumiy manfaatlarga ega jamoa deb qaraladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda Evropa mamlakatlariining turli milliy modellarida umumevropa modeliga yaqinlashuv holati kuzatiladi. Bu eng avvalo quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

➤ yagona ichki bozorni barpo etish;
➤ iqtisodiy va valyuta ittifoqini shakllantirish;
➤ moliya siyosatini muvofiqlashtirish;
➤ ijtimoiy modellarning yaqinlashuvi;
➤ tadbirkorlik faoliyati va raqobat muhitini shakllantirishning yagona shart-sharoitlarini ta'minlash;
➤ federativ tuzilmani takomillashtirish;
➤ iqtisodiyotni tartibga solishning yagona qoidalari va mexanizmlarini qabul qilish.

Yaponiyada ham, Osiyoning yangi industrial davlatlarida ham erkin tadbirkorlik faoliyati davlat boshqaruvi (markazlashgan rejalashtirish) bilan qo'shib olib boriladi. Asosiy narxlar fiskal usullar bilan, ya'ni davlat daromadlarini nazarda tutib boshqarilishi mumkin. Albatta, hozirgi iqtisodiyotda muayyan turdagi bozor o'z xolicha va sof ko'rinishda uchramaydi. Hozir mamlakatlar, xalqlar tajribasi ancha umumlashib ketdi. Osiyodagi yangi industrial davlatlar, ulardan oldin esa Yaponiya iqtisodiy islohot va xo'jalikni

tarkibiy qayta qurish davomida jahon tajribasidan keng foydalanilganligi ma'lum.

2-jahon urushidan keyin yapon iqtisodiyoti qiyin ahvolga tushib qolgan. Sanoatning chuqur inqirozi, harbiy-iqtisodiy modeldan bozor modeliga o'tishning qiyinchiliklari, iqtisodiyotning harbiy ishlab chiqarishga bo'ysundirilganligi, tinkani quritadigan taqchilik, inflyatsiya va boshqalarni engib o'tish lozim edi. Ammo Yaponiya xalqi bu qiyinchiliklarni ancha tez hal qildi. Chunki mamlakatdagi boshqarishning markazlashgan harbiy qolipi joriy etilgan shunchaki tartibot emas, balki mavjud vaziyatni hisobga olib, ataylab orqaga chekinish edi.

Shuning uchun iqtisodiyotning yangi bozor modeli qaytadan yaratilmadi. Yaponiyada sobiq sotsialistik mamlakatlardagi kabi millatning eng iste'dodli, eng qobiliyatli qismi, tadbirkor, omilkor kishilar yo'q qilib yuborilmagan edi. Asosiy masala – islohotni nimadan boshlashda edi. Bu masala avvalo to'g'ri belgilab olindi va keyin yechildi: iqtisodiy jonlantirishning ustun tomonlari aniq belgilandi, avvalo oziq-ovqat, ko'mir, ruda, eng hayotiy zarur buyumlarni ishlab chiqarish rivojlantirildi.

Iqtisodiy taraqqiyotning «yaponcha» modeli o'zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ulardan biri yaponcha hayot tarzi an'analarni xurmat qilish asosida barcha darajada va barcha ijtimoiy sohalarida munosabatlarni muvofikdastirishni ko'zda tutuvchi jamiyatni ijtimoiy tashkil etishdan iboratdir. Yaponiyada g'oyaviy qadriyatlar asosida amerikacha standartlardan keskin farq qiluvchi mehnatga rag'batning o'ziga xos shakli vujudga kelgan. Iqtisodiy taraqqiyotning aynan «yaponcha» modelida jamiyat hayotida ijtimoiy-madaniy va diniy omilning ahamiyati yaqqol o'z ifodasini topgan.

Yapon xalqi va madaniyatida ijtimoiy ong, jamoa ruhi muhim o'rin tutadi. Bu qadimiy va boy tarix samarasidir. Yapon milliy an'analarga ko'ra har qanday ijtimoiy guruh manfaati alohida shaxs

manfaatidan ustun. Jamiyat hayotida birlamchi guruh – oila asosiy rol o'ynaydi, keyingi o'rinda esa jamoa turadi. Zamonaviy korxonalar, korporatsiya ham, davlat ham yirik oila hisoblanadi.

Har bir yaponiyalik guruh nomidan fikrlashi va o'zini guruh a'zosi deb hisoblashi faqat yapon madaniyati va an'analari bilan bog'liq emas, albatta. Bunda yapon jamiyatining ijtimoiy tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislar fikricha, Yaponiya ijtimoiy barkamollik jamiyati hisoblanadi. Garchi real vaziyat ushbu ta'rifga to'la mos tushmasa-da, Yaponiyaning boshqa rivojlangan mamlakatlardan farqli jihatlari ko'p. Chunonchi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar miqdori g'oyat yuqori bo'lishiga qaramasdan, Yaponiyada boylar va kambag'allar o'rtasida unchalik katta tafovut yo'q. Hususan, aholining eng boy va eng qashshoq 20 foizi daromadlari o'rtasidagi nisbat Yaponida 2,9 barobarni tashkil yetadi, xolos. Vaholanki, bu ko'rsatkich AQShda 19 ga teng³⁷.

Boshqaruvning «yaponcha» usuli rivojlanishning strategik muammolariga alohida e'tibor qaratadi. Davlat korxonalarining ijtimoiy samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Bunda u faqat pul rentabelligi bilan o'lchanadigan tor doiradan yuqoriroq fikrlashni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.³⁸

Xitoy va Vetnam iqtisodiy islohotni ustun darajada qishloq xo'jaligidan, oziq-ovqat bozorini to'ldirishdan boshladi va yaxshi natijalarga erishdi.

Xitoyda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor mexanizmi va iqtisodiyotning nodavlat sektori o'z mavqeini sezilarli darajada kuchaytirdi. Ammo davlat tomonidan tartibga solish, mehnat bo'yicha taqsimlash va ijtimoiy kafolatlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu modelni sotsialistik model ustuvor mavqega ega bo'lgan

³⁷ Ekonomika SShA. //Pod red. V.B.Supyana//. – SPb.: Piter, 2003. – S.324.

³⁸ Nurisлом To'xliyev «Taraqqiyotning o'zbek modeli». – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». 2012. 43-51-betlar.

aralash iqtisodiyot deb ham atash mumkin. Shu o'rinda Xitoy modelining asoschilaridan biri Den Syaopinning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinni: «Reja» yoki «bozor» – bu kapitalizm va sotsializmning tub farqi emas. Rejali iqtisodiyot sotsializm degan ma'noni anglatmaydi, kapitalizm ham reja mavjud. Ayni vaqtda bozor iqtisodiyoti kapitalizm emas, zero, sotsializm ham bozor mavjud. Reja va bozor – iqtisodiy usullardir»³⁹.

Iqtisodiy taraqqiyot modellarining xilma-xilligi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham xos. Bu modellarni rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: eksportga yo'naltirilgan va importning o'rnini bosishga qaratilgan strategiyani tanlagan mamlakatlar. Birinchi guruhga Janubi-sharqiy Osiyoning «yangi industrial mamlakatlari»ni, ikkinchi guruhga Lotin Amerikasi mamlakatlarining rivojlanish modelini kiritish mumkin.

3.2. Taraqqiyotning «O'zbek modeli»

O'zbekistonning o'z taraqqiyot modeli mavjud bo'lib, u mamlakat Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbuslari bilan ishlab chiqilgan. Ushbu modelning amaliyotda samarali qo'llanilishi natijasida O'zbekiston hozirgi kunda dunyo tan olgan mamlakatlar qatoriga kirgan. Bu xususda, Prezident Shavkat Mirziyoyev «... Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning «O'zbek modeli»ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o'z ishimizda doimo suyanamiz»⁴⁰, deb ta'kidlab o'tgan edi.

Bozor munosabatlariga o'tish keng qamrovli va murakkab jarayon bo'lib, bunda har bir mamlakatning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari, iqtisodiy taraqqiyot darajasi, milliy va tarixiy

³⁹ Лю. Гогун. Функционирование и развитие китайской экономики Гуанчжоу, 2001. – С.39 (xitoy tilida).

⁴⁰ Sh.M.Mirziyoyev. «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak». // Xalq so'zi. 16.01.2017-y.

an'analari, xalqning mentaliteti va boshqa jihatlar hisobga olinishi lozim. Bu esa har bir alohida mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tish konsepsiyasi va strategiyasining ishlab chiqilishini taqozo yetadi. Mazkur konsepsiya va strategiya tarkibidan o'rin olgan o'tish jarayonlarining maqsad va vazifalari, asosiy yo'nalish va bosqichlari hamda tamoyillarining majmui o'tishning milliy modelini tashkil yetadi.

Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish maqsadi bir xil bo'lsa-da, o'tish yo'llari turlicha bo'lishi mumkin. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning evolyutsion, ya'ni, bosqichma-bosqich amalga oshiriluvchi yo'lini tanladi. Bu yo'l mamlakatimizning o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyutsion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir.

Bu borada mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov «Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analari, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tishdagi iqtisodiyotni biryozlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi»⁴¹, – deb ta'kidlaydi.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish konsepsiyasi beshta asosiy tamoyilni o'z ichiga oladi. Ularning mohiyati quyidagilardan iborat:

Birinchi, iqtisodiyot siyosatdan ustun bo'lishi kerak, ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi etishni ta'minlash zarur.

Ikkinchi, davlat asosiy islohotchi bo'lishi kerak, u eng muhim sohalarni belgilab berishi, islohotlar siyosatini ishlab chiqishi

⁴¹ Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». – T.: O'zbekiston. 1998, 101–102-b.

va uni izchil amalga oshirishi, jaholatparastlar va konservatorlarning qarshiligini engishi lozim.

Uchinchidan, qonunning ustunligi. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul etilgan yangi konstitutsiya va qonunlarni istisnosiz hamma fuqarolar hurmat qilishga va ularga rioya etishga majburdirlar.

To'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotning obyektiv qonunlarini e'tiborga olib, o'tmishdagi "inqilobiy sakrashlar"ga yo'l qo'ymay, ya'ni evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak⁴².

Bu tamoyillar o'z istiqloq, rivojlanish va taraqqiyot yo'limizga asos qilib olingan bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil yetadi. Hozir bu qoidalarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, bozor munosabatlariga o'tish faqatgina iqtisodiyot sohalarini o'zgartirish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy hayotning bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan barcha sohalarini, shu jumladan siyosiy, ma'naviy-ahloqiy, maishiy va boshqa sohalarni ham tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolyutsion yo'l bilan o'tish haqidagi g'oya juda muhim va afzal ekanligini ko'rsatadi.

1980- va 1990-yillarning boshlarida dunyoda sodir bo'lgan olamshumul o'zgarishlar hozirgi zamon iqtisodiy tafakkuriga hamda

ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari to'g'risidagi qarashlarga jiddiy o'zgarishlar kiritdi. Erkin iqtisodiy tartibga solish g'oyasi ham, markazlashtirilgan tarzda rejalashtirish g'oyasi ham inqirozga uchradi. Jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi yo'llarini ishlab chiqdi, tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti mana shu yo'lga asos qilib olingan.

Sobiq ittifoq maydonida barpo etilgan sotsialistik tuzumning o'z vaqtida anglab yetilmagan nuqson va illatlari bugungi kunda aniq namoyon bo'ldi. Endilikda bu tuzum proletariat (ishchilar sinfi) hukmron sinf, kommunistik partiya esa yo'naltiruvchi kuch hisoblangan «davlat sotsializmi», «davlat mulki monopoliyasi», «totalitar tuzum», «ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvi va markazlashtirilgan tarzda rejalashtirishga asoslangan tizim» kabi qator nomlar bilan atalmoqda.

Sotsializm negizida bozor iqtisodiyoti qurib bo'lmaydi, chunki u faqat mulk shakllarining xilma-xilligi, avvalo, xususiy mulk sharoitidagina amal qilishi va rivojlanishi mumkin. Eng muhimi, iqtisodiyotni ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan rivojlantirish mumkin emas.

Sobiq sotsialistik va boshqa mamlakatlar voqeligi keltirib chiqargan yangi hodisalar, munosabatlar va jarayonlar endilikda an'anaviy tushunchalarga mos kelmayapti. Mulkchilik, ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish omillari, boshqarishning bozor va rejali tartibga solish mexanizmlari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi va ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyati kabi boshqa tushunchalar umuman yangi mazmun kasb etmoqda.

Bunday sharoitda o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li va modelini tanlab olish juda katta ahamiyatga molik.

Totalitar tizim vayron bo'layotgan davrda sobiq ittifoqdosh Respublikalar o'rnida tuzilgan mustaqil davlatlarda iqtisodiy qurilish va demokratik o'zgartirishlarga mutlaqo yangicha yondashuvlar va

⁴² Karimov I.A. "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li". – T.: O'zbekiston. 1996, 286–287-b.

nuqtai nazarlarni asoslab berish muhim ahamiyatga ega. Bu davlatlar o'zini mustaqil deb e'lon qilgani har bir suveren Respublika o'z manfaatlariga mos keladigan mustaqil ichki va tashqi siyosatni o'tkazish niyatida ekanini bildiradi.

Hozir har bir Respublikada iqtisodiyotni barqarorlashtirish va isloh qilish muammolari yechimi zo'r berib izlanmoqda, o'z dasturiy yondashuvlari ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlar bozor iqtisodiyotini barpo etishga qaratilgani holda, islohotni amalga oshirish usuli, bosqichlari va muddati bilan bir-biridan tubdan farq qiladi.

"Shu sababli, bizning qat'iy nuqtai-nazarimiz jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan olingan jamiki foydali tajribalarni rad etmagan holda o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olishdan iboratdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi "inqilobiy sakrashlar" siz, ya'ni, evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak"⁴³.

Butun isloh qilish jarayonining boshlang'ich nuqtasi strategiyani tanlab olishdan iboratdir. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olish hozirgi isloh qilish strategiyasining boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Strategiya va uning pirovard maqsadini belgilar ekan, birinchi Prezident – "Bunda biz markazlashtirilgan, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish – eski xo'jalik yuritish mexanizmini shunchaki yangilash yoki takomillashtirish emas, balki bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tish ekanligini qayta-qayta ta'kidladik. Bu bir iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarining boshqa iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari bilan almashinuvidir"⁴⁴, – degan edilar.

⁴³ Karimov I.A. "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li". T.1. – T.: O'zbekiston, 1996, 172–174-b.

⁴⁴ O'sha yerda.

Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti markazlashtirilgan rejali bozordangina emas, balki erkin bozordan ham farq qiladi. Uning erkin bozordan muhim farqi shundan iboratki, u iqtisodiy va ijtimoiy asoslarning sintezi hisoblanadi. Bu shuni bildiradiki, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti to'la-to'kis ham bozor iqtisodiyoti, ham ijtimoiy iqtisodiyot hisoblanadi, iqtisodiy rivojlanish samaradorligini ijtimoiy kafolatlar va ijtimoiy adolat bilan bog'lash maqsadini ko'zlaydi. Shunisi diqqatga sazovorki "ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti" va "aralash iqtisodiyot" bir-biriga yaqin tushunchalardir. "Aralash iqtisodiyotning mohiyati jamiyat iqtisodiy hayotini qurish va tartibga solishning xususiy va umumdavlat manfaatlaridan iborat ikkita har xil prinsiplarining – erkin bozor va raqobat bilan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining ayni bir vaqtda mavjud bo'lishidan va ularning o'zaro ta'siridan iboratdir. Xuddi shu uyg'unlik hozirgi zamon iqtisodiyotining yuragi, deb hisoblash mumkin.

Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot bu aralash iqtisodiyot ekanligini asoslaydi. Agar bozor – ishlab chiqarishni odamlarning o'sib boruvchi va muttasil o'zgarib turuvchi ehtiyojlariga eng yuqori darajada yo'naltirishni ta'minlovchi mexanizm bo'lsa, davlat barqarorlikning, himoyalanganlikning va ijtimoiy adolatning ijtimoiy kafolati hisoblanadi. Bu davlatning global funksiyalaridir. Shunday qilib, ijtimoiy yo'naltirilgan aralash iqtisodiyotda ikki mexanizm: bozor mexanizmi va davlat mexanizmi (tartibga soluvchi mexanizm) amal qiladi.

3.3. O'zbekistonda dastlabki strategik vazifalarning belgilanishi

O'zbekiston Respublikasi o'z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida ishlab chiqilgan umumiy konsepsiya doirasida iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi muayyan strategik maqsadlarni belgilab oldi. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish.

2. Ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish.

3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish.

4. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shib borish.

5. Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish.

“Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat. Bu – lo'nda qilib aytganda, rivojlangan davlatlarning tajriba va taraqqiyot modellaridan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmagan holda, ularga xos yuksak hayot darajasi va sifatiga erishish. Mamlakatimizda millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir insonning barcha huquq va erkinliklari kafolatlanadigan, farovon turmush tarzi ta'minlanadigan demokratik rivojlanish yo'lini izchil davom ettirish demakdir”⁴⁵.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisoiy taraqqiyotining dastlabki davrlarida jamiyatni yangilash va isloh etish maqsadida ishlab chiqilgan konsepsiya va uni amalga oshirishdagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

I. Siyosiy sohada:

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish jarayonini yana-da chuqurlashtirish, yangi ma'no-mazmun bilan

⁴⁵ Karimov I.A. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000, 323-b.

boyitish, uning izchilligi va samarasini ta'minlash. Bu boradagi bosh vazifalar quyidagilardan iborat:

– mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish. Fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratish. Odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishi, jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish;

– mamlakat siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiya-viylik muhiti qaror topishiga erishish. Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim. Amaldagi ko'ppartiyaviylik – bu har xil qarash va g'oyalar o'rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan, muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydoni.

– nodavlat tuzilmalar, hukumatga qarashli bo'lmagan va jamoat tashkilotlarining, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yana-da mustahkamlash va rivojlantirish.

– jamiyatimizda ommaviy axborot vositalarining haqiqiy “to'rtinchi hokimiyat”ga aylanishini ta'minlash.

– inson huquqlari va erkinliklarini yana-da mustahkamlash va rivojlantirish. O'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish darkor.

II. Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida:

– hokimiyat tizimlari bo'linishining konstitutsion prinsipiga amal qilinishini ta'minlash;

– ma'muriy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini kuchaytirish;

– kadrlar tanlashning obyektiv tarzda ishlaydigan tizimini shakllantirish;

III. Iqtisodiyot sohasida:

– iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;

– xususiylashtirish jarayonini yana-da chuqurlashtirish va shu asosda amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish.

– mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yana-da kuchaytirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirorlikni ustuvor tarzda rivojlantirish;

– iqtisodiyotda mukammal texnologik jarayonni o'z ichiga olgan ishlab chiqarishni yetakchi o'ringa chiqarish;

IV. Ma'naviyat sohasida:

– milliy qadriyatlarimizni tiklash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish. Milliy, ma'naviy qadriyatlar va hozirgi zamon sivilizatsiyasi yutuqlarining uyg'unligidan kelib chiqib milliy mafkurani boyitish;

– mamlakatimizdagi har bir fuqaroning o'z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qila olishini jamiyatimizda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning negiziga aylantirish;

– islom dinini iymon, ahloq, diyonat, ma'rifat manbai sifatida qadrlab, undan g'arazli siyosiy maqsadlarda foydalanishni istaydigan kuchlardan himoyalash;

– oila, onalar va ayollarning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini yana-da oshirish;

– O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning tili, madaniyati, urf-odat va an'alarini rivojlantirishga ko'maklashish,

ularga yaratib berilgan imkoniyat va sharoitlarni yana-da kengaytirish;

– keksalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatishdek noyob insoniy qadriyatni yangi mazmun va amaliy ishlar bilan boyitish.

V. Sud-huquq sohasida:

– huquqiy davlatni shakllantirish borasida birinchi galda qabul qilinishi lozim bo'lgan yangi qonun va me'yoriy hujjatlarni aniqlash;

– qonun va me'yoriy hujjatlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlovchi tizim yaratish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

– sudning to'laqonli mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatidagi mustaqilligini ta'minlash uchun sud tizimini isloh qilish;

– aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini keng ko'lamda amalga oshirishga alohida e'tibor berish.

VI. Tashqi siyosat sohasida:

– Markaziy osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash;

– yaqin qo'shni mamlakatlar, xususan, Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash;

– O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvini ta'minlash.

VII. Xavfsizlikni ta'minlash sohasida:

– demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ma'naviy taraqqiyotga erishish, shuningdek, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligini kuchaytirishning asosiy sharti va garovi – mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlar va fuqarolar o'rtasida totuvlikni saqlash va ko'z qorachig'iday asrash;

– Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash, ularning bu yo'ldagi sa'y-

harakatlari, imkoniyatlari va salohiyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish. Armiya, chegara va ichki qo‘shinlarimizni bosqichma-bosqich va izchil isloh etish;

– terrorchilikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro markaz barpo etishga oid O‘zbekiston tashabbusini amalga oshirish borasidagi ishlarni yana-da kuchaytirish;

– huquq-tartibot organlari tizimini isloh etish va ularning jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlash;

– jinoyatchilik, ekstremizm va jaholatning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurashda, umumiy xonadonimizdagi tinchlik va osoyishtalikni asrash yo‘lida aholi faolligini oshirish.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bozor munosabatlarini shakllantirish yo‘lidagi muqarrar jarayondir. U eng avvalo, tanglik holatlariga barham berishga qaratiladi. Tanglik holati inqirozga uchrashning oldini olish uchun ishlab chiqarish, chiqarilayotgan tovar va (xizmatlar)ning sifati va turini o‘zgartirish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rishga undaydi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, mahsulotning sifati va iste‘mol xossalarini yaxshilashga, uning raqobatga bardoshligini oshirishga majbur qiladi. Bularning barchasi pirovard natijada bozorda talab va taklif o‘rtasida qulay muvozanatni ta‘minlashga olib keladi. Kengroq ma‘noda barqarorlashtirish, eng avvalo, makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga va ommaviy ihsizlikka yo‘l qo‘ymaslikdir. Shuningdek u pul qadrsizlanishining oldini olish, to‘lov balansini bir me‘yorda saqlash sohasida aniq maqsadni ko‘zlab olib boriladigan davlat siyosatidir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy islohotlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, islohotlar konsepsiyasi va strategiyasi, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, taraqqiyot modellari, taraqqiyotning “O‘zbek modeli”.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘li qanday xususiyatlarga ega?

2. Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?

3. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish tamoyilining mazmunini batafsil tushuntiring.

4. Respublikada iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi?

5. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning har bir yo‘nalishi bo‘yicha o‘zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring.

6. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish o‘z oldiga qanday vazifalarni qo‘yadi?

4-MAVZU. O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI

4.1. O‘zbekistonning mustaqillikgacha bo‘lgan davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

1986-yillarda “Respublika asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Ittifoqdagi o‘rtacha darajadan ham ancha orqada bo‘lib, mamlakatda oxirigi o‘rinlardan birida turgan. O‘zbekiston har kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha mamlakatda 12 o‘rinda, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘rsatkich esa, Ittifoqdagi o‘rtacha darajadan ikki hissa past.⁴⁶ Shunga muvofiq, sanoat, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy infrastruktura va boshqa ko‘plab sohalar izdan chiqib ketgan.

Mustabid tuzum davrida O‘zbekiston umumittifoq mehnat taqsimotida xomashyo bazasi vazifasini bajarar edi. 1990-yilda SSSRda ishlab chiqariladigan paxta tolasining 62,4 foizi O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri kelardi, hamda etishtirilgan paxtaning 7 foizigina Respublikada qayta ishlanar edi⁴⁷.

Respublikada ishlab chiqarilgan paxta tolasi asosan Rossiya-ning markaziy shaharlarida qayta ishlanib va paxtamizdan olinadigan gazmol va tikuvchilik mahsulotlarini chetdan olib kelishga majbur edik.

O‘zbekiston resurslarga boy mamlakat bo‘la turib, iqtisodiy taraqqiyotda ko‘pgina Sharq mamlakatlaridan orqada qolib ketdi. 1990-yili aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 75–80-o‘rinni egalladi, ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati, uning tarkibiy strukturasi, tarkibining yangilanishi, ya‘ni diversifikatsiyasi jihatidan dunyo talablaridan ancha orqada qoldi.

⁴⁶ http://1news.uz/policy/-o'zbek-modeli-o'fsh-davri-konsepsiyasi-yekhud-I-Karimov-ning-siyosiy-merosi-/#_ftn2

⁴⁷ Тухлиев Н., Таксанов А. “Национальная экономическая модел Узбекистана”. Т., «O‘qituvchi», 2000. 31-32-betlar.

O‘zbekistonning ishlab chiqarishi ko‘p jihatdan agrar xomashyo xarakteriga ega edi va sanoati yaxshi rivojlanmadi. 1960–1990-yillar ichida sanoatning milliy daromadni yaratishdagi hissasi o‘zgarmadi.

1990-yilda Respublikada yaratilgan milliy daromadda sanoatning hissasi – 25,7 foiz, qishloq xo‘jaligi – 44,2 foiz, qurilish – 14,1 foiz, transport va aloqa – 4,7 foiz, boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari – 11,1 foizni tashkil yetdi⁴⁸.

Respublika iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi va sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlari ulushining yuqori darajada edi. Agar 1990–yilda Sobiq ittifoq milliy daromadida qishloq xo‘jaligi mahsulotining ulushi 24,9 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 44,2 foizdan yuqori bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlar soni esa, mos ravishda 18,2 foiz va 39,3 foizni tashkil qilgan. Shuningdek, sanoat mahsulotining asosiy qismi yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlaridan iborat bo‘lib, ularning ulushiga ushbu tarmoq mahsulotining 56 foizi to‘g‘ri kelgan. Qishloq xo‘jaligi O‘zbekistonda butun eksport salohiyatining 80 foizini bergan.

Eksportning 67 foizini bitta tovar – paxta xomashyosi, importning esa, 57 foizini don mahsulotlari tashkil qilar edi. Yakka ekin (paxta) etishtirishga asoslangan eksport-import tizimi hukmron edi.

O‘zbekistonning Rossiya va boshqa Respublikalardan keltiriladigan ishlab chiqarish va iste‘mol mollariga bog‘liqligi kuchli edi. Iqtisodiy o‘shishning tashqi omillarga bog‘liqligi ayniqsa, yakunlovchi ishlab chiqarish bosqichlari ahamiyatining haddan tashqari oshishiga, mahalliy mashinasozlikning zaif bo‘lib qolishiga olib keldi. O‘zbekistonda barcha sanoat mahsulotlari tarkibida mashinasozlik sanoatining hissasi 20 foizga ham yetmadi. Buning oqibatida tashqaridan mahsulot kiritishning asosiy yo‘nalishi sanoat asbob-uskunalarini, texnologiyani, fan-texnika yutuqlarini

⁴⁸ “Народное хозяйство СССР М 1990 году”. Статистический ежегодник. Москва. Финансы и статистика. 1991. 11-бет. “Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г.”. Т., «O‘zbekiston», 1991. 10-бет.

kiritishdan iborat bo'lib qoldi. Mahalliy sanoatning markazlashgan iqtisodiyotga ishlab chiqarish va texnologik jihatdan bog'liqligi uyg'unlashib ketdi.

O'zbekistonda mashinasozlikning suyagi hisoblanadigan dastgoh ishlab chiqarish, ayniqsa, zaif rivojlandi. Natijada ishlab chiqarish vositalari va sanoat materiallari ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, hozirgi zamon yirik turkum ishlab chiqarish talablariga javob beradigan avtomat va yarim avtomat murakkab dastgohlar ishlab chiqarish kechikdi.

Vujudga kelgan nomutanosibliklardan yana biri yirik, o'rta va mayda korxonalar o'rtasidagi nisbatdir. Sobiq ittifoq vazirlik va mahkamalari tomonidan barpo qilingan korxonalar va birlashmalar asosan ulkan hajmli bo'lib, yirik ishlab chiqarishga mo'ljallangan edi. Bu, albatta, Respublikada sanoat ishlab chiqarishning an'anaviy turlarini rivojlantirish, mehnat jamoalarining harakatchanlik qobiliyatini oshirish, bozor kon'yunk-turasiga tezkor moslashuv kabi talablarga javob bermasdi.

Yirik ishlab chiqarish tajribalaridan ma'lumki, bir turdagi mahsulot ommaviy ishlab chiqariladigan joyda samaraliroqdir. O'ta mayda (1 dan 19 kishigacha mehnat qiladigan) korxonalar 80-yillarda AQShda barcha korxonalarining 26,1, Yaponiyada 49,4 va Italiyada 43,4 foizni tashkil yetdi. Mayda korxonalar (ya'ni, 20 dan 90 kishigacha ishlaydigan korxonalar) muvofiq ravishda 28,4, 27,7 va 30,4 foizga teng edi. O'rta korxonalar (bunga 100 dan 499 kishigacha ishlaydigan korxonalar kiradi) 24,0, 14,6 va 14,2 foiz, nihoyat, 500 dan ortiq ishchi mehnat qiladigan yirik korxonalar 21,5, 8,2 va 12,1 foizni tashkil yetdi. Ko'rinib turibdiki, o'ta zamonaviy Yaponiyada ishchilarning deyarli yarmi o'ta mayda firmalarda jamlangan. Mayda va kichik firmalar ish bilan band bo'lgan yaponlarning 3/4 qismini o'zida birlashtirgan⁴⁹. Mayda firmalar iqtisodiyotning poydevori, deb bejiz aytilmaydi.

⁴⁹ Юданов А.Ю. "Фирма и рынок". М., «Знание», 1990. 5-бет.

Bugungi kunda butun dunyoda korxonalarining 95 foizi kichik biznesga to'g'ri kelmoqda, shu jumladan, AQShda 90 foizni, G'arbiy Yevropada 72 foizni tashkil qilmoqda, Yaponiyada kichik va o'rta biznes ko'rsatkichlari juda yuqoridir, shuning uchun uning iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Kichik va o'rta biznesning ulushi umumiy korxonalarining 99 foizini tashkil yetadi. Kichik korxonalarining yirik korxonalariga nisbatan afzalliklari ko'p, ular bozor iqtisodiyoti sharoitida kelib chiqadigan o'zgarishlarga tez moslashadi. Shuning uchun ham, iqtisodchi ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, XXI asrda yirik korxonalarda ishlovchilarning ulushi juda ham qisqaradi, AQShda butun ishlovchilarning 5 foizi, Yaponiyada 10 foizi to'g'ri keladi⁵⁰.

O'zbekiston iqtisodiyotida 1970–1980-yillar mobaynida butun sanoat mahsuloti miqdorida ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishning hissasi bir oz kamayib, iste'mol buyumlari ishlab chiqarish hajmining o'sganligiga qaramasdan, tarkib topgan bu nisbatni maqsadga muvofiq deb ham bo'lmaydi. Iste'mol buyumlari ishlab chiqarish bundan ham yuksakroq rivojlanishi kerak. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradi.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishida vujudga kelgan nomutanosibliklardan yana biri – qazib oluvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar rivojlanishi o'rtasidadir. Mineral xomashyolarning katta qismi qayta ishlanmagan yoki yarim tayyor mahsulot holida Respublikadan chiqib ketardi. Ko'pgina tog'-ruda kombinatlari xomashyoni qayta ishlashning past darajasi bilan ajralib turardi. Buning sababi shuki, ittifoq ahamiyatidagi ulkan korxonalar qazib oluvchi sanoatni Respublika ichkarisida mineral xomashyoni chuqur qayta ishlashga, vertikal integratsiya jarayonini, diversifikatsiyani rivojlantirishga emas, balki xomashyo chiqarishga bo'ysundirgan.

⁵⁰ Тухлиев Н., Таксанов А. "Национальная экономическая модел Узбекистана". – Т., «O'qituvchi», 2000. 153-бет.

Sanoat taraqqiyotida ko'zga tashlanayotgan nomutanosibliklardan yana biri sanoat korxonalarini mahalliy kadrlar bilan ta'minlashda ko'rinadi. Bu yerdagi g'alati vaziyat shundaki, nisbatan ancha past rivojlangan sanoat ham, mahalliy ishchi – kadrlar bilan ta'minlanmadi. 50–60-yillarda barpo qilingan Navoiy, Zarafshon, Muborak, Angren, Yangyier va boshqa industrial shaharlar sobiq markaz vazirlik va mahkamalariga bo'ysunuvchi yirik sanoat korxonalarini bazasida barpo qilingan bo'lib, ularga kerakli malakali ishchi kadrlar sobiq ittifoqning boshqa hudud va sanoat rayonlaridan ko'chirib keltirilardi. Bu ham, mahalliy millat vakillaridan ishchi-kadrlar tayyorlash muammosini orqaga surdi. Bu muammo 20–30-yillarda qanday dolzarb bo'lgan bo'lsa, keyin ham shundayligicha qolaverdi. Bu yerda yana bir narsani aytib o'tish o'rinliki, agar 1941–1945-yillardagi 2-Jahon urushi bo'lmaganda edi, Sobiq ittifoqning markaziy hudud va shaharlaridan bironta sanoat korxonasi O'zbekistonga ko'chirib keltirilmas edi – bu o'ta majbur va boshqa yo'l qolmaganligining natijasi edi. Bunday holatni 1966-yil aprel oyida sodir bo'lgan Toshkent zilzilasi ham ko'rish mumkin. Toshkentga kelgan quruvchilarning deyarlik ko'pchilik qismi o'zlari qurgan binolarda istiqomat qilish uchun muqim yashab qoldi.

Mahalliy millat vakillarining salmog'i Toshkent samolyotsozlik birlashmasi, vagon ta'mirlash, kabel zavodlarida 20–30 foizdan nariga o'tmadi. Ular to'qimachilik, mahalliy sanoat kabi an'anaviy sanoat tarmoqlarida ko'proq bo'lib, tog'-metallurgiya, mashinasozlik kabi tarmoqlarda juda ham kam edi.

80-yillarning oxiriga kelib, O'zbekiston qishloq xo'jaligida ham murakkab vaziyat va nomutanosibliklar vujudga keldi.

Dehqonchilik, chorvachilikda o'sish sur'atlari pasaya boshladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish darajasi borgan sari uning texnik jihozlash sur'atlaridan ham, aholining tabiiy o'sish sur'atlaridan ham orqada qola boshladi. 1980–1990-yillarda yalpi qishloq

xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarish sur'ati Respublikada aholi tabiiy o'sishi sur'atidan ikki marta, asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlashdan uch martadan ziyod past bo'ldi.

Tabiiyki, bunday sharoitda asosiy muammo mo'l-ko'pchilik, ichki oziq-ovqat bozorini shakllantirish, ortiqchasini tashqi bozorga olib chiqish emas, aholini minimal zaruriy iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash bo'lib qoladi.

1980–1991-yillar ichida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hammasi bo'lib 8,9 foizga o'sdi. Bu mamlakat aholisi o'sishidan ham, qishloq xo'jaligini asosiy fondlar bilan ta'minlash va kapital sarmoyalar sarfidan ham past ko'rsatkichdir. 1980–1991-yillar mobaynida paxta xomashyosi va tolasi, g'alla ishlab chiqarish pasaydi. Buni quyidagi 4.1.1-jadvaldan ko'rish mumkin.

4.1.1-jadval

O'zbekistonda 1980–1991-yillarda qishloq xo'jalik ekinlarining yalpi yig'im-terimi, (barcha turdagi xo'jaliklarda, ming tonna)⁵¹

Yillar	paxta		g'alla	kartoshka	sabzavot
	xomashyo	tola			
1980	5579,0	1623,5	2435,4	239,0	2459,1
1985	5381,8	1727,7	1471,3	240,7	2385,6
1990	5057,7	1592,6	1898,7	336,4	2842,5
1991	4645,8	1443,2	1908,2	351,2	3348,0
1980–1991-yillarda o'sish, %	83,3	88,9	78,3	146,2	136,0

Paxtachilikda bu hodisa asosan ikki sababga ko'ra ro'y berdi. Birinchidan, paxta maydonlari boshqa ekinlar, jamoa va davlat xo'jaliklari ishchilarining shaxsiy tomorqa xo'jaligi hisobiga qisqartirildi.

Ikkinchidan, hosildorlikning pasayishi ham uning yalpi yig'im-terimi miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Fallachilikda ham pasayish

⁵¹ To'xliyev N. "O'zbekiston iqtisodiyoti". T., «O'qituvchi», 1994. 50-bet.

hosildorlik hisobiga bo'ldi. Kartoshka va sabzavot ishlab chiqarish ancha o'sdi. Bu o'sish ekin maydonlarini kengaytirish (ekstensiv yo'l) hisobiga ta'minlandi.

4.1.2-jadval

O'zbekistondagi barcha xo'jalik turlari bo'yicha 1 gektar yerdagi ekinlar hosildorligi, (sentner hisobida)⁵²

Yillar	paxta		g'alla	kartoshka	sabzavot
	xomashyo	tola			
1980	29,7	8,6	20,7	100	221
1985	27,0	8,7	15,1	90	199
1990	27,6	8,7	18,8	80	192
1991	27,0	8,4	17,3	87	188
1980-1991-yillarda o'sish, %	90,0	97,7	83,6	87,0	85,1

4.1.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, asosiy qishloq xo'jalik ekinlari bo'yicha hosildorlik pasaydi. 1980-1990-yillar mobaynida barcha xo'jalik toifalarida chorvachilik mahsulotlarini etishtirish sezilarli o'sganini ta'kidlash o'rindir.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi ayanchli holatga tushib qolgan edi. Buning sabablari anchagina. Eng avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, bu yerda qaror topgan ishlab chiqarish tarkibi oziq-ovqat mahsulotlarini mo'l-ko'l qilishga emas, balki sanoat markazlarini arzon xomashyo bilan ta'minlashga, markaziy mahkamalar irodasini bajarishga qaratilgan edi. Shuning uchun ham, dehqonchilik ekinlari orasida asosiy o'rinni texnika ekinlari jumladan, paxta egallab keldi.

Jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoatsiz qishloq xo'jaligini rivojlantirib bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligining qoloqligi sanoatning nochorligi bilan, uning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Sanoat nochor bo'lsa, qishloq xo'jaligi ham nochor bo'ladi.

⁵² To'xliyev N. "O'zbekiston iqtisodiyoti". T., «O'qituvchi», 1994. 50-bet.

Shu bilan birga, surunkasiga texnika ekinlari ekilaverib, har gektar boshiga mineral o'g'itlar sarfining oshib borganligi yerning tinka-madorini quritdi va tuproq xosildorligi pasayishiga olib keldi. Almashib ekish qoidalariga to'la rioya qilinmadi. Natijada sho'r bosgan tuproq eroziyasiga uchragan maydonlar ulushi kengaydi. Tuproq tarkibining buzilishi hosildorlikning asosiy kushandasi bo'lib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasida 1991-yilgacha ijtimoiy mehnat taqsimotiga ko'ra, paxta tolasini ishlab chiqarishga nisbatan yuqori darajada ixtisoslashgan edi. Masalan, ushbu davrlarda paxta maydonlari Respublikaning umumiy ekin maydonlarining 75 foizdan ko'proq qismini tashkil yetar edi. «Jahonning birorta mamlakatida, erni yaroqsiz holatga olib keladigan uning unumdorligi, kimyoviy tarkibini buzadigan bunday yuqori darajadagi paxta monopoliyasi bo'lmagan»⁵³.

Yuqorida bayon etilgan iqtisodiyotdagi salbiy holatlar aholi turmush darajasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi.

O'zbekiston sobiq Respublikalar orasida aholi jon boshiga hisoblaganda quyidagi ko'rsatkichlar: sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (ikki marta), ijtimoiy sohaning rivojlanishi (aholi daromadlari, uy-joy bilan ta'minlanganlik, kommunal xizmatlar ko'rsatish, madaniy-maishiy obyektlar va boshqalar) bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha orqada edi.

1990-yilda aholi jon boshiga tovarlar va xizmatlar iste'moli Rossiyada—3735, Gruziyada—3575, Ukrainada—3470, Qozog'istonda—2900 va O'zbekistonda esa, 2200 AQSh dollarini tashkil yetardi.

1990-yilda jon boshiga go'sht iste'mol qilish Belorussiyada—73 kg., Qozog'istonda—71 kg., Rossiyada—69 kg., Ukrainada—65,5 kg. bo'lgan bo'lsa, O'zbekistonda—30 kg. ni tashkil yetdi. Tuxum iste'mol qilish jon boshiga Belorussiyada—320, Rossiyada—228, Qozog'istonda—207 dona bo'lgan bo'lsa, O'zbekistonda—

⁵³ Karimov I.A. «Yangicha fikrlash va ishlash—davr talabi». T., «O'zbekiston», 1997. 16-bet.

107 donani tashkil qildi⁵⁴. Boshqa mahsulotlar bo'yicha iste'mol qilishda ittifoq Respublikalaridan ancha orqada edi.

Statistik to'plamlarda⁵⁵ chop qilingan ma'lumotlar va bizning hisob-kitobimiz natijasi shuni ko'rsatadiki⁵⁶, iqtisodiy islohotlar arafasida 1990-yilda, O'zbekiston MDH davlatlari ichida YaIM hajmi bo'yicha Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Qozog'istondan keyin 5-o'rinni egallagan, yoki aholi jon boshiga YaIM ishlab chiqarish O'zbekiston Respublikasiga nisbatan Rossiyada – 2,5 barobar, Ukrainada – 2 barobar, Belorussiyada – 2,3 barobar ko'p bo'lgan.

Bu ko'rsatkich O'zbekistonga nisbatan Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmanistonda ham yuqori bo'lgan. Band bo'lgan bir ishchiga nisbatan YaIM ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari bo'yicha esa, farq birmuncha kamdir. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga nisbatan Rossiya 1,9 barobar, Ukraina – 1,9 barobar, Belorussiya – 1,8 barobar, Armaniston – 1,5 barobar yuqori bo'lgan.

O'zbekistonning YaIMni aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichi bo'yicha sobiq Respublikalardan bunday orqada qolishining asosiy sabablaridan biri – sobiq ittifoqdagi subyektiv tarzda noto'g'ri hududiy mehnat taqsimotidir. O'zbekiston ittifoqning asosiy paxta bazasi, ipakchilik, qorako'lehillik va boshqa mahsulotlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi bo'lib, ularni xomashyo tarzida chetga chiqargan. Bu tarmoqlarda esa, qo'l mehnatining ulushi yuqori bo'lib, mehnat unumdorligi esa past darajada bo'lgan edi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, paxtaning 95 foizi qayta ishlanmasdan Respublikadan tashqariga olib ketilar edi. Qishloq xo'jalik

⁵⁴ "Народное хозяйство СССР в 1990 году". Статистические ежегодник. 1990. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Т., «Uzbekiston», 1991.

⁵⁵ "Государство бывшего Советского Союза". 1993 год. Статсборник Всемирный Банк Вашингтона, 1994. с.6.

⁵⁶ "Вопросы экономики 1997 год". №10, с. 143.

mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari va korxonalari rivoj topmadi.

Sanoat tarmoqlari tarkibiy tuzilishida ham chuqur nomutanosiblik mavjud edi. Sanoatda tayyor mahsulotlar ulushi 50 foizni tashkil yetar edi. Bu esa, sanoatning ham xomashyo va oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi nomutanosiblik O'zbekistonga yuqoridan turib zo'rlab tiqishtirilgan ixtisoslashuv oqibati edi. Sobiq ittifoq davrining keyingi 50 yili mobaynida yengil sanoatning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 54 foizdan 37 foizgacha, oziq-ovqat sanoati ulushi esa, 30 foizdan 14 foizgacha tushib qoldi.

Shunga ko'ra, yoqilg'i, kimyo va neftkimyo, qora va rangli metallurgiya kabi xomashyo ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarining ulushi keskin o'sdi. Mashinasozlik sanoati tarmoqlari ham, paxta kompleksiga bo'ysundirildi va uning sanoat mahsulotlaridagi ulushi 16 foizni tashkil yetdi.

Xalq xo'jaligining tarmoq tarkibida xomashyo va oraliq mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ustuvorligi oqibatida Respublikamizning boshqa sobiq ittifoqdosh Respublikalar bilan bo'ladigan o'zaro mahsulotlar ayirboshlashda salbiy saldogga ega bo'ldi.

Bunday salbiy ko'rinishlar va O'zbekistonning jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar bilan kirishini tezroq ta'minlash maqsadi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning dastlabki davridayoq xalq xo'jaligi tarmoq tuzilishini tubdan o'zgartirishni zarurat qilib qo'ydi.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish muhim ahamiyatga ega. Bu iqtisodiy islohotlarning muhim strategik vazifasidir. Shu boisdan, sobiq totalitar, markazlashtirilgan iqtisodiy tuzum davrida xalq xo'jaligida xomashyo va oraliq mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ustuvorligi oqibatida vujudga kelgan tarmoq tuzilishidagi nomutanosibliklar iqtisodiy o'sishga,

aholi turmush darajasi yuksalishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablardan biri bo'ldi. Shuningdek, bu holat Respublikada ekologik muammolarni ham keltirib chiqardi. Respublikaga sobiq ittifoqdan merosga qolgan va hal qilinishi katta investitsiyalarni talab qiluvchi Orol muammosi ham qoldi. Ayrim mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, bu muammoni hal qilish uchun 40 mlrd. AQSh dollari talab qilinadi.

«So'nggi 30 yil ichida Orol o'z hajmining 75 foizini va akvatoriyasining 50 foizini yo'qotdi. Orol muammosi umumbashariy muammoga aylandi. O'rta Osiyo va Qozog'iston ekologik halokatning markazida bo'lib qoldi, uning oqibatlarini hozirning o'zidayoq 60 million kishi his etmoqda. Orol inqirozi undan yiroq bo'lgan Yevroosiyo rayonlaridagi global ekologik jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatmoqda»⁵⁷.

Tarkibiy tuzilishda vujudga kelgan nomutanosibliklar investitsiya muammolari bilan ham bog'liq edi.

Investitsiyalash muammosi – bu avvalo ularni amalga oshirishga ketadigan moliyaviy va moddiy resurslar muammosidir. Ishlab chiqarishning 1991–1995-yillardagi pasayishi uni o'stirish uchun zarur bo'lgan moddiy imkoniyatlarni pasaytiradi, Respublikaning moliyaviy resurslarini, birinchi navbatda, davlat byudjeti daromadlarini kamaytiradi. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining real daromadlari, byudjetdan tashqari kapital daromadlarini ham qo'shganda, bizning hisoblarimizga asosan 1995-yilda 1991-yilga nisbatan 41 foizga kamaydi. Investitsiyalash va aholini ijtimoiy himoyalash uchun moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj kattadir. Amaliyotning ko'rsatishicha, investitsiyalarni ko'paytirmay, ularning samaradorligini oshirmay turib, ishlab chiqarishning pasayishini to'xtatib va uning yuksalishiga erishib bo'lmaydi.

Investitsiyalar tarkibiy qayta qurish, eskirgan jihozlarni yangilari bilan almashtirish uchun zarurdir. Chunki, O'zbekiston

Respublikasiga sobiq ittifoq iqtisodiyotining izdan chiqqan tarkibi meros bo'lib qoldi. Uni yangi sharoitga mos ravishda o'zgartirish zarur.

Shuningdek, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishda Respublika manfaatlarining inobatga olinmaganligi, hudud xalq xo'jaligining kompleks rivojlanish mexanizmining yo'qligi ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalar o'rtasida nomutanosibliklarni vujudga keltirdi. Bu hol Respublika iqtisodiyoti imkoniyatlaridan ratsional foydalanish muammolarini chuqurlashtirdi, ekologik muammolarni murakkablashtirdi, iqtisodiy faoliyat natijalaridan foydalanish imkoniyatlarini kamaytirdi, uning mustaqilligini susaytirdi, aholining turmush darajasini yaxshilashda ularning imkoniyatlarini cheklab qo'ydi.

Xullas, sobiq ittifoq davrida O'zbekiston iqtisodiyotida juda ko'p muammolar va nomutanosibliklar yig'ilib qolgan edi. Bu hol to'qimachilik sanoati uchun ham, mudofaa sanoati uchun ham zarur bo'lgan paxta yakkahokimligi o'rnatilishi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va milliy rivojlanishidagi keskin muammolardan biri bo'lib hisoblanar edi.

Ahvol yana shu bilan murakkablashdiki, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqaruvchi tarmoqlar hali yetarli darajada rivojlanmagan edi. Bu barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi va katta hajmdagi resurslarni talab yetadi.

Shunday qilib, Respublikamizda uzoq-yillar davomida amal qilib kelgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan xo'jalik yuritish tizimi iqtisodiyotimizda o'zining salbiy asoratlarini qoldirdi. Zamonaviy tarkibiy tuzilish markazlashgan rejalashtirish usuli bilan umumittifoq mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan edi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston butun sobiq ittifoqni sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligini paxtachilik sohasidagi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirar edi. O'zbekiston

⁵⁷ Levitin L. "O'zbekiston tarixiy burilish pallasida". T., «O'zbekiston», 2001. 144-bet.

totalitar tuzum davrida ishlab chiqarish darajasi jihatdan kam rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin oldi.

4.2. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining dastlabki bosqichidagi asosiy muammolar va ularning hal qilishini

Mamlakatimizda mustaqillik e‘lon qilganidan so‘ng uning oldida ulkan imkoniyatlar ochilishi bilan birga, ilgari biz duch kelmagan ko‘pgina ijtimoiy-siyosiy muammolar ham yo‘limizda ko‘ndalang bo‘lganini esga olish lozim. Bunday g‘ov va to‘siqlar sirasiga sobiq ittifoqdan meros bo‘lib qolgan biryoqlama iqtisodiy boshqaruv asoslari, markazlashtirilgan agrar siyosat, ma‘muriy buyruqbozlik, odamlarning boqimandalik kayfiyatlari, ijtimoiy siyosatning izdan chiqishi, inson huquqlarining toptalishi va boshqa shu kabi ijtimoiy illatlarni sanab o‘tish mumkin bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, sobiq ittifoq ma‘muriy-bo‘yruqbozlik usulidan qolgan meros iqtisodiy hayotni to‘la monopoliyalashtirilishi oqibatida mamlakat mustaqil rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum qilingan edi. Xalq xo‘jaligi deyarli izdan chiqqan, ocharchilik yoqasiga kelib qolgan xalqni boqish, ishsiz qolgan odamlarga, aksariyat yoshlarga yangi ishchi o‘rinlarni yaratish muammolariga ro‘baru keladi. Qishloq shaharni boqmay qo‘ygan, oziq-ovqat tanqisligi kuchaygan. Davr talab etayotgan mutaxassis va boshqaruv kadrlar taqchilligi holatida iqtisodiyot, moliya va barcha xalq xo‘jaligi infrastrukturasi o‘zgartirish, borini asrab-avaylab ishlatish, yangilarini barpo qilish ijtimoiy islohotlarning birlamchi vazifalariga aylandi. Mamlakatimizning uzoq va davomli manfaatlari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug‘diradigan muammolarni hal etish zarur bo‘lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo‘llandi va jamiyatning “o‘tish davri” deb nom olgan bunday yondashuv oxir-oqibatda o‘zini to‘la oqladi.

Ma‘lumki har qanday taraqqiyot modelining bosh maqsadi iqtisodiy o‘tish va uning asosida xalq farovonligini ta‘minlashdir. Lekin barcha taraqqiyot modellarida ham bu maqsadga erishilyap-

timi? Bu savolga bir so‘z bilan «Ha» javobini berish qiyin, albatta. “O‘zbek modeli” misolida esa, bu savolga ijobiy javob berish uchun yetarli asoslar mavjud.

“O‘zbek modeli” iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy yo‘naltirilgan yo‘lini amalga oshirish, ishlab chiqarishning keskin pasayib ketishini to‘xtatish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish imkonini berdi. O‘zbekiston SSSR parchalangandan keyin paydo bo‘lgan mustaqil davlatlar orasida hali transformatsiyalashuv davridayok, nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki iqtisodiy o‘tish va yuksalishni ham ta‘minlagan yagona mamlakatdir. Bu yerda jahonda kam uchraydigan – tanglikdan rivojlanish orqali chiqish fenomeni o‘zining birdan-bir to‘g‘ri yo‘l ekanini isbotladi.


Ma‘lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida barcha sobiq ittifoq Respublikalarida bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham mavjud Respublikalararo xo‘jalik aloqalarining uzilishi, yangilarining esa, hali shakllanib ulgurmaganligi va bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan chuqur tarkibiy qayta qurishlarni amalga oshirish zarurati tufayli bir qator iqtisodiy qiyinchiliklar paydo bo‘ldi. Bunday sharoitda ishlab chiqarish vositalari bozorida ham, iste‘mol bozorida ham taqchillik yuz berdi. Bu vaziyatdan har kim – sobiq ittifoqdosh Respublikalar o‘z bilganicha chiqishga urindi. O‘zbekiston esa, boshqalardan farqli ravishda, nisbatan qiyin va murakkab, muayyan vaqt talab yetadigan, lekin, eng samarali va to‘g‘ri yo‘lni – mavjud barcha resurslarni safarbar qilish orqali sanoat, transport, aloqa va xizmat ko‘rsatishning ulkan industriyasini bozor munosabatlariga moslab yaratish yo‘lini tanladi. Chet el investitsiya va kreditlari ham ana shu maqsadga yo‘naltirildi. Natijada, iqtisodiy o‘tish uchun mustahkam asos hozirlandi. Bu esa, bosh vazifani hal etish, ya‘ni, makroiqtisodiy barqarorlikka erishishdagi muvaffaqiyatlarni yildan yilga mustahkamlab borish imkonini berdi. Iqtisodiy tanglikdan, odatda, ko‘pchilik mamlakatlar tinka-madori qurib, qarzga botib chiqadi. O‘zbekiston esa, 1990-yillardagi iqtisodiy tanglikdan kuch-qudratga to‘lib, imkoniyatlari kengayib chiqdi. Bu fenomen,

afsuski, “O‘zbek modeli”ning hali kam o‘rganilgan va kam yoritilgan jihatlaridandir.

Xo‘sh, iqtisodiy rivojlanish qaysi mezon va ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanadi? Uning barcha iqtisodiy tuzum va mamlakatlar uchun yagona o‘lchovi bormi? Iqtisodiy taraqqiyot mamlakat miqyosidan to xo‘jalik darajasigacha bo‘lgan turli xil iqtisodiy ko‘rsatkichlar silsilasida o‘z ifodasini topadi. Ular orasida eng muhimi – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va ko‘rsatilgan xizmat darajasidir.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy rivojlanishning mezoni sifatida yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur‘atlari qo‘llaniladi. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy ko‘rsatkichi bo‘lib, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatining pirovard natijalarini o‘z ichiga oladi.

Ta’kidlash joizki, mustaqillikning dastlabki yillarida Respublika iqtisodiyoti chuqur inqiroz va beqarorlikni boshidan kechirdi. 1991–1995-yillarda mamlakat YaIM hajmi o‘tgan yillarga nisbatan ancha pas darajada bo‘ldi. (4.2.1-rasm)



4.2.1-rasm. 1991–1995-yillarda O‘zbekistonda YaIMning o‘zgarish tendensiyalari (oldingi-yilga nisbatan foizda)


Mazkur diagrammadan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston o‘ta murakkab va mashaqqatli sinovlar bo‘lag‘asida endigina hurriyat ostonasiga hatlab kirayotgan insonning dastlabki qadamlarini eslatadi. Bu yillarda YaIM ko‘rsatkichi noldan past darajada bo‘lgan.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun 1995-yil burilish yili bo‘ldi. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning pasayishi deyarli to‘xtatildi. Bir-yilda u atigi 0,9 foizga teng bo‘ldi va 1996-yildan boshlab hozirgacha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning barqaror ijobiy dinamikasi davom etmokda: 1996-yilda uning o‘sishi 1,7 foizni, 1997-yilda 5,2 foizni tashkil yetdi. Binobarin, mamlakatimiz 1998-yil natijalari bo‘yicha yalpi ichki mahsulot hajmining 1990-yil darajasiga erishishda hal qiluvchi qadam tashladi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha bu darajaga mamlakatimiz 1995-yilda to‘la erishgan edi.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosida o‘zgartirish tadbirlari makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish dasturlari bilan qo‘shib olib borildi. Bu ham “O‘zbek modeli”ning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bu holat islohotlarni amalga oshirish sur‘atlariga ta’sir qilmasdan qolmadi. Ammo tanglikdan chiqishning boshqa qulay yo‘li ham yo‘q. Bunday tadbirlarni amalga oshirishga tarix ajratgan vaqt ham juda qisqa edi. Iqtisodiyotda asosiy tarkibiy qayta qurishlarni jadal amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Yonilg‘i-energetika, mashinasozlik, kimyo, transport va aloqa, yo‘l qurilishi, qayta ishlash kabi ustuvor sohalarda izchil rivojlantirildi. Mazkur ustuvor sohalarning rivojlantirilishi, birinchidan, ayrim strategik mahsulotlar bo‘yicha mamlakatni tashqi bozorga qaramlikdan xalos qilgan bo‘lsa, ikkinchidan, ular boshqa tarmoq va ishlab chiqarish turlarini rivojlantirishda o‘ziga xos yetakchi vosita bo‘lib xizmat qildi. Ustuvor sohalarni belgilash, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish tarmoqlarini aniq va maqsadli moliyalashtirish (investitsiyalash) evaziga

ta'minlandi. Barcha investitsiyalarning qariyb uchdan ikki qismi ishlab chiqarish obyektlarini barpo etishga yo'naltirildi. Natijada O'zbekiston iqtisodiyotining o'rtacha o'sish sur'atlari 1996-yildan keyin ijobiy tomonga o'zgardi. 1996–2003-yillarda o'rtacha o'sish sur'atlari 4 foizdan oshdi. (4.2.2-rasm)

Yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishiga oid ma'lumotlar 1990–2000-yillarda hamdo'stlik davlatlarida yuz bergan chuqur iqtisodiy pasayishni ko'rsatdi. Masalan, Belarusda 1997-yilda YaIM 10 foiz, Gruziyada 11,3, Qirg'izistonda 10,4 foizga oshgan. O'zbekistonda esa, bu ko'rsatkich 5,2 foizga teng bo'lgan. Lekin, bu Yuqorida nomlari qayd etilgan uch mamlakatda iqtisodiyot ancha tez sur'atlarda o'nlangan ekan, degan xulosani bermaydi.



4.2.2-rasm. 1996–2003-yillarda O'zbekistonda YaIMning o'zgarish tendensiyalari (oldingi yilga nisbatan foizda)

Agar ahvolni 1990-yilga nisbatan taqqoslaydigan bo'lsak, MDH mamlakatlari orasida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti ko'proq ijobiy natijalarga erishganining guvohi bo'lamiz. 2000-yilga kelib Ozarbayjon, Gruzziya, Moldova va Ukrainada yalpi ichki mahsulot hajmi 1990-yildagi darajaning yarmiga ham yetmadi (37–44%). Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya kabi mamlakatlarda uning miqdori 1990-yildagi darajaning 58–62 foizini tashkil yetdi, xolos. Belarusda bu ko'rsatkich 73 foizdan iborat bo'ldi.

O'zbekistonda esa, 1996-yili yalpi ichki mahsulot hajmi 1990-yil darajasidan 18 foizga past bo'ldi. 1997-yilda bu farq biroz qisqardi va 14 foizni tashkil yetdi. Shunday qilib, bu muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'yicha islohotdan oldingi darajaning 86 foiziga erishildi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirayotgan boshqa birorta mamlakat o'sha paytda bunday ko'rsatkichlarga ega emasdi.

Demak, Belarus, Qirg'iziston va Gruziyada 1997-yildagi iqtisodiy o'sishning yuqori ko'rsatkichi islohotlar boshlanishidan oldingi davrga nisbatan emas, balki 1996-yilga nisbatan olingan. 1996-yilda esa, yalpi ichki mahsulot 1991-yilga nisbatan Belarusda – 65, Qirg'izistonda – 58, Gruziyada atigi 29 foiz bo'lgan, xolos. Fikrimizning dalili sifatida MDH mamlakatlarida ushbu yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlarini keltirish kifoya.

1997-yilda O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarish hajmi 1990-yilga nisbatan 12,7 foiz o'sdi. Bu ko'rsatkich Belarusda 1990-yil darajasining 71, Qirg'izistonda 51 foizini tashkil yetdi. Qolgan birorta mamlakat islohotdan oldingi darajaning yarmiga ham eta olmadi.


Shunday qilib, hali o'tish davrining o'zidayoq O'zbekistonda ko'p ukladli, aralash, ko'p tarmoqli, tashqi beqarorlashtiruvchi omillardan xoli milliy bozor iqtisodiyotining shakllanishi asosan tugallandi.

4.3. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyotining barqaror rivojlanish bosqichi.

YaIM real hajmining o‘sishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishini umumlashtirgan holda aks ettiruvchi, aholining o‘tib va o‘zgarib borayotgan ehtiyojlarini, turmush sifatini yaxshilash qobiliyatini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiy o‘shishni uning mezonlari bo‘yicha turlarga ajratib o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘shish mezonlarini aniqlash bo‘yicha qator tadbirlar ishlab chiqildi⁵⁸. Unga ko‘ra, iqtisodiy o‘shishni uning mezonlari to‘rtta guruhga bo‘linishini darslikning 1.3-bandida ko‘rib chiqqan edik. Unga ko‘ra sekinlashgan iqtisodiy o‘shish 2% dan past, mo‘tadil iqtisodiy o‘shish 2–4%, o‘rtacha iqtisodiy o‘shish 4–6%, barqaror iqtisodiy o‘shish 6% dan yuqori bo‘lishi ta’kidlangan edi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotini YaIMning 1991–2016-yillardagi o‘zgarish tendensiyalaridan kelib chiqqan holda ma’lum bosqichlarga bo‘lib o‘rganish mumkin (4.3.1-rasm).



4.3.1-rasm. O‘zbekistonda 1991–2016-yillarda YaIMning o‘zgarish tendensiyalari

⁵⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011–2015-yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yana-da chuqurlashtirish choralarini to‘g‘risida”gi 2011-yil 7-yanvardagi №PP-1464 sonli qarori.

4.3.1-rasm ma’lumotlariga asoslanib, O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotini uchta bosqichga bo‘lish mumkin: birinchi bosqich – 1991–1995-yillarni (YaIM o‘rtacha pasayishi – 4 foiz) o‘z ichiga olib, bu inqiroz davri deb yuritiladi. Ikkinchi bosqich, 1996–2003-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda YaIMning o‘rtacha o‘shish sur‘atlari 4 foizni tashkil qilgan va bu davriy oraliqni mo‘tadil iqtisodiy o‘shish davri deb atash mumkin. Uchinchi bosqich – 2004–2016-yillar barqaror iqtisodiy o‘shish davri (o‘rtacha 8 foiz).

1990-yillarga kelib Respublika boshqaruv idoralari izdan chiqqan, iqtisodiy nochor, oziq-ovqat tanqisligi kuchaygan, ishsizlik, eng yomoni jamiyatda parokandalik sharoitlarini bartaraf etishda “O‘zbek modeli” ning qanday afzalligi bor edi? Bu ta’limot portlashga tayyor turgan ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-etnik muammolarni tinch yo‘l bilan hal etishning qanday chora-tadbirlarini o‘zida mujassam qilgan? Mamlakatda “O‘zbek modeliga” asoslangan o‘tish davri konsepsiyasi qanday bosqichlardan o‘tdi? Bu davr bosqichlarining ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati va natijalari nimalarda namoyon bo‘ldi? Biz bugun amalga oshirilgan islohotlardan olishimiz lozim bo‘lgan saboqlar nimalardan iborat?

Albatta, bitta mavzu doirasida mustaqillik yillarida O‘zbekiston erishgan yutuqlarning mohiyatini ochish murakkab masala. Ammo, imkon darajasida harakat qilish mumkin. Shu maqsadda, tadqiqot izlanishlariga binoan “O‘zbek modeli” bosqichlarini shartli ravishda siyosiy va huquqiy nuqtai-nazardan kompensatsiya, adaptatsiya, integratsiya va innovatsiya davrlari sifatida tahlil qiladigan bo‘lsak, uning uzviy va izchil rivojlanish qonuniyatlarini kuzatamiz. Jumladan, dastlabki, kompensatsiya va adaptatsiya davri (1991–2000-y.) – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan davr bo‘lib, to‘ldirish, ta’minlash, qoplash, moslashish, muvofiqlashtirish, ko‘nikma hosil qilish ma’nolarida qo‘llaniladi. Bu davrdagi islohotlarning asosiy

maqsadi sobiq ittifoq parchalanishi oqibatida markazlashgan ma'muriy bo'yruqbozlik boshqaruviga, kommunistik monopol mafkuraga xotima yasalishi natijasida mamlakatda har tomonlama yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirishdan iborat edi. Bu to'ldirish o'zbek davlatchiligi an'analari bilan dunyoviy jamiyat qurishning eng ilg'or g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishlab chiqilishi bilan boshlandi. U o'zbek millatining orzu-umidlari va istiqbol maqsadlarini ifoda qiluvchi dasturga aylandi. Uning ahamiyatli jihati murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitdan ortiqcha larzalarsiz, barqarorlikni saqlash orqali o'tish davri islohotlarini davrlashtirish, muvofiqlashtirish, boshqaruvning muvozanatini ta'minlash, iqtisodiy o'zgarishlarni mustahkamlash va mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish sharoitlari yaratildi. Boshqacha qilib aytganda, davlatchilikning milliy va mustaqil asoslarini yaratishga qaratilgan yangi davr ostonasiga qadam qo'yildi.

Shunga muvofiq, O'zbekistonda iqtisodiyotni boshqarishning mustabid, markazlashgan tizimiga barham berish, mustaqil O'zbekistonning yangi siyosiy va davlat tuzilishi asoslarini, avvalo, qonunchilikni shakllantirish, markazda va joylarda vakolatli hokimiyat organlarining yaxlit tizimini tashkil etishga qaratilgan ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik institutlari joriy etildi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi — mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo'linishi eng muhim tamoyil sifatida belgilandi. Demokratik siyosiy institutlar, yangi davlatchilik asoslari — vazirlik idoralari, uyushmalar, konsern va kompaniyalar tashkil etildi. Bozor iqtisodiyotiga mos ishlab chiqarish shakllari, bank va moliya infratuzulma, milliy valyuta, soliq, bojxona, milliy mudofaa tashkil etildi. Konstitutsiya talablari asosida ularning huquqiy bazasi tashkil etildi. Shular

qatorida jamiyatning ma'naviy qiyofasini o'zgartirishga, yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan "Ta'lim to'g'risi"dagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Tarixiy madaniy merosimizni tiklash borasida ulkan sa'yi-harakatlar boshlab yuborildi.

Bu davrda asosiy e'tibor islohotlar tizimiga tatbiq etilgan yangiliklarni bosqichma-bosqich eskisi bilan almashtirib borishga, aholi dunyoqarashini mustaqil davlatchilik va unda amalga oshayotgan o'zgarishlarga moslashtirishga, barcha sohalarida tatbiq etilayotgan yangiliklarga fuqarolarning ko'nikib, ularni o'zlashtirib olishiga shart-sharoitlar yaratishga yordam berishga katta e'tibor qaratildi. Bu bosqichlar ikki davriy jarayonlar kesimida kuzatiladi. Birinchisi, bu milliy davlatchilik asoslarining joriy etilishi, singdirilishi, takomillashib hayotga tadbiq etilish jarayonlari — kompensatsiya davrini o'z ichiga olsa, ikkinchi davriy jarayon davlat boshqaruv mexanizmlari belgilangan islohotlarni amalga oshirish imkoniyati va samardorligini amalda ro'yobga chiqarishi, ayni paytda, fuqarolar ongida yangi qadriyatlarning qaror topishi, mustaqillik g'oyalarining faol ehtiyojga aylanishi kabi o'zgarish va moslashuvlar jarayoni — adaptatsiya davri hisoblanadi.

Bu-yillar qanchalik murakkab, og'ir sharoitlarda kechgan bo'lmasin, keyingi bosqichlarning ijtimoiy-iqtisodiy poydevori va zaminlarini yaratishga xizmat qildi. O'zbekiston islohotlarning birinchi bosqichlaridayoq YaIM bo'yicha ijobiy ko'rsatkichlarga erisha oldi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilmalarida amalga oshirilgan mashaqqatli strukturaviy o'zgarish islohotlar yo'lining to'g'ri tanlanganligidan dalolat beradi. Amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar natijalari mamlakat iqtisodiyotini yuksalish davri hisoblangan ikkinchi bosqichda integratsion jarayonlarini ta'minlash hamda makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga xizmat qildi.

4.2.2-rasm ma'lumotlarida keltirilgan 2000-yildan keyingi ko'rsatkichlar kompensatsiya va adaptatsiya davrida amalga

oshirilgan islohotlar natijasi o'z samarasini berganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib O'zbekiston o'z rivojlanish boshqichining "Integratsiya" davriga (2001–2007) qadam qo'yadi. "Integratsiya" atamasi birlashish, qo'shilish, singish, umumjahon taraqqiyoti jarayonlariga muvofiq qadam tashlash kabi ma'nolarni qamrab oladi. Jumladan, bu tushuncha davr chaqiriqlariga munosib javob berish, ilm-fan va texnologiya yangiliklarini amaliy ishlab chiqarishga tatbiq etish orqali ilg'or mamlakatlar safidan joy olishga erishish mazmunida qo'llaniladi. O'z navbatida, shunday mazmun dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ham e'tirof etiladi. Ayni paytda rivojlangan davlatlar tajribasini amalda tatbiq etish milliy iqtisodiyotning umumjahon tizimiga kirib borishiga xizmat qiladi. Xalqaro munosabatlarning yuksak madaniy darajasiga erishiladi, dunyo mamlakatlari orasida O'zbekistonning o'rnini belgilashdek vazifa amalga oshiriladi hamda uning yangi imkoniyatlari yuzaga chiqariladi. Natijada mamlakatimizni modernizatsiyalash yo'lidagi dadil qadamlar jamiyatda raqobatbardosh industrial salohiyat poydevorlarini vujudga keltirdi. Mamlakatda qator yirik industrial inshootlar ishga tushirildiki, ular makroiqtisodiyotning tarkibiy qismiga aylandi. Mamlakatimizda iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni qo'llab-quvvatlash maqsadida xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mazkur "Integratsiya" davrida islohotlar samarasi aholi turmush darajasining keskin ravishda o'sishiga olib keldi. Jumladan, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ajratilgan xarajatlar 1990-yilda 31,5 foiz, 2000-yil 42,5 foiz, 2011-yil 58,9 foiz, 2016-yil 59,1 foizga oshdi. Shundan ta'limga ajratilgan xarajatlar 1990-yilda 17,9 foiz, 2000-yil 23,2 foiz, 2011-

yil 33,4 foiz, 2016-yil 33,7 foizga o'sdi. Sog'liqni saqlash bo'yicha 1990-yil 10,0 foiz, 2000-yil 8,7 foiz, 2011-yil 13,3 foiz, 2016-yil 14 foizga oshganligigaguvoh bo'lamiz⁵⁹. Mustaqillik yillarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy muhofazasi uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlari 5 barobardan ziyod oshdi. Har yili davlat byudjeti xarajatlarining yarmidan ortig'i ijtimoiy sohaga yo'naltirilmogda. 2004–2010-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi amalga oshirildi. Buning natijasida 7800 dan ziyod umumta'lim maktabi yangidan qurildi, ta'mirlandi va rekonstruksiya qilindi, ularning umumiy soni esa 9860 taga yetdi. 8 mingdan ortiq ta'lim muassasasi kapital ta'mirlandi, gaz va suv bilan ta'minlandi, markazlashtirilgan kanalizatsiya tarmoqlariga ulandi. 1998–2016-yillar oralig'ida 144 ta akademik litsey, 1412 ta kasb-hunar kollejlari va ularning 37 ta tarmoq filiallari tashkil etildi va faoliyat yuritib kelmoqda. Mazkur bosqichlar yangi – innovatsion davrning boshlanishiga zamin yaratdi.⁶⁰

Innovatsiya davri mamlakatimizda 2007-yildan hozirgi kungacha davom etib kelayotgan uchinchi bosqich hisoblanadi. Ushbu davrning o'ziga xos xususiyatlari O'zbekistonning demokratik islohotlar yo'lida yangi taraqqiy etgan industrial rivojlanish bosqichiga qadam qo'yishi bilan belgilanadi. Bu davr jahon tajribalari hamda sinovlaridan o'tgan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat va jamiyat boshqaruvining eng ilg'or tamoyillarini tatbiq etishga qaratilgan yangi bosqichni boshlab berdi. Jumladan, mamlakat eksportida sanoat mahsulotlari ulushini keskin oshirish, jahon bozorida O'zbekistonning zamonaviy ishlab chiqarishga asoslangani sanoat korxonalarida yaratilgan mahsulotlari hisobiga mamlakatimiz o'rnini mustahkamlab borishga muhim

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011–2015-yillarga mo'ljallangan prognozlar: statistik to'plam. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 9.

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011–2015-yillarga mo'ljallangan prognozlar: statistik to'plam. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 9.

zamin yaratdi. Islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000-yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga yetdi yoki 1,8 barobar oshdi. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o'z peshona teri bilan nafaqat o'z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isboti. Aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi tobora ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida bu boradagi ko'rsatkich 10,6 foizdan 52 foizga o'sdi. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.

Islohotlar strategiyasida asosiy e'tibor raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zamonaviy korxonalar va xo'jalik subyektlarini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimini ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali takomillashtirish, o'rta mulkdorlar qatlamini, tadbirkor-innovatorlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirib borish, investitsiya va moliyalashtirish borasida xalqaro munosabatlarni yana-da rivojlantirishga keng ahamiyat berildi. Mustaqillik yillarida xizmatlar sohasi tarkibida milliy iqtisodiyotimiz uchun mutlaqo yangi bo'lgan zamonaviy bank tizimi, audit, sug'urta, lizing, konsalting, mobil va videotelefon xizmatlari, internet kabi xizmat ko'rsatish sohalari paydo bo'ldi.

Xulosa qilinganda, mustaqillik yillarida "O'zbek modeli" siyosiy bashorat, taxmin va asossiz tajribalardan farqli o'laroq, real ijtimoiy hayot tahlillariga asoslangan, rivojlanish qonuniyatlarini bosqichma-bosqich uyg'unlashtirgan, xalqning salohiyati va imkoniyatiga suyangan milliy dasturga aylandi. Bu dastur o'z pragmatizmi va siyosiy realizmi bilan murosasiz ichki talablarga ega, davlatchilik

to'g'risidagi umumiy va mavjud qarashlarni ba'zan inkor qiladigan, ba'zan siyosatchilar hazm qila olmaydigan qoliqlarni buzish orqali yangi davr ta'limoti sifatida kirib keldi hamda "O'tish davri" konsepsiyalarining zamonaviy transformatsiya fani ta'limotiga asos soldi. Bu ta'limot kishilik jamiyat qonuniyatlari inqirozi va ziddiyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot bilan bog'liq va bir butun yaxlit holda hal etishning samarali yondashuvlarini tadbiq etishga qaratilgan zaruriyat sifatida o'rganishni talab qiladi.

Albatta, islohotlar silliq va bir tekisda risoladagidek kechdi, desak noto'g'ri bo'ladi. Islohotlar bugunda ham davom etayapti. Muammolar yetarli, lekin, u fuqarolar hisobidan emas, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining ko'lamida namoyon bo'lmoqda. Hali hech bir davlat qisqa bir davrda bu kabi ijtimoiy yuksalishlarga erishgan emas. Bosh maqsad jamiyatda tinchlikni saqlashga, farovonlikni ta'minlashga, hayotning sifat darajasini o'stirishga qaratilganligi bilan demokratik jamiyatning asoslari mustahkamlamoqda. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning ertangi kuniga umid va ishonchlarini orttirmoqda, o'zlarini chuqur islohotlarga, yangilik va bunyodkorlikka moyil manfaatdor subyektga aylantirib bormoqda. Engi muhimi, o'tish davri qiyinchiliklari xalqning milliy xarakterini shakllantirdi, toblayapti, zamonaviy, davr talablariga mos, yangiliklarga o'ch, izlanuvchan, sog'lom tafakkurli yangi avlod vakillari ulg'aymoqda. Bu, shubhasiz, o'tish davri istiqbolini kafolatlovchi ma'naviy omillardan bo'lib hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy tizim, ma'muriy buyruqbozlik tizimi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari, iqtisodiy resurslar, integratsiya, adaptatsiya.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini mantiqan nechta bosqichga bo'lish mumkin?
2. O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida real ahvol qanday bo'lgan?
3. O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish bosqichi qaysi davrga to'g'ri keladi?
4. 1991–1995-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy muam-molar nimada edi?
5. O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishida qanday omil-lar ko'proq ahamiyatga ega?
6. O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

5-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANA- DA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA "HARAKATLAR STRATEGIYASI"NING ISHLAB CHIQLISHI

5.1. O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning ishlab chiqilishi, maqsad va vazifalari

Har bir davrning o'z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va hayotiy tamoyillari bo'ladi. Tabiiyki, bularning barchasini shakllantirish va rivojlantirishga, ularga alohida ma'no-mazmun bag'ishlashga, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo'nalishlarini belgilab beradigan ulkan tarixiy voqealar bo'ladi.

2016-yil 4-dekabrda mamlakatimizda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, hech shubhasiz, yangi tariximizdagi ana shunday beqiyos hodisa bo'ldi.

Chunki aynan ana shu saylovda butun O'zbekiston xalqi o'zining buyuk siyosiy irodasi, huquqiy madaniyatini namoyon etib, mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyoti, xalqimiz, farzand-larimizning yorug' kelajagi, farovon hayoti uchun ongli ravishda ovoz berdi. Demokratik talablarga to'liq mos tarzda, milliy saylov qonunchiligi va xalqaro standartlar doirasida, ochiq va oshkora o'tgan saylov jarayonini 5 ta nufuzli xalqaro tashkilot va 46 ta davlatdan 600 ga yaqin kuzatuvchi kuzatib bordi .

Yuksak saviyada o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod sifatida ishtirok etgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylovchilar umumiy sonining 88,61 foiz ovozini olib g'olib bo'ldi.

Toshkent shahrida 2016-yil 14-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishi tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining

qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi. Davlatimiz rahbari yaqin va o'rta istiqbolda mamlakatimiz oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalarga atroflicha to'xtalib o'tdi. Ma'lumki, bu vazifalarga Prezidentimizning saylovoldi dasturida alohida e'tibor qaratilgan edi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchlar vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar jarayonida ular yana-da boyitildi.

“Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyanganda holda, – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishi marosimiga bag'ishlangan nutqida, – o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur. Shu maqsadda 2017–2021-yillarda O'zbekistonni yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish yaqin kunlarda yakunlanadi⁶¹”.

Haqiqatan ham, davlatimiz rahbarining bevosita rahbarligi ostida “Xalq bilan muloqat va inson manfaatlarini yili” va “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili” Davlat dasturlarini ham o'z ichiga oladigan mazkur keng ko'lamli dasturiy hujjat har tomonlama puxta ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 2017-yil 7-fevralda imzolangan Farmoniga muvofiq uni hayotga joriy etish bo'yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar tasdiqlandi. Mazkur Farmonga berilgan sharhda Harakatlar strategiyasining ahamiyati alohida ta'kidlanib, bu boradagi loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar

⁶¹ Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. “Xalq so'zi” gazetasi, 2016-yil 15-dekabr.

olib borilgani, ular turli axborot maydonlariga joylashtirilgani, buning natijasida ko'plab taklif va mulohazalar kelib tushgani, xususan, “Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimi” portalida yo'lga qo'yilgan muhokamalar tufayli kelib tushgan 1310 ta taklif-mulohaza asosida “Xalq bilan muloqat va inson manfaatlarini yili” Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko'rib chiqilgani qayd etiladi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy-siyosiy doiralari tomonidan ham katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganilmoqda. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi ko'zga ko'ringan rahbarlar o'z fikr-mulohazalarini bildirmoqdalar.

Aytish mumkinki, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi mamlakatimiz o'tgan 25 yil davomida erishgan ulkan yutuqlar, tarixiy tajribalarni umumlashtirib, hozirgi kunda davrning o'zi oldimizga qo'yayotgan dolzarb masalalarni hisobga olib, keyingi besh yilga va undan keyingi davrga mo'ljallangan tarixiy taraqqiyotning yangi ufqlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, u o'zining mohiyat e'tibori bilan O'zbekistonni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarishni ta'minlaydigan strategik dasturdir.

Albatta, xalqimiz o'rtasida “Harakatlar strategiyasi” degan nom bilan tobora mashhur bo'lib, uning hayotiga chuqur kirib borayotgan mazkur dasturning har bir yo'nalishi va bandi, uning ajralmas qismi bo'lgan “Xalq bilan muloqat va inson manfaatlarini yili” va “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili” Davlat dasturlarining samarali amalga oshirilishi bizning har birimizning mazkur jarayonda ogli va vatanparvar fuqaro, shu yurtning fidoyi farzandi sifatida faol ishtirok etishimizga bevosita bog'liqdir. Buning uchun esa, avvalo, Harakatlar strategiyasining ma'no-mazmunini, maqsad va vazifalari, uning har bir yo'nalishi bo'yicha qo'yilayotgan amaliy va dolzarb vazifalarini chuqur tushunib olish muhimdir.

“2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning maqsadi – mamlakatda olib borilayotgan islohotlar samarasini yana-da oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish.

Harakatlar strategiyasining asosiy vazifalari:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yana-da kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

2. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yana-da isloh qilishga yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma‘muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

3. Iqtisodiyotni yana-da rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy

islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yana-da kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

5.2. “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning asosiy yo‘nalishlari

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning

munosib hayot kechirishi, fuqarolarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Mamlakat iqtisodiyotida ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyukturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yana-da barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Shuning uchun olib borilayotgan islohotlar samarasini yana-da oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida Respublikada **2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi** (keyingi o'rinlarda – Harakatlar strategiyasi) ishlab chiqildi va uning asosiy ustuvor yo'nalishlari quydagilardan iborat qilib belgilandi:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yana-da isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yana-da rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni

ta'minlash chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruxdagi tashqi siyosat yuritish.

Ushbu yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlar va yangilanishlarni yana-da chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat.

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.

1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yana-da kuchaytirish:

– davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yana-da kengaytirish;

– qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarni amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda tubdan oshirish;

– siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

– davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini davlat boshqaruvining markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minoti darajasini oshirish, hamda iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali isloh qilish;

– mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

– davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shahslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

– «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifati va aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

– xalq bilan samarali muloqot mexanizmlarini joriy qilish;

– jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

– fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

– mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyatining samaradorligini oshirish;

– ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilish.

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yana-da isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

– sudyalarning va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minlash darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

– sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

– sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessi tomonlarining tortishuvi va teng huquqligi tamoyillarini xar tomonlama tatbiq etish;

– «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

– sudlarni yana-da ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;

– sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish.

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

– fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va befarq munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralari ko'rish;

– sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

– fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

– fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash;

– sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

– jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoyi qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoyi jazolar va ularni ijro etish tartibini insonpavpallashtirish;

– odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

– jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir birini takrorlovchi vakolat va instansiyalarni qisqartirish;

– elektron sud ish yurituvi va ijro ishi yurituvining zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

– jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

– diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni yana-da kuchaytirish;

– korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

– aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yana-da mustahkamlash:

– huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish;

– sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

– huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

– huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:

– davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

– advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokat o'rnini oshirish;

– notariat va FHDYO organlari tizimini isloh qilish.

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishari.

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yana-da mustahkamlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:

– qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institutsional o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

– xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlangan holda Davlat byudjetining barcha miqyoslarida muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

– ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq instrumentlardan foydalanish hisobiga pul-kredit siyosatini yana-da takomillashtirish, milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlash;

– erkin konvertatsiyani ta'minlovchi valyutaga oid munosabatlarni tartibga solish, milliy valyuta kursini shakllantirishda zamonaviy bozor mexanizmlarni joriy etish;

– soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lini davom etish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarni kengaytirish;

– bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish,

ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsion loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni yana-da kengaytirish;

– yangi turlardagi sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hisobiga ularning xajmini kengaytirish va sifatini oshirish, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va axolining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

– xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo'li bilan, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishini davom etish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish.

3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

– milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

– ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmadagi loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan aktiv investitsiya siyosatini olib borish;

– sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yana-da modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

– iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulotlar va xizmatlar ko'rsatish bozorlarida monopoliyani bosqichma bosqich kamaytirish;

– prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalar turlarini chiqarishni o'zlashtirish, bunga asosan ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

– ishlab chiqarish mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom etish hamda eng avvalo iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

– iqtisodiyotning energiya va resurs sarfini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

– erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish, amaldagi zonalarining samaradorligini oshirish; xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini eng avvalo xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

– eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksportning tuzilmasi va geografiasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

– yo'l-transport infratuzilmasini yana-da rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish.

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

– tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yana-da mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

– paxta va boshqoli don ekiladigan maydonlarni qisqartirib, ekin maydonlarini yana-da maqbullashtirish, bo‘shab qolgan erlarga kartoshka, sabzavot, oziq-ovqat i moyli ekinlarni, shuningdek yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish;

– qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

– fermer xo‘jaliklar, eng avvalo qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan, qayta tayyorlanayotgan, tayyorlash, saqlash, sotish, kurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek qadoqlash buyumlarini ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlangan, qayta ishlovchi yangi korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish yuzasidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko‘rsatish infratuzilmasini yana-da keygatarish;

– sug‘oriladigan erlarning meliorativ holatini yana-da yaxshilash, meliorativ va irrigatsiya obyektlarning tarmog‘ini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo zamonoviy suv va resurslarni tejaydigan agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish;

– global iqlim o‘zgarishi va Orol dengizi qurib qolishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni ko‘rish.

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yana-da kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom etish:

– xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, barcha turdagi to‘sqinliklar va cheklanishlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo‘lida to‘liq erkinlik berish, amaliyotda “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi” degan prinsipni amalga oshirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning noqonuniy aralashuvini qat‘iy oldini olish;

– davlat mulkini xususiylashtirish tartib-taomillarni yana-da kengaytirish va soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulkning xususiylashtirilgan obyektlarning bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

– korporativ boshqaruvining zamonaviy standartlar va usullarni joriy etish, korxonlarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

– tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanish tartib-taomillar mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

– mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini detsentralizatsiya qilish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlar va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

3.5. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarning kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

– sotsial-iqtisodiy jadal rivojlanishi, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xom ashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta‘minlash;

– hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish masshtablarni kengaytirish hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo sanoat va eksport salohiyatini o‘stirish yo‘li bilan qiyoslangan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish;

– yangi sanoat ishlab chiqarish va servis markazlarini tashkil etish hisobiga shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni aktiv rivojlantirish, yirik xo‘jalik birlashmalarining mablag‘larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

– subvension tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

– sanoat va boshqa ishlab chiqarish obyektlarni joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda axolining turmush darajasini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yana-da rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

3.6. Turizm sohasini rivojlantirish:

– turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirish, turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish;

– turizm sohasida viza, litsenziya berish va ruxsat olish tartib-taomillarini soddalashtirish;

– xorijiy investitsiyalar, jahon brendlarini faol jalb qilish, turizm sohasida biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– yangi turizm yo‘nalishlarini yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirish.

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.

4.1. Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish:

– aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta‘minlangan oilalarni va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanishi darajasini yana-da qisqartirish;

– byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalarning hajmini inflyatsiya sur‘atlariga nisbatan jadal miqdorda bosqichma-bosqich oshirish;

– yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining oqilona bandligini ta‘minlash, mehnat bozori infrastrukturasi mutanosibli va rivojlanishini ta‘minlash, ishsizlik darajasini qisqartirish;

– mehnatga qobiliyatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini oshirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish;

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish:

– aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

– sog‘liqni saqlash sohasini, eng avvalo, aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo‘g‘ini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yana-da isloh qilish, aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

– oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatga erishishini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yana-da amalga oshirish;

– pensionerlar, nogironlar, yolg'iz keksalar va aholi boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yana-da rivojlantirish va takomillashtirish;

– farmatsevtika sanoatini yana-da rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, ular narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– aholi kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va hayotining davomiyligi uzayishini ta'minlash.

4.3. Arzon uy-joylar qurish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

– aholining, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashovchilar va fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj boshqa toifalarining yashash shart-sharoitlarini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shaharlar va qishloq joylarida arzon uylarni qurish orqali yana-da yaxshilash;

– kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, eng avvalo, yangi suv o'tkazish tarmoqlarini qurish, zamonaviy tejamkor va samarali texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarida aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishini tubdan yaxshilash;

– odamlar yashashining ekologik xavfsizligini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va

modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindi yo'q qilishning zamonaviy obyektlari bilan ta'minlash;

– aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atmosferaga zararli ifloslantiruvchi moddalarni qisqartirish, yangi har tomonlama qulay avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

– yo'l infrastrukturasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini jadal davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

– yangi elektr ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish asosida aholini elektr energiyasi bilan ta'minlashni yaxshilash, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash, shuningdek, aholini boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– teatr-tamosha, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

– uzluksiz ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

– ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish;

– bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

– umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika, matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan redmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish; bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga jalb qilish, ularni musiqa va san'at olami bilan bog'lash maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

– kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

– ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

– ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

– jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish

va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

– o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb qilish;

– yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

– yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;

– yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

V. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar

5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

– O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

– axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va mutanosib ravishda qarshi harakatlarni tashkil etish;

– fuqarolik, millatlar va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash;

– davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va qobiliyatini oshirish;

– atrof-tabiiy muhit, aholi sog'lig'i va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olish;

– favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

5.2. chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

– davlat mustaqilligi va suverenitetini mustaxkamlash, mamlakatning halqaro munosabatlar to'la huquqli subyekti sifatida o'rni va rolini kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekiston tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shniçilik mintaqasini vujudga keltirish;

– O'zbekiston Respublikasining halqaro nufuzini mustahkamlash, jaxon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborotni yetkazish;

– O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda halqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

– davlat chegarasining demilitatsiya va demarkatsiya masalalarini hal etish.

Shunday qilib, Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiyotda yangi bozor munosabatlariga asos soladi, iqtisodiy faoliyat erkinligi va tadbirkorlikni namoyon etish uchun sharoit yaratib beradi, ijtimoiy-ma'naviy sohadagi ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlaydi.

5.3. "Harakatlar strategiyasi"ning dastlabki natijalari va "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturining ustuvor yo'nalishlari

2017-yilda Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda alohida e'tibor "Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun" degan tamoyil va "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ezgu g'oyaning, eng avvalo, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish hamda fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining real himoya qilinishini ta'minlash orqali hayotga amaliy tatbiq etilishiga qaratildi.

Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida 30 dan ortiq qonunlar hamda 900 dan ortiq qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, xalq farovonligini yuksaltirishning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari, shuningdek, har bir davlat organida tashkil etilgan fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash bo'yicha maxsus bo'linmalar aholi bilan ishlashning sifat jihatidan yangi samarali tizimini shakllantirishga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi davlat boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, "Elektron hukumat" va davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini rivojlantirish, iqtisodiyotga ma'muriy ta'sirni qisqartirish hamda boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish, sog'lom raqobat muhiti va qulay investitsiya iqlimini yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Sud-huquq tizimida sudlarning haqqoniy mustaqilligini ta'minlash, sud kadrlarini tanlab olishning demokratik va shaffof mexanizmini shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini isloh qilish, huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatda jinoyatchilikning umumiy ko'rsatkichi 15,7 foizga kamayishiga erishildi, 1,2 ming mahallalarda birorta jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Ilgari, asosan xavfsizlikka xavf-xatar va tahdidlar oqibatlariga qarshi kurashish bilan cheklangan terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga yondashuvlar konseptual qayta ko'rib chiqildi. Mazkur muammolarni hal qilishda, birinchi navbatda, yoshlarning huquqiy madaniyati va ma'naviyatini

yuksaltirish orqali odamlarning ongi uchun kurashish ustuvor vazifa etib belgilandi.

O'z taqdirini O'zbekiston bilan bog'lagan, mamlakatimiz farovonligi yo'lida halol va vijdonan mehnat qilayotgan, o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylanib qolgan fuqarolarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga alohida e'tibor qaratildi. O'tgan davrda 1243 nafar shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi.

Iqtisodiy sohada keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirildi, eng avvalo, O'zbekistonning o'z majburiyatlarini bajarish va chet el hamkorlarining daromadlarini repatriatsiya qilish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi milliy valyuta erkin konvertatsiyasining joriy etilganligi bu borada muhim qadam bo'ldi.

Davlat byudjetini shakllantirishning tamomila yangi prinsiplari va mexanizmlari joriy etildi, uning daromad va xarajatlari shaffoqligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Birinci bosqichda – uzoq muddatli (10–15-yilga mo'ljallangan) tarmoq, hududiy va maqsadli rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash, ikkinchi bosqichda – tarmoq, hududiy va maqsadli loyihalar portfellarini tuzish, uchinchi bosqichda – rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishning mutlaqo yangi tartibi tasdiqlandi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog'lig'ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

Shaharlar va qishloqlarda umumiy turar joy maydoni 3,5 million kvadrat metrdan ortiq bo'lgan namunaviy va ko'p qavatli

uyalar qurildi. Turar joy qurilishi hajmlari 2010-yilga nisbatan 3,5 baravarga oshdi.

Xalq bilan muloqot natijalari bo'yicha 11 yillik umumiy o'rta ta'limni qayta tiklash haqida qaror qabul qilindi, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishning shaffof mexanizmlari joriy etildi va kvotalar jiddiy ravishda oshirildi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi.

Millatlararo tinchlik va totuvlikni, puxta o'ylangan va o'zaro manfaatli tashqi siyosat amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilganligi natijasida qo'shni davlatlar bilan ishonchli munosabatlar yo'lga qo'yildi, Markaziy Osiyo hududida savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Faqat o'tgan yilda 21 ta oliy darajadagi tashrif amalga oshirildi, 60 ta davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazildi, 400 dan ortiq kelishuvlarga erishildi, 60 milliard AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi bitimlar imzolandi.

Shu bilan birga, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot hamda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida qilingan ishlarning tanqidiy tahlili joylarda aholi farovonligini oshirish va ishlar ahvolini tubdan yaxshilashga to'squinlik qilayotgan qator muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Davlatimiz rahbari o'zining 2017-yil 22-dekabr kuni parlamentga yo'llagan tarixiy Murojaatnomasida ham mavjud o'tkir muammolarga e'tibor qaratdi, ularni hal etishning aniq yo'llarini taklif qildi.

Shu munosabat bilan Harakatlar strategiyasini **"Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"**da amalga oshirishga oid Davlat dasturi (keyingi o'rinlarda Davlat dasturi deb yuritiladi) loyihasi ishlab chiqildi hamda 10–20-yanvar kunlari aholi o'rtasida keng va atroflicha muhokama qilindi.

Davlat dasturi loyihasini muhokama qilish davomida fuqarolardan 4,4 mingta taklif va sharh kelib tushdi, ulardan Davlat dasturini takomillashtirishda foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 22-yanvar kuni qabul qilingan Farmoni bilan Davlat dasturi tasdiqlanib, uning asosiy yo'nalishlari va uni amalga oshirishning birinchi navbatdagi chora-tadbirlari belgilandi.

Fuqarolardan kelib tushgan takliflarning aksariyatida ko'rsatilgan dolzarb muammolarni hal qilishga oid alohida huquqiy normalar bevosita Farmonning o'zida ko'rsatilgan bo'lib, ularning ijrosini darhol ta'minlash shart ekani belgilandi.

Farmon bilan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish bo'yicha ikki yil muddatga moratoriy e'lon qilindi. Endilikda, Farmon e'lon qilingan kundan boshlab tadbirkorlik subyektlari nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvlariga vaqt va resurs sarflamasdan o'z faoliyatini xotirjam amalga oshirishlari mumkin.

Yana bir muhim yangilik – vaqtincha yoki doimiy propiskasi bo'lmagan yoxud turar joyi bo'yicha hisobda turmagan fuqarolarni ishga olishga oid taqiq bekor qilinadi. Istiqbolli kadrlar qaerda doimiy yoki vaqtincha propiska qilingani, turar joyi bo'yicha hisobda turganidan qat'i nazar, poytaxt mintaqasida mehnat qila oladilar.

O'z navbatida, ish beruvchilar vaqtincha yoki doimiy propiskasi bo'lmagan yoxud turar joyi bo'yicha hisobdan o'tmagan fuqarolarni ishga olganliklari uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

Davlat dasturi 5 bo'limdan iborat. Davlat dasturi doirasida 37 ta qonun (Saylov kodeksi, «Davlat xizmati to'g'risida», «Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida», «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida», «Fan to'g'risida», «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi va boshqalar)ni ishlab chiqish, 142 ta normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish hamda turli sohalarni qamrab oladigan 52 ta amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Davlat dasturining birinchi bo'limi davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan.

Shubhasiz, «Davlat xizmati to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi bu boradagi muhim qadam bo'ladi. Ushbu hujjat, avvalo, davlat idoralarida xizmatni haqiqatdan nufuzli faoliyatga aylantiradi, davlat xizmatchilarining mehnat haqi va ijtimoiy himoyasi uchun munosib tizim shakllantiradi, yuklatilgan vazifalarning sifatli ijrosi uchun davlat xizmatchilarining javobgarligini oshiradi. Endilikda har bir davlat xizmatchisi egallab turgan lavozimga munosib ekanini har kuni isbotlashi shart.

Davlat funksiyalari va vakolatlarining amaldagi markazlashgan tizimiga barham beriladi. Birinchidan, hukumatning alohida funksiyalari, ayniqsa, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari sohasidagi vazifalari vazirlik va idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'tkaziladi. Ikkinchidan, tegishli hududda davlatsiyosatini amalga oshirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslar sifatida barcha darajadagi hokimlarning vakolatlari kengaytiriladi va mavqei mustahkamlanadi. Bundan pirovard maqsad – hokimlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish va aholi farovonligini oshirishni amalda ta'minlash imkonini beradigan real vakolatlariga egabo'lishga erishish. Fuqarolarning davlatni boshqarishda ishtirok etishga bo'lgan huquqini ro'yobga chiqarishning yangi mexanizmi sifatida elektron jamoaviy murojaat qilish – petitsiya yo'llash tizimi joriy qilinadi. Ushbu tizim fuqarolarga davlat hokimiyatining vakillik organlariga aniq savollar qo'yish imkonini beradi, ushbu organlar esa fuqarolarning ma'lum soni tomonidan ma'qullangan murojaatlar yuzasidan chora ko'rish shart bo'ladi. Mazkur mexanizm tufayli faol fuqarolar va jamoat tashkilotlari turli muammolar yechimi bo'yicha tashabbus ko'rsatishlari mumkin. Shu orqali «Mamlakat hayotiga aloqador eng muhim qarorlar bevosita muloqot asosida qabul qilinadi», degan tamoyil amalda ro'yobga chiqariladi.

Davlat dasturining navbatdagi muhim yoʻnalishi qonun ustuvorligini taʼminlash va sud-huquq tizimini yana-da isloh qilishdir.

2018–2021-yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish boʻyicha konsepsiyani ishlab chiqish, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarini qayta koʻrib chiqish rejalashtirilgan. Jinoiy va maʼmuriy javobgarlikni liberallashtirish, protsessual normalarni takomillashtirish koʻzda tutilgan.

Dastlabki tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish uchun tintuv va telefon soʻzlashuvlarini eshitishga sanksiya berish vakolati sudga oʻtkaziladi.

Inson huquqlari buzilishining oldini olish maqsadida tergov izolyatorlari va jazoni ijro etish muassasalari videokuzatuv vositalari bilan jihozlanadi.

Ichki ishlar organlari yoʻl-patrul va patrul-post xizmatlarini ular fuqarolar bilan muomala qilayotganda foydalaniladigan video-fiksatorlar bilan taʼminlash koʻzda tutilgan boʻlib, bu nafaqat fuqarolar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishi, balki tinchligimiz posbonlari tomonidan oʻz vazifasini suiisteʼmol qilishi holatlarining ham oldini olishga xizmat qiladi.

Davlat dasturida propiska va pasport tizimini soddalashtirishga doir chora-tadbirlar ham koʻzda tutilgan. Hususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy propiskasi boʻlmagan fuqarolar ikkilamchi bozorda koʻchmas mulk xarid qilish imkoniyatiga ega boʻladi.

Davlat dasturining uchinchi yoʻnalishi iqtisodiyotni rivojlantirish va faol tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashga bagʻishlangan.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida ilgʻor gʻoyalar, “smart” texnologiyalar va nou-xaularga asoslangan innovatsion taraqqiyotning yangi modeliga bosqichma-bosqich oʻtish koʻzda tutilmoqda. Venchur fondlar, venchur moliyalashtirishni tashkil etish va rivojlantirish uchun huquqiy asoslar, shuningdek, iqtisodiyotga innovatsiyalar va yangi texnologiyalar joriy etishni ragʻbatlantiruvchi mexanizmlar ishlab chiqiladi.

2023-yilning 1-yanvariga qadar venchur fondlar, yuqori texnologik startap-loyihalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, innovatsiya markazlari va loyiha-konstruktorlik byurolariga oʻzlarining yangi texnologiyalarini tadbirkorlarga sotish (foydalanish uchun taqdim etish)dan tushgan daromadlari boʻyicha soliq imtiyozlari taqdim etiladi.

Yer uchastkalari berishda shaffoflik va qonuniylikni taʼminlash maqsadida internet tarmogʻida elektron savdolar oʻtkazishni joriy qilish rejalashtirilgan. Davlat aktivlarini elektron savdo maydonlari orqali sotish tizimini yaratish koʻzda tutilmoqda.

Banklar va bank faoliyatiga doir qonunchilik tubdan qayta koʻrib chiqilib, sohada “raqamli banking”, “internet-banking” va boshqa zamonaviy texnologiyalar tatbiq etiladi.

Soliq va bojxona siyosatini takomillashtirish va optimallashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliq va bojxona maʼmurchiligini soddalashtirish boʻyicha ishlar davom ettiriladi.

Turizm sohasini rivojlantirish, kirish turizmi va ichki turizmni rivojlantirishni ragʻbatlantirish, sayyohlar uchun maʼmuriy va viza bilan bogʻliq tartibotlarni soddalashtirishga alohida eʼtibor qaratiladi.

Davlat dasturining keyingi boʻlimi ijtimoiy sohani rivojlantirishga bagʻishlangan.

Aholining munosib hayot kechirishi uchun zarur boʻlgan daromadlarni aniqlash boʻyicha “isteʼmol savatchasi”ga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish nazarda tutilgan. Hududlar kesimida “isteʼmol savatchasi”ni hisobga olgan holda ish haqi, pensiya va boshqa ijtimoiy toʻlovlar miqdorini belgilash tizimiga bosqichma-bosqich oʻtish moʻljallanmoqda.

Tibbiy yordam tizimini yana-da takomillashtirish va tibbiy xizmat sifatini oshirish boʻyicha ishlar izchil davom ettiriladi. Sogʻliqni saqlash sohasiga “aqli tibbiyot” tizimi, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish koʻzda tutilmoqda.

Aholini arzon narxlardagi sifatli dori vositalari bilan ta'minlaydigan 2000 ta ijtimoiy dorixona tashkil etish rejalashtirilgan.

Aholi, ayniqsa, yosh oilalarning arzon uy-joyga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash maqsadida 2018-yilda bunday uylarni qurish hajmi 1,5-2 barobar oshiriladi. Bu maqsadlar uchun 5 trillion 286 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Aholini telekommunikatsiya xizmatlari bilan to'liq qamrab olish uchun chekka hududlarda 2000 kilometr optik tolali aloqa liniyalari tortish, internet tezligini 2,5 barobar oshirish va 4 mingdan ziyod mobil aloqa tayanch stansiyalarini ishga tushirish ko'zda tutilmoqda.

Davlat dasturining beshinchi yo'nalishi – xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, vazmin, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat yuritish.

Hususan, xorijda yashayotgan va ishlayotgan yurtdoshlarimiz bilan hamkorlik qilish bo'yicha davlat siyosati konsepsiyasi ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushib qolgan fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, bunday fuqarolarni sog'lom muhitga qaytarish tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Diniy ma'rifat tizimi qayta ko'rib chiqilib, bu borada aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida olib borilayotgan ishlar samaradorligi va ta'sirchanligi kuchaytiriladi.

Muxtasar aytganda, Davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga 11,2 trillion so'm va 1,3 milliard AQSh dollari yo'naltiriladi.

Davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, aholi farovonligini amalda yuksaltirish va fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Harakatlar strategiyasi, parlament, makroiqtisodiy barqarorlik, ishsizlik, inflyatsiya, ijtimoiy soha, ijtimoiy himoya, byudjet daromadlari va xarajatlari.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqilishining obyektiv sababalari nimalardan iborat?

2. "Harakatlar strategiyasi"ning asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

3. "Harakatlar strategiyasi"ning ustuvor yo'nalishlarini aytib bering.

4. "Harakatlar strategiyasi" qaysi davrlarni o'z ichiga olgan?

5. O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning ishlab chiqilishi, maqsad va vazifalari

6. "Xalq bilan muloqat va inson manfaatlari yili" Davlat dasturining ijrosi to'g'risida nimalarni bilasiz?

7. "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturining ustuvor yo'nalishlarini aytib bering.

**6-MAVZU. DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHINI
TAKOMILLASHTIRISH HAMDA QONUN
USTUVORLIGINI TA'MINLASH IQTISODIY
TARAQQIYOTNING OMILI SIFATIDA**

**6.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni
modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy
partiyalarning rolini yana-da kuchaytirish**

“2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning 1.1.bandida belgilab qo‘yilgan ustuvor vazifalarning eng birinchisi, davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yana-da kengaytirish hisoblanadi.

Jahon tarixida bir necha minglab-yillar davomida davlat hokimiyatining jamiyat va odamlar maqsadi hamda manfaatlari yo‘lida xizmat qilishi uchun harakatlar bo‘ldi. Lekin, insoniyat va uning farovonligi uchun xizmat qiladigan hokimiyatga ega bo‘lish muammosi yechilmay qolaverdi. Faqat yangi davr – XVII asrdan boshlab hokimiyatni qonuniy yo‘l bilan uchga bo‘lish asnosida zulm va zo‘ravonlik asosida davlat boshqaruviga yo‘l qo‘ymaslik haqida dastlabki zamonaviy nazariy qarashlar paydo bo‘ldi.

Mamlakatda 2016–yil 4-dekabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Sh.M.Mirziyoyevning saylovchilarning mutlaq yuqori – 88,60 foiz ovozini olgan holda mamlakat Prezidenti etib saylanishi muhim va tarixiy voqea bo‘ldi. Qisqa davr – yarim yil ichida mamlakatda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarini yana-da chuqurlashtirishga doir qator huquqiy hujjat qabul qilinib, ular ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotga jadallik bilan joriy etila boshlandi.

Hozirgi davrga kelib “mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili bugungi kunda jahon bozorida konyuktura o‘zgarib, raqobat tobora kuchayib borayotganini har tomonlama hisobga olishni, shu asosda davlatimizni yana-da barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha strategik yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etayotganini” e‘tiborga olgan holda, shuningdek, “olib borilayotgan islohotlar samarasini yana-da oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo‘yicha eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan «O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi bosqichi boshlanganini anglatadi. Ushbu hujjatda 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (keyingi o‘rinlarda – Harakatlar strategiyasi) mujassamlashgan bo‘lib, ularning birinchisi davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida ifodalaydi. Bu yo‘nalishning dastlabki vazifasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yana-da kengaytirish”ga doir strategik vazifa qo‘yildi.

Mazkur vazifa mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yana-da kuchaytirishga qaratildi. Harakatlar dasturida Oliy Majlisning hokimiyatlar

bo'linishi prinsipiga asosan boshqa hokimiyat tarmoqlari bilan muvozanatni va o'zaro bir-birini tiyib turishni ta'minlash, uning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish maqsadlarida "Parlament nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish, loyihada Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputati va Senat a'zosi tomonidan parlament nazorati shakli sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini o'rganib, tahlil qilish hamda uning natijalari bo'yicha tegishli choralar ko'rish, Oliy Majlisning tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili (biznes ombudsman)ni (bundan keyin – biznes ombudsman) parlament nazorati subyekti sifatida belgilanishi ko'rsatildi.

Harakatlar strategiyasida Prezident Sh.M. Mirziyoyev ilgari surgan – "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" prinsipini ijtimoiy-siyosiy hayotda amalga oshirishga doir dasturiy maqsadlar ham mujassamlashgan. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining joylarda ishlarning holatini o'rganish va xalq bilan muloqot qilishga doir faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo'shma qarori loyihasini ishlab chiqish, unda hududlardan saylangan deputat va senatorlar har oyda 10–12 kun davomida bir tumanda bo'lib, davlat hokimiyati organlari faoliyatini o'rganib, tahlil qilishi, tegishli rahbarlarning hisobotini xalq deputatlari Kengashlari sessiyasi muhokamasiga kiritishi hamda tegishli xulosalar berishi, shuningdek Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi ishtirokida o'rganish natijalari bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarini o'tkazish, Oliy Majlis Senati tomonidan har bir viloyatda navbatma-navbat namunaviy xalq deputatlari Kengashlari ishini tashkil etish nazarda tutilmoqda.

"2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar stra-

tegiyasi"ning 1.1.bandida belgilab qo'yilgan ustuvor vazifalarning keyingisi qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda tubdan oshirish hisoblanadi. Harakatlar strategiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili (biznes ombudsman) to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish, unda yangi tashkil etiladigan ombudsmanga quyidagi vakolatlarni berish nazarda tutildi: tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish; tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tekshirilayotganda ularni huquqiy qo'llab-quvvatlash; tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari va talablarining amalda ro'yobga chiqarilayotganini o'rganish; qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilishiga ta'siri samaradorligini baholash; davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish va hokazo.

Biznes ombudsmanni tashkil etishdan asosiy maqsad mamlakatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ijrosi bajarilishi ustidan parlament nazorati o'tkazishdan iborat bo'lishi nazarda tutilmoqda. Shuningdek, biznes

ombudsman har bir fuqarolik jamiyati uchun xos bo'lgan huquq – mamlakat fuqarolarining iqtisodiy huquqlarini himoyalash va ta'minlashning asosiy instituti sifatida faoliyat yuritishi muqarrardir.


Ko'rinib turibdiki, biznes ombudsmanga berilishi nazarda tutilayotgan huquq va vakolatlar mamlakatimiz iqtisodiyotining asosi bo'lgan – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi, ularning uddaburonligi, ishchanligi va g'ayrat-shijoatini to'liq ravishda ro'yobga chiqara olishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi. Mulkdorlar sinfini bu kabi huquqiy asoslar va institutlar vositasida himoyalash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir alohida davlat siyosati uchun asos solinishi – bu mamlakatmizning rivojlangan davlatlar uchun xos bo'lgan huquqiy davlat sari intilayotganini anglatadi.

Ushbu sohaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni va roli xususida Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "...tuzilma va hokimliklarning jiddiy va kundalik e'tiborini talab qiladigan yana bir muhim yo'nalish bor. Bu – xususiy mulk va tadbirkorlikni yana-da rivojlantirish va ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlashdir. Buning uchun joylarga chiqish, har bir xonadonning tadbirkorlik borasidagi imkoniyatini o'rganish, moliyalashtirishni kengaytirish bilan bog'liq muammolarni hal etish, tadbirkorlarni ishontirish va ularga amaliy yordam berish kerak. «O'ztadbirkoreksport» va «O'zsanoateksport» aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, Milliy bank huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi yo'nalishi bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan kamida 1 milliard 500 million dollarlik eksportni ta'minlash kerak"⁶² – degan fikrlaridan Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, hattoki

⁶² Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 17.01.2017-y.

tashqi iqtisodiy aloqalarda ham ularning o'rni va rolini kengaytirish masalalari hozirgi kunda naqadar dolzarb ahamiyatga molik masalalardan ekanligini tushunish mumkin.

Bundan tashqari, Respublikada iqtisodiyotni yana-da rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va undagi 3.4.bandning deyarli barcha ustuvor yo'nalishlari mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yana-da rivojlantirishga qaratilgan. Unda "kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning noqonuniy aralashuvining qat'iy oldini olish"⁶³ – deb belgilab qo'yilishi mamlakatda ushbu sohani rivojlantirishga naqadar katta ahamiyat berilayotganligini ko'rish mumkin.



6.1.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar umumiy hajmi. (joriy narxlarda mlrd. so'm)⁶⁴


⁶³ "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy

⁶⁴ <https://stat.uz/432-analicheskie-materialy-uz/2031-o-zbekiston-respublikasida-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

2000–2016-yillarda YaIM tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi yildan yilga oshib borish tendensiyasiga ega bo‘ldi. (6.1.1-rasm)

6.1.1-rasm ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2000-yilda 1 trln. so‘mlik tovar va xizmatlar ishlab chiqarilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2005-yilga kelib 6 trln., 2010-yilda 32,7 trln., 2015-yilda 97 trln., 2016-yilda esa 2000-yilga nisbatan deyarli 114 barobarga oshib, 113,4 trln. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Buni YaIM ga nisbatan olib qaraydigan bo‘lsak, 2000–2016-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 31,0 foizdan 56,9 foizga o‘tib, 25,9 birlikka ortganligini ko‘rish mumkin (6.1.2-rasm).

6.1.2-rasm ma‘lumotlari Respublikamizda YaIM tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining ortib borishi ushbu sohaga hukumat tomonidan qaratilayotgan e‘tibor va ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish borasida naqardar yuksak ishlar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. YaIM tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining yuqoriligi borasida O‘zbekiston dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.




6.1.2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi⁶⁵

⁶⁵ <https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2031-o-zbekiston-respublikasi-da-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mezonlari dunyo mamlakatlarida ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo‘ladi. Ushbu mezonlar uchun aholi soni, daromadlari, YaIM hajmi, pul oqimi va shu kabilar asos bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham turli davlatlarda subyektlarning kichik biznes sohasiga taalluqliligi mezonlariga katta e‘tibor berish lozim. Masalan, AQShda xodimlar soni 100 kishigacha hamda yillik aylanmasi hajmi 3 dan 12 mln. AQSh dollarigacha bo‘lgan subyektlar kichik biznes subyektlari hisoblanadi. Xodimlar soni 100 dan 500 kishigacha bo‘lgan subyektlar esa, o‘rta biznes subyektlari deb yuritiladi. Shuningdek, Rossiyada kichik biznes subyektlariga xodimlar soni 100 kishigacha hamda yillik tushum hajmi 400,0 mln. rublgacha bo‘lgan subyektlar taalluqli bo‘ladi.

Taqqoslash uchun bir qator chet el davlatlarida kichik biznesning YaIMdagi ulushini olib qaraydigan bo‘lsak, Fransiyada bu ko‘rsatkich – 62, Italiyada – 60, Yaponiyada – 55, Germaniyada – 54, Buyuk Britaniyada – 53, AQShda – 52, Qozog‘istonda – 25,6, Rossiyada – 20,0 foizni tashkil yetadi (6.1.3-rasm).



6.1.3-rasm. Dunyoning turli davlatlarida kichik biznesning YaIMdagi ulushi⁶⁶

⁶⁶ <https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2031-o-zbekiston-respublikasi-da-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>

Mazkur sohada YaIMning salmoqli qismi tobora ko'proq ishlab chiqarilmoqda, ishchi kuchi aksariyat qismining ish bilan bandligi ta'minlanmoqda, barcha innovatsiyalarning yarmidan ko'proq qismi yaratilmoqda. Bu mamlakatlarda kichik tadbirkorlik mavqeining mustahkamlanishi davlatning shu boradagi siyosati bilan uzviy bog'liqdir.

Harakatlar strategiyasida davlatning tashqi siyosatini amalga oshirishda Oliy Majlis palatalarining roli va mavqeini oshirishga doir O'zbekiston Respublikasi qonunining loyihasini ishlab chiqish, unda Oliy Majlis palatalarining davlat tashqi siyosatini amalga oshirishda ularni xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi ustidan nazorat vakolatlari bilan ta'minlash, xorijiy davlatlar parlamentlari bilan parlamentlararo hamkorlik guruhlari ishini tashkil etishning huquqiy mexanizmini takomillashtirish, mamlakatning milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda parlament diplomatiyasidan keng foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga doir maqsadlarni ilgari surishi uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish nazarda tutildi. Mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida davlatimiz tashqi siyosatini yana-da demokratlashtirish, dunyodagi mamlakatlar bilan tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash borasidagi hamkorlikni kuchaytirish, milliy manfaatlarini xalqaro maydonda himoya qilish, jahon integratsiyasiga yana-da chuqurroq kirib borish kabi jarayonlarning huquqiy asoslari rivojlantiriladi, bu sohada parlamentning rolini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Harakatlar strategiyasida aholining senatorlar va deputatlar bilan o'zaro munosabatlarini, Oliy Majlisning xalq bilan muloqotini takomillashtirish maqsadida **“Elektron parlament”** tizimini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilishga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini tayyorlash, unda milliy parlament faoliyati samaradorligi va shaffofligini oshirish, parlament faoliyatiga axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish vositasida xalq bilan muloqotni takomillashtirish, deputatlarga saylangan saylov okruglari joylashgan mahalliy hokimiyat idoralarining qarorlarini yuborish, shuningdek mazkur hududdagi vaziyatdan doimiy ravishda xabardor bo'lib turish imkonini yaratish bo'yicha aniq vazifalarni belgilash nazarda tutilmoqda.

“Elektron parlament” tizimini rivojlantirish mamlakatimizda parlamentning hokimiyatlar bo'linishi prinsipini amalga oshirishdagi rolini yana-da oshiradi, parlamentning saylov okruglaridagi fuqarolar, mahalliy vakillik organlari bilan o'zaro muloqoti va aloqalarini kuchaytiradi, ular bilan elektron hamkorlik tizimining shakllanishiga shart-sharoitlar yaratadi. Parlament palatalarida foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi va axborot resurslarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va birlashtirish mexanizmini nazarda tutadigan ushbu tizimni shakllantirishga yagona texnologik yondashuvni ta'minlaydi. Ko'rinib turibdiki, “Elektron parlament” shaklidagi axborot – kommunikatsiya vositalari parlament palatalari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni bog'lab turuvchi vosita vazifasini bajarishidan tashqari, fuqarolarning turli manfaatlarini qonunlar va parlamentda ifoda etuvchi institut sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat o'z-o'zidan fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faollashishiga ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bu jarayonda fuqarolar ijtimoiylashuvining asosiy komponentlaridan biri – fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy ongi ham oshib boradi.

Navbatdagi muhim vazifa – siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishdan iborat.

Harakatlar strategiyasida siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarning mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazorat qilishdagi huquq va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'zbekiston Respublikasi

qonuni loyahasini ishlab chiqish, unda quyidagilarni – partiya guruhlaridan mahalliy xalq deputatlari Kengashlarida sessiyalarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini ko‘rib chiqish, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining hisobotlarini eshitish haqidagi takliflarni kiritish, tuman (shahar) hokimi nomzodini viloyat hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etish, xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi partiya guruhlariga viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga tegishliligi bo‘yicha tuman (shahar) hokimlarining, shuningdek, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlarining qoniqarsiz faoliyati haqida xulosalarni taqdim etish huquqini berish, Qonunchilik palatasi deputatlariga joylardagi jamoatchilik vakillari sifatida tegishli siyosiy partiya hududiy bo‘limlarining vakillarini biriktirib qo‘yish kabi muhim faoliyat yo‘nalishlarini tartibga solish nazarda tutildi.

Harakatlar strategiyasi asosida partiya guruhlariga yangi huquq va vakolatlar berilishi mahalliy vakillik organlarini faoliyatini kuchaytirish, bu borada siyosiy partiyalar vositasida mahalliy deputatlarining rolini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, mahalliy vakillik organlarida shakllangan partiya guruhlarini ishini faollashtirish, ularni tashkiliy jihatdan ta’sirchan kuchga aylanishi, hududdagi muammolarni ko‘tarib chiqish, ularning yechimini topishga doir faoliyatini jonlashtirish uchun zamin tayyorlaydi. Ayniqsa, siyosiy partiyalar o‘rtasidagi o‘zaro raqobat muhiti partiya guruhlarini o‘rtasida yaqqol sezilib turishiga muhim ahamiyat berish, turli dasturiy va g‘oyaviy maqsadlar o‘rtasidagi munozaralar, aholi orasida o‘z elektorati qarashlariga ta’sir etish mexanizmlarini shakllantirish sohasida tajribalarning shakllanishi fuqarolik jamiyatiga xos xususiyatlarning shakllanishiga olib keladi.

6.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish

Globalashuv va tezkor rivojlanish sharoitida davlat qurilishini takomillashtirish, davlat boshqaruvini jamiyat tarqiyotining bugungi ehtiyojlariga mos ravishda modernizatsiya qilish o‘ta dolzarb vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Mamlakatimiz ravnaqini ta’minlash, jamiyatni ijtimoiy-siyosiy boshqarish, shu jumladan, unga davlat hokimiyati vositasida ko‘maklashuv mexanizmlarini takomillashtirish yangi-yangi imkoniyatlarni izlashni taqozo yetadi.

Shu bois davlat boshqaruvini oqilona tashkil etish, uning samaradorligini oshirish zamonaviy ilm-fan va tafakkur yutuqlarini joriy etishga tayanmog‘i lozim. Mustaqil davlatchiligimiz taraqqiyoti yillari mobaynida izchillik va sobitqadamlik bilan amalga oshirib kelinayotgan islohotlar tufayli bugungi kunda mamlakatimizda demokratik qadriyatlar asosida shakllangan va faoliyat yuritadigan xalqchil davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimi qaror topdi.

Demokratiya tamoyillariga tayanuvchi davlat hokimiyati xalq manfaatini ifoda etib, jamiyatni boshqarish hamda rivojlantirishga xizmat qiluvchi bunyodkor kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat hokimiyati jamiyatga siyosiy rahbarlik qilib, unga yaxlitlik va barqarorlik baxsh yetadi. O‘zbekistonda hokimiyat idoralarining xalq manfaatlariga bo‘ysundirilgani konstitutsiyaviy prinsip tarzida ular faoliyatining asosiy mezoniga aylandi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yana-da chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida ta’kidlanganidek, mustaqillik yillarida yurtimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida salmoqli islohotlar amalga oshirildi. “Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma’muriy organlarning vazifalarini o‘zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo‘jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e’tibor berildi”⁶⁷.

⁶⁷ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yana-da chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2010, – 8-bet.

Davlat boshqaruvida jamiyatga rahbarlik qilish bilan bog'liq siyosiy qarorlar qabul qilish va ularni hayotga joriy etishga yo'naltirilgan ma'muriy-tashkiliy faoliyat muhim o'rin tutadi. Bu davlat boshqaruvida siyosiy mazmun baxsh yetadi.

Konsepsiyada jamiyatimizning istiqboldagi taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarni belgilash barobarida, bu boradagi muhim vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati tarmoqlarini, xususan, parlamentni yana-da rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, mamlakatimiz fuqarolik jamiyati institutlarini, sud-huquq tizimini, saylov qonunchiligini takomillashtirish, demokratik islohotlarni yana-da chuqurlashtirishga qaratilgan bir qator qonunchilik tashabbuslarini ilgari surildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevralda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmonida davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlar va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning rolini yana-da kuchaytirishga, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilgani ayniqsa e'tiborga molik⁶⁸. Bu tarixiy hujjatda mamlakatning yaqin istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari belgilab berildi. "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiyl mulkni yana-da rivojlantirish va uni himoya qilishga doir kompleks masalalarni hal etish, hukumat, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi."⁶⁹

Iqtisodiyotning mulkiy tarkibi va undagi o'zgarishlar, ko'p jihatdan davlatning iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki va uning darajasini xarakterlaydi va YaIMning shunday tarkibida o'z ifodasini topadi.

⁶⁸ Qarang: Xalq so'zi, 2017-yil 8-fevral.

⁶⁹ Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz! Xalq so'zi. 2016-yil 15-dekabr.

Iqtisodiyotning mulkiy tarkibi, alohida mulk shakllarining yalpi ichki mahsulot, asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar va band bo'lganlardagi ulushi kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflandi.

Respublikada qayd qilingan ko'rsatkichlarda davlat sektori ulushi barqaror pasayib, nodavlat, shu jumladan, xususiyl mulk shakli salmog'i ortib borishi bir tomondan, bozor iqtisodiyotiga o'tish va uning qaror topishi jarayonini, boshqa tomondan, iqtisodiy, xususan, mulkiy islohotlarning samaradorligini tavsiflaydi.

Respublikada mulkiy islohotlarni chuqurlashtirish natijasida 2000–2016-yillarda YaIMda davlat sektori ulushi 1,5 barobarga kamayib, nodavlat mulk shakllari ulushi 1,1 barobarga yaqin ortgan. Hozirda YaIMda mazkur ikki sektor ulushi nodavlat mulk shakllari foydasiga 4,8:1,0 nisbatni tashkil qilib, ular o'rtasidagi farq 2000-yilgi ko'rsatkich (2,6:1,0)dan 1,8 barobar yuqori darajani tashkil qiladi. (6.2.1-jadval)

6.2.1-jadval

O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi (%da)⁷⁰

	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	O'zgarish, barobar "+, -"
Davlat sektori	27,4	23,6	20,4	20,6	16,4	16,7	17,1	17,1	18,7	-1,5
Nodavlat sektor	72,6	76,4	79,6	79,4	83,6	83,3	82,9	82,9	81,3	1,1

YaIM ning mulkiy tarkibidagi o'zgarishlar band bo'lganlar va asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar tarkibidagi xuddi shunday o'zgarishlar natijasi hisoblanadi.

Respublikada bandlikning mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanishida ham nodavlat mulk ulushining ortib borish tamoyilini kuzatish mumkin. (6.2.2-jadval)

⁷⁰ <https://stat.uz/uz/statinfo/demografiya-va-mehnat/demografik-ko-rsatkichlar/432-analitcheskie-materialy-uz/2023-makroiqtisodiy-ko-rsatkichlari-tahlili>

6.2.2-jadval

Respublika iqtisodiyotida bandlarning mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanishi (%da)⁷¹

	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	O'zgarishi, barobar "4" "4"
Davlat sektorida	24,1	22,8	20,7	19,9	19,3	18,7	18,1	17,9	18,2	-1,3
Nodavlat sektor	75,9	77,2	79,3	80,1	80,7	81,3	81,9	82,1	81,8	1,07
Shu jumladan										
Fuqarolar hususiy mulkchiligida	47,8	61,0	69,0	69,5	70,4	71,1	71,6	71,7	72,1	1,5

Tahlil qilingan davrda iqtisodiyotning davlat sektorida band bo'lganlar ulushi 5,9 (24,1 dan 18,2) %ga qisqarib, nodavlat sektorida band bo'lganlar ulushi shunga mos ravishda 75,9 dan 81,8 %ga o'sgan.

Bandlikda davlat va nodavlat sektorlar ulushi nisbatida katta o'zgarishlar kuzatilmasa-da, (davlat sektorida bandlik 33% ga kamayib, nodavlat sektorida 8,0% ga ortgan) ularning nisbiy ulushi keyingisi foydasiga 3,1:1,0 dan 4,5:1,0 nisbatga ortgan. Nodavlat mulk shakllari ichida fuqarolar xususiy mulkchiligida bandlik eng yuqori ulushni tashkil qilib (2016-yilda 72,1 %), bu ko'rsatkichlar nisbiy salmog'i 2000–2016-yillarda 1,5 barobar ko'paygan.

O'zbekiston iqtisodiyotining mulkiy tuzilishidagi ancha katta o'zgarishlar asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning alohida mulk shakllariga taqsimlanish nisbati o'zgarishida kuzatildi. Bu YaIM va band bo'lganlarning tarkibidagi xuddi shunday o'zgarishlardan birmuncha yuqoridir. (6.2.3-jadval)

6.2.3-jadval

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanishi (% hisobida)⁷²

	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	O'zgarishi, barobar "4" "4"
Davlat mulki	63,9	30,9	21,8	22,6	22,3	20,7	19,1	16,3	16,6	-3,8
Nodavlat mulki	36,1	69,1	78,2	77,4	77,7	79,3	80,9	83,7	83,4	2,3
Shu jumladan:										
fuqarolar xususiy mulki	15,6	12,9	17,2	19,4	20,8	20,2	20,6	21,8	22,1	1,4
xo'jalik birlashmalari	12,7	33,3	28,4	29,6	28,6	30,4	32,3	36,4	35,7	2,8
qo'shma korxonalar chet el fuqarolari va tashkilotlari	6,5	16,6	28,5	23,1	21,3	21,7	20,2	20,1	19,8	3,04
boshqa korxonalar	1,3	6,3	4,1	5,3	7,0	7,0	7,7	5,4	5,8	4,5

Respublikada o'rganilgan davrda davlat mulki subyektlari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari 3,8 barobardan ko'proqqa kamayib, nodavlat mulk shakllarida bu ko'rsatkich 2,3 martadan ko'proqqa ortgan. Investitsiyalardagi bu ikki mulk shakllarining solishtirma ulushi 2000-yilda davlat mulki foydasiga 1,77:1,0 nisbatni tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilda mazkur ko'rsatkich nodavlat mulk shakllari foydasiga 5,1:1,0 nisbatga o'zgargan. Investitsiyalarning mulk shakllariga taqsimotidagi bu qarama-qarshi o'zgarish ko'p jihatdan davlat byudjeti hisobiga amalga oshiriladigan investitsiyalar ulushining uzluksiz kamayib (2000-yildagi 29,2 %dan, 2016-yilda 4,5 %gacha), chetdan jalb qilinadigan investitsiyalarda uning to'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan shakli ulushi to'xtovsiz ortib borishi (2000-yildagi 29,2 %dan, 2016-yilda 73,8 %ga) natijasi hisoblanadi.

Respublikada yaqin istiqbolda ham iqtisodiyotning mulkiy tuzilishidagi o'zgarishlar nodavlat mulk shakllari nisbati foydasiga

⁷¹ <https://stat.uz/uz/statinfo/demografiya-va-mehnat/aholi-bandligi>

⁷² <https://stat.uz/uz/statinfo/demografiya-va-mehnat/demografik-ko-rsatkichlar/432-analiticheskie-materialy-uz/2030-asosiy-kapitalga-investitsiyalar>

ro'y beradi. O'z navbatida, bunday o'zgarishlar nodavlat mulk shakllari ichki tuzilishiga ham tegishli bo'ladi.

Hozirgi bosqichda O'zbekiston iqtisodiyoti YaIM mulkiy tuzilishidagi o'zgarishlarni taqozo qiluvchi yo'nalishlar sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

1. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yana-da rivojlantirish. Bu bir tomondan, nodavlat mulk shakllari, boshqa tomondan uning tarkibida fuqarolar xususiy mulki ulushining barqaror o'sishiga olib keladi.

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida 2016-yilda 20 mingdan ortiq yangi kichik biznes subyektlari tashkil etilib, ularning umumiy soni 207 mingdan ko'proqni tashkil qilgan. YaIMni shakllantirishda bu sohaning ulushi 2000-yildagi 31 %dan, 2016-yilda 56,7 %ga etgan. 2016-yilda yaratilgan ish o'rinlarining, yarmi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka tegishli bo'lgan. Hozirgi kunda bu sohaga barcha band bo'lganlarning 77,0 %i to'g'ri keladi.

2. Mamlakatda ishchi kuchining samarali bandligini ta'minlash. O'zbekistonda bandlikning mulkiy tarkibida ro'y bergan o'zgarishlar, milliy iqtisodiyotda xususiy mulk va uning doirasida xo'jalik yuritishning turli-tuman shakllari ustuvor o'rin egallab borayotganligini ko'rsatadi. Bu tamoyil istiqbolda ham iqtisodiyotning mulkchilik tarkibidagi muqarrar ro'y beradigan o'zgarishlar tufayli o'z o'rini saqlab qoladi.

3. Xususiylashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonini yana-da chuqurlashtirish. Bu sohada hozirgi bosqichdagi muhim ustuvor yo'nalish iqtisodiyotidagi davlat ulushini "... iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish..."⁷³ hisoblanadi.

Respublika birinchi Prezidenti I.A.Karimov qayd qilganlaridek: "Birinchi navbatda, avvalo, zarar ko'rib ishlayotgan, past

⁷³ Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. – T.: «O'zbekiston», 2015. – B.30.

rentabelli va iqtisodiy nochor, mahsulotlariga talab yo'qligi sababli to'la quvvat bilan faoliyat ko'rsatmayotgan davlat korxonalari professional xorijiy investorlarga ularni qayta tiklash va ushbu korxonalar negizida yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish majburiyati bilan "nol" qiymatida sotish zarur"⁷⁴.

4. Iqtisodiyotda korporativ mulk yoki aksiyadorlik birlashmalari faoliyati samaradorligini oshirish. Milliy iqtisodiyotga qo'yilgan kapital qo'yilmalarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushini o'stirib borish. 2000–2016-yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi ikki barobardan ko'proqqa ortib 2016 yilda 73,8 %ni tashkil qilgan.

5. Korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan yo'naltiriladigan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalar ulushini oshirib borish. Respublikada bunday investitsiyalar hajmi 2016-yilda jami investitsiyalar hajmining qariyb 34,0 % dan ko'prog'ini tashkil etgan.

6. Jami investitsiyalarda fuqarolar xususiy mulki hisobiga shakllanadigan mablag'lar salmog'ini o'stirib borish. Respublikada bunday mablag'larning jami investitsiyalardagi ulushi o'zgarishiga nisbatan beqarorlik tamoyili xos. Uning yalpi investitsiyalardagi ulushi 1997-yildagi 10,5 %dan, 1998-yilda 19,5 %ga etgan, keyin yana pasayib, 2001-yilda 10,8 %lik darajaga tushgan. 2010-yildan mazkur mablag'lar ulushi barqaror o'sib (16,0 %), 2016-yilda 21,0 %lik darajaga etgan.

7. Xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma korxonalar faoliyatini kengaytirish. Hozirgi kunda Respublikamizda mashinasozlik, neft-gaz, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlarda 90 dan ortiq mamlakatning xorijiy kapitali ishtirokida tashkil etilgan

⁷⁴ Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. – T.: «O'zbekiston», 2015. – B.31.

4 mingdan ziyod korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Bu milliy xo'jalik mulkiy tuzilishini takomillashtirish bilan birga iqtisodiyotimiz tarmoqlarini tubdan modernizatsiya qilish, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va uning turini ko'paytirish, jahon bozoridagi raqobatbardosh yangi mahsulotlar ishlab chiqish imkonini bermoqda"⁷⁵. Respublika iqtisodiyotining mulkiy tuzilishi takomillashuviga olib keluvchi mazkur omillar, YaIM da nodavlat mulk salmog'ini o'stirib borish bilan birga, uning samaradorligini oshirishni ham ta'minlaydi.

Hozirgi globallashuv va shiddatli rivojlanish sharoitida davlat boshqaruvini zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda modernizatsiya qilish o'ta dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Harakatlar strategiyasida "Davlat boshqaruvi asoslari to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish nazarda tutilgani e'tiborga molikdir.

Mamlakatning davlat boshqaruv tizimi uning siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'muriy madaniyatining uzviy qismidir. Boshqaruv madaniyati bir qator tarixiy, milliy, jo'g'rofiy, ma'naviy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi. Boshqaruv madaniyati davlat boshqaruvi tuzilmalariga nisbatan birmuncha barqaror va turg'undir. Shu tufayli siyosiy (davlat) boshqaruv madaniyatini tarixan qisqa vaqt ichida o'zgartirish birmuncha mushkul. Masalan, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini qonunchilik islohoti vositasida tarixan qisqa muddatda o'zgartirish (yangilash) mumkin, ammo boshqaruvga bog'liq mafkurani, mentalitetni, ongini va madaniyatni darhol o'zgartirishning iloji yo'q.

Jamiyatni erkinlashtirishning hozirgi bosqichida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning bir qator yo'nalishlari va vazifalari Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan. *Birinchi*dan, demokratik davlat boshqaruv mezonlarini belgilovchi prinsiplarni

⁷⁵ Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. – T.: «O'zbekiston», 2015. – B.20.

hayotga sobitqadamlik va jadallik bilan joriy etib borish. Bular boshqaruvda inson huquq va manfaatlarining ustuvorligi, hokimiyatlar taqsimlanishi (shu jumladan, davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar o'rtasida vakolatlarning oqilona taqsimlanishi), qonun ustuvorligi, davlat boshqaruviga xalq ommasi hamda fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb etish, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining oshkorligi va ochiqligi kabi tamoyillardir.

*Ikkinchi*dan, davlat boshqaruv apparati faoliyatining qonunchilik, huquqiy bazasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirib borish nazarda tutiladi.

*Uchinchi*dan, ijroiya hokimiyati tizimidagi boshqaruv bilan shug'ullanuvchi organlarning tarkibiy tuzilmasi va funksiyalarini ratsionallashtirish ma'muriy islohotning muhim vazifasi hisoblanadi. Bunda davlat boshqaruvida muvoziy tuzilmalarning bo'lishi va bir-birining vazifalarini takrorlashning mavjud bo'lishini bartaraf etib borish talab etiladi.

*To'rtinchi*dan, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini ta'minlovchi samarali mexanizmlarni yaratish, ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini faollashtirish zudur.

*Beshinchi*dan, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va ma'muriy islohotlar samarasini oshirishda tegishli vakolatli organlar faoliyatining huquqiy asoslarini (reglamentlarini) izchil takomillashtirish alohida ahamiyat kasb yetadi. Bunday huquqiy hujjatlar qatorida Ma'muriy protsessual kodeksning, "Ma'muriy protseduralar to'g'risida"gi va "Davlat xizmati to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi Harakatlar strategiyasida aytib o'tiladi.

Davlat xizmati – davlat organlari tomonidan boshqaruvning kadrlar funksiyasini amalga oshirish, davlat organlari apparatida doimiy yoki vaqtincha mansabni egallab turgan hamda davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanuvchi shaxslarning faoliyatidir. Davlat xizmati davlat apparatini boshqarishni tashkil etish va

huquqiy tartibga solish bo'yicha davlat faoliyatining asosiy turlaridan biri bo'lib, davlat oldida turgan vazifalarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatining asosiy maqsadi – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga asoslanib, davlat funksiyalarini amalga oshirish, uning vazifalarini bajarish, jamiyat va fuqarolarning manfaatlariga xizmat qilishdan iboratdir.

Fikrimizcha, davlat xizmatining umumiy jihatlarini tartibga solish uchun “O'zbekiston Respublikasining davlat xizmati to'g'risida”gi qonunda davlat xizmatini o'tash haqidagi bob kiritilib, alohida moddalar bo'yicha davlat xizmatiga kirish tartibi, davlat xizmatchilarining attestatsiyasi, ularni rag'batlantirish, davlat xizmatchilarining javobgarligi masalalari belgilab qo'yilishi lozim.

Davlat xizmatchilarining malaka darajalari tegishli davlat xizmati lavozimlari bo'yicha tat-biq etilgan malaka talablariga, kasbiy tayyorgarlik darajasiga muvofiqligini ko'rsatadi. Davlat xizmatchilariga malaka darajalarining berilishi davlat xizmatchilarining professional tayyorgarlik saviyasi malaka talablariga muvofiqligiga qarab belgilanadi. Malaka darajalari davlat malaka imtihonlari yoki attestatsiya natijalariga ko'ra belgilanadi. Malaka imtihonlarining o'tkazilishi, malaka darajalarining berilishi hamda xodimlarning boshqa ishga o'tkazilishi munosabati bilan saqlanishi qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi⁷⁶.

Biz yangicha mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, halol o'z vatani va xalqiga sodiq kadrlarni tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratish ustida jiddiy ishlaymiz.

Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishda davlat xizmatchilari o'rtasida sansalorlik va mas'uliyatsizlik holatlariga butunlay barham berish uchun biz qat'iy kurash olib boramiz.

Rahbarlar faoliyatiga, ularga bo'lgan ishonch va aholini o'ylantirayotgan muammolarni samarali hal etish darajasidan kelib chiqqan holda, xalqning o'zi baho beradi.

Shavkat Mirziyoyev

Mamlakatimizda davlat xizmatchilariga malaka darajalari yoki maxsus unvonlar berish tartibi alohida normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Shuningdek, Respublikamiz qonunchiligida ham martaba darajalari ijobiy attestatsiya, malakasiga muvofiq oliy ma'lumot mavjud bo'lgan taqdirda, egallab turgan lavozimi va ish stajiga, shuningdek, oldingi ish yoki xizmat joyida berilgan maxsus unvonlarni hisobga olgan holda izchil tartibda beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev lavozimga kirishish tantanali majlisidagi nutqida quyidagilarni ta'kidladi: “Oldimizga qo'ygan maqsad- muddaolarga etish uchun kadrlarning amaliy zahirasini shakllantirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim masalalarini o'z ichiga oladigan maqsadli dasturni ishlab chiqish vaqti keldi, deb o'ylayman.

Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylangan, xar tomonlama to'g'ri qaror qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat.

Bu borada hududiy boshqaruv organlari, eng avvalo, mamlakatimiz tuman va shaharlari hokimliklari uchun malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish zarur⁷⁷”.

“2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi”ning 1.2–bandida belgilab qo'yilgan ustuvor vazifalarning eng asosiylaridan biri mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda davlat – xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati qaror topishining muhim shartlaridan biri davlat bilan jamoatchilik tizimlari hamda xususiy sektorning yaqin hamkorligi, ular o'rtasida ijtimoiy sheriklikni amalda ta'minlashga erishishdan iborat. Biz mustaqil davlatchilik sari qadam qo'yilgan dastlabki yillardayoq Asosiy qonunimizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning

⁷⁶ Стариков Ю.Н. Служебное право. Москва, Бек, 1996, с. 413.

⁷⁷ O'zbekiston ovozi. 2016-yil 15-dekabr T/150-soni.

mustahkamlab qo'yilgani, iqtisodiy faoliyat erkinligi va xususiy hayot daxlsizligi kafolatlangani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan tuzilma hamda tashkilotlarning keng tarmoqlari vujudga kelishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratdi.

O'tgan chorak asr mobaynida jamoat va nodavlat tashkilotlarining nufuzi ortdi, huquqiy maqomi mustahkamlandi, jamiyat boshqaruvidagi roli oshib bordi. Bugungi kunda mazkur tuzilmalar davlat bilan fuqarolik jamiyatining o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini aniqlash, ularning jamiyat va davlat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarga munosabatini bilishning muhim vositasi sifatida maydonga chiqmoqda.

Demokratik yangilanishlar jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 250 dan ziyod qonunlar, yuzlab farmonlar va Hukumat qarorlari qabul qilindi. Ushbu keng ko'lamli huquqiy baza bu tashkilotlarning davlat organlari bilan teng muloqot olib borishi, huquqiy munosabatlarda kafolatli ishtirok etishining zamini bo'ldi.

Davlat bilan xususiy sektor tuzilmalari hamkorligining markazida inson va fuqaroning iqtisodiy hamda ijtimoiy sohadagi manfaatlarini ta'minlash masalasi turadi.

Masalan, kasaba uyushmalari davlat organlari, ish beruvchilar bilan uch tomonlama ijtimoiy sherikchilik to'g'risidagi shartnomalar asosida mehnat qiluvchi xodimlarning fuqarolarning mehnat jarayonida mehnat huquqlari, ijtimoiy muhofazasi, ish haqi, dam olish, ishlovchi ayollarning yosh bolalariga parvarish berishi bilan bog'liq imtiyozlardan foydalanish, pensiyaga rasmiylashtirish borasidagi va boshqa manfaatlarini muhofaza qilishda salmoqli faoliyatni amalga oshirmoqda. Nodavlat va jamoat tashkilotlari fuqarolarning ta'lim olish, sog'liqni saqlash, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, ijtimoiy ta'minot tizimidan foydalanish, buzilgan

huquqlarini tiklash kabi qator sohalarda huquq va erkinliklarini ta'minlashda davlat organlari bilan bo'ladigan munosabatlarda vositachi va ko'makchi vazifasini o'tamoqda.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarining huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish masalalari "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Davlat boshqaruvi idoralarining aholi bilan aloqalarini kuchaytirish, hamkorlik mexanizmlarini yaratish muhim. Bir tomondan, aholini davlat boshqaruv organlari faoliyatidan muntazam ravishda xabardor qilib turish, ikkinchi tomondan, mahalliy davlat boshqaruv organlari qarorlarini qabul qilishga (qarorlar loyihasining muhokamasiga, mahalliy referendumlarga) keng jalb etishni yo'lga qo'yish- davr talabi. Shuningdek, davlat boshqaruvi bilan korporativ boshqaruvni yaqinlashtirish, ular nisbatining oqilona mezonlarini belgilash muhim o'rin tutadi.

Inson va fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini kafolatlashning tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli normalarida mustahkamlab qo'yilgan. Hususan, Konstitutsiyaning 29-moddasiga binoan: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir"⁷⁸.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash masalalari ular faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirishi bugungi kunga kelib eng maqbul yo'l sifatida baholanmoqda. Amalda mavjud bo'lgan davlat xizmatlarini fuqarolarga, yuridik

⁷⁸ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014-yil. – 8-bet.

shaxslarga va davlat organlarining o'ziga ko'rsatishning yangicha tizimini amalga oshirish har qanday zamonaviy demokratik davlatning asosiy strategik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Ma'lumki, 2014–yil 5-mayda “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu *qonunning maqsadi* – davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligini, ular faoliyati haqidagi axborotlardan ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari, aholining (axborotdan foydalanuvchilarning) keng foydalanishini ta'minlashga qaratilgan.

Qonunning asosiy vazifalari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotdan jismoniy va yuridik shaxslarning erkin foydalanishini ta'minlash; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati haqidagi axborotlarni olishga bo'lgan huquqni kafolatlash; davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan qarorlar uchun javobgarligini oshirish; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati haqidagi axborotlarning tarqatilishi tartibini belgilashdan iborat. Shunga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining shaffofligi, ularning ustidan jamoatchilik nazorati bu idoralarning faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanishni ta'minlash bo'yicha bir qator chora–tadbirlar qabul qilish orqali ta'minlanadi.

Spunday qilib, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini erkinlashtirish, ularni xalq ehtiyojlari va manfaatlariga yaqinlashtirish, ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan ijtimoiy sheriklik va hamkorligini rivojlantirish, hech shubhasiz, pirovardida davlat apparati faoliyati samaradorligini oshirishga, davlatning jamiyat manfaatlariga yana-da ko'proq xizmat qiluvchi institutga aylantirishga qulay imkoniyat yaratadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz rivoji va islohotlarning muvaffaqiyatli kechishi ko'p jihatdan davlat hokimiyati va

boshqaruvi organlarining xalqqa sifatli va tezkorlik bilan xizmat ko'rsatishi, bu borada o'z faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va o'z navbatida bu jarayonlardan keng aholining xabardorligi, ularga daxldorligida namoyon bo'ladi. Zero, inson va fuqarolarning yuqori saviyadagi huquqiy madaniyatga ega bo'lishlari demokratik jamiyat qurishning mustahkam poydevoridir. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorlik, qonun normalarini hurmat qilish va ularga qat'iy rioya qilish huquqiy demokratik davlat qurishning, siyosiy va huquqiy institutlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy bilimi va ongini yuksaltirish, ularning jamiyatdagi siyosiy faolligini oshirish ko'p jihatdan ularning mamlakatda mavjud qonunchilikdan xabardorligiga, ya'ni, axborot bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Davlat boshqaruvi sohasini erkinlashtirish bu boradagi amaliy faoliyatni faollashtirish bilan bir qatorda jiddiy ilmiy izlanishlar olib borishni, sohadagi muammolarning ilmiy-huquqiy yechimlarini topishni taqozo etmoqda. Fikrimizcha, bu borada davlat organlari tizimida markazlashtirishdan chiqarish masalalari, boshqaruv idoralari (respublika va mahalliy) funksiyalari hamda vakolatlarini oqilona me'yorga solish, ularning funksiyalarini qayta taqsimlash, ularni markazdan mahalliy bo'g'inlarga o'tkazish muammolarini ilmiy tadqiq etish – dolzarb vazifa. Tobora avj olayotgan ma'muriy islohotlar davlat boshqaruvini optimallashtirish, davlat apparatini ixcham va kamxarajat qilish, davlat xizmati, ma'muriy sudlov va ma'muriy-protsessual qonunchilikni shakllantirish hamda takomillashtirish muammolarini dolzarb mavzular qatoriga qo'shmoqda.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirish davlat dasturida mamlakatimizda ma'muriy islohotlar konsepsiyasi hamda bu

islohotlarni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturini yaratish belgilangani e'tiborga molik. Ushbu masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni loyihasi tayyorlanishi ko'zda tutilgan. Bunda davlat boshqaruvi organlarining faoliyati samaradorligini oshirish va tuzilmasini takomillashtirish, davlat boshqaruvini markazlashtiruvdvn xoli qilish, takrorlanuvchi funksiyalarni bajaradigan davlat organlarining turli komissiyalarni bekor qilish yoki bir-biriga qo'shish orqali davlat boshqaruvi va xizmatini tubdan isloh etish nazarda tutiladi.

“2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi”ning ustuvor vazifalarning eng asosiylaridan yana biri bu – **“Elektron hukumat”** tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifati va aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining ulardan foydalanish imkoniyatini oshirishdir. Uning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiya qilish va barcha sohalarni erkinlashtirishdan iboratdir.

Harakatlar strategiyasi davlat hokimiyatini izchil demokratlashtirish va davlat boshqaruvi tizimining yana-da samarali ishlaydigan mexanizmlarini yaratish borasida yangi vazifalarni ilgari surmoqda. Harakatlar strategiyasi doirasida ma'qullangan Davlat dasturida davlat boshqaruvini takomillashtirish, eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektor o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini ratsional tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Ma'lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va

erkinliklarini taminlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi”⁷⁹.

6.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish

“2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi”ning ustuvor vazifalarining eng asosiylaridan yana biri bu – **xalq bilan samarali muloqot mexanizmlarini joriy qilishdir**. Yurtimizda mustaqillik yillarida har bir yilni ma'lum bir maqsadida

alohida nom bilan atash an'anasi shakllandi. Shu an'anani davom ettirgan holda, Prezident Sh. Mirziyoyev 2017-yilni yurtimizda “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”, 2018-yilni esa, “Faol tadbirkorlik. Innovatsion

Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak.

Shavkat Mirziyoyev

g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili” deb e'lon qildi. Bundan maqsad – mamlakatimizdagi demokratlashtirish jarayonlari samaradorligi va sifatini tubdan yaxshilash, fuqarolarning erkinliklari, huquqlari, munosib turmush tarzi va manfaatlarini ta'minlash, bunda davlat idoralari mas'uliyatini kuchaytirish, xalq bilan ochiq muloqotlarni yo'lga qo'yishda yangi, samarali vosita va usullarni joriy etish, „Inson manfaatlari — barcha narsadan ustun“ shiori ostida ish olib borish hisoblanadi. Prezident Sh. Mirziyoyev davlat va boshqaruv, huquqni muhofaza qiluvchi organlar mutasaddilari faoliyatiga nisbatan ta'kidlaganidek, “Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo'ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish bizning faoliyatimizda,

⁷⁹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yana-da chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: “O'zbekiston”. – 2010. – 28-bet.

afsuski, oxirgi o'ringa tushib qoldi"⁸⁰. Xalq qabulxonalarining barcha hududlarda ish boshlagani, xalq bilan keng miqyosda muloqot olib borilayotgani davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oshkoraligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Harakatlar strategiyasida Prezident Sh.M.Mirziyoyev ilgari surgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" prinsipini ijtimoiy-siyosiy hayotda amalga oshirishga doir dasturiy maqsadlar ham mujassamlashgan. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining joylarda ishlarning holatini o'rganish va xalq bilan muloqot qilishga doir faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo'shma qarori loyihasini ishlab chiqish, unda hududlardan saylangan deputat va senatorlar har oyda 10–12-kun davomida bir tumanda bo'lib, davlat hokimiyati organlari faoliyatini o'rganib, tahlil qilishi, tegishli rahbarlarning hisobotini xalq deputatlari Kengashlari sessiyasi muhokamasiga kiritishi hamda tegishli xulosalar berishi, shuningdek, Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi ishtirokida o'rganish natijalari bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarini o'tkazishi, Oliy Majlis Senati tomonidan har bir viloyatda navbatmanavbat na'munaviy xalq deputatlari Kengashlari ishini tashkil etish nazarda tutilmoqda. Agar parlamentning xalq irodasi va manfaatlari asosida faoliyat yuritishi hamda qonunlar qabul qilishi eng asosiy demokratik qadriyatlardan biri ekanligiga e'tibor bersak, deputatlar va Senat a'zolarining o'z saylovchilari bilan o'zaro muloqotlari, joylardagi muammolardan habardor bo'lishi, ularning yechimlarini topishda ishtirok etishi, mahalliy vakillik organlarining jonlanishiga ko'maklashishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojlanishiga yana-da qulay shart-sharoitlar yaratadi. Chunki, oliy vakillik organi

⁸⁰ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. "Xalq so'zi", 2016-yil 8-dekabr.

deputati avvalambor o'z saylov okrugidagi fuqarolarning vakili, Senat a'zosi esa, o'zi saylangan mintaqa mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakilidir. Shuning uchun ham parlament a'zolarining xalq ichida ko'proq faoliyat yuritishi davlatimiz barqarorligini yanada mustahkamlash omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli, fuqarolik jamiyatining eng asosiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda, davlatni boshqarishda hukumat bilan xalq orasidagi muloqotni tashkil etish, fuqarolarni tashvishga solayotgan, muammolar tug'dirayotgan savollarni vaqtida o'rganish va ularni hal qilish maqsadida 2017-yilgi davlat dasturining birinchi galdagi vazifalarida samarali muloqot mexanizmlarini tashkil qilish rejalashtirildi va bir vaqtning o'zida bu rejalar amalga oshirilmogda.

Joylarda Xalq qabulxonalarini joriy etishning tashkiliy-amaliy, huquqiy, moddiy-texnik va moliyaviy asoslarini belgilash, fuqaro murojaatlari eng ko'p kuzatiladigan sohalardagi byurok-

Har bir tuman (shahar)da jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha "Xalq qabulxonalarini"ni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Harakatlar strategiyasi, 45-band

ratik to'siqlarni va muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini ta'minlanmogda. Aholiga talab katta bo'lgan davlat xizmatlarini «yagona darcha» tamoyili bo'yicha bir muassasa orqali ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi. Shunga ko'ra davlat organlari faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalari o'rmini kengaytirish, «Elektron hukumat» tizimini samarali rivojlantirish borasidagi choralar-tadbirlar amalga oshirilmogda.

"2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi"dagi ustuvor vazifalarning eng asosiylaridan yana biri – jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish hisoblanadi. Mamlakatimizda jamoatchilik nazoratiga konstitutsiyaviy maqom

berilgan. O'zbekistonda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki, jumladan, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish ... davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

*O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi, 32-modda*

rivojlanishi jamoatchilik nazoratining shakllanishi va rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Bir tomondan, jamoatchilik nazoratining rivojlanishi fuqarolik jamiyatining rivojlanishi yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyati rivojlanib borgani sari jamoatchilik nazorati uchun kengroq imkoniyat va istiqbollari paydo bo'ladi. Rivojlangan va keng quloq yoygan jamoatchilik nazoratini fuqarolik jamiyatisiz tasavvur etib bo'lmaganidek, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini ham jamoatchilik nazoratisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamoatchilik nazoratining mavjudligi va qanchalik keng tarmoq yoygani, aytish mumkinki, fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasidan guvohlik beruvchi eng muhim mezonlardan biridir.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning 2016-yil kuzidan boshlangan yangi bosqichi jamoatchilik nazoratini rivojlantirishga yangi talablar qo'ydi va ayni paytda yangi imkoniyatlar ham ochdi. Jamoatchilik nazorati oldiga yangi talablar qo'yilishi shu bilan izohlanadiki, belgilangan yangi vazifalar, Harakatlar strategiyasini to'la amalga oshirish jamoatchilik nazoratini keskin kuchaytirishni taqozo yetadi. Ikkinchi tomondan, Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning dolzarbligini yanada oshirib yubormoqda.

Jamoatchilik nazoratining eng muhim shartlaridan hisoblanadigan "Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining oshkoraligi to'g'risida"gi qonun 2013-yilda qabul qilingan va uni bajarish bo'yicha 2013–2014-yillarda Samarqand va Buxoro viloyatlarida o'tkazilgan eksperiment ijobiy natijalar bergan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi bunday oshkoralikni butun mamlakat miqyosida ta'minlash uchun asos yaratdi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ikki yo'nalishda olib borilmoqda. Birinchidan, davlat o'zining bosh boshqaruv subyekti maqomini saqlagan holda, jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni yangi asosga o'tkazmoqda. Endi davlat o'zining muayyan funksiyalarini, bir qator vakolatlarini, huquq va resurslarni jamoat tashkilotlariga o'tkazmoqda. Shu yo'l bilan davlat jamoat tashkilotlarining o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ikkinchi tomondan, jamiyat jamoat tashkilotlarini rivojlantirish orqali ularning ulkan salohiyatini mamlakatni boshqarish yo'nalishida faollashtirmoqda. Endi davlat fuqarolar bilan munosabatlarni yangicha asosga o'tkazish uchun yangi tipdagi munosabatlar, ya'ni shartnoma va boshqa munosabatlarni siyosiy, ma'muriy-buyruqbozlik munosabatlari o'rniga tadbiiq etmoqda.

O'zbekiston mustaqillika erishgan dastlabki yillardan boshlab taraqqiyotning inqilobiy emas, tadrijiy tamoyilini tanladi. Bu yo'l hayotga ijtimoiy sheriklikni tadbiiq qilishni taqozo yetar edi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab qabul qilingan me'yoriy-huquqiy va siyosiy hujjatlarda ijtimoiy sheriklikning asosiy tamoyillari aks yetdi.

Mustaqil mamlakatimiz fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilib qo'ygan ekan, bu holat ham ijtimoiy sheriklikni hayotga keng tadbiiq qilishni taqozo yetadi. Chunki, ijtimoiy sherikliksiz fuqarolik jamiyatini qurish xomxayol bo'lib qoladi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish mamlakatdagi davlat hokimiyati

organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi, turli millatlar va konfessiyalar vakillari o'rtasidagi sheriklikka tayanib amalga oshiriladi. Ijtimoiy sheriklikka turlicha yondashuvlarni amalga oshirayotgan tadqiqotchilarning deyarli barchasi uning asosiy maqsadi turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, sinflarning manfaatlarini muvofiqlashtirish va muhofaza qilish ekanini, shuningdek, dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy vazifalarni hal etishga ko'maklashish, demokratiyani chuqurlashtirishga, huquqiy davlat, ochiq demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirishga ko'maklashish ekanini e'tirof etishadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunida davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy sheriklik subyektlari sifatida belgilab qo'yilgan.

"2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi"dagi ustuvor vazifalardan biri – fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishdir. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish demokratik davlat barpo etishning muhim shartidir. "Demokratiya" so'zi "xalq hokimiyati" degan ma'noni anglatadi. Aynan fuqarolik jamiyati insonga u hokimiyat egasi, hokimiyatning birdan-bir manbai ekanini his qilish imkonini beradi. Demak, demokratiyaning rivoji fuqarolik jamiyatining ham taraqqiy etishini taqozo yetadi.

Fuqarolik jamiyatining mohiyatini chuqurroq anglash uchun uning davlat bilan o'zaro munosabatiga oydinlik kiritish lozim. Davlat tuzilmalarida bir markazdan boshqarish, vertikal bo'ysunish munosabatlari amal qilsa, fuqarolik

Fuqarolik jamiyati – bu o'zini o'zi boshqarishdir. Uning birinchi va asosiy tamoyili shu.

Islom Karimov

Harakatlar strategiyasi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzurida fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoat fondlari tashkil etiladi.

Davlat dasturi, 49-band

jamiyatida o'zaro tenglikka, ixtiyoriylikka, shaxsiy tashabbusga asoslangan gorizontalar munosabatlar ustuvordir. Ayni paytda davlat va fuqarolik jamiyati bir-biriga qarama-qarshi bo'lmay, bir-birini to'ldiradi. Shuning uchun ham demokratik davlatlarda fuqarolik jamiyati institutlari qonun doirasida qo'llab-quvvatlanadi va himoya qilinadi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Chunki, davlat tomonidan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalasining strategik vazifa sifatida ilgari surilishi jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik fikrini ifodalaydi, jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Jamoatchilik nazoratining mavjudligi demokratik davlatning asosiy belgisi sanaladi. Bir tomondan, jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarni davlat organlari, mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlaridan himoya qilish mexanizmi vazifasini o'taydi.

Jamoatchilik nazorati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish (har bir fuqaro davlat idorasining hujjati bilan bemalol tanishishi mumkin, fuqarolarning murojaatlari darhol ko'rib chiqilishi va ularga zudlik bilan javob berilishi lozim);

– davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlariga yuboriladigan petitsiyalar;

– davlat va jamiyat ishlarida fuqarolarning bevosita qatnashishi (asosan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati orqali amalga oshiriladi);

– davlat siyosatiga ta'sir o'tkazuvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, ilmiy ekspertizani amalga oshirish, tahliliy hujjatlar tayyorlash, publitsistik asarlar chop etish, ijtimoiy audit);

- jurnalistik tekshiruv;
- qonun loyihalari va davlat hayotiga oid muhim masalalarni oshkora muhokama qilish;
- qonunchilik tashabbusi bilan chiqish (unga ko‘ra fuqarolar qonun loyihasini tegishli subyektlarga tavsiya etish huquqiga ega).

Jamoatchilik nazorati jamiyatdagi illatlarni bartaraf etishda muhim o‘rin tutadi, mavjud huquqbuzarliklarning oldini olishda samarali xizmat qiladi. Jamoatchilik nazoratida faoliyatning samaradorligi va natijasi, shuningdek, amalga oshirilgan nazorat amaliyotining ta‘sirchanligi muhim o‘rin tutadi. Bu jihatdan jamoatchilik nazorati jamiyatda mavjud muammolar va o‘zyechimini kutayotgan ziddiyatlar haqida obyektiv ma‘lumot olish hamda ularning maqbul yechimini topishga xizmat qiladi. Ta‘kidlash joizki, jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshirishda ommaviy axborot vositalari muhim o‘rin tutadi.

“2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”dagi ustuvor vazifalardan yana biri – mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyatining samaradorligini oshirish hisoblanadi. Yurtimizda azal-azaldan mahalla tarbiya o‘chog‘i hisoblanadi. Avlod-dan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashda uning o‘rni va ahamiyati beqiyos.

Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma‘naviy ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta‘sirchan kuch bo‘lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Birgina so‘nggi besh-yilda yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi hamda “Fuqarolar

yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, mahallalar hamda ulardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20 ga yaqin nizom qabul qilinib, ijtimoiy hayotga tadbiriq etildi. Shuningdek, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslari hamda “Mahalla” ma‘rifiy teleradiokanali tashkil etildi.

Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig‘inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo‘lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida oxirgi besh yil mobaynida fuqarolar yig‘inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolari joriy, 367 tasi kapital ta‘mirlandi va 350 dan ziyodi rekonstruksiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 216 ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi.

Amalga oshirilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida mahalla noyob, dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan tuzilmaga aylandi, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida faol ishtirok etishi uchun mustahkam zamin yaratildi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta‘minlash tizimini yana-da takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini oshirish, fuqarolar yig‘inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda yetadigan uyushmaga birlashish huquqini ro‘yobga chiqarish, ularning moddiy-texnik

bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yana-da rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalla institutini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 3-fevralda imzolangan Farmonida mahalla institutini yana-da takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

– fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rnini va rolini yana-da kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish;

– jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yana-da oshirish;

– yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

– jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Qayd etilgan asosiy vazifalar va yangi normalarni hayotga tatbiq etish uchun Farmon bilan kengashlar faoliyatini yana-da takomillashtirish hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash borasida 37 ta aniq tadbirni amalga oshirishni nazarda tutadigan Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Farmonni ijro etish doirasida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va bir qator boshqa qonun hujjatlariga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

Shuningdek, mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlar zimmasiga fuqarolar yig'inlarining bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari hamda moliya va sog'liqni saqlash organlari bilan o'zaro hamkorligini nazarda tutadigan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish vazifasi yuklandi.

Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'yicha mustaqilligini ta'minlash, o'zini o'zi boshqarish tizimida ortiqcha bo'g'inlardan voz kechish maqsadida tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarini mahalla fuqarolar yig'inlariga birlashtirish va bo'lish yo'li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalar sport maydonchalari, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish maqsadida 2017–2021-yillarga mo'ljallangan hududiy dasturlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, 2018-yilning 1-dekabriga qadar tumanlar va shaharlar markazlarida "Mahalla markazi" majmualari binolarini namunaviy loyihalar asosida barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishiga munosib hissa qo'shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan "Mahalla iftixori" ko'krak nishonini ta'sis etish nazarda tutilmoqda.

Farmonda hamda u bilan tasdiqlangan Kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasidagi vazifalarni samarali bajarish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yana-da mustahkamlash imkonini beradi.

"Harakatlar strategiyasi"da belgilab qo'yilgan ustuvor vazifalarning yana biri bu – ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilish hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi. Ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil bo'lgan taqdirdagina ijtimoiy-siyosiy jarayonlar to'g'risidagi haqiqat ifoda etilishi mumkin. Binobarin, ommaviy axborot vositalari erkinligini kafolatlash va shu orqali muammolarni keng jamoatchilik bilan muhokama qilish, odamlarning erkin fikr bildirishlari uchun keng yo'l ochib berish jamiyatni erkinlashtirishning asosiy tamoyillaridan biridir. Ommaviy axborot vositalari tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilmas ekan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari kabi ta'sirchan kuchga aylanmas ekan, demokratik islohotlarning kechishi qiyinlashadi.

Sho'rolar davrida ommaviy axborot vositalari yakka mafkurani singdirish quroli bo'lib xizmat qilgan. Ommaviy axborot vositalari yakkayu yagona partiya, yakkayu yagona mafkura va yakkafikrlash siyosatining targ'ibotchisi edi. Chunki, «qizil imperiya» har qanday

plyuralizmni, fikrlar xilma-xilligini va, ayniqsa, g'oyalar xilma-xilligini mutlaqo inkor qilar edi. Barcha jurnalistlar "mutassaddi rahbarlar"ning og'zini poylab, buyrug'ini kutib, ularning ko'rsatmasiga qat'iy amal qilgan holda faoliyat yuritir edi.

Ta'kidlash joizki, so'z erkinligini bo'g'ayotgan davlat o'z ildiziga bolta urayotgan, xavf-xatardan ogoh yetadigan jarchining ovozini bo'g'ayotgan, o'zini

fikrsizlik, turg'unlik o'ppo-niga – tanazzulga sudrayotgan bo'ladi. Demokratik tuzum esa xalqning fikriga taynadi, xalqdan himoya topadi. Demokratik davlatlarda ommaviy axborot vositalariga qo'pol bo'lsa ham jamiyat manfaatlarini "qo'riqlovchi

"Gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televidenie (kabelli, efir-kabelli televidenie) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir".

O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni

ko'ppak", deb nisbat beradilar. Yetakchi demokratik davlatlarda ular jamiyatning "ko'zlari", "quloqlari" vazifasini bajaradi. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko'tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan. Bu tuzumda ommaviy axborot vositalari, bir tomondan, munozaralar yuritiladigan minbar bo'lsa, ikkinchi tomondan, fuqarolar uchun xolis axborot olish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida qator ishlar qilindi. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to'g'risida", "Jurnalistlarning kasbiga doir faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi, Milliy matbuot markazi, Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash

jamg'armasi tuzildi. Boshqacha aytganda, Respublikamizda ommaviy axborot vositalari faoliyatning zarur huquqiy bazasi va ularni erkinlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarini "to'rtinchi hokimiyat"ga aylantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy kuchga, siyosiy tizimning to'laqonli bo'g'iniga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta'sirchan vositaga aylantirish – islohotlar talabi bo'lib qolmoqda. Mutaxassislarning fikricha, ommaviy axborot vositalarining erkinligi va mustaqilligi uch omilga bog'liq. Bular: birinchidan, maxsus qonunlar va qoidalarning mavjudligi; ikkinchidan, axborot sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitining amal qilishi; uchinchidan, jurnalistlarning kasb mahorati va o'z so'zi uchun mas'uliyat darajasi.

Demak, avvalo, ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil bo'lishi kerak. Bu – ular davlatdan mutlaqo mustaqil bo'lib, alohida shaxslar qo'liga o'tib ketishi kerak, degani emas. Gap mustaqillikning eng yuksak darajasi – ichki mustaqillik haqida bormoqda. Ommaviy axborot vositalarining bunday mustaqilligi jurnalistlar ijodining erkinligi, mavzu tanlash va fikr berishdagi mustaqillikda namoyon bo'ladi. Bunda jurnalistning ma'muriy immunitetga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Ya'ni, jurnalistning material tayyorlashda o'z rahbariyatidan mustaqil bo'lishi hamda o'z ijodi namunolari uchun faqatgina uning o'zi mas'uliyatli va javobgar bo'lishi talab etiladi. Shundagina jurnalistning ijodiy faoliyatini faqatgina ommaviy axborot vositalari faoliyatiga daxldor qonunlarga cheklaydi, xolos. Ish joyida jurnalistlarni faqatgina ijodiy jarayonga aloqasi bo'lmagan xatolari uchungina jazolash mumkin bo'ladi. Ijodidagi xatolari – kimningdir qadr-qimmatini, sha'nini poymol qilgani uchun, buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilgani uchun yoki voqea-hodisalarni buzib talqin qilgani uchun esa u faqat sud oldida javob beradi. Shundagina jurnalistning ijodiy salohiyatini to'la ro'yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi, u professional mustaqillikka ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi ham demokratiya taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qarama-qarshi nuqtai nazarlardan iborat bo'lgan dasturlarni yaratish, chiqishlarda muqobil fikrlar to'qnashuviga erishish lozim. Shundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rag'batlantirishga qodir bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda ommaviy axborot vositalarining islohoti "g'oyalar bozori" da hali aytilmagan yangi fikrlarni uzatishga qaratiladi. Lekin o'rinli bir savol tug'iladi: bu "bozor" har qanday g'oyalar uchun ham ochiq bo'lishi kerakmi? Yo'q, albatta. Ekstremistik nuqtai nazarlar, g'ayriinsoniy tabiatga ega fikrlar va qo'poruvchilikka chaqiruvchi g'oyalarga bu "bozor" da o'rin yo'q. Lekin jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi, bunyodkorlik tabiatiga ega, hayotimizni farovon qilishga yo'naltirilgan yangi g'oyalar, taklif va tavsiyalar bu "bozor" da bimalol raqobat qila oladi. Shundagina jamiyat hayotining turli yo'nalishlarida qabul qilinayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, istiqbolli dasturlar, loyihalarni amalga oshirishda jurnalistlar tomonidan axborot olish, to'plash va tarqatish masalalarida qonunchilik mexanizmlarini takomillashtirishga, fuqarolarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida xolis, tezkor va to'la-to'kis xabardor qilishga, davlat va jamoat tashkilotlarining axborot xizmatlari ishining takomillashishiga, fuqarolarning davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilib, bu organlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda barcha zarur sharoitlar yaratiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar.

Harakatlar strategiyasi, demokratik islohotlar, jamiyat boshqaruvi, mahalla, o'z-o'zini boshqaruv idoralari, Oliy majlis palatalari, Senat, siyosiy partiyalar, davlatning iqtisodiy siyosati.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar.

1. «Jamoatchilik nazorati»ning zarurati nimalarda ko‘rinadi?
2. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi jamoatchilik nazorati samaradorligining muhim sharti ekani haqida nimalarni bilasiz?
3. Fuqarolik jamiyati institutlariga qanday jamoat tashkilotlari yoki birlashmalari kiradi?
4. Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatida Oliy Majlisning rolini oshirish yuzasidan Harakatlar strategiyasida qanday chora – tadbirlar nazarda tutilgan? Qabul qilinayotgan qonunlar sifati deganda nimani tushunasiz?
5. “Elektron parlament” tizimi qanday vazifani bajarishi rejalashtirilgan?
6. Harakatlar stretegiyasida siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish yuzasidan qanday ishlar amalga oshirilishi maqsad qilib qo‘yilgan?
7. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda qanday davlat boshqaruv tizimi qaror topdi?
8. O‘zbekistonda davlat hokimiyati qanday tamoyillarga tayanadi?

7-MAVZU. IQTISODIYOTNI YANA-DA RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISH

7.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik huquqini himoya qilish hamda ularning mavqeini yana-da kuchaytirish – iqtisodiyotni yana-da rivojlantirish va liberallashtirishning bosh omilidir

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining o‘rni beqiyosdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish, ishchi kuchi bandligini ta‘minlash, aholi farovonligini oshirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi hamda jamiyatda mulkdorlar sinfining shakllanishi va mustahkamlanishini ta‘minlaydi.

Shuning uchun ham “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yana-da kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kichik biznes tarkibiga kiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar turli mamlakatlar qonunchiligi tomonidan turlicha belgilanadi. Hususan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida kichik tadbirkorlik subyektlari quyidagicha belgilangan:

- 1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- 2) ishlab chiqarish tarmoqlarida, band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 20 kishi, xizmat ko‘rsatish sohasi va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa tarmoqlarda, band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 10 kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida, band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 5 kishi bo‘lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

– yengil va oziq-ovqat sanoatida, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochsozlik, mebel sanoati, qurilish materiallari sanoati, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohasida, band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 100 kishi;

– mashinasozlik, metallurgiya, yonilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohasida, band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 50 kishi;

– fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa sohalarda, band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 25 kishi bo‘lgan kichik korxonalar⁸¹.

Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yana-da yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash imkonini bermozda.

Jahon tajribasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirishdan qator mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning o‘ziga xos dastagi sifatida foydalanib kelinmoqda. Jumladan:

- ishchi kuchi bandligini ta‘minlashning asosiy sohasi;
- iqtisodiyotning innovatsiya salohiyatini rivojlantirish manbai;
- ishlab chiqarish faoliyatining yangi shakllarini izlash va joriy etish manbai;
- davlat byudjetini soliq bilan to‘ldirish;
- ishlab chiqarish pasayishining oldini olish;
- yirik biznes bilan uzviy bog‘liq holda, mamlakatning

⁸¹ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida. 2012-yil 2-may.

barqaror rivojlanishi hamda uning iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishning asosi.

Ushbu yo‘nalishlarni quyidagi jadval orqali yaqqol tasavvur etish mumkin (7.1.1-jadval).

7.1.1-jadval.

Jahonning ayrim mamlakatlarida kichik biznesdan foydalanish yo‘nalishlari

Kichik biznesdan foydalanish yo‘nalishlari	Mamlakatlar
Ishsizlik va qashshoqlik kabi ijtimoiy muam-molarning keskinligini pasaytiruvchi omil	Hindiston, Albaniya, Braziliya
Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, o‘rta sinfning tarkib topishi	Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Germaniya, Kanada, Ispaniya
Retsessiyani bartaraf etish	Isroil, AQSh
Yangi bozorlarni barpo etish	Meksika, Kanada, Singapur, Yaponiya
Islahotlarni izchil amalga oshirish	Xitoy, Polsha, Chexiya, Vengriya, Slovakiya

Har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hukumat tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosatning hududlarda bajarilish darajasiga bog‘liq. Hususan, Respublika hududlarida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalasida juda katta ishlar amalga oshirildi va u o‘z samarasini bermozda. 2016-yilda Respublika hududlari bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi Namangan va Jizzax viloyatlarida yuqori darajaga etib, 80,3 foizni tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida ushbu ko‘rsatkich 78,0 foiz, Surxondaryo viloyatida 75,3 va Xorazm viloyatida 74,2 foizni tashkil etgan. Sirdaryo, Buxoro, Andijon, Farg‘ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida, Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 50–70 foizlar oralig‘ida bo‘lib, o‘rta darajani qayd etgan. Shu bilan birga, past daradaja

qolayotgan Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich 37,6 foizni tashkil etgan (7.1.2-jadval).

7.1.2-jadval

Hududlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi⁸²


	yillar				2000-2016-yillarda o'zgarish (+;-)
	2000-y. ¹	2005-y.	2010-y.	2016-y.	
Yuqori darajada					
Namangan viloyati	33,4	45,2	76,0	80,3	46,9
Jizzax viloyati	37,1	58,3	77,3	80,3	43,2
Samarqand viloyati	44,3	49,9	73,6	78,0	33,7
Surxondaryo viloyati	39,1	42,8	71,7	75,3	36,2
Xorazm viloyati	34,2	47,1	71,8	74,2	40,0
O'rta darajada					
Sirdaryo viloyati	38,9	59,8	77,4	68,7	29,8
Buxoro viloyati	33,0	40,7	64,1	67,9	34,9
Andijon viloyati	32,9	35,8	54,7	66,0	33,1
Farg'ona viloyati	32,0	40,8	59,5	63,4	31,4
Toshkent shahri	41,5	46,4	49,9	58,9	17,4
Toshkent viloyati	34,0	32,3	54,7	57,1	23,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,9	45,1	63,6	57,0	30,1
Qashqadaryo viloyati	25,8	34,9	55,0	51,7	25,9
Past darajada					
Navoiy viloyati	21,5	18,5	34,4	37,6	16,1

¹⁾ Kichik va o'rta biznes

So'nggi yillarda kichik biznes subyektlarining mamlakatda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholi daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari

⁸² <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2031-o-zbekiston-respublika-sida-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>

salmoqli bo'lib bormoqda. 2000-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat faoliyati bilan band bo'lganlar soni 4,5 mln.kishini tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 8,6 mln.kishini, 2016-yilda esa 10,4 mln.kishini tashkil etib, mazkur sohada band bo'lganlar soni 2000-yilga nisbatan solishtirilganda 5,9 mln.kishiga yoki 2,3 barobar ko'payganligini ko'rish mumkin (7.1.1-rasm).




7.1.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni (mln.kishi)⁸³

2016-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlarning 79,0 foizi (8,2 mln.kishi) yakka tartibdagi tadbirkorlik sohasida, 21,0 foizi (2,2 mln.kishi) kichik korxon va mikrofirmalarda mehnat faoliyati bilan band bo'lgan.

2016-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlarning iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy sonidagi ulushi 78,2 foizni tashkil etgan. Shundan 61,9 foizini yakka tartibdagi tadbirkorlikda band bo'lganlar tashkil etsa, 16,3 foizini kichik korxon va mikrofirmalarda band bo'lganlar tashkil yetadi.

⁸³ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2031-o-zbekiston-respublika-sida-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>

Mamlakat sanoat tarmoqlarida kichik biznes subyektlari sonining yuqori sur'atlarda o'sishi, qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi, yagona soliq to'lovi stavkalarining pasaytirilishi, resurslardan va ishlab chiqarish infratuzilmalaridan foydalanishga ruxsat berish shartlarining soddalashtirilishi hamda kichik biznes subyektlarini yirik kompaniyalar bilan kooperatsiya aloqalarining kuchayishi natijasida uning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 2000-yildagi 12,9 foizdan 2016-yilda 45,3 foizga yoki 32,4 foiz birlikka sezilarli daraja o'sdi (7.1.2-rasm).



7.1.2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi (foizda)⁸⁴

Mazkur soha iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga aylanishida mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yana-da liberallashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim rol o'ynamoqda.

Shunga ko'ra, Harakatlar strategiyasida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy

⁸⁴ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2031-o-zbekiston-respublikasi-da-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>

tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish borasidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 2017-yilning I choragida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili (biznes ombudsman)ni tashkil etish belgilandi.

Ombudsman (qadimgi skandinavchada umbor «vakolat», «zimmasiga yuklash») – qator davlatlarda ijro hokimiyati idoralari va mansabdor shaxslar faoliyatida ma'lum fuqarolar guruhining adolat va manfaatlarini ta'minlanishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan mansabdor shaxs⁸⁵.

Huquqshunoslar xalqaro assotsiatsiyasi fikriga ko'ra, ombudsman instituti – bu konstitutsiya yoki qonunchilik hokimiyati hujjatlarida ko'zda tutilgan hamda mustaqil jamoatchilik asosidagi yuqori darajadagi mansabdor shaxs tomonidan boshqariluvchi xizmat. Mazkur shaxs davlat boshlig'i oldida mas'ul bo'lib, tadbirkorlardan davlat idoralari, xizmatchilarining noqonuniy xatti-harakatlari bo'yicha shikoyatlarni qabul qiladi hamda tadbirkorlik subyektlari huquq va qonuniy manfaatlarini namoyon etish, ta'minlash va himoya qilish maqsadida harakat qiladi.

Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil lavozimining tashkil etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimidagi asosiy yangiliklardan biri sifatida ta'kidlash mumkin. Davlat boshqaruvining mazkur usuli ko'plab xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlar o'z xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida to'qnash keluvchi byurokratik muammolarni hal etishdagi samarali vosita sifatida ijobiy rol o'ynamoqda.

Hozirgi vaqtda ombudsman instituti boshqaruvning turli shakllari – prezidentlik Respublikasi (Finlyandiya, Fransiya,

⁸⁵ Омбудсмен. – <https://ru.wikipedia.org/>

AQSh), parlament Respublikasi (Shveysariya, Avstriya, GFR), konstitutsiyaviy monarxiya (Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Ispaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Kanada) hukmron bo'lgan 50 dan ortiq mamlakatda mavjud⁸⁶.

Bundan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutining joriy etilishi bu boradagi faoliyatning jahon andozalariga muvofiqligini ta'minlash borasidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Shunga ko'ra, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasining ishlab chiqilishi ko'zda tutilib, unda yangi tashkil etiladigan ombudsmanga quyidagi vakolatlarni berish nazarda tutiladi:

– tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish;

– tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari va talablarining amalda ro'yobga chiqarilayotganini o'rganish;

– davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

Bu borada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuni loyihasi xususiy mulk kafolatlari va uni himoya qilishni kuchaytirish, qurilishi tugallanmagan obyektlar savdosini tartibga solish, tadbirkorlik faoliyati yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalish bo'yicha belgilangan tadbirlardan yana biri – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish

⁸⁶ Что такое институт бизнес-омбудсмена? http://ombudsmanbiz.kz/ru/виртуальная_приемная/faq/#faq-11


uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish hisoblanadi.

Mazkur tadbir, birinchi navbatda, nazorat qiluvchi organlarning kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvini va ular tomonidan o'tkaziladigan rejali tekshirishlar sonini yana-da qisqartirish, bunda 2017-yilning I choragida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ularni avtomatlashgan axborot tizimi orqali tahlil qilib, xavf-xatarlarni baholash asosida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish bo'yicha reja-jadvalni ishlab chiqishni taqozo yetadi. Tekshirishlar reja-jadvalini shakllantirishda xavf-xatarlar avtomatlashtirilgan holda baholanadi.

Spuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun bir gektardan ortiq yer maydoni ajratish tizimini takomillashtirish maqsadida 2017-yilning II choragida tadbirkorlik subyektlarining ishtirokisiz «yagona darcha» tamoyili asosida yer maydonlarini tanlash va ajratish materiallarini tayyorlash va vakolatli organlar bilan kelishish jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish, tadbirkorlik subyektlariga arizani ko'rib chiqish jarayonini interaktiv kuzatish imkoniyatini yaratish tadbirlari belgilangan.

Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida eng avvalo, mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari yetarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotgani muhim hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, Respublikada nafaqat xo'jalik yurituvchi subyektlar, ya'ni, turli xildagi korxonalar, tashkilot, mikrofirmalar hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun qo'llaniladigan foyda va yagona soliq to'lovlarining pasaytirilishi mamlakatda tovar ishlab chiqarish va turli xildagi xizmatlar ko'rsatish hajmining keskin oshishiga sabab bo'ldi. (7.1.3-rasm)



7.1.3-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyektlar foydasiga soliq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yagona solig'i hamda YaIM ning o'zgarish tendensiyalari⁸⁷

7.1.3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonalar to'laydigan foyda solig'i stavkasi 2000-yilda 19 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2005-yilda 6 punktga tushirilib 13 foizni, 2010-yilda yana 4 punktga kamayib 9 foizni tashkil qildi. 2014-yilda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrda PQ-2099-sonli qaroriga asosan amaldagi 9 foizli foyda solig'i stavkasi yana bir punktga kamaytirilib 8 foiz etib belgilandi va ushbu stavka hozirgi kungacha amal qilib kelinmoqda. Buning natijasida 2016-yilning o'zida tadbirkorlar ixtiyoriga 92 milliard so'mdan ortiq mablag' qoldirish imkonini yaratdi. Bu esa korxonalar ixtiyorida qolgan pul mablag'larini ularning aylanma kapitalarini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash imkonini berdi.


KBXT subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2000-yilda 31 foiz qilib belgilangan yagona soliq stavkasi 2005-yilda 2000-yilga

⁸⁷ www.soliq.uz sayti va O'zbekiston Respublikasi DSQ axborot xizmatining 2017-yilgi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalaridagi o'zgarishlar hamda soliq olishning ayrim masalalari yuzasidan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

nisbatan 2 barobardan (15 foiz), 2010-yilda 4 barobardan (7 foiz), 2015-yildan hozirgi kungacha 6 barobardan (5 foiz) ortiqroqqa pasaytirilgan. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirib ishlab chiqarishni rivojlantirishini ta'minladi. Natijada YaIM hajmining o'sish sur'atlari 2000-yilda 3,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, undan keyingi davrlarda o'rtacha 7,8 foizni tashkil qildi.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yaratilgan yangi shart-sharoitlar, ular harakatlarining yana-da erkinlashtirilishi hamda yaratilgan imtiyoz va qulayliklar, sohaning yana-da rivojlanishiga va natijada ushbu sektor subyektlari tomonidan bank xizmatlari va kreditlariga talabning oshishiga imkon bermoqda.

Amalga oshirilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar natijasida 2000-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 171,5 milliard so'm kredit ajratilgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 15870,0 milliard so'mni tashkil yetdi (7.1.4-rasm).




7.1.4-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yo'naltirilgan kreditlar miqdori, milliard so'm.⁸⁸

⁸⁸ <https://stat.uz/uz/432-analicheskie-materialy-uz/2031-o-zbekiston-respublikasi-da-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>

7.1.4-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yo'naltirilgan kreditlar miqdori 2000–2016-yillar mobaynida deyarli 92 barobarga o'sgan. Bu esa, mamlakatda yaratilayotgan YaIM hajmi va aholi daromadlari ortishiga, ishchi kuchining samarali bandligiga, iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, 2010-yil 12-noyabrda Birinchi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan konsepsiyada ilgari surilgan muhim qonunchilik tashabbuslaridan birining amaliy tadbiqi sifatida 2012-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuni e'lon qilindi. Qonunning 3-moddasida "Oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir"⁸⁹, deb belgilab berildi. Ushbu qonundan kelib chiqqan holda, oilaviy tadbirkorlikning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin.



7.1.5-rasm. O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikning asosiy belgilari⁹⁰

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida. 2012-yil 26-aprel. 3-modda.

⁹⁰ Ushbu rasm O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 17-son ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Qonunga ko'ra, agar oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs ko'rinishida tashkil etilsa, u oilaviy korxonada deb yuritiladi. Qonunda u "Oilaviy korxonada" deb nomlanib, uning asosiy mazmuni va belgilari bayon etilgan. Ya'ni, oilaviy korxonada uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonada ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonada ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxonada faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxonada tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunida oilaviy korxonada ishtirokchilari tarkibi belgilab berilgan. Unga ko'ra, oilaviy korxonada ishtirokchilari oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to'lgan boshqa qarindoshlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Davlat mulkini xususiylashtirishni yana-da kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish – "Harakatlar strategiyasi"ning eng asosiy ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Davlat mulki hisobidagi obyektlar va aktivlarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, shu jumladan, xususiy investorlarga sotish ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlar ishlab chiqilib, davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish sohasida qator qulayliklar yaratildi. Jumladan:

– nashrlarda davlat aktivlarini "nol" xarid qiymatida sotish bo'yicha savdolar to'g'risidagi e'lon chop etilgan sanadan boshlab

to ular o'tkaziladigan sanagacha bo'lgan muddat ikki oydan 30 kungacha qisqartirildi;

– savdolarida davlat aktivlariga 2 oy mobaynida talabnoma tushmagan taqdirda, ularning narxini 50 foizigacha, har 15 kunda 10 foizdan pasaytirish mexanizmi joriy etildi;

– obyektlar narxi 50 foizigacha pasaytirilgandan so'ng 1 oy mobaynida sotilmasa, ular investitsiya kiritish va yangi ish o'rinlari yaratish sharti bilan "nol" xarid qiymati bo'yicha sotilishi belgilandi;

– davlat aktivlariga bir oy davomida investor xarid to'lovlarini to'lagan taqdirda, unga xarid summasidan shartnoma tuzilgan sanadagi Markaziy bankning qayta moliyalash yillik stavkasi miqdorida chegirma berildi;

– davlat obyektlarini qismlarga bo'lib sotish mumkinligi belgilandi, bu bilan tadbirkorlarga o'z imkoniyati va zaruriyati doirasida obyektlarni sotib olish imkoni berildi;

– davlat aktivlari bo'yicha xarid to'lovlarini xaridorlar tomonidan 24 oygacha bo'lgan muddatda amalga oshirish yuzasidan imtiyoz berildi;

– davlat obyektining ijarachilariga ijara obyekti sotilishida ustunlik berilishi belgilandi;

– xo'jalik boshqaruvi organlarining ustav kapitaliga berilgan davlat ulushlarini sotishdan tushgan mablag'lar korxonalarini modernizatsiyalashga yo'naltirilishi mumkinligi belgilandi;

– davlat korxonalari faqat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tuzilishi mumkinligi o'rnatildi;

– xususiylashtirilgan korxonalarda xususiylashtirish vaqtida aniqlanmagan davlat aktivlari yoki foydalanishga berilgan korxonada hududida joylashgan ko'char va ko'chmas mulk mazkur korxonaning mulki hisoblanishi aniq belgilandi.

Harakatlar strategiyasi bo'yicha Dasturga binoan, 2017-yil mart oyida foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlarini, jumladan, «nol» xarid qiymati bo'yicha sotish jarayonlarini yana-

da soddalashtirish hamda bunday obyektlar tadbirkorlik subyekti tomonidan aniqlanganda, ularni sotib olish yuzasidan takliflarni qabul qilish va ko'rib chiqish tartibini belgilash chora-tadbirlari amaliyotga kiritildi. Bu borada ishlab chiqilishi ko'zda tutilayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi iqtisodiyotda davlatning ishtirokini qisqartirish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, davlat mulklarining real narxlarini shakllantirish imkonini beradi.

Bu borada 2017-yil I choragida aksiyadorlik jamiyati shaklidagi tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha kafolatlash fondini tashkil etish, bunda:

– ustav kapitalining boshlang'ich miqdorini O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi, davlat organlari va tijorat banklari – muassislar ulushlari hisobiga shakllantirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga tijorat banklari tomonidan yangi texnologik uskunalarni sotib olishga beriladigan kreditlarning garov bilan qoplanmagan qismini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Mazkur tadbirning amalga oshirilishi natijasida tadbirkorlik subyektlarini kredit va boshqa moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashni kengaytirish, investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda kredit olish uchun garov ta'minotini taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, dasturda tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish chora-tadbirlari ham belgilab berilgan.

Harakatlar strategiyasi bo'yicha Dasturga asosan 2017-yil I choragida tadbirkorlik subyektlarini muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga tayyor holda ulash tizimini takomillashtirish maqsadida:

– muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan xarajatlarni kamaytirish;

– tadbirkorlik subyektlarini elektr tarmoqlariga ulashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni unifikatsiyalashni ko'zda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ishlab chiqiladi. Natijada tadbirkorlik subyektlarini muhandislik-kommunikatsiya tarmog'iga ulash tizimi yana-da takomillashtiriladi, uning muddatlari va xarajatlari qisqaradi.

Tadqiqotlar mamlakatda ushbu sohada erishilgan yutuqlarga qaramasdan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yana-da qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan bir qator omillarni bartaraf qilish hamda ushbu masala bo'yicha me'yoriy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Fikrimizcha, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini yana-da qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib borish zarur:

Birinchidan, kelajak davrlarga mo'ljallangan maqsadli rivojlanish ko'rsatkichlari (konsepsiyasi) va hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

Ikkinchidan, kichik biznes uchun teng sharoitlar yaratish, biznesga xizmat ko'rsatuvchi jarayonlarni ekspertiza qilish shartlari va to'lovlarni soddalashtirish (optimallashtirish);

Uchinchidan, biznesni yuritish uchun moliyaviy va moddiy ko'mak berishni tashkil etish hamda mavjud muammolarni o'rganish;

To'rtinchidan, kichik biznes sohasida qabul qilingan qonun, farmon, qarorlar ijrosini doimiy o'rganish va qonunchilik bazasini takomillashtirish.

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha vakolatli davlat organlaridan quyidagilarni nazarda tutuvchi, turli xildagi ruxsatnomalarni taqdim qilishdagi rasmiyatchilik tadbirlarini qisqartirish zarur:

– vakolatli organdan o'rnatilgan muddatlarda yo'llangan murojaatga javob olinmagan taqdirda, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan vakolatli organ ruxsatini talab etuvchi faoliyatni beixtiyor amalga oshirish huquqiga ega bo'lishni nazarda tutuvchi tamoyilni olib borish;

– «yagona darcha» faoliyatini takomillashtirish.

– kichik va mikro korxonalarda ishga joylashgan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o'quv muassasalarining bitiruvchilarini 5 yilgacha ishchilarning cheklangan soni hisobiga kiritilmasligini belgilovchi me'yorni joriy etish;

– kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va oliy o'quv muassasalarida, ular tasarrufida bo'lgan jihozlardan foydalangan holda tashkil etilayotgan korxonalarni ustav fondi uchun minimal talablardan, asbob-uskunalar, bino va inshootlar ijarasi uchun to'lovlardan, shuningdek, korxonada band bo'lganlarning 90 foizi talaba va o'quvchi bo'lgan taqdirda, barcha soliq turlaridan ozod etish.

Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish amaliyotini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Tijorat banklari tomonidan kreditlash hajmlarini oshirishda asosiy e'tiborni mijozlar va aholining, xorijiy investorlarning bo'sh turgan pul mablag'larini bank depozitlariga jalb qilishning ta'sirchan va rag'batlantiruvchi omillarini yaratish. Xususan, depozitlarni egasining birinchi talabi bilan chegaralanmagan miqdorda qaytarib berilishini kafolatlash, depozit egalariga manfaat keltiruvchi foiz stavkalari o'rnatilishi shular jumlasidandir.

2. Tijorat banklarining ustav kapitaliga davlat tomonidan qo'yilgan pul mablag'larini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining investitsion xarajatlarini kreditlashga, davlat foydasiga hisoblangan dividendlarni esa, mazkur banklarning

kapitallashish darajasini oshirishga yo'naltirgan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun sarflash zarur.

3. Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlardan olingan daromadlarini soliqdan ozod qilinishi natijasida hosil bo'lgan mablag'larni to'liq ularni kapitallashish darajasini oshirishga yo'naltirish lozim. Ushbu mablag'larni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash maqsadida tashkil qilinayotgan kichik korxonalar uchun yangi uskunalar va texnologiyalar xarid qilish maqsadlariga yo'naltirish lozim. Ushbu tadbirning amaliyotga tatbiqi natijasida quyidagi amaliy natijalarga erishish mumkin:

- tijorat banklarida uzoq muddatli resurslar yetishmasligi sharoitida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga beriladigan investitsion kreditlar berish hajmi oshadi;

- tijorat banklarining investitsion kreditlardan oladigan daromadlari miqdori ko'payadi;

- qishloq joylarda kichik korxonalar soni, ularning ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyati oshadi;

- aholi bandligi ma'lum darajada oshadi.

4. Tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar, shu jumladan, mikrokreditlarning ta'minoti sifatini oshirish maqsadida kafillik bergan uchinchi shaxslarning moliyaviy va mulkiy holatini baholash tartibini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Mijozlar ahvoli va ularning kredit tarixi haqida ma'lumotlarni yig'ish, qarz beruvchilar xavf-xatar ehtimolligini kamaytirishga, qarz oluvchilarga esa o'zlarining qarzini qaytarish bo'yicha yaxshi ko'rsatkichlarni ifoda etgan holda boshqa tashkilotlardan yangi qarzlarni olishga imkon beradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida hulosa qilish mumkinki, mamlakatda iqtisodiyotni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirish, ishchi kuchi bandligini ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda va juda katta ijobiy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Lekin shu bilan birgalikda

kelgusida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yana-da yuksaltirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning keng imkoniyatlaridan foydalanish obyektiv zaruratdir.

7.2. Iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda tarkibiy siyosat va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yana-da oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"⁹¹da iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari alohida muhim o'rin egallaydi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida albatta tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatdoshligini oshirish masalasi turadi.

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirishdan maqsad – tarmoq va sohalar mutanosibligini ta'minlash, uning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, YaIM hajmi va o'sish sur'atlari hamda aholi turmush darajasini yaxshilashdan iborat

Shuning uchun ham Respublikada "...tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish" masalalari eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.⁹²

⁹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 8-fevral 2017-yil.

⁹² "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy

Respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlar ko'p jihatdan jahon bozori kon'yukturasidagi o'zgarishlarning ustuvor tamoyillari bilan belgilanadi. Ularning asosiylari quyidagilar:

– hozirgi bosqichda jahon xo'jaligi, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar nisbatan sekin iqtisodiy o'sish davrini boshdan kechirmoqda. Biroq, yaqin istiqbolda iqtisodiy o'sishning kutilayotgan o'rtacha darajasi butun dunyo miqyosida 3,0 %dan, rivojlanayotgan davlatlarda 5,0 %dan oshib ketishi kuzatilmoqda. Bu, albatta, tegishli tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab qiladi.;

– iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy siljishlar oqibatida jahon bozorida tovar va xizmatlar oqimi o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Jahon xo'jaligida yaqin istiqbolda ham sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan ancha yuqori bo'lib qoladi. Xalqaro savdoning tarkibi ham o'zgaradi, tayyor mahsulot va xizmatlar ulushi ortadi, xomashyo resurslari va qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi salmog'i qisqaradi. Jahon eksportida sanoat mahsulotlari yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qoladi. Bu o'zgarishlar albatta, milliy xo'jaliklar tuzilmasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi;

– istiqbolda jahon narxlari dinamikasida nisbatan berqarorlik kuzatiladi. Narxlar oziq-ovqat tovarlariga talab nisbatan barqaror qolsa-da, jahon bozorining deyarli barcha segmentlarida kon'yuktura rivojlanish istiqbollari qisqa muddatli davrda xomashyo tovarlari yetkazib beruvchilar uchun noqulay bo'lishi kuzatiladi. Ancha og'ir iqtisodiy oqibatlar xomashyo yo'nalishidagi mamlakatlar zimmasiga tushadi. Tarkibiy o'zgarishlar siyosatida buni hisobga olmaslik, iqtisodiy rivojlanishda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin;

MDH va Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari yonilg'i-energetika, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, agrosanoat tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo qiladi.

O'zbekistonda tarkibiy qayta qurishlar o'zining maqsadli yo'nalishiga ega bo'lib, iqtisodiyotning tarmoq tuzilishini industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tuzilmasiga yaqinlashtirishdan iborat⁹³.

Shu sababli, birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan "...iqtisodiyot tarkibida sifat o'zgarishlarni ta'minlash, ya'ni 2030-yilgacha sanoatning, shu jumladan, qurilish industriyasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini bosqichma-bosqich 24–26%gacha, xizmat sohasining ulushini 55–57%gacha ko'paytirish darkor"⁹⁴ligi qayd etib o'tilgan. Iqtisodiyotda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgartirishlar natijasida 2000–2016-yillarda qishloq xo'jaligining YaIM dagi ulushi 34,4 %dan 17,6 %ga kamayib, sanoatning (qurilishini qo'shgan holda) ulushi 23,1 %dan 32,9%gacha, xizmatlar sohasining ulushi esa 42,5 %dan 49,5 %ga o'sdi⁹⁵.

Butun jahonda "O'zbek modeli" nomi bilan tan olingan o'zimizga xos va mos rivojlanish modeli yo'lida dadil qadamlar bilan borayotganimiz qo'lga kiritilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarning bosh omili bo'lmoqda. Pirovardida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida yurtimiz kun sayin ravnaq topib, mamlakatimizning nafaqat shaharlari, balki qishloqlarida ham sanoat jadal rivojlanib bormoqda, zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini barpo etilyapti.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

2016–yilda iqtisodiyotga 16,6 milliard AQSh dollaridan ko'p

⁹³ Mazkur guruh mamlakatlar YaIM da iqtisodiyotning turli sektorlari ulushi quyidagi nisbatlarni tashkil qiladi: sanoat – 32 %, qishloq xo'jaligi – 4 %, qurilish – 6 %, xizmat ko'rsatish sohasi – 55 %.

⁹⁴ Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. – T.: «O'zbekiston», 2006. – B.46.

⁹⁵ <https://stat.uz/uz/statinfo/sanoat/432-analitcheskie-materialy-uz/2023-makroiqtisodiy-ko'rsatkichlari-tahlili>.

investitsiya kiritildi, bu 2015-yilga nisbatan 9,6 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan chet el investitsiya va kreditlari hajmi esa 11,3 foizga o'sib, 3,7 milliard dollardan ziyod bo'ldi.

2016-yilda Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 5,2 milliard dollarlik 164ta yirik ishlab chiqarish obyekti ishga tushirildi.

Jumladan, Talimarjon IESda 450 MVt quvvatli ikkita bug'-gaz turbinasi va Angren IESda ko'mir kukunidan foydalanishga mo'ljallangan 130–150 MVt quvvatli energiya bloki qurish, Jizzax viloyatidagi sement zavodi quvvatini kengaytirish, «Indorama

Mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha umumiy qiymati qariyb 40 milliard dollarga teng bo'lgan 649 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutuvchi tarmoq dasturlarining o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash vazifasi belgilandi.

Harakatlar strategiyasi, 132-band

Qo'qon tekstil» xorijiy korxonasi va «Fanteks» MCHJda yigiruv ishlarini tashkil etish, «GM O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida «T-250» rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», shu bilan birga, «Sirdaryo viloyatidagi «Guliston Med Texnika» qo'shma korxonasida steril shprintslar ishlab chiqarish» va boshqa loyihalar shular jumlasidandir⁹⁶.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatdoshligini oshirish yo'nalishida korxonalarining mablag'lari, O'zTTJ, tijorat banklari krediti, xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 2017–2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlari amalga oshiriladi.

Natijada kelgusi 5-yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 barobar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36

⁹⁶ www.gov.uz/uz/news/category/1

foizga, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizga oshadi. 2017-yilda 75 dan ortiq yangi turdagi raqobatdosh tayyor mahsulotlar o'zlashtirildi.

2017-yilda umumiy qiymati 1 milliard dollarlik 145 ta ishlab chiqarish quvvatini foydalanishga topshirildi, shu jumladan:

– meva-sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash sohasida 147 million dollarlik 63 ta loyiha;

– rangli va qimmatbaho metallarni chuqur qayta ishlash bo'yicha 217 million dollarlik 6 ta loyiha;

– kimyoviy xom ashyolarni chuqur qayta ishlash bo'yicha 25 million dollarlik 2 ta loyiha;

– uglevodorod xomashyolarini qayta ishlashni chuqurlashtirish bo'yicha 342 million dollarlik 6 ta loyiha;

– tayyor charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha 6 million dollarlik 9 ta loyiha;

– farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirishga yo'naltirilgan 24 million dollarlik 7 ta loyiha;

– qurilish materiallari ishlab chiqarishni yana-da kengaytirish bo'yicha 151 million dollarlik 29 ta loyiha;

– tayyor to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha 178 million dollarlik 15 ta loyiha.⁹⁷

Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida 2017–2020-yillarda aholining energiya ta'minotini yaxshilash uchun ko'mir qazib olish sohasida zamonaviy

2017-yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o'rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan, ma'nan va jismonan eskirgan uskunalarni yangilash hamda modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish lozim.

Harakatlar strategiyasi, 136-band

⁹⁷ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: TDIU. 2017 y. 96-b.

texnologiyalarni joriy etish hisobidan ko'mir qazib olishni yiliga 7,8 million tonnaga oshirish imkonini beruvchi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, ularning natijalari atroflicha muhokama qilinmoqda.

Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirish masalasini hal etish bo'yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridagi 4400 dan ortiq korxonaning rentabellik darajasini oshirish va moliyaviy sog'lomlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini yuksaltirish asosida ishchilar sonini ko'paytirishga erishish rejalashtirilgan. Bu tadbirlar natijasida korxonalarining rentabellik darajasi oshadi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi va ishchilar soni ko'payadi.

Iqtisodiyot tarkibida sanoatning rivojlanish dinamikasidagi muhim o'zgarish korxonalar va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilanish asosida sanoatda chuqur tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiyaning amalga oshirilgani hisoblanadi.

Sanoat siyosatidagi asosiy ustuvor ahamiyat institutsional islohotlarning sifatini oshirish va tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berish, sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, o'rta va uzoq muddatda sanoatni rivojlantirish bo'yicha dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan "Harakatlar strategiyasi" da yuqori texnologiyalarga asoslangan qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yana-da modernizatsiya va diversifikatsiya qilish zarurati alohida ta'kidlandi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash va sanoat tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2016-yilda 2015-yilga nisbatan 6,6 foizga o'sishini ta'minladi. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlarida dinamik rivojlanish ta'minlandi. 2016-yilda mahalliy xomashyo resurslarini bosqichma-bosqich chuqur qayta ishlash va tayyor iste'mol mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish tarmoqlari evaziga sanoat mahsulotlarining yuqori o'sish sur'atlariga erishildi. Hususan, to'qimachilik buyumlari, kiyim va charm mahsulotlari ishlab chiqarish 111,7 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari 110,8 foiz, farmatsevtika mahsuloti va preparatlari 123,9 foiz, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari 129,7 foiz, boshqa noruda meneral mahsulotlar 113,8 foizga oshdi.

Sanoatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash loyihalari, shuningdek, 2015–2019-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturining hayotga samarali tatbiq etilishi natijasida Respublika YaIMga sarflanadigan energiya sarfini 7,4 foiz, hamda yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini esa o'tgan-yilga nisbatan o'rtacha 10,6 foiz kamaytirishga erishildi.⁹⁸

Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida 2017-yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o'rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berilgan. Shu jumladan, ma'nan va jismonan eskirgan uskunalarni yangilash hamda

⁹⁸ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: TDIU. 2017-y. 112-b.

modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yo'nalishga korxonalarining mablag'lari va tijorat banklar kreditlari hisobidan 602 mlrd. so'm investitsiyalar yo'naltiriladi, bu esa mahalliy mahsulotlarning, birinchi navbatda, tashqi bozorlarda raqobatdoshligini va tarmoqlarning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, "Harakatlar strategiyasi"da iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatdosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish bo'yicha vazifalar belgilangan. Mazkur yo'nalishda avvalambor 2017-yilda ushbu sohani tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish nazarda tutiladi. Mazkur qonunda quyidagilar aks ettirilishi rejalashtirilgan:

– korxonalarining birlashishi va qo'shib olinishida monopoliyaga qarshi organning dastlabki roziligini olish talablarini bixillashtirish;

– raqobatni cheklovchi kelishuvlar, bitimlar va kelishilgan harakatlarga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish;

– ustun mavqega ega bo'lgan korxonalarining aksiya va ulushlarini sotib olishda tadbirkorlik subyektlarining hujjatlarini ko'rib chiqish tartibini soddalashtirish;

– manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish maqsadida shu'ba korxonalar tomonidan ta'sischi ustav fondidan ulush sotib olishini va shu'ba korxonalar vakillarining ta'sischi kuzatuvchilar kengashida a'ziligini taqiqlash.

Turizm tarmog'i jahon savdosining eng yirik tarmog'iga aylanib bormoqda va hozirgi kunda yer yuzidagi jami tovar va xizmatlar eksportida daromad keltirish bo'yicha ikkita yirik tarmoq – neft qazib olish va avtomobil sanoatidan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Turizm sohasi jahonda bo'ladigan jami eksportning 10 foizini beradi, xizmatlar savdosining esa 35 foizi turizmga

to'g'ri keladi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan, asrlar davomida qadimiy shaharlari bilan mashhur, tarixiy va madaniy o'tmishga ega O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun real imkoniyatlarga ega.⁹⁹

Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirishga olib keladigan o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga

O'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini, shuningdek, 2017 – 2021 yillarda Konsepsiyani amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar Dasturini ishlab chiqish.

Harakatlar strategiyasi, 138-band

asosan, shuningdek, 2017–2021-yillarda Konsepsiyani amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar Dasturini ishlab chiqish rejashtirilgan. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi turizm sohasining tezkor rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi ulushining ortishi, turistik xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, «**Turizm to'g'risida**»gi Qonunning yangi tahririni ishlab chiqish natijasida turistik sohani rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari aniqlab beriladi, mazkur sohada tadbirkorlikning keng rivojlanishiga zamin yaratiladi.

Harakatlar strategiyasiga asosan, 2017–2021-yillar oralig'ida aeroport va vokzallarda xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilash nazarda tutilmoqda. Mazkur yo'nalish xorijiy turistlarni kutib olayotgan yoki kuzatayotgan turistik faoliyat subyektlari xodimlariga belgilangan tartibda rejim va himoya choralari amal qilgan holda, maxsus ruxsatnomalar berish orqali aeroport va vokzallar zallarida hozir bo'lishiga ruxsat berish kabi chora – tadbirlarni o'z ichiga oladi

⁹⁹ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: TDIU. 2017-y. 123-b.

Turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va yangi turistik marshrutlarni yaratish, jumladan: mamlakat barcha hududining turistik imkoniyatini o'rganish va yangi turistik mahsulot va marshrutlarni shakllantirish; aholi uchun turlar va ekskursiyalar o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish; ichki marshrutlar bo'yicha yangi aviaaloqalar ochish; marketing tadqiqotlarini o'tkazish asosida hududiy va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha charter reyslarini tashkil etish maqsadida yangi turistik marshrutlarni yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini kuchaytirishga oid islohotlarni yana-da takomillashtirish bo'yicha tadbirlar Harakatlar strategiyasidan joy egallagani turistik xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlarning imkoniyatlarini yana-da kengaytiradi. Bu esa, o'z navbatida mamlakatimiz turizm sohasidagi ikkita katta muammoni hal etish, birinchidan, o'z faoliyatining barcha turlarini miqdor va sifat jihatidan kengaytirish, ikkinchidan, pulli xizmatlar ko'rsatish sohasini yana-da rivojlantirishga imkon yaratadi.

Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobidan iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirishda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish Xarakat dasturining eng muhim vazifalari qatoridan o'rin olgan.

Belgilangan ushbu vazifalarni bajarish yo'nalishida mustahkam zamin yaratilgan bo'lib, 2016-yilda mahalliyashtirish dasturi doirasida qiymati 6145,8 milliard so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi va o'sish 2015-yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobarni, import o'rnini bosish samaradorligi 2,1 milliard dollarni tashkil qildi.¹⁰⁰

Mahsulotlar raqobatdoshligini oshirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport salohiyatini yuksaltirish iqtisodiy

¹⁰⁰ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: TDIU. 2017-y. 48-b.

sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Hozirgi kunda tashqi iqtisodiy aloqalarning son va sifat jihatidan o'sishi bu jarayonlarni har tomonlama chuqur o'rganishga yana-da yuksak talablar qo'yimoqda.

Turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarining ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, valyuta-moliyaviy, xorijiy sheriklar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblangan eksportga

mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, turizmni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonlarida ma'lum bir muammolar mavjud bo'lib, ularning hal etilishi bugungi

Birinchi navbatda, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni yuqori darajada mahalliyashtirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning istiqbolli sohalarini rivojlantirish dasturini tasdiqlash.

Harakatlar strategiyasi, 144-band

kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Mamlakatimiz eksport salohiyatidan samarali foydalanish va uni kengaytirishda eksportchi korxonalarining maqsad va vazifalarini aniq belgilash, ularni amalga oshirish yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, eksport strategiyasini shakllantirish korxonalarining hozirgi paytda kuchli raqobat sharoitida o'z o'rni va mavqeni to'g'ri belgilab olishiga yordam beradi. Jahon bozorlarida raqobatning keskin tus olishi shuni ko'rsatmoqdaki, endilikda korxonalar o'z maqsad va vazifalarini belgilashda nafaqat mahsulotga bo'lgan oddiy talab va taklifdan kelib chiqishlari kerak, balki birinchi navbatda, salohiyatli iste'molchilarining ehtiyojlari, hohish-istaklari hamda maqsadlarini doimo diqqat markazda tutib, ularni chuqur o'rganishlari va shu sharoitga mos keladigan strategiyani amalga oshirishlari muhim bo'lib qolmoqda.

Oxirgi-yillar davomida diversifikatsiya qilish va iqtisodiyot sohalarining raqobatdoshligini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida jahon iqtisodiyotida inqiroz holatlari hamon saqlanib turgan va jahon bozorida narxlar darajasi pastligi mamlakatimizning asosiy eksport sohalariga ta'sirini kamaytirishga erishildi.

Yurtimiz eksportchilarining tashqi bozordagi o'rnini saqlash hamda mamlakatning salohiyatini kuchaytirish maqsadida xorijga mahsulot yetkazib berish hajmini ko'paytirish, eksport qilinadigan mahsulotlar turi va geografiasini diversifikatsiya qilish, eksport faoliyatiga yangi korxonalarni jalb etish ishlari davom ettirildi.

2016-yil davomida yana 877ta korxonalar eksport faoliyatiga jalb etildi, mahalliy mahsulotlarni chetga yetkazish geografiasini 60 ta yangi bozorga ko'paytdi. Hususan, Birlashgan Arab Amirliklari, Livan, Iordaniya, Iroq, Gana, Senegal, Kot-d'Ivuar, Somali, Nigeriyaga yengil avtomobillar, Shvetsiya, Ruminiya, Bolgariya, Turkiya, Indoneziya, Moldova va Ozarbayjonga mineral o'g'itlar, Belarus, Ozarbayjonga sport poyafzallari, Polsha va Janubiy Koreyaga charm buyumlar va boshqa mahsulotlar eksport qilindi.¹⁰¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini yana-da rivojlantirish bo'yicha kompleks choratadbirlarni amalga oshirish 2017-yilda so'zsiz hal qiluvchi faoliyat yo'nalishiga aylanishi zarur", – deb ta'kidlagani bu borada kelgusida ulkan ishlar amalga oshirilishidan darak beradi¹⁰².

Ushbu ma'ruzada davlatimiz rahbari mazkur sohaning holatiga tanqidiy baho berib, mashinasozlik kompleksida import hajmi eksportdan bir necha barobar yuqori bo'lib, mahalliyashtirish

¹⁰¹ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: TDIU. 2017-y. 89-b.

¹⁰² Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// "Xalq so'zi", 2017-yil 15-yanvar.

darajasi esa, importga nisbatan 20 foizdan kam ekanligi hamda ayni vaqtda mashinasozlik kompleksi, «O'zfarmosanoat» konserni va «O'zbekenergo» aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalarda import hajmi eksport hajmidan o'nlab marta ko'p ekanini aytib o'tdi. Shu bilan birga, «O'zqurilishmateriallari» aksiyadorlik jamiyati va «O'zbekneftgaz» kompaniyasi tizimida mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmi import miqdoriga nisbatan 25–30 foizdan oshmasligi ta'kidlab o'tildi.¹⁰³

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xarakat strategiyasidagi mamlakatimizning 2017-yil uchun dasturida eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni yuqori darajada mahalliyashtirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning istiqbolli sohalarini rivojlantirish dasturini tasdiqlash ko'zda tutilgan. Mazkur ishlarni amalga oshirish yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish va modernizatsiya qilish, raqobatdosh, eksportbop mahsulot hamda materiallarni ishlab chiqish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi.

2018–2021-yillarga mo'ljallangan eksport faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorini qabul qilish ham 2017-yildagi asosiy vazifa bo'lib unda quyidagilar nazarda tutiladi:

– yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish;

– O'zbekiston uchun savdo aloqalarini rivojlantirish borasidagi maqsadli bozorlarni aniqlash;

– tashqi bozorlar konyukturasini o'rganish asosida katta hajmdagi eksportbop tovarlarni ishlab chiqarishni yana-da rivojlantirish;

2018–2021-yillarga mo'ljallangan eksport faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish lozim.
Harakatlar strategiyasi,
143-band

¹⁰³ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: TDIU. 2017-y. 174-b.

– tashqi bozorlarni marketingga xos o‘rganish usulini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

– belgilangan bozorlarni asosiy ishtirokchilar bilan uzviy o‘zaro hamkorlik o‘rnatish orqali milliy mahsulotlar bilan ta‘minlash;

– xalqaro sifat standartlarni (ISO 9001) keng joriy etish, ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorlarda mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan tanishtirish.

Transport-kommunikatsiya tarmog‘ini modernizatsiya qilish va tranzit salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilishi mamlakatimizning xalqaro transport kommunikatsiyalariga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. 2015–2019-yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturiga muvofiq, 2016-yilda Respublika Yo‘l jamg‘armasi tomonidan 520,1 kilometr avtomobil yo‘llari qurilishi va ta‘mirlanishi yakunlandi.

Farg‘ona vodiysini mamlakatimizning boshqa hududlari bilan ishonchli tarzda bog‘lovchi, Qamchiq dovonidan 19,2 kilometr uzunlikdagi yer osti yo‘li orqali o‘tuvchi yangi Angren–Pop elektrlashtirilgan temir yo‘l tarmog‘i qurildi. Mazkur temir yo‘lning foydalanishga topshirilishi bilan mamlakatimizning barcha hududlarini qamrab oluvchi yagona temir yo‘l tizimi to‘liq yaratildi.

Toshkent–Buxoro va Buxoro–Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» yo‘lovchi elektr poezdlari qatnovi yo‘lga qo‘yildi. 291,5 kilometr uzunlikdagi Samarqand–Buxoro temiryo‘l qismini elektrlashtirish loyihasi yakunlandi. Havo kemalari parki 2 ta zamonaviy «Boeing 787–800-Dreamliner» samolyoti bilan to‘ldirildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2016-yilda yuk tashish hajmi 5 foizga, shundan avtomobil transportida 5,3 foizga, havo transportida 8,8 foizga oshdi¹⁰⁴.

¹⁰⁴ www.gov.uz/uz/news/category/1

Davlatimiz rahbari shu yil 14-yanvarda bo‘lib o‘tgan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida ta‘kidlaganlaridek, “Hayotning o‘zi va o‘tgan-yillar tajribasi hududlarni kompleks rivojlantirishni va infratuzilma faoliyatini tubdan o‘zgartirishni ta‘minlashdagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilmoqda.

Shu sababli yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha dasturlarning prognoz parametrlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazorat qilish hamda ularga erishish lozim.

Yakuniy maqsad – iqtisodiyot tarmoqlari uchun ishonchli infratuzilmani shakllantirish, shahar va qishloq aholisiga qulay shart-sharoit yaratib berishdir”¹⁰⁵.

Avtomobil yo‘llari holatini yaxshilash va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish.

*Harakatlar strategiyasi,
149-band*

Sohadagi islohotlarni yana-da chuqurlashtirishda davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “Harakatlar strategiyasi” muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturining asosiy maqsadi – ushbu vazifalarni amalga oshirishdir. Unga muvofiq milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish uchun yo‘l-transport infratuzilmasini yana-da rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar rejalashtirilgan.

¹⁰⁵ Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.// Xalq so‘zi, 2017-yil 15-yanvar.

7.2.1-jadval

Avtomobil yo'llari holatini yaxshilash va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish tadbirlari¹⁰⁶

Amalga oshiriladigan tadbir	Bajarish muddati	Sarf-xarajatlar (mln. so'm)
«Talgo-250» rusumidagi 2 ta yuqori tezlikdagi yo'lovchi poezdini sotib olish loyihagini amalga oshirish	2017-yil 1-yarmi	42,0 mln.doll.
Qarshi-Termiz temir yo'l tarmog'ini elektrlashtirish	Yil davomida	160,3 mln.doll.
Buxoro-Miskin yangi temir yo'l tarmog'ini qurish	Yil davomida	143,0 mln.doll.
Pop-Namangan-Andijon temir yo'l tarmog'ini elektrlashtirish	2017–2019-yillar	18,0 mln.doll.
Temir yo'llarni qayta tiklash	2017–2019-yillar	51,1 mln.doll.
Yo'lovchi vagonlar tarkibini yangilash	2017–2019-yillar	8,1 mln.doll.
Toshkent shahar aeroporti yangi xalqaro yo'lovchi terminalini (Toshkent-4) qurish loyihagini amalga oshirish	2017–2019-yillar	jami - 343,6 mln.doll., shundan, 2017 yilda - 152,9 mln. doll.

Avtomobil yo'llari holatini yaxshilash va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida investitsiya dasturi doirasida Respublika yo'l jamg'armasining 1550000 million so'm mablag'lari o'zlashtirilishi qo'zda tutilgan bo'lib, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

– umumiy foydalanishdagi xalqaro, Respublika va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish;

– xo'jaliklararo avtomobil yo'llarini ta'mirlash;

– shahar ko'chalari, aholi punktlariga kirish va ichki yo'llarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash;

¹⁰⁶ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. –T.: TDIU. 2017-y. 124-b.

– yo'l xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash;

– qurilish materiallarining innovatsion turlaridan hamda zamonaviy ilg'or texnologiyalar va usullardan foydalangan holda, avtomobil yo'llari sifatini yaxshilashni belgilovchi standartlarni takomillashtirish.

Dasturning maqsadi – aholi farovonligi va hayot sifatini yanada oshirishdir. Mamlakatimizda transport kommunikatsiyalari, zamonaviy telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish, muhandislik-infratuzilma obyektlarini barpo etish bo'yicha izchil chora-tadbirlar rejalashtirilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish doirasida 2017-yilda axborot texnologiyalari vazirligi tomonidan mamlakatimiz hududlarida 2300 kilometr optik tolali aloqa tarmoqlarini qurishga 5,7 million dollar mablag' jalb etiladi. Buning natijasida mamlakatimiz aholisining yuqori tezlikda Internetga ulanishi, multimedia va IP-TV xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi.

2017–2018-yillar davomida "O'zbektelekom" kompaniyasi mablag'lari, xorijiy investorlar kreditlari hisobidan kommutatsiya markazlarini IMS texnologiyasi

Respublika hududlarida mobil aloqa operatorlarining 1843 ta tayanch stansiyalarini o'rnatish.
Harakatlar strategiyasi, 159-band

asosida modernizatsiya qilishga 44,7 million dollar investitsiyalar kiritish rejalashtirilgan bo'lib, uning amalga oshirilishi shaharlararo avtomatik telefon stansiyalar sig'imini 17152 ta E1 portga oshirilishiga yordam beradi.

Mobil aloqa operatorlarining tarmoqlari qamrovi hududlarini kengaytirishga erishish maqsadida «O'zbektelekom» AK va mobil aloqa operatorlari tomonidan 115,2 million dollar mablag' evaziga 1843 ta tayanch stansiya o'rnatish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

Dastur doirasida 2017-yilda mamlakatimiz aholisini, shu jumladan, tog'li va borish qiyin bo'lgan hududlardagi aholini raqamli televidenie bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Bu maqsadlar uchun Yaponiya xalqaro hamkorlik banki va Yaponiya tijorat banklari mablag'lari hisobidan 62,5 million dollar jalb etiladi va mamlakatimiz hududlarida 66 ta yuqori quvvatli va 328 ta kam quvvatli raqamli televidenie uzatgichlari o'rnatiladi va ishga tushiriladi.

Keyingi yillarda qishloq joylarda aholi uchun namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylar qurish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. 2009-2016-yillarda qishloq joylarda 1308 turar-joy massivida umumiy maydoni 9 573 ming kvadrat metr bo'lgan 69 557 ta shinam uy-joy qurildi. Qishloqlardagi 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi.¹⁰⁷

Shu bilan birga, ushbu sohani o'rganish aholining real ehtiyojlari va xarid qobiliyatini, shuningdek, milliy mentalitetni va qishloq joylarda yashash sharoitlarining xususiyatlarini to'liq hisobga olib, qurilish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Davlatimiz rahbari 2017-yil 14-yanvarda bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida kapital qurilish sohasida kechiktirib bo'lmaydigan bir qator o'ta muhim vazifalar bor deb ta'kidladi. Ular orasida Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tizimini tubdan qayta tashkil etish, shaharsozlikning eskirgan metodologiya va normativlari, kapital qurilishdagi nomutanosiblik va muammolarni bartaraf etish, shuningdek, loyiha institutlarining samarasiz faoliyatini qayta ko'rib chiqish masalalarining dolzarbligiga alohida etibor qaratildi¹⁰⁸.

¹⁰⁷ 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: TDIU. 2017-y. 136-b.

¹⁰⁸ Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// Xalq so'zi, 2017-yil 15-yanvar.

Prezidentimiz tomonidan ayrim kamchiliklar keltirilib, "shaharsozlikni takomillashtirish bo'yicha bir qator hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi nazoratsiz qolgani, 2012–2015-yillarda ishlab chiqilgan 18 ta shahar va posyolkaning bosh rejaları haligacha tasdiqlanmagan"ligi ta'kidlab o'tildi.

Shu bois harakatlar strategiyasida kapital qurilishdagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilgan. Dasturda 2017-yil davomida bozor sharoitida erkin faoliyat yurita oladigan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har qanday turdagi loyiha ishlarida qatnashishga imkon beruvchi ustav va aylanma kapitaliga ega bo'lgan qurilish va loyiha korxonalarini tashkil etish va mavjudlarini rivojlantirishga, sohada zamonaviy bozor munosabatlarini yaratishga qaratilgan «Kapital qurilishni yana-da takomillashtirish va qurilish materiallari sohasida qulay muhitni yaratish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining qabul qilish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonini qabul qilinishi tufayli amalga oshiriladigan ishlar natijalari quyidagilarda aks yetadi:

- kapital qurilish sohasidagi normativ bazani bozor munosabatlarini joriy etishni nazarda tutuvchi xalqaro standartlarga muvofiq qayta ko'rib chiqish;

- loyihalash va qurilish tashkilotlariga moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun hamda yangi qurilish texnologiyalarini joriy etishga yo'naltirilgan soliq va boshqa turdagi imtiyoz va engilliklar berish;

- milliy loyihalash va qurilish tashkilotlarining tashqi bozorlarga kirib borishga keng jalb etishni ta'minlovchi kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

- loyihalarni ekspertiza qilish tizimini takomillashtirish;

- loyihalarni moliyalashtirishning turli zamonaviy usullarini va boshqa moliyaviy vositalarini joriy etish;

- pudrat tashkilotlarida mavjud bo'lgan mutaxassislarni saqlab qolish, malakali kadrlarni jalb etish imkonini beradigan sharoitlarni yaratish;

– qurilish sohasidagi oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish;

– loyihalash va qurilish tashkilotlari assotsiatsiyalarini tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda iqtisodiyotning alohida olingan yo‘nalishlari emas, balki uning barcha soha va tarmoqlarini kompleks rivojlantirish zarur bo‘ladi. Bunda asosiy e‘tiborni iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga qaratish lozim. Chunki jahon bozori konyunkturasi o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lib, shunga mos tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hamda iqtisodiyot tarkibini shunga monand ravishda o‘zgartirib turish maqsadga muvofiqdir.

7.3. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning o‘rni va roli

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fan-texnika taraqqiyoti (FTT) va uning natijasida yuzaga kelgan innovatsion siljishlarning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, ilm-fan taraqqiyotisiz hech qanday innovatsiya ham, modernizatsiya va diversifikatsiyalash jarayonlari ham amalga oshmaydi.

Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi eng asosiy omillardan biri bo‘lgan = fan texnika taraqqiyoti (FTT) juda murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. U ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy hayotning hamma tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Shu sababli ham fan-texnika taraqqiyoti doimo harakatda va rivojlanishda bo‘ladi.

Shuning uchun ham mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental

laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish”¹⁰⁹ masalalari alohida belgilab qo‘yilgan.

Fan-texnika taraqqiyotining asosini ilmiy bilimlar tashkil yetadi. Ilm va bilim asosida yangi texnika va texnologiya yaratiladi, eskilari esa takomillashadi.

Fan-texnika taraqqiyoti – ishlab chiqarishning yangidan-yangi vosita va predmetlari, yoqilg‘i va energiya, texnologik jarayon, boshqarish, mehnatni texnik jihatdan qurollantirish kabilarning zamonaviy usullarini yaratishni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishlovchilarning umumiy ma’lumoti, mahoratini uzluksiz, tizimli ravishda rivojlantirish va takomillashtirish ham fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Fan-texnika taraqqiyotining vazifasi quyidagilardan iborat:

– tejamkorlikni amalga oshirish (vaqt, xomashyo va materiallar, yonilg‘i, elektr energiyasi va h.k. larni tejash);

– ishlab chiqarish jarayonlarini osonlashtirish, mehnatni engil-lashtirish;

– mehnatning mazmuni va xarakterini o‘zgartirish;

– ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini yana-da yuqori darajaga ko‘tarish.

Fan texnika taraqqiyoti va uning natijasida yuzaga keladigan innovatsion g‘oyalar mamlakatda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot natijalari hamda ularning amaliyotga joriy qilinganlik darajasiga bog‘liq. Ilmiy tadqiqot faoliyati bilan esa tegishli ta’lim muassasalari, ilmiy tekshirish va ilmiy-tadqiqot institutlari, turli xildagi ixtisoslashtirilgan markazlar va hokazolar shug‘ullanishi hech kimga sir emas. Masalan, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida ilmiy tadqiqot faoliyatlarining takomillashganligi va ular natijalaridan amaliyotda samarali

¹⁰⁹ “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy

foydalanilishi tufayli ishlab chiqarish sohasi bo'yicha "Innovatsion faol korxonalar" sanoatdagi barcha korxonalarining 1/3 qismini tashkil qiladi. Bu juda katta ko'rsatkich hisoblanadi va bunday natijaga ular faqatgina FTTni jadallashtirish hisobiga erishganligi hammaga ma'lum.

Shu sababli mamlakatda fan texnika taraqqiyoti darajasini yuksaltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-iyuldagi PF-4456 sonli Farmoniga asosan dissertatsiya himoya qilish va fan doktori ilmiy darajasini berish bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimi joriy qilindi, bu katta ilmiy xodim izlanuvchilar sonining ortishiga ham sabab bo'ldi. Hususan, ushbu muassasalarda doktorant sifatida o'qiyotganlar soni 2016-yilda 2000-yildagi sonidan 4 barobardan ortiqroqqa oshdi va 334 nafardan 1370 nafargacha yetdi. (7.3.1-jadval)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958 sonli Farmoniga binoan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimining sifati va samaradorligini tubdan oshirish, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasini yana-da takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali shakli dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi "tayanch doktorantura" va dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi "doktorantura" tizimi joriy qilindi. Buning natijasida oxirgi yillarda mamlakatimizda ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanadigan izlanuvchilar safi kengaydi. (7.3.1-jadval)

7.3.1-jadval

Doktoranturada o'qiydiganlarning fan sohalari bo'yicha dinamikasi (2000–2016-yillar)¹¹⁰

	2000y.	2005y.	2010y.	2016y.
Jami	334	183	217	1370
<i>shu jumladan fanlar bo'yicha:</i>				
tabiiy fanlar	82	51	50	309
texnika fanlari	26	12	21	167
tibbiyot fanlari	83	45	30	113
qishloq xo'jaligi fanlari	11	8	10	154
ijtimoiy fanlar	93	47	70	348
gumanitar fanlar	39	20	36	279

Jadval ma'lumotlaridan so'nggi yillarda fan sohalari bo'yicha doktorantlar soni yuqori sur'atda o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2000–2016-yillarda doktorantlar sonining eng ko'p ortishi qishloq xo'jaligi fanlari (2016-yilda 2000-yilga nisbatan 14 barobarga oshgan), gumanitar fanlar (7,2 barobar) va texnika fanlari (6,4 barobar) hissasiga to'g'ri keldi.

Respublikada ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan shug'ullanayotgan olimlar ishlanmalarini amaliyotga joriy qilish natijasida mamlakatda yangidan-yangi tovar va xizmatlar turlari yaratilmoqda. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga tadqiqotlar yoki amaliy tajribalar natijasida olingan va yangi material, mahsulot, jarayon, qurilma, xizmat, tizim yoki usullarni yaratishga yo'naltirilgan mavjud bilimlarga asoslangan tizimli ravishda amalga oshiriladigan ishlar kiradi. Ishlanmalar tarkibida konstruktorlik, loyihaviy va texnologik ishlar o'z aksini topadi.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar soni 2016-yilda 2000-yilga nisbatan 19 taga ko'paydi va 437 tani tashkil yetdi. Ular tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari

¹¹⁰ <https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2035-ilm-va-fan>

hajmi 2016-yilda 396 mlrd. soʻmga yetdi va 2000-yilga nisbatan 37 barobarga oshdi.

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini amalga oshirish muayyan darajada xarajat talab qiladi. Respublikamizda ushbu sohaga sarflanayotgan xarajatlar tegishli sektorlar boʻyicha amalga oshirilmoqda. (7.3.2-jadval)

7.3.2-jadval

2016-yilda fan sohalari boʻyicha sektorlar kesimida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar, mln.soʻm¹¹¹

	Jami	Shu jumladan:					
		tabiiy fanlar	texnika fanlari	tibbiyot fanlari	qishloq xoʻjaligi fanlari	ijtimoiy fanlar	gumanitar fanlar
Jami	440285,2	143634,3	154625,7	28737,3	36706,1	47288,8	29293,1
shu jumladan:							
davlat sektori	178812,9	83044,5	21871,8	15171,9	26481	15161,2	17082,5
tadbirkorlik sektori	173622,6	42930,8	111779,5	6199,3	5334	6929,1	449,9
oliy taʼlim sektori	82424,6	17659	18683,3	7254,8	4891	22427,8	11508,5
hususiy notijorat sektor	5425,1	-	2291,0	111,2	-	2770,7	252,2

7.3.2-jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki, 2016-yilda davlat sektoriga tegishli tashkilotlarda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga qilingan xarajatlarning asosiy qismi tabiiy fanlar hissasiga (jami xarajatlarning 46,4 foizi), tadbirkorlik sektorida texnika fanlari hissasiga (64,4 foiz), oliy taʼlim hamda xususiy notijorat sektorlarida ijtimoiy fanlar hissasiga (mos ravishda 27,2 va 51,1 foiz) toʻgʻri keladi. Bu ularning manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshganligini bildiradi.

¹¹¹ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2035-ilm-va-fan>

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga qilinadigan xarajatlarning asosiy qismi har doim davlat mablagʻlari hisobiga amalga oshirilishi hech kimga sir emas. Lekin Respublikamizda ushbu sohaga sarflanayotgan xarajatlarda nafaqat davlat byudjeti, balki boshqa manbalardan ham samarali foydalanilmoqda. (7.3.3-jadval)

7.3.3-jadval

Oʻz kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga xarajatlarni moliyalashtirish manbalari (2000-2016-yillar)¹¹²

	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2016 y.
Oʻz kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga xarajatlar, mln.soʻm	11210,5	36448,1	116121,7	428485,5
<i>shu jumladan:</i>				
jami davlat byudjeti mablagʻlari	4444,1	16307,8	70457,9	247220,2
byudjetdan tashqari fondlar mablagʻlar	166,0	2365,2	5824,6	18084,9
oʻz mablagʻlari	1594,1	6273,8	12409,8	95424,1
buyurtmachi mablagʻlari	4962,8	11289,4	24553,3	64188,9
xorijiy manbalar mablagʻlari	46,5	211,9	2876,1	3567,4

Soʻnggi oʻn yetti yil mobaynida Respublikamizda ilmiy muassasalar tomonidan oʻz kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish manbasi tarkibida jiddiy oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Hususan, 2000-yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishga asosan buyurtmachi mablagʻlari (jami xarajatlarning 44,3 foizi) jalb qilingan boʻlsa, soʻnggi yillarda ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda koʻproq davlat byudjeti mablagʻlari (57,7 foizi) va oʻz mablagʻlaridan (22,3 foizi) foydalanilmoqda. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda xorijiy manbalar va byudjetdan tashqari fondlar mablagʻlaridan foydalanish ham sezilarli ortgan.

¹¹² <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2035-ilm-va-fan>

FTT natijasida innovatsion iqtisodiyot shakllanadi va rivojlanadi. Hozirgi zamonaviy sharoitda mamlakat YaIM hajmining oshishini innovatsiyalarsiz tasavvur qilish mushkul. Innovatsiya, qisqacha qilib aytganda, iqtisodiy-ijtimoiy hayotga yangiliklar kiritish va mavjudlarini yana-da takomillashtirishdir.

Innovatsiyalar agar mikro darajada qaraladigan bo'lsa, ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologik jarayonlar asosida ta'minlash evaziga bozorlarga chiqish, yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini yaratish, yangi xomashyolardan foydalanish, ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan ta'minlash va yangi iste'mol bozorlarini ochishdir.

Makro darajada innovatsiya – bu ilm, texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni o'zida birlashtiruvchi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga qaratilgan faoliyatdir. Milliy korxonalarining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning innovatsion salohiyatiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham hozirgi kunda mamlakatimizda innovatsion infratuzilmalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichi mamlakatda YaIM hajmini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion infratuzilmani samarali rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish bilan belgilanadi.

Xorijiy mamlakatlarda raqobatdosh va arzon ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni mamlakatimizga kirib kelishi mutaxassis va yetakchi olimlardan Respublikamizda mavjud bo'lgan sanoat korxonalarini rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga doir ilmiy asoslangan qirralarini ochib berishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shularni hisobga olib mazkur sohadagi ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratgan holda, innovatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi jadvalda keltirilgandek, turkumlashimiz mumkin. Chunki mazkur omillarni har tomonlama tadqiq etish korxonalarda raqobatdosh yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan innovatsion jarayonlarni boshqarishning samarali yo'llarini ilmiy asoslash hisobiga ish yuritish faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. (7.3.4-jadval)

7.3.4-jadval

Innovatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Omillar	Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar	Innovatsion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi omillar
Siyosiy	Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati, erkin iqtisodiyotni shakllanishi, milliy innovatsion tizimning rivojlanishi	Tadbirkorlik faoliyatidagi byurokratik to'siqlar, hususiy mulkchilikning davlat tomonidan kafolatlanish tizimining to'la shakllanmaganligi, siyosiy beqarorlik
Huquqiy	Intellektual mulk ob'ektlarini himoya qilish tizimi, mualliflik huquqlarini himoya qilinganlik darajasi	Patent va litsenziya berish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlaridagi kamchiliklar
Iqtisodiy	Innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ektlarni rag'batlantirish	Innovatsion bozorlarda raqobatning keskinlashuvi, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda iqtisodiy tavakkalchilik va xavfning yuqoriligi
Texnologik	Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy-texnik yutuqlarga erishish, yuqori texnologiyani joriy qilish	Moddiy, ilmiy-texnik va zamonaviy laboratoriya jihozlarining etishmasligi, korxonalarda asosiy vositalarning ma'naviy eskirganligi
Moliyaviy	Fundamental, amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar yoki eksperimentalishlarni moliyalashtirish tizimining samarasi	Yirik investitsion loyihalarni amalga oshirilishining kechikishi, innovatsion infratuzilmani shakllantirish jarayonining sustligi
Tashkiliy	Mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnik salohiyatini oshirish chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish	Fan, texnika, iqtisodiyot, biznes va boshqaruvni birlashtiruvchi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlarini sustligi, ilmtalab tarmoqlar uchun mutaxassislarni tezkor tayyorlashni ta'minlovchi yangi dasturlarning etishmasligi
Boshqaruv	Innovatsion, motivatsion, iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy qismlarni o'z ichiga olgan milliy, hududiy hamda iqtisodiyotning ustuvor sohalarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish	Innovatsion menejment ixtisosligi bo'yicha kadrlarni tayyorlash va ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga tatbiq etishdagi muammolar
Ijtimoiy	Ta'lim muassasasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarish talablari va jamiyatning rivojlanish darajasiga javob beruvchi, sifatli kadrlarni tayyorlash	Jamiyatda ilg'or g'oyalarni shakllantirish hamda fan va texnikaning rivojlanishini zamon talablariga uyg'unlashtiradigan vositalar hamda globalizatsiya jarayonlariga moslashtirishdagi muammolar

Innovatsion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi va rivojlanishiga sharoit yaratuvchi omillarni o'rganish mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni yana-da jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan innovatsion siyosatni olib borish bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan samarali strategik maqsadlarni belgilab olishga yordam beradi.

Respublikada biznes subyektlarining innovatsion faoliyati rivojlanish darajasini yuksaltirish uchun iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashning strategik maqsadlariga mos ravishda yaqin-yillar ichida zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda O'zbekistonda eng muhim iqtisodiy masalalardan biri milliy iqtisodiyotni innovatsion yo'l bilan rivojlantirishga o'tish hisoblanadi. Jahon tajribasiga ko'ra, yangi texnologiyalarning rivojlanishi hamda tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi bozorlaridagi raqobatning kuchayishi milliy korxonalarda innovatsion faoliyatni yana-da kuchaytirish va uni samarali tashkil etishga qaratilmoqda. Bu esa aholining tez o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, zamonaviy kashfiyot, ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlar hayotiylik davrining barqaror o'sib borishini ta'minlovchi innovatsion usullardan keng ko'lamda foydalanishni taqozo etmoqda. Ushbu holat bozor islohotlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishini, milliy korxonalarining iqtisodiy taraqqiyotini moddiy resurslar asosida emas, balki innovatsion g'oyalarni amalga oshirilishini obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Bu esa Respublika sanoat korxonalarini texnologik yangilash bilan bir qatorda, innovatsion faoliyatini yana-da jadallashtirishni taqozo etmoqda. Bu tendensiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham, bozor islohotlari yaqinda amalga oshirilayotgan mamlakatlarda ham keng namoyon bo'lmoqda. Natijada Fransiyaning "Inssad" xalqaro biznes maktabining jahon

intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlagan "Innovatsiyalarning global indeksi" ma'ruzasida innovatsion rivojlanish kompleksi tahlil qilingan 141 mamlakat ichida O'zbekiston inson kapitalini rivojlantirish ko'rsatkichi bo'yicha 35-o'rinni egallagan, ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha esa ikkinchi o'rinni band etgan¹¹³.

Respublika iqtisodiyotining yaqin va o'rta istiqboldagi innovatsion rivojlanishidagi prognoz qilingan ko'rsatkichlari ikki davr; 2012–2015 va 2016–2020-yillarda quyidagicha o'sishi ko'zda tutiladi (2010-yilga taqqoslaganda):

- ilmiy texnik ishlanmalarga xarajatlarning YaIM dagi ulushi 5 va 15 barobar yoki 1,0 va 3,0 %gacha;
- YaIM umumiy hajmida yuqori texnologik tarmoqlar ulushi 1,3 va 2,7 marta yoki 15,0 va 31 %gacha;
- mahsulot hajmida innovatsion faoliyatga xarajatlar ulushi 7,0 va 12,5 barobar yoki 2,8 va 5,0 gacha;
- umumiy eksport hajmida innovatsion mahsulotlar eksporti ulushi 2,6 va 4,9 marta yoki 15,0 va 28,0 %gacha;
- YaIM da innovatsion mahsulotlar ulushi 5,1 va 7,6 barobar yoki 15,0 va 22,0 gacha.

Ayni vaqtda yuqori darajadagi innovatsion taraqqiyotga erishish bunday faoliyat rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy milliy innovatsion tizim amal qilishini taqozo yetadi. Bunday tizim tashkiliy, huquqiy, tarkibiy va funksional tuzilmalardan iborat bo'ladi.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni tizimli hal qilish, zamonaviy milliy innovatsion tizimni shakllantirish, fan, ta'lim, ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish va yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish bo'yicha nisbiy ustunlikni o'stirib borish hisobiga iqtisodiyotning raqobatbardoshlik salohiyatini sezilarli kengaytirish hamda shu asosda YaIM hajmining

¹¹³ XV F baholash missiyasining bayonoti.

ko'payishi va xalq farovonligini oshirishning yangi manbalarini izlab topish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Ushbu masalalarni hal qilishda asosiy e'tibor mamlakatimizda amaliyotga joriy qilingan innovatsiyalarga beriladi. Respublikamizda oxirgi yillarda turli xil sohalarida innovatsiyalar yaratilib, amaliyotga joriy qilindi va ular o'z samarasini bermoqda. Buning natijasida yangidan-yangi tovar va xizmatlar turlari yaratilmoqda. (7.3.5-jadval)

7.3.5-jadval

Respublikada amaliyotga joriy qilingan innovatsiyalar soni (2016-yil)¹¹⁴


	Jami	Shu jumladan tadqiq qilinganlar:				
		o'z kuchi bilan	boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda	ulardan:		boshqa tashkilotlar tomonidan
				ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda	oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda	
Texnologik innovatsiyalar	1816	1523	117	41	5	176
shu jumladan:						
mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar	1118	973	73	15	4	72
jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar	698	550	44	26	1	104
Marketing innovatsiyalar	51	39	-	-	-	12
Tashkiliy innovatsiyalar	39	29	-	-	-	10

7.3.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2016-yilda 893 ta korxonalar va tashkilotlar tomonidan 1816 turdagi texnologik innovatsiya joriy etildi. Joriy qilingan texnologik innovatsiyalarning

¹¹⁴ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2038-innovatsion-faoliyat>

44 foizi (799 tasi) kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi. Bu mamlakatimizda tadbirkorlik sektorida innovatsion tovar va xizmatlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va bunda davlatning rag'batlantiruvchi roli naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Respublikada oxirgi yillarda innovatsion g'oyalarning amaliyotda qo'llanilishi va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida Respublika YaIM tarkibida innovatsion tovar va xizmatlar hajmi ortib bormoqda. Bunda asosan o'z kuchi bilan innovatsion tovar va xizmatlar taklif qilayotgan korxonalar yetakchilik qilmoqda. (7.3.1-rasm)




7.3.1-rasm: O'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni (2010-2016-yillar)¹¹⁵

Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni 2010-yildan 2016-yilga qadar 8 barobarga ko'payib, 289 tadan 2374 taga yetdi. Jumladan, birinchi marta innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishni o'zlashtirgan korxonalar soni 696 taga, oxirgi ikki yil davomida

¹¹⁵ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2038-innovatsion-faoliyat>

o'zlashtirilgan korxonalar 1240 taga, oxirgi uch yil davomida o'zlashtirilgan korxonalar esa 400 taga ko'paydi.

Innovatsion tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning rentabellik darajasi ancha yuqori, ya'ni ularga sarflangan xarajat va daromadlar o'rtasidagi nisbatda ijobiy farq katta bo'ladi. shu o'rinda ta'kidlash joizki, Respublikamizda innovatsion tovar va xizmatlar yaratish uchun qilingan sarf xarajatlar oxirgi yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'ldi. (7.3.2-rasm)



7.3.2-rasm: Innovatsion tovarlar va xizmatlar hajmi hamda ularga sarflangan xarajatlar dinamikasi (2010-2016-yillar)¹¹⁶

Innovatsion tovar va xizmatlar hajmi 2016-yilda 10688,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich 2015-yilga nisbatan 1,3 barobar, 2008-yilga nisbatan 8 barobarga ko'paygan. Innovatsiyalarga xarajatlar 2008-yilga nisbatan 5 barobarga ko'paygan bo'lsa, 2015-yilga nisbatan 53 foizga kamaygan.

Innovatsion tovar va xizmatlarni yaratish uchun texnologik, marketing va tashkiliy ishlarga qilingan xarajatlar turli xil man-

¹¹⁶ <https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2038-innovatsion-faoliyat>

balardan sarflandi. Oxirgi yillarda ularning ichida eng katta ulush korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lariga to'g'ri kelganligi kuzatildi. Bundan tashqari, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun xorijiy kapital, tijorat banklari kreditlari va boshqa manbalardan ham samarali foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin. (7.3.6-jadval)

7.3.6-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd.so'm (2010-2016-yillar)¹¹⁷

	2010y.	2011y.	2012y.	2013y.	2014y.	2015y.	2016y.
Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	264,4	372,6	311,9	4634,2	3757,4	5528,3	2571,4
<i>shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i>							
tashkilotning o'z mablag'lari	184,3	263,2	213,4	2501,5	1381,5	1251,8	1180,0
xorijiy kapital	48,3	24,9	39,9	1228,7	32,3	156,6	314,9
tijorat banklari kreditlari	30,0	63,7	26,8	533,5	262,5	280,1	157,3
boshqa mablag'lar	1,8	20,9	31,7	370,6	2081,0	3839,7	919,1

7.3.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010-yilda innovatsiyalar asosan tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan (69,7 foizi) moliyalashtirilgan. 2014-yildan boshqa mablag'lar hissasi (55,4 foiz) oshgan. 2016-yilda tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish 2010-yilga nisbatan 6,4 barobar oshgan.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasidagi ilmiy yondashuvlarning tahlili, ilg'or xorijiy tajribalar hamda mazkur sohaga

¹¹⁷ <https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2038-innovatsion-faoliyat>

oid ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi rivojlangan innovasion infratuzilma mavjudligi orqali ta'minlanishi ilmiy asoslangan. Demak, hozirgi milliy iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida innovasion faoliyat barcha elementlarining shakllanishi va samarali o'zaro ta'siri davlat innovasion siyosatining asosiy maqsadi bo'lishini talab etmoqda.

Tahlillarga ko'ra, innovatsion faoliyat rivojlanishining samarali yo'llarini izlab topish bevosita YaIM hajmini ko'paytirish, ishlab chiqarish samaradorligi, jamiyat va uning a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish, hayot shart-sharoitlarining sifatini ta'minlash imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Milliy korxonalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va ularga xizmat qiladigan innovatsiya infratuzilmalarini shakllantirishga qaratilgan davlat siyosatining amalga oshirilishi mamlakatimizda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamining asta-sekin kengayishi hamda milliy korxonalar raqobatbardoshligining oshishiga sharoit yaratmoqda. Bu esa, mamlakatimizda innovatsiya infratuzilmalarini shakllantirish va ularni samarali boshqarishni talab yetadi. Chunki innovatsiya infratuzilmasini shakllantirish evaziga jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda innovatsion iqtisodiyot shakllanishiga zamin yaratilsa, ikkinchidan, Respublikaning intellektual salohiyatining yaxshilanishi va YaIM tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushining ko'payishiga olib keladi. Natijada ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar joriy etish, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish va mahsulot sifatini oshirish hamda uning raqobatbardoshligini ta'minlashga doir vazifalar hal etiladi.

Bu borada, ya'ni mamlakatda innovatsion infratuzilmalarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-iyuldagi "Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash

va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida"gi, 2006-yil 7-avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2008-yil 15-iyuldagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2011-yil 24-maydagi "O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-iyuldagi "Ilm-fanni rivojlantirish va innovatsiya faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida"gi, 1998-yil 19-yanvardagi "Xalqaro ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishni, xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg'armalar grantlari bo'yicha ilmiy dasturlar va loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi, 2004-yil 7-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ilmiy va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2008-yil 10-noyabrdagi "Ilmiy, ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari shular jumlasidandir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 26-dekabrda "2017-2019-yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori nafaqat mahalliyashtirish ko'lamini, balki innovatsion faoliyatni ham yana-da kengaytirishga xizmat qilmoqda. Qaror bilan tasdiqlangan dasturga muvofiq, kelgusi ikki-yilda mamlakatimizda 3 milliard 400 million dollarlik qariyb 1150 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan. So'nggi uch-yilda ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hisobiga shaxta vagonetkalari, vakuum nasoslar, ko'tarma kranlar, har xil turdagi o'tga va kislotaga chidamli materiallar, qurilish

jihozlari, sendvich panellar, sun'iy sintetik gazonlar, shisha bankalar, butilkalar, kraxmal, non mahsulotlari uchun achitqilar singari yuz turdan ortiq tovarlar ishlab chiqarildi. Maishiy elektrotexnika mahsulotlari, avtomobil filtr va radiatorlari, po'lat quvurlar, keramik plitalar, tibbiyot ampulalari, poligrafik bo'yoqlar, bolalar o'yinchoqlari, sport anjomlari kabi 350 dan ortiq turdagi mahsulotni chetdan keltirish ikki baravardan ziyodga kamaygan. Joriy-yilda 960 ta loyihani amalga oshirish hisobiga 6 trillion 500 milliard so'mga yaqin mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi belgilangan. 122 turdagi o'zlashtirishga taklif etilgan mahsulotlar aniqlangan. Mahsulotlar importini qisqartirishning qo'shimcha rezervlarini o'rganish jarayoni joriy-yilda tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hamda import o'rnini bosadigan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil qilish hisobiga importni qo'shimcha 23 foizga qisqartirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini mazkur jarayonga faol jalb etish maqsadida Iqtisodiyot vazirligi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda mamlakatimizning barcha hududlari imkoniyatlari tahlil etildi. Natijada yillik ishlab chiqarish hajmi 900 milliard so'mlik 400 dan ortiq qo'shimcha innovatsion loyiha aniqlandi.¹¹⁸

Biz Yuqorida Respublikada FTT va uning natijasida innovatsiyalarning rivojlanish tendensiyalarini ko'rib chiqdik. Albatta mamlakatda ushbu sohada juda katta ishlar amalga oshirildi. Lekin shu bilan birgalikda, tadqiqotlar jarayonida Respublikada innovatsion muhitni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi:

– innovatsion infratuzilmaning alohida tarkiblari, innovatsion tadbirkorlik va mustaqil innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashning maxsus moliyaviy mexanizmi mavjud emasligi;

– fan va texnologiyalarni rivojlantirishning davlat tomonidan aniqlangan ustuvor yo'nalishlarini ro'yobga chiqarishning haqiqiy mexanizmi qaror topmaganligi;

– ijro hokimligining alohida organlari moliyalashtiradigan innovatsion ishlarni samarali uyg'unlashtirish imkoniyatlari cheklanganligi;

– ilmiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida kooperatsiya aloqalarining rivojlanmaganligi;

– respublikadagi yetakchi sanoat korxonalari innovatsion faolligi pastligi, ya'ni innovatsion salohiyati kamligi, faoliyatini kengaytirish uchun aylanma mablag'lar yetishmasligi, yangi ishlanmalar yuqori qiymati, iqtisodiy tahlika va qoplashning uzoq muddati;

– innovatsion sohalarning informatsion jozibadorligi, kichik innovatsion tadbirkorlik rivojlanish darajasi, aholi va tadbirkorlar innovatsion madaniyati pastligi.

Fikrimizcha, Yuqorida qayd etilgan muammolarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha hal qilish mumkin.

– YaIM tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushini o'stirish uchun fundamental fanlarni rivojlantirishni rag'batlantirish tizimini jadallashtirish;

– innovatsion hamkorlik bo'yicha maxsus zonalar yaratish;

– texnologik modernizatsiyalash asosida zamonaviy, yuqori texnologik tarmoqlarni jadal rivojlantirish, milliy innovatsion tizim infratuzilmasini yaratish va takomillashtirish;

– xizmat ko'rsatish va ijtimoiy sohalarni innovatsion rivojlantirish, milliy tovar ishlab chiqaruvchilar innovatsion mahsulotini tashqi bozorga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish;

– ilmiy tadqiqot, ta'lim va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga byudjetdan moliyalashtiriladigan sarflar hajmini ulardan samarali foydalanish talabini hisobga olib bosqichma-bosqich o'stirib borish;

¹¹⁸ <http://uza.uz/uz/business/ma-alliyashtirish-imkoniyatlari-va-isti-bollari-14-03-2017>

– moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb qilish va ko‘lami investitsion loyihalarini ishlab chiqishga layoqatli yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarni vujudga keltirish siyosatini ishlab chiqish;

– innovatsion mahsulotga ichki talabni faollashtirish, innovatsion modernizatsiyalashni rag‘batlantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga tabaqalashgan yondashuvni ro‘yobga chiqarish;

– ta‘lim sifatini oshirish, innovatsion ixtisosliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni ta‘minlash.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashda fan-texnika taraqqiyoti va uning natijasida yuzaga kelgan innovatsion yangiliklar, tovar va xizmatlar juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida ilmiy tadqiqot faoliyatlarining takomillashganligi va ular natijalaridan amaliyotda samarali foydalanilishi tufayli ishlab chiqarish sohasi bo‘yicha “Innovatsion faol korxonalar” sanoatdagi barcha korxonalarining juda katta qismini tashkil qiladi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar tajribasi va Respublikaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu sohaning rivojlanishiga keng yo‘l ochib berish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga molik bo‘lgan masalalardan hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar.

Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, tarkibiy o‘zgarishlar, modernizatsiya, diversifikatsiya, investitsiyalar, investitsion muhit, investitsion jozibadorlik, innovatsion iqtisodiyot, fan texnika taraqqiyoti (FTT).

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar.

1. 2016-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotdagi barqaror o‘sish sur‘atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta‘minlashda qanday omillar asosiy rol o‘ynadi?

2. Milliy iqtisodiyot tarkibida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish omillari qanday?

3. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash deganda nimani tushunasiz?

8-MAVZU. MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI YANA-DA MUSTAHKAMLASH VA YUQORI IQTISODIY O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASH

8.1. Respublikada iqtisodiyotning tarmoq tarkibini takomillashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi

O'tgan 26-yillik mustaqil taraqqiyot davrda iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Taraqqiyotning «O'zbek modeli»ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o'z ishimizda doimo suyanamiz. Bu tamoyillar O'zbekistonda bundan buyon ham siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni ta'minlashning mustahkam poydevori hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyukturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yana-da barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Shularni e'tiborga olib, **Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni yana-da mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning quyidagi vazifalari belgilab olindi:**

– makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobidan yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

– xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda, davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

– soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

– ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda, pul-kredit siyosatini yana-da takomillashtirish, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

– bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yana-da kengaytirish;

– sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

– xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yana-da rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

Mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda iqtisodiyotning tarmoq tarkibining tuzilishi muhim o'rin egallaydi. Chunki u mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning real holatini aks ettiradi. Tarmoqlar tarkibi va ularni qayta qurish muammolari, ayniqsa, bir iqtisodiy bosqichdan boshqasiga o'tish davrida davlat iqtisodiy siyosatining asosiy muammolaridan biriga aylanadi.

Milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibi har bir davrdagi ijtimoiy mehnat taqsimoti, fan-texnika taraqqiyoti va davlatning tarkibiy siyosatini ifodalab beradi. U iqtisodiyotning tarkibiy tizimida asosiy o'rinni egallaydi va hududiy hamda takror ishlab chiqarish tarkiblari bilan o'zaro bog'liq. Chunki tarmoqlar ma'lum hududlarda joylashgandir.


Milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibini takomillashtirish – ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarning iqtisodiy siyosatida iqtisodiyot tarkibi va uni qayta qurish masalalari muhim o'rin tutadi. Chunki, iqtisodiyot tarkibi takomillashuvi yangi tarmoqlar va yangi mulk shakllarini vujudga keltirib, bozor munosabatlarini shakllantirib boradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston o'zining iqtisodiy rivojlanish modelini izchil amalga oshirishi natijasida, boshqa sobiq ittifoqi mamlakatlariga nisbatan eng qisqa muddatlarda, ya'ni 1996-yildayoq iqtisodiy tanazzulning oldini oldi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minladi va iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish bilan bog'liq asosiy iqtisodiy masalalarni amalga oshirishga kirishdi.

O'zbekiston iqtisodiyoti 1996–2003-yillar davomida o'rtacha yillik 4% o'sish darajasi bilan rivojlandi. Iqtisodiyotning turli xil tarmoqlari va sohalarini tarkibiy o'zgartirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tarmoqlarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan

iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlari natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004-yildan boshlab yillik o'rtacha 7,8 foiz darajasidagi o'sish sur'atlarini namoyish qila boshladi.

YaIMni tarmoqlar bo'yicha tahlil qilib o'rganish – yahlit iqtisodiyotning tarkibiga kiruvchi alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi o'rni va hissasini aniqlashga yordam beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda yaratilayotgan YaIMning tarkibida sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, shu jumladan, aholiga pullik xizmat ko'rsatish kabi sohalarning o'rni va hissasi salmoqli o'rinni egallaydi. Keyingi yillarida sanoat tarmog'i va xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyatini yanada kengaytirilishi natijasida YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining (2000-yilda 34,4 foizdan 2016-yilda 17,6 foizga) bosqichma-bosqich kamayish tendensiyasi saqlanib qoldi. Shu bilan birga, YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining kamayishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ijobiy o'rtacha yillik o'sish sur'atlari fonida sodir bo'ldi (8.1.1-rasm).




8.1.1-rasm. O'zbekistonda YaIMning tarmoq tuzilishi va uning o'zgarish dinamikasi, % hisobida¹¹⁹

¹¹⁹ <http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1451-makroiqtisodiy-ko-rsatkiclari-tahlili>

Mamlakatimizda 2017–2021-yillarda “Yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yana-da rivojlantirish va modernizatsiya qilish”¹²⁰ masalalari eng dolzarb vazifalardan biri qilib belgilanganligi Respublika iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga naqadar katta ahamiyat berilayotganligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida Respublikamizda sanoat tarmoqlarini isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishi, Respublika sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga zamin yaratdi. (8.1.2-rasm)



8.1.2-rasm. Sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari dinamikasi¹²¹


¹²⁰ “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”. http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy

¹²¹ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2028-sanoat-ishlab-chiqarish>

1995-yilda sanoat ishlab chiqarishning hajmi 1990-yilga nisbatan 0,2 foizga kamayganiga qaramay, 2000-yildan boshlab (1990-yilga nisbatan) o'sish 1,2 m., 2005-yilda – 1,8 m., 2010-yilda – 3,0 m. va 2016-yilda esa 4,6 m. oshganini ko'rsatmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, 2016-yilda Respublikaning jami sanoat ishlab chiqarilishi hajmi asosan Toshkent shahri (21,0%), Toshkent (15,1%), Navoiy (9,5%), Qashqadaryo (8,6%), Farg'ona (7,2%), Andijon (7,1%) va Samarqand (6,7%) viloyatlari hisobidan shakllangan bo'lib, juda katta bo'lmagan ulushi esa Jizzax (1,8%), Surxondaryo (2,0%) va Xorazm (2,5 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashlar, 2016-yilda sanoat sohasida mehnat unumdorligini o'tgan-yilga nisbatan 4,3%ga o'sishini, 2010-yilga taqqoslaganda 1,4 martaga o'sishini ta'minladi. (8.1.3-rasm)



8.1.3-rasm. Sanoatda mehnat unumdorligining o'sishi va yalpi ichki mahsulot energiya sig'imining kamayishi¹²²

¹²² <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2028-sanoat-ishlab-chiqarish>

Energiya sig'imini qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlarining amalga oshirilishi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya tejavchi texnologiyalarning joriy etilishi, Respublika yalpi ichki mahsulotida energiya sig'imini pasaytirish imkonini berdi. Faqat 2016-yilda yalpi ichki mahsulot energiya sig'imi o'tgan-yilga nisbatan 7,4%ga pasaydi.

Sanoat tarmog'ini diversifikatsiyalash, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash bo'yicha chora-tadbirlarning qabul qilinishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmining o'sishi va YaIM tarkibida sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 2000-yildagi 23,1 foizdan 2016-yilda 32,9 foizgacha oshishi ta'minlandi (8.1.1-rasm).

Har qanday mamlakatning sanoat tarmog'i bir nechta yo'nalishlardan iborat bo'lib, o'sha yo'nalishlardagi asosiy ko'rsatkichlar natijasidan kelib chiqqan holda Respublikada qaysi sanoat tarmog'ini rivojlantirish mumkinligi bo'yicha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi va shunga ko'ra strategik vazifalar belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'i yalpi mahsulotida eng yuqori ulushga yonilg'i (12,5%), mashinasozlik va metallni qayta ishlash (13,5%), yengil (16,2%), oziq-ovqat (20,2%), sanoati ega bo'lgan. Qolgan barcha 7 ta sanoat tarmoqlari mahsuloti ulushi qo'shib hisoblaganda 37,6 % ni tashkil qilgan (8.1.1-jadval).

8.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mamlakatimizda o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz, qora metallurgiya, kimyo va neft kimyo, qurilish materiallari, elektrenergetika kabi soha va tarmoqlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish lozim.

8.1.1-jadval

Respublikada sanoat mahsulotining asosiy tarmoqlarning mahsulot ishlab chiqarish tarkibidagi ulushi (%da)

Sanoat tarmoqlari	Yillar							
	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Jami sanoat	100	100	100	100	100	100	100	100
Shu jumladan:								
qazib oluvchi	20,7	19,8	22,3	18,4	16,2	...
qayta ishlovchi	79,3	80,2	77,7	81,6	83,8	...
Jami sanoatda tarmoqlar bo'yicha:								
elektrenergetika	8,5	11,3	8,1	7,9	7,7	7,1	7,3	7,4
yonilg'i	15,3	16,2	19,8	17,3	18,0	15,0	13,3	12,5
qora metallurgiya	11,4	19,4	2,4	2,6	2,6	2,3	2,7	2,9
rangli metallurgiya	11,4	19,4	10,9	10,4	10,0	9,0	8,9	8,0
kimyo va neft kimyo	5,1	5,7	5,5	5,4	5,3	4,8
mashinasozlik va metallga ishlov berish	9,9	13,0	16,1	16,2	17,5	18,8	19,2	13,5
o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz	1,0	1,2	1,3	1,4	1,8	2,2
qurilish materiallari	5,4	3,6	4,9	5,3	5,5	6,5	6,4	5,1
yengil	19,1	16,6	13,3	13,4	12,9	13,2	14,1	16,2
oziq-ovqat	13,3	8,2	12,8	14,1	13,2	15,7	15,1	20,2
boshqalar	5,6	5,9	5,8	5,6	5,9	7,2

Mamlakat YaIMda sanoat tarmoqlari mahsulotining qayd qilingan nisbatan yuqori ulushi uning bir qator yetakchi tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmining ancha katta o'sish suratlari erishilganligining natijasi hisoblanadi. Jumladan, 2016 yilda 2000 yilga taqqoslaganda butun sanoat tarmog'i mahsuloti 3,7 barobarga ortgani holda mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati mahsuloti 14,2; o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoatiniki 13,4; oziq-ovqat sanoatida 7,2; yengil hamda kimyo va neft kimyosi sanoatida mos ravishda 4,6 va 4,3; metallurgiya sanoatida 3,9 barobarga o'sishga erishgan. Mazkur ko'rsatkichning o'rtacha darajasidan sanoatning yonilg'i (204,7 %), rangli metallurgiya (126,2 %) va elektr energetika (126,4 %) tarmoqlari ulushi bir muncha past bo'lgan.

8.1.2-jadval

Respublikada sanoat mahsulotining tarmoqlar bo'yicha 2000-yilga nisbatan o'sish sur'atlari¹²³

	Yillar						
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Jami sanoat	240,0	260,0	280,0	300,0	330,0	350,0	367,4
Shu jumladan:							
Qazib oluvchi	146,0	146,8	157,5	153,5	149,5
Qayta ishlovchi	2,7	3,0m	3,2m	3,6m	4,0m
Jami sanoatdan tarmoqlar bo'yicha:							
Elektrenergetika	102,6	103,7	106,8	108,2	110,6	117,0	126,4
Yonilg'i	173,7	174,9	183,3	186,1	182,3	192,9	204,7
Qora metallurgiya	2,6m	2,8m	3,0m	3,1m	3,6m	3,7m	3,9m
Rangli metallurgiya	105,6	108,3	111,1	115,0	117,3	121,3	126,2
Kimyo va neft-kimyo	2,9m	3,2m	3,4m	3,6m	3,7m	3,9m	4,3m
Mashinasozlik va metallga ishlov berish	8,2m	9,2m	10,5m	13,0m	14,9m	13,8m	14,2m
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz	5,4m	6,1m	6,5m	8,0m	8,9m	11,8m	13,4m
Qurilish materiallari	2,2m	2,4m	2,8m	3,2m	3,4m	3,7m	3,9m
Yengil	2,4m	2,5m	2,8m	3,1m	3,6m	4,2m	4,6m
Oziq-ovqat	3,8m	4,3m	4,6m	5,0m	5,4m	6,3m	7,2m
boshqalar	3,0m	3,4m	3,8m	4,3m	4,9m


Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, Respublika sanoatining rivojlanishiga imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, sanoatning yana-da barqaror rivojlanishi uchun quyidagilar zarur:

– ilg'or mahalliy texnologiyalarni ishlab chiqish, zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;

– tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirishda mahalliyashtirish darajasini to'xtatib turuvchi kamchiliklarni bartaraf etish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga to'sqinlik qiluvchi zarur tovarlar, shu jumladan, asbob-uskunalar importini qisqartirish;

– kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini har taraflama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

Respublika iqtisodiyotida sanoat tarmoqlari rivojlanishi bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi tarmog'ida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini isloh qilishni diversifikatsiyalash, erlarning meliorativ holatini yaxshilash, zamonaviy yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish hamda xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ushbu sohada sezilarli darajada ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. (8.1.4-rasm)




8.1.4-rasm. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarining
2000-2016-yillardagi o'sish sur'ati¹²⁴

¹²³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

¹²⁴ <https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2029-qishloq-xo-jaligi-ko-rsatkichlari>

8.1.4-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010-2016-yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hajmining o'sish sur'atlari o'rtacha 5,7 foizni, dehqonchilik mahsulotlari o'rtacha 6 foiz, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa o'rtacha 5,6 foizni tashkil qilgan. Respublikada qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilish jarayonlarining jadallashtirilishi ushbu soha yalpi mahsuloti hajmining 2016-yilda 47486,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2000-yilga nisbatan 2,7 martaga o'sishini ta'minladi. Shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari hajmi 29042,4 mlrd. so'mni (2,8m.), chorvachilik mahsulotlari hajmi 18443,7 mlrd. so'mni (2,6m.) tashkil yetdi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi xo'jaliklar toifalari kesimida tahlil etilganda, yildan yilga fermer xo'jaliklarining ulushi oshib borayotganligi, o'z navbatida qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushi esa kamayib borayotganligi kuzatilmoqda. Respublikamizda faoliyat yuritib kelayotgan past rentabelli qishloq xo'jaligi tashkilotlari yer maydonlarini qisqartirilib, ular negizida mustahkam moddiy texnika bazasiga ega bo'lgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, jami qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida fermer xo'jaliklari ulushining 2000-yildagi 5,5 foizdan 2016-yilda 32,9 foizgacha ko'payishida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushini esa 2000-yildagi 27,8 foizdan 2016-yilda 2,0 foizgacha kamayishida o'z ifodasini topdi (8.1.5-rasm).



8.1.5-rasm. 2016-yilda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi¹²⁵

¹²⁵ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2029-qishloq-xo-jaligi-ko-rsatkiclari>

Shuningdek, 2016-yilda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 2000-yildagi 50,2 foizdan 61,2 foizgacha ko'paydi va shu davr mobaynida mos ravishda chorvachilik mahsulotlarining ulushi 49,8 foizdan 38,8 foizgacha kamaydi (8.1.6-rasm).



8.1.6-rasm. 2000-2016-yillarda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining tarkibi (foizda)¹²⁶

Chorvachilik mahsulotlarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushining kamayishi sohada ishlab chiqarishning pasayib ketayotganligini bildirmaydi. Aksincha, oxirgi yillarda Respublikamizda chorvachilik jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Shunchaki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarilish hajmi oshganligi hisobiga uning tarkibida chorvachilikning ulushi kamaygan xolos.

Mustaqillik yillarida Respublikada qishloq xo'jaligi sohasiga bozor tamoyillarini joriy qilish va mulkchilik shakllarini to'liq o'zgartirish bilan tub islohotlar o'tkazildi, natijada xo'jalik yuritishning yangi shakllari paydo bo'lib, ular qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining rivojlanishida o'z aksini topdi.

¹²⁶ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2029-qishloq-xo-jaligi-ko-rsatkiclari>

Paxta monokulturasidan chekinish, oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda, don mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlash hamda oziq-ovqat mustaqilligiga erishish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasining asosiy tamoyillari bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qishloq xo'jaligini strategik rivojlantirish doirasida o'tkazilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, so'nggi yillarda sohada yuqori sur'atlarga erishildi.

Yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida, oziq-ovqat ekinlari maydonlarining kengaytirilishi hisobiga g'oz'a ekin maydonlari qisqartirildi. Ozuqa ekinlari maydonlarining qisqartirilishi, chorva mollari va parrandalarni mustahkam ozuqa bazasi bilan ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yilgan takroriy, oraliq, qator oralig'i ekinlarini ekish hisobidan qoplanayotganligi bilan izohlanadi.

Respublikada ekin maydonlari tarkibiy tuzilmasini oziq-ovqat ekinlari maydonlarini kengaytirish hisobiga bosqichma-bosqich maqbullashtirish bo'yicha aniq maqsadli yo'naltirilgan chora-tadbirlar ko'rilmoqda, shuningdek, dehqon (shaxsiy yordamchi) va fermer xo'jaliklarida chorva mollari va parrandalar bosh sonini ko'paytirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tahlillar natijalari, fermer xo'jaliklarida asosan paxtachilik, donchilik, meva-sabzavotchilik va dehqonchilikning boshqa yo'nalishlari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida esa chorvachilikning yuqori sur'atlarda rivojlanayotganligidan dalolat bermoqda.

Respublika aholisini dehqonchilik mahsulotlari bilan ta'minlash asosan fermer xo'jaliklari tomonidan, chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash esa dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari tomonidan amalga oshirilayotganligi kuzatilmoqda.

Respublikamizda xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti, bandlik va aholi daromadlari o'sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida, mazkur tarmoq qisqa muddat ichida iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sektoriga aylandi. Xizmatlar sohasining YaIM dagi ulushi 2000-yildagi 42,5 foizdan 2016-yilda 49,5 foizgacha oshdi. (8.1.1-rasm)

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish va samarali bandligini ta'minlashda xizmatlar sohasining har tomonlama rivojlanishi muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishni eng muhim vazifalardan biri sifatida qo'yishmoqda.

Xizmatlar sohasi aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi va jamiyatda sodir bo'layotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi, bu esa mazkur masalaning qanchalik muhim va ahamiyatli ekanligini ko'rsatib beradi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, mamlakat aholisining bandligini, daromadlarini va turmush sifatini oshirishning muhim yo'nalishlari va omillaridan biri sifatida xizmatlar sohasi va servisni jadal rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Bundan tashqari, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda mazkur soha muhim o'rinni egallamoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida, 2010–2016-yillarda bozor xizmatlari hajmi 2,7 martaga oshib, 92,5 trln.so'mgacha ko'paydi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi mazkur davrda 2,3 martaga o'sdi va 2,9 mln. so'mni tashkil yetdi (8.1.3-jadval).

8.1.3-jadval

2010-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha xizmatlar sohasi asosiy ko'rsatkichlarining dinamikasi¹²⁷

	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.
Xizmatlar hajmi, trln. so'm	26,0	33,7	42,6	53,7	65,9	75,4	92,5
O'tgan yilga nisbatan o'sish, foizda	116,1	117,2	114,7	114,4	115,1	114,0	114,5
2009 yilga nisbatan o'sish, foizda	116,1	136,1	156,1	178,6	2,1 m.	2,3 m.	2,7 m.
Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'm	911,7	1148,7	1429,1	1774,0	2141,9	2407,6	2905,6

Hozirgi vaqtda, Respublikada xizmatlar sohasida 16,5 mingdan ortiq yirik tashkilotlar (bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarini qo'shgan holda) va 126 mingdan ortiq kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikada 2017–2021-yillarda “Xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish”¹²⁸ masalalari eng ustuvor strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, xizmat ko'rsatish sohasining YaIMdagi mutloq va nisbiy ulushini o'stirib borishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- qishloq joylarda ko'rsatiladigan xizmat turlarini ko'paytirish va sifatini oshirish;

- xizmatlarning an'anaviy turlari bilan birga, yangi va zamonaviy turlari-yuridik, konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing,

¹²⁷ <https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2027-o-zbekiston-respublikasida-xizmatlar-sohasining-rivojlanishi>

¹²⁸ “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”. http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy

sayyohlik-ekskursiya va telekommunikatsiya xizmatlarini jadal rivojlantirish;

- milliy korxonalarining xalqaro bozordagi xizmat ko'rsatish darajasini va sifatini oshirish hamda uning eksportini ko'paytirish;

- mamlakat hududlari bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi (aholi jon boshiga) va sifatidagi farqlarni ularning mavjud salohiyatidan to'laroq foydalanish orqali yumshatish.

Shunday qilib, Respublikada YaIMning tarmoq tarkibi o'zgarishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular:

Birinchidan, YaIMda sanoat tarmog'i va xizmat ko'rsatish sohasining ulushi sezilarli ravishda ortgan. Jumladan, 2000–2016-yillarda YaIMda sanoat mahsulotlari salmog'i 1,4 barobardan ortiq, xizmat ko'rsatish sohasiniki esa 1,2 martaga yaqin o'sgan.

Bu mamlakat iqtisodiyotining sanoatlashtirish darajasi ortayotganligi va YaIM sifat tarkibi bo'yicha bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan davlatlarnikiga yaqinlashayotganligini anglatadi.

Ikkinchidan, mamlakat YaIMda qishloq xo'jaligi ulushi yildan yilga kamayib borgan. Bu kamayish qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha 1,9 barobardan ortiqni tashkil qilgan.

YaIM tarmoq tarkibini takomillashtirishda “iqtisodiyotimizni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jadallashtirish va uning ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish markaziy o'rin tutishi darkor”¹²⁹

Ishlab chiqarish qurilishi uchun mo'ljallanayotgan jami investitsiyalarning qariyb to'rt dan uch qismini yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga yo'naltirish ko'zda tutilgan. Bu borada qurilishi boshlangan va mamlakat sanoat ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga xizmat qiladigan obyektlarni barpo qilish sur'atlarining pasayishiga yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratiladi.

¹²⁹ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: «O'zbekiston», 2013. – B.22.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida YaIM tarmoq tarkibini takomillashtirishning muhim ustuvor yoʻnalishi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, fan va texnika taraqqiyotining yutuqlarini mujassamlashtiradigan yuqori texnologik tarmoq va sohalarni taraqqiyotning innovatsion yoʻliga oʻtkazib borishdir. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayd qilib oʻtganlaridek: – “Kun tartibida oʻta jiddiy masalalar turibdi. Bular – mamlakatimizda yaratilgan texnologiyalarning raqobatbardoshligini taʼminlash, «nou-xau» naʼmunalarini yaratish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yaʼni yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni taʼminlash boʻyicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.”¹³⁰

Bunda zamonaviy texnologiyalar asosida raqamli televidenion uzatgich, videotelefonlar, internet-televidenie, yuqori tezlikdagi internet, NDTV kanallarini namoyish qilish Respublikada “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va yana-da rivojlantirish” dasturini amalga oshirishdagi dastlabki qadamlar hisoblanadi.

YaIM tarmoq tarkibini takomillashtirishning muhim yoʻnalishi resurs tejovchi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonida qoʻllash hisoblanadi. Bunda barcha iqtisodiyot tarmoqlari va ishlab chiqarish sohasida “...qatʼiy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni ragʻbatlantirish hisobidan korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish”¹³¹ustuvor yoʻnalish hisoblanadi.

Faqat oxirgi 5-yilda Respublikada resurslarni tejovchi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish va boshqa noishlab chiqarish xarajatlarni maqbullashtirish natijasida iqtisodiyotning

¹³⁰ Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maʼruzasi. Xalq soʻzi. 17.01.2017-y.

¹³¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. – T.: Oʻzbekiston, 2009. – B.33-34.

sanoat tarmogʻida ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi 4,2 %ga pasaygan¹³².

Respublika resurs tejovchi ishlab chiqarishga oʻtishi orqali YaIM tarkibini takomillashtirish mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangilab borishni taqozo yetadi. Bu esa 2015 yilda umumiy qiymati 7 mlrd 400 mln dollar boʻlgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obyekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi. Jumladan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida 370 megavatt quvvatga ega boʻlgan bugʻ-gaz qurilmasi barpo etildi, Chorvoq GESi gidrogeneratorlari modernizatsiya qilindi, Qoʻngʻirot soda zavodida kalsiyashtirilgan soda ishlab chiqarish kengaytirildi, “Samarqandkimyo” aksiyadorlik jamiyatida 240 ming tonna quvvatga ega boʻlgan murakkab tarkibli yangi oʻgʻitlar ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi. Shuningdek, “Motor zavodi” aksiyadorlik jamiyatining faoliyat koʻrsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida traktor tirkamalari, jumladan, katta hajmli tirkamalar, maishiy texnika uchun tarkibiy qismlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish tashkil etildi. Janubiy Koreya bilan hamkorlikda Surgʻil koni negizida barpo etilgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi umumiy qiymati 4 mlrd dollardan oshadigan dunyodagi eng zamonaviy, yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan yirik korxonalardan biridir. Xorazm viloyatida “Jeneral motors-Oʻzbekiston” aksiyadorlik jamiyatida umumiy qiymati qariyb 6 mln dollarlik loyiha asosida “Shevrole Labo” kichik yuk mashinasi ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi. Namangan viloyatining Pop tumanida 130 kilovatt quvvatga ega boʻlgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. “Samarqand-Qarshi” temir yoʻl uchastkasida yuqori tezlikda harakatlanadigan “Afrosiyob” elektr poezdi qatnovi yoʻlga qoʻyildi¹³³.

¹³² Oʻzbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. 2016-yil. – T., 2017.

¹³³ Karimov I.A. Demokratik islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy oʻzgarishlarni yana-da chuqurlashtirish, xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikning ustuvorligini taʼminlashga keng yoʻl ochib berish – Vatanimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida hal qiluvchi omildir. – T.: «Oʻzbekiston», 2016. – B.148-150.

Mazkur loyihalarning amalga oshirilishi innovatsion va energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, jahon bozorida talab yuqori bo'lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish hisobiga eksport va YaIM hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, YaIMning tarmoq tuzilishini takomillashtirish, milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni diversifikatsiyalash jarayoni bilan birga davom ettirish – barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish, aholi turmush faravonligini oshirish hamda jadal taraqqiyotga erishishning muhim omili hisoblanadi.

8.2. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish hamda ular salohiyatidan samarali foydalanish

O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahri va jami viloyatlar tarkibida 157 tuman va shaharcha mavjud. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'yicha dunyoda 55 – o'rinni, aholisining soni bo'yicha 39 – o'rinni egallab turibdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadal-
lashtirish, xalqning turmush darajasi va
daromadlarini oshirish uchun har bir
hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sa-
noat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat
salohiyatidan kompleks va samarali foy-
dalanishni ta'minlash.

Harakatlar strategiyasi dasturidan

Mamlakatimizni 2017–2021-yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda Respublikamizda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirish masalalari eng dolzarb

muammolardan bo'lib qolmoqda. Bu xususda, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning – "...mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarining eksport salohiyatini yana-da rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish 2017-yilda so'zsiz hal qiluvchi faoliyat yo'nalishiga aylanishi zarur. Ushbu masalani hal qilishga ehtiyoj hududlarni, ayniqsa, qoloq shahar va tumanlarni kompleks rivojlantirishga doir eng muhim ustuvor vazifani amalga oshirish zaruratidan kelib chiqdi. Hududiy va tarmoq boshqaruvi samarasiga, ularning rivojiga xolis baho berishni qiyinlashtiradigan holatlar mavjud. Masalan, Respublikaga bo'ysunadigan yirik korxonalar ko'rsatkichini chiqarib tashlasak, viloyatlar yalpi hududiy mahsuloti hajmi juda kichik bo'lib qoladi. Har bir tuman va shaharda, Respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda, amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatining barcha tumanlarini subvensiyadan chiqarishni so'zsiz ta'minlash kerak. Busiz natijaga erishib bo'lmaydi"¹³⁴ – degan fikrlaridan Respublikamiz hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, ular o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf qilish masalalari hozirgi kunda naqadar dolzarb ahamiyatga molik muammolardan ekanligini tasavvur qilish qiyin emas.

Ushbu muammolarni bartaraf qilish maqsadida "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" ning uchinchi ustuvor yo'nalishida "Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy

¹³⁴ Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 17.01.2017-y.

rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish, buning uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral xom ashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish"¹³⁵ eng dolzarb masalalardan biri sifatida belgilab qo'yildi.

E'tirof etish joizki, bugungi kunda viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish hisobidan hududlarni barqaror rivojlantirishga erishish, aholi bandligini ustuvor ta'minlashga erishish, barcha mavjud resurslar salohiyatidan oqilona foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz tarkibiga kirgan har bir viloyat, tuman ma'lum obyektiv qonuniyatlar asosida tashkil etilgan bo'lib, geografik va hududiy joylashuvi, iqtisodiyotining tarkibi, sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanganlik darajasi, hududlarning demografik holati va aholining joylashuvi, shuningdek, iqlimi, suv va tabiiy resurslar salohiyatiga egaligi bilan bir-biridan farq qiladi. Farg'ona, Andijon, Namangan, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarida foydali qazilma va mineral xomashyo resurslari juda kam, Navoiy, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi foydali qazilma va mineral xomashyo resurslarga boy, Jizzax, Samarqand viloyatlari ushbu resurslar mavjud hududlar qatoriga kiradi.

¹³⁵ "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy

Mamlakatimiz yoqilg'i-energetik salohiyatida esa Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlarining salohiyati yuqori. Yurtimiz aholisi ham viloyatlar bo'yicha notekis joylashgan. Masalan, Andijon viloyatida 1 kvadrat kilometr to'g'ri keladigan aholi soni 665 kishini, Navoiy viloyatida esa 8,2 kishini tashkil yetadi. Viloyatlar va tumanlarning yer-suv resurslari, iqlim sharoitlari ham kam bo'lsa-da, farqlanadi. Yer-suv resurslarining sifatida ham jiddiy tafovutlar mavjud. Toshkent, Jizzax va Samarqand viloyatlarida tabiat bilan bog'liq ekologik turizmni rivojlantirish uchun juda qulay imkoniyatlar mavjud.

Yurtimizda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon kabi jahonga mashhur turistik shaharlar mavjud. Turizm sohasida deyarli barcha viloyat va tumanlarda imkoniyatlar yetarli, ammo Yuqorida sanab o'tilgan hududlarda mutlaq va nisbiy ustunliklar ko'proq sanaladi. Yana bir jiddiy farq – hududlarda iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va insonlar yashashi uchun zarur ne'matlar bilan ta'minlash imkoniyatlarida o'z aksini topadi. Ana shunday murakkab holat sharoitida barcha viloyat va tumanlarni barqaror va jadal rivojlantirish, ular o'rtasidagi tafovutlarning juda kattalashib ketishiga yo'l qo'yimaslik O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining jiddiy e'tibor berayotgan masalalari qatoriga kiradi. Olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasiga ko'ra, hududlarning rivojlanishida, ularning iqtisodiyotining tarkibida sezilarli farqlar mavjud.

YaIMda mintaqalar ulushi ularning mamlakat iqtisodiy salohiyatida tutgan o'rnini tavsiflaydi va uning ortib borishi mazkur mintaqa iqtisodiy mavqei mustahkamlanayotganligini anglatadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hozirgi kunda Respublikamizning turli hududlarida (12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri) olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar o'z natijasini bermoqda. Lekin ushbu sohada qo'lga kiritilayotgan natijalar turli xil hududlarda bir-biridan farqlanadi. (8.2.1-jadval)

8.2.1-jadval

O'zbekiston YaIMda hududlar ulushi va uning o'zgarishi (% hisobida)¹³⁶

Mintaqalar (viloyatlar)	Yillar								
	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3,4	3,3	2,9	2,8	2,3	2,5	2,5	2,6	3,3
Andijon	7,4	7,0	5,5	5,9	6,3	6,6	6,4	6,2	5,7
Buxoro	6,4	6,4	6,3	6,0	5,6	5,5	5,6	5,5	5,5
Jizzax	2,6	3,2	2,5	2,5	2,2	2,2	2,3	2,3	2,5
Qashqadaryo	7,2	8,3	9,4	8,9	7,8	7,4	7,3	7,5	7,5
Navoiy	4,5	6,9	6,1	5,8	5,3	5,4	5,2	5,2	5,3
Namangan	5,3	4,5	4,1	4,1	3,9	4,2	4,2	4,2	4,4
Samarqand	8,1	7,3	6,4	6,3	6,2	6,2	6,3	6,6	7,1
Surxondaryo	5,1	4,5	4,0	4,1	3,8	4,1	4,2	4,2	4,6
Sirdaryo	2,6	2,5	2,0	2,1	1,6	1,9	1,9	1,8	2,1
Toshkent	10,8	11,4	10,3	10,6	9,6	9,8	9,8	9,7	10,3
Farg'ona	11,5	8,9	7,1	7,2	6,8	6,7	6,7	6,6	7,0
Xorazm	4,4	3,7	3,3	3,3	3,0	3,1	3,3	3,3	3,6
Toshkent sh.	12,2	11,9	13,7	14,3	14,7	14,7	14,7	15,6	15,8
Farqlar darajasi	4,5	5,2	6,8	6,8	9,2	7,7	7,7	8,7	7,5

8.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston YaIMda mintaqalar ulushi keskin farq qilib, 2016-yilda uning eng yuqori ko'rsatkichini Toshkent shahri (15,8%), Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari mos ravishda 10,3 va 7,5 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egallaydi. Eng pastki ko'rsatkich esa Sirdaryo viloyatiga (2,1%) to'g'ri keladi. Undan keyin past ko'rsatkich Jizzax (2,5%) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,3%) qayd etiladi. Ularning mazkur ko'rsatkich bo'yicha farqlanish darajasi 7,5 barobarga yaqinni tashkil qiladi.

Tahlil qilingan davr oxirida (2016y.) YaIMda mintaqalar ulushi 5,0 %dan kam ko'rsatkichni tashkil qilgan hududlar 6 tani, 5,0 %dan 10,0 %gacha bo'lganlari 7 tani, 10,0 % va undan yuqori ulushga egalari faqat bittani (Toshkent sh.) tashkil qilgan. YaIMda

¹³⁶<http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1451-makroiqtisodiy-ko-rsatkichlari-tahlili> va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Toshkent shahri ulushi ortib, ikkita viloyat ulushi bir xil darajada saqlanib qolgan bo'lsa, qolganlarida u pasayib borish tamoyiliga ega bo'lgan.

Iqtisodiyotning hududiy subyektlari o'rtasida YaIM o'sish sur'atlarida ham keskin farqlanish kuzatiladi.

Tahlil qilingan davr (2000–2016-yillar) davomida YaIM Toshkent shahrida yiliga o'rtacha 9,1 %ga o'sgani holda, bu ko'rsatkich Navoiy viloyatida faqat 4,5 %ni tashkil qilgan, ya'ni o'sish sur'atlari o'rtasidagi farq deyarli 2,0 barobar bo'lgan. YaIM ning eng yuqori va eng past o'sish sur'atlaridagi farqlar kattaligi-yillar bo'yicha 5,8 % (2013y.)dan 21,2 %gacha (2000y.) o'zgaragan. O'rganilgan davrda farqlarning o'rtacha yillik darajasi esa 9,4 %ga teng bo'lgan. (8.2.2-jadval)

8.2.2-jadval

O'zbekiston mintaqalarida YaIMning o'sish sur'atlari (oldingi-yilga nisbatan % hisobida)¹³⁷

Mintaqalar (viloyatlar)	Yillar								
	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
YaIM	3,8	7,0	8,5	8,3	8,2	8,0	8,0	7,9	7,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-10,3	6,9	10,8	10,4	12,8	8,3	8,4	8,2	8,7
Andijon	2,2	10,2	10,9	12,7	9,1	9,1	7,5	7,3	7,4
Buxoro	4,2	9,9	10,5	11,0	8,7	8,2	8,2	8,1	8,6
Jizzax	4,2	8,3	11,9	11,7	8,8	10,0	8,6	8,3	8,4
Qashqadaryo	-1,0	8,0	3,2	6,6	4,6	4,9	7,9	8,5	7,2
Navoiy	3,2	2,2	4,7	8,1	5,2	4,2	4,0	4,1	3,9
Namangan	8,0	7,0	14,2	11,5	9,9	8,8	10,3	10,1	10,6
Samarqand	4,6	6,1	13,6	12,9	11,6	8,9	10,5	10,1	10,4
Surxondaryo	5,5	5,5	13,6	12,4	9,7	8,9	9,3	9,2	8,7
Sirdaryo	2,6	11,1	11,7	10,1	11,6	6,2	7,0	7,1	6,8
Toshkent	10,9	3,8	12,8	8,1	5,0	7,5	7,5	7,8	7,7
Farg'ona	6,1	6,5	6,1	9,0	6,3	8,5	8,4	8,1	8,4
Xorazm	-5,2	3,4	9,5	10,0	10,3	9,1	11,7	11,5	12,1
Toshkent sh.	4,5	6,6	13,2	11,4	8,5	9,6	9,0	9,2	9,4
Farqlar darajasi	21,2	8,9	11,0	6,3	7,0	5,8	7,7	7,4	7,6

¹³⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

YaHMning o'sish sur'ati 2000-yilda oltita, 2005-yilda sakkizta, 2016-yilda esa beshta viloyatda Respublikadagi o'rtacha darajadan past natija qayd qilingan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ro'y bergan 2008-yilda esa bunday past ko'rsatkichga ega bo'lgan viloyatlar 10 taga etgan (respublikada YaMM ning o'sish sur'ati 9,0 ni tashkil qilgan).

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishning ijobiy natijasi sifatida, 2009 yildan Respublika mintaqalarida iqtisodiy o'sish barqarorlik tavsifini kasb eta boshlaganligini qayd qilish mumkin. Shu yili iqtisodiy o'sish sur'ati o'rtacha daraja (8,1 %) dan past bo'lgan viloyatlar 7 tagacha kamaygan. Keyingi yillarda bunday toifadagi viloyatlar yana-da kamayib, 2010 yilda faqat 4 tani, 2011 yilda esa 2 tani tashkil qilgan. 2012 yilda esa ularning o'rtacha daraja (8,2 %)dan kam bo'lganlari soni yana biroz ortgan (6 ta viloyat). 2015 yilda esa 4 tani tashkil qilgan.

O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi tengsizliklar bir qator obyektiv sabablar – bozor islohotlarining dastlabki davridagi hududiy rivojlanish darajasi, hududning investitsion jozibadorligi, iqtisodiy-geografik rivojlanishi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, innovatsion salohiyati va boshqa ko'pgina omillar bilan izohlanadi. Lekin shunga qaramasdan, mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida 2016-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlari yuqori darajada bo'ldi (8.2.3-jadval). 8.2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatimizning aksariyat viloyatlari Respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori natijalarga erishgan bo'lsa, ayrimlarida bunday holat kuzatilmaydi. Masalan, Jizzax (117,3 foiz), Sirdaryo (116,7 foiz), Namangan (114,8 foiz), Xorazm (111,7 foiz), Samarqand (112,1 foiz), Andijon (108,4 foiz), Buxoro (108,2 foiz) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (111,6 foiz) va Toshkent shahri (112,4 foiz) o'rtacha Respublika

ko'rsatkichidan (106,2 foiz) yuqori natijalarga erishdilar. Ushbu hududlarda ijobiy natijalarga ma'lum darajada yetakchi tarmoqlarda tayyor va mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishi hisobidan erishildi.

8.2.3-jadval

Respublika hududlari bo'yicha sanoat mahsulotlarining o'sish sur'atlari (o'tgan-yilga nisbatan foiz hisobida)¹³⁸

O'zbekiston Respublikasi	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
O'zbekiston Respublikasi	105,9	107,2	108,5	106,3	112,7	109,0	108,3	106,3	106,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	111,2	118,4	109,2	112,0	112,5	103,0	109,4	112,1	111,6
Viloyatlar									
Andijon	90,0	134,5	124,4	118,9	123,4	118,9	109,4	108,3	108,4
Buxoro	103,9	102,1	101,9	111,9	107,0	104,4	110,3	107,1	108,2
Jizzax	122,7	131,6	109,7	109,2	109,0	105,4	119,3	116,4	117,3
Qashqadaryo	101,9	101,3	106,7	113,5	118,9	116,6	97,6	105,2	102,7
Navoiy	102,2	97,8	101,1	102,1	103,0	101,8	97,7	101,9	103,4
Namangan	126,1	114,0	108,6	107,1	115,2	113,0	123,7	116,1	114,8
Samarqand	97,3	108,9	123,2	120,7	124,2	112,0	120,0	111,4	112,1
Surxondaryo	107,9	104,2	109,2	109,6	111,8	106,6	112,9	107,2	106,2
Sirdaryo	106,7	103,7	113,8	105,1	105,1	109,3	111,6	118,9	116,7
Toshkent	108,8	100,1	106,6	113,3	100,3	107,5	109,2	104,3	103,8
Farg'ona	108,5	105,0	108,8	105,6	102,8	106,3	94,7	101,3	101,5
Xorazm	103,5	127,0	108,6	108,2	110,3	103,2	110,5	112,0	111,7
Toshkent shahri	113,2	116,3	124,0	121,1	136,8	110,2	116,4	111,8	112,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Qashqadaryo (102,7 foiz), Toshkent (103,8 foiz), Navoiy (103,4 foiz) va Farg'ona (101,5 foiz) viloyatlarida esa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Respublika ko'rsatkichidan past darajada bo'ldi.

Bundan tashqari, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha ham ijobiy natijalarga erishildi. (8.2.4-jadval)

¹³⁸ O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi. 2011. 62-bet va O'zbekiston Respublikasining yillik statistik to'plamlari.

8.2.4-jadval

Respublika hududlari bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari (foizda)¹³⁹

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2015-y.	2016-y.
Kelganlar soni	149,6	139,7	147,4	146,1	144,9
Sh.j. qishloq joylarda	64,9	49,7	60,3	60,5	59,3
Ketganlar soni	224,8	232,7	243,5	253,1	210,2
Sh.j. qishloq joylarda	85,3	87,0	105,1	111,8	97,4
Migratsion saldo	-75,2	-93,0	-96,0	-107,0	-65,3
Sh.j. qishloq joylarda	-20,4	-23,3	-44,8	-51,3	-38,1

Xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish bo'yicha 2016-yilda Sirdaryo (138,2 foiz), Namangan (136,3 foiz), Qashqadaryo (112,4 foiz), Navoiy (111,8 foiz), Jizzax (109,6 foiz), Toshkent (109,2 foiz), Xorazm (108,4 foiz) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (107,6 foiz) va Toshkent shahri (107,2 foiz) Respublika darajasidan (106,0 foiz) yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Andijon (101,4 foiz), Buxoro (102,6 foiz), Surxondaryo (103,1 foiz), Samarqand (104,2) va Farg'ona (104,7 foiz) viloyatlarida esa iste'mol tovarlari ishlab chiqarish Respublika ko'rsatkichidan past darajada bo'ldi. Bunga asosiy sabab hamon jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining mamlakatimizga qandaydir darajadagi ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan viloyatlarda mahalliy bozorlarni mutasaddi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarning sust amalga oshirilishi hamda joylarda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan kichik biznes tuzilmasini qo'llab-quvvatlash mexanizmining sekinlik bilan joriy qilinishi hisoblanadi.

8.2.3 va 8.2.4-jadval ma'lumotlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, bugungi kunda nafaqat sanoat mahsulotlari,

¹³⁹ O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi. 2011. 62-bet va O'zbekiston Respublikasining yillik statistik to'plamlari.

balki xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha ham yuqori va past darajada rivojlangan hududlar o'rtasidagi farq saqlanib qolmoqda. Bu esa, davlat tomonidan hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning aniq maqsadlarga yo'naltirilishini va hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda ish yuritishni talab yetadi.

Respublikada hududlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi farqlarning nisbatan qisqarib, iqtisodiy o'sishning barqarorlik tavsifiga ega bo'lib borishi ko'p jihatdan aniq mintaqa va shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlar hamda chora-tadbirlarning amalga oshirilish natijasi hisoblanadi.

O'rganilgan davrda mintaqalar iqtisodiyotining sanoatlashuv darajasidagi farqlar ortib borishi natijasida aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning eng yuqori va eng past ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut 1,4 barobarga yaqin ortgan.

2000-2016 yillarda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish indeksi faqat ikkita viloyat va Toshkent shahrida Respublikadagi o'rtacha darajadan yuqori (Andijon viloyatida 3,181; Toshkent viloyatida 1,059 va Toshkent shahrida 2,329) qolgan barcha hududiy subyektlarda undan past darajada bo'lgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,235), Qashqadaryo (0,375), Namangan (0,461), Surxondaryo (0,279) va Xorazm viloyatlarida (0,412) mazkur ko'rsatkich 0,5 indeksdan ham past darajani tashkil qilgan.

O'rganilgan davr oralig'ida eng yuqori va eng past indekslar o'rtasidagi farqlar ko'lami 15 %ga yaqin ortib, barcha yillarda nisbatan barqarorlik kasb etgan.

Aholi jon boshiga chakana tovar aylanmasi va pullik xizmatlar indekslarining eng yuqori va eng past darajasi o'rtasidagi farqlar kattaligi nisbatan barqarorlik tavsifiga ega bo'lib, mos ravishda 4,7-7,6; va 6,9-10,0 darajasida o'zgargan. Biroq, bu davrda mazkur indekslar kattaligi birmuncha barqaror qolgan. Jumladan, aholi jon boshiga chakana tovar aylanmasi bo'yicha mazkur nisbat 6,3:1,0

(Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi)dan 7,3:1,0 (Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi)ga, pulli xizmatlar bo'yicha 9,8:1,0 dan (Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi) 14,1:1,0 ga (Toshkent shahri va Surxondaryo viloyati) o'zgargan.¹⁴⁰

Hududlar ko'lamida barqaror iqtisodiy o'sishga erishib borishda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatlari va aholining turmush farovonligini o'stirib borish talablari hisobga olinishi zarur bo'ladi. Har qanday darajada iqtisodiy o'sishdagi barqarorlik eng avvalo zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, milliy xo'jalikni jahon iqtisodiyoti rivojlanishi tamoyillarini hisobga olib modernizatsiyalash, milliy va jahon bozorlaridagi talabni hisobga olib ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, iqtisodiyotda ijobiy tarkibiy o'zgarishlarni va maqbul restruksiyalash jarayonlarini amalga oshirish hamda milliy iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida tejamkorlik tamoyillarini joriy qilishni taqozo yetadi. Bunda mamlakat va uning hududlari tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlari hamda mavjud resurs salohiyatini, ularning ichki va xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni hamda ixtisoslashuv darajasini, mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi hamda iqtisodiy o'sishni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olish zarur bo'ladi.

Fikrimizcha, iqtisodiy o'sishning mintaqaviy jihatlari asosiy e'tibor YaIM da hududlar ulushining pasayib borishini bartaraf qilish (2005 yilga taqqoslanganda u faqat Toshkent shahrida 1,2 %ga o'sgan), mazkur ko'rsatkichdagi farqlar darajasini ularning mamlakat mehnat taqsimotida tutgan o'rniga yaqinlashtirish va mahsulotning taqsimlanmagan qismidagi mintaqalar hissasini kamaytirib borishga qaratilishi zarur.

Respublika hududlarida iqtisodiy o'sishga qaratilgan siyosat uning sur'ati o'rtacha darajadan past bo'lgan viloyatlar ulushini

kamaytirib borish va mazkur ko'rsatkich bo'yicha farqlar darajasini qisqartirib borish maqsadiga qaratilishi lozim.

O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari: sanoat mahsuloti, iste'mol tovarlari va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, investitsiyalar kiritish, chakana tovar aylanmasi, pulli xizmatlar ko'rsatish hajmining o'sish sur'atlari dinamikasini barqarorlashtirish, o'rtacha darajadan past ko'rsatkichga ega mintaqalarni rivojlantirish bo'yicha alohida maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning aniq chora-tadbirlarini belgilash davlat hududiy iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanishi zarur. Bu mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha eng yuqori va eng past darajaga ega viloyatlar o'rtasidagi mavjud ancha katta farqlarni qisqartirib borish imkonini beradi.

Hududlarda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish sur'atlarini bir-biriga yaqinlashtirish va ular o'rtasidagi farqlar ko'lamini qisqartirib borish aholi jon boshiga hisoblangan mazkur ko'rsatkichlar indeksidagi hududiy tafovutlarni kamaytirish imkonini ham beradiki, bu aholi turmush farovonligini o'stirib borishning muhim iqtisodiy shart-sharoitini tashkil qiladi.

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tabiiy-iqlimiy va bir qator shart-sharoitlarini hisobga olgan holda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillar mavjud deb hisoblaymiz. Bularning asosiylari quyidagilar:

- tejamkorlik tamoyillarini joriy qilish, barcha turdagi tabiiy, iqtisodiy va moliyaviy resurslardan tejab-tergab foydalanish;
- ishlab chiqarishni texnik yangilash va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish;
- faoliyat qilib turgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish;
- ichki talabni rag'batlantirish va aholining xarid qilish qobiliyatini oshirish;

¹⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

– iqtisodiyotning real sektor-tarmoqlarida, xususan, sanoatda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish;

– mahalliyashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar eksportini kengaytirishni rag'batlantirish;

– faol investitsion siyosat yuritish, investitsiyalar umumiy hajmida uning o'zlashtirilgan qismi ulushini o'stirib borish;

– kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirish, samarali bandlikni ta'minlab berish.

Umuman, xulosa qilib aytganda, Respublika hududlarida mehnat unumdorligi va fondlar samaradorligi tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu ko'rsatkichlarni ijobiy holatga olib kelish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

– mehnat unumdorligidagi farqlar ko'lamini qisqartirib borish orqali mazkur ko'rsatkich bo'yicha viloyatlar o'rtasidagi keskin farqlanishni birmuncha yumshatish va uning past darajasiga ega viloyatlarni Respublikaning o'rtacha ko'rsatkichiga yaqinlashtirish. Ishlab chiqarishning mavjud texnikaviy asosida 2016 yilgi mehnat unumdorligining eng yuqori va eng past ko'rsatkichiga ega bo'lgan viloyatlar o'rtasidagi farqi 1/4 barobarga qisqarganda band bo'lgan bir kishi hisobiga 1840,0 mln so'mlik qo'shimcha hududiy mahsulot ishlab chiqarish mumkin bo'ladi.

– mehnat unumdorligida past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan viloyatlarni uning Respublikadagi o'rtacha darajasiga yaqinlashtirib borish. 2000 yilda bu farq eng past ko'rsatkichga ega Andijon viloyati bilan taqqoslaganda 1,6 barobarga yaqinni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilda u 2,8 barobarga ortgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'rsatkichiga taqqoslanganda).

– asosiy fondlardan foydalanish samaradorligidagi fond qaytimi o'sib borish tamoyillarini saqlab qolish, uning pasayishi kuzatilgan ayrim hududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Jizzax viloyati) mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la va samarali foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish. 2005-

2010 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida fond qaytimi 30,6 %ga, Jizzax viloyatida 34,0 %ga yaqin kamaygan.

– fond qaytimi past bo'lgan viloyatlar ko'rsatkichini Respublikadagi o'rtacha darajaga yaqinlashtirish va shu orqali asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini umumiy tarzda o'stirib borish. 2016 yilda Respublikaning 2 ta viloyatida bu ko'rsatkich o'rtacha darajadan 1,1 barobar, 4 ta viloyatida 1,5 va Qoraqalpog'iston Respublikasida 3,0 barobardan ko'proqqa past bo'lgan. Shu yili o'rtacha darajadan yuqori ko'rsatkichga 5 ta viloyat ega bo'lgan, faqat bir viloyatda u o'rtacha darajaga teng kelgan.


8.3. Iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda ishchi kuchi resurslarining samarali bandligiga erishishning ahamiyati

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga bag'ishlangan qator ilmiy ishlarni chuqur tahlil qilish natijasida shunday xulosaga keldikki, unga ta'sir qiladigan bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlaridan biri bu – ishchi kuchi resurslaridir.

O'zbekistonning mustaqil davlatga aylanishi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan tub o'zgarishlarga olib kelib, bu o'z navbatida, ishchi kuchi resurslarining shakllanishi va takror hosil qilinishi haqidagi ilmiy-iqtisodiy tasavvurlarni qayta o'rganish, uning strukturasiiga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish hamda bu sohadagi ijtimoiy munosabatlar tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish zaruratini vujudga keltirdi.

Ishchi kuchi resurslari miqdor jihatdan shakllanishining asosi bo'lib aholi harakatlari hisoblanadi. Shu sababli uning shakllanish omillari va sharoitlarini o'rganishda dastlab aholini takror ishlab chiqaruvchi jarayon bo'lgan demografik vaziyat tahlil qilinadi. Ishchi kuchi resurslarining shakllanish

jarayonlari, ularga ta'sir qiluvchi omillar keng qamrovli bo'lib, ular bir nechta bosqichlarni bosib o'tadi. Bu jarayonni chuqurroq tushunish uchun quyidagi (8.3.1-rasm) ko'rinishida ifodalash mumkin.



8.3.1-rasm. Ishchi kuchi resurslarining shakllanish jarayonlari¹⁴¹

8.3.1-rasmdan ko'rinadiki, ishchi kuchi resurslarining shakllanish jarayoni ketma-ketlikda, zanjir ko'rinishda ro'y beradi. Chunki, bunda ishtirok etayotgan omillar o'zaro bir-biri bilan

bog'liq bo'lib, birining natijasida ikkinchisi vujudga keladi va o'zaro ta'sirga ham ega bo'ladi. Demografik jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma va shart-sharoitlar ta'sirida ro'y beradi. Demografik jarayonlar natijasida shakllangan ishchi kuchi resurslari ishlab chiqarishning bosh omili bo'lib, uning asosida YaIM yaratiladi, bu esa iqtisodiy taraqqiyot demakdir. Iqtisodiy taraqqiyot ishlab chiqarish va infratuzilmalarning rivojlanishiga olib kelsa, daromadlar esa aholi farovonligining asosi hisoblanadi.

Mamlakatimizda "mehnatga qobiliyatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini oshirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish"¹⁴² 2017–2021-yillarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining muhim yo'nalishi sifatida belgilab olinganligining o'zi ham yurtimizda ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishning YaIMni yaratish jarayonida naqadar muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligidan dalolat beradi.

Inson ishchi kuchi resurslari tarkibiga kiritilishining asosiy mezonini bo'lib mehnatga bo'lgan qobiliyati hisoblanadi. Odatda, mehnat qilish qobiliyatiga ega ishchi kuchi resurslari tarkibiga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar kiritiladi. Lekin ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqa cohalarda band bo'lgan pensionerlar ham ishlashi mumkin.

Mamlakatda ishchi kuchi resurslari hajmi va sifati qanchalik yuqori bo'lsa, yaratilayotgan YaIM hajmining o'sishi ham shunga mos ravishda bo'ladi. Masalan, dunyoning aholi soni eng ko'p bo'lgan mamlakatlardan Xitoy xalq Respublikasi (XXR) va Hindistonni oladigan bo'lsak, 2014-2016-yillar mobaynida valyutaning xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblaganda YaIM hajmiga ko'ra XXR dunyoda 1-o'rinni (2014-yil 18,2 trln.doll., 2015-yil 19,7 trln. doll. va 2016-yil 21,3 trln. doll), Hindiston esa 3-o'rinni (2015-yil 7,3 trln.

¹⁴¹ Tadqiqot natijalari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

¹⁴² "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy

doll, 2015-yil 8,1 trln.doll. va 2016-yil 8,7 trln.doll.) egallashgan.¹⁴³ Bundan hulosa shuki, YaIM hajmi mamlakatdagi ishchi kuchi resurlari miqdori va sifatiga bevosita bog'liqdir.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatda YaIM hajmining oshishida eng asosiy katta boyligimiz bo'lgan ishchi kuchi resurslari hajmi va ularning iqtisodiyotda band bo'lishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiyotning aynan o'sha subyektlari haqiqiy yangi qiymat yaratishda ishtirok qiladi va YaIM ko'payishining bosh omillaridan sanaladi. Oxirgi yillarda Respublika va uning hududlarida aholi soni oshishi bilan birga uning tarkibidagi ishchi kuchi resurlari va ularning bandlik darajasi ham yildan yilga oshib bormoqda. (8.3.1-jadval)

8.3.1-jadval

Ishchi kuchi resurslari va ular bandligi (mln. kishi)¹⁴⁴

	2000			2005			2010			2016		
	ishchi kuchi resurslari	iqtisodiy faol aholi	iqtisodiyotda bandlar	ishchi kuchi resurslari	iqtisodiy faol aholi	iqtisodiyotda bandlar	ishchi kuchi resurslari	iqtisodiy faol aholi	iqtisodiyotda bandlar	ishchi kuchi resurslari	iqtisodiy faol aholi	iqtisodiyotda bandlar
O'zbekiston Respublikasi	12,5	9,02	8,9	14,4	10,2	10,2	16,7	12,3	11,6	18,5	14,02	13,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,76	0,50	0,49	0,85	0,54	0,53	0,96	0,63	0,58	1,04	0,67	0,34
<i>Viloyatlar</i>												
Andijon	1,14	0,83	0,82	1,34	0,96	0,95	1,56	1,18	1,11	1,71	1,37	1,29
Buxoro	0,75	0,59	0,58	0,86	0,67	0,69	0,99	0,81	0,77	1,06	0,87	0,83
Jizzax	0,47	0,31	0,29	0,55	0,33	0,32	0,65	0,41	0,38	0,75	0,48	0,45
Qashqadaryo	1,02	0,73	0,72	1,32	0,83	0,82	1,49	1,03	0,98	1,76	1,25	1,18
Navoiy	0,41	0,32	0,31	0,46	0,38	0,37	0,53	0,43	0,41	0,54	0,45	0,42
Namangan	0,96	0,62	0,61	1,13	0,69	0,68	1,36	0,87	0,82	1,53	1,06	1,01
Samarqand	1,31	0,93	0,92	1,53	1,05	1,04	1,82	1,31	1,23	2,06	1,58	1,49
Surxondaryo	0,81	0,58	0,57	0,99	0,65	0,64	1,18	0,83	0,79	1,41	1,02	0,97
Sirdaryo	0,32	0,26	0,25	0,38	0,28	0,28	0,42	0,33	0,32	0,48	0,37	0,36
Toshkent	1,23	0,90	0,89	1,41	1,02	1,01	1,55	1,21	1,19	1,62	1,34	1,29
Farg'ona	1,33	1,03	1,02	1,56	1,18	1,17	1,82	1,42	1,34	2,02	1,6	1,5
Xorazm	0,67	0,47	0,46	0,79	0,53	0,52	0,91	0,64	0,61	0,99	0,75	0,72
Toshkent sh.	1,32	1,02	1,01	1,38	1,13	1,12	1,52	1,19	1,15	1,54	1,21	1,17

¹⁴³ <https://ru.wikipedia.org/wiki>

¹⁴⁴ <https://stat.uz/uz/statinfo/demografiya-va-mehnat/aholi-bandligi/2435-2000-2016-yillarda-mehnat-resurslari-va-aholi-bandligi-ming-kishi>. Internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

8.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Respublikamiz va uning barcha hududlarida ishchi kuchi resurslari yildan yilga oshib borgan. Masalan, 2000-yilda ishchi kuchi resurslari 12,5 mln., iqtisodiy faol aholi 9,02 mln., bandlar esa 8,9 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2016-yilga kelib mos ravishda 6 mln., 5 mln., 4,4 mln. kishiga ortgan. Buning natijasida o'sha yillarda mamlakatda YaIM hajmi ham shunga mos ravishda ortganligi ko'pchilikka ma'lum.

YaIM hajmi va o'sish sur'atlarini oshirishda nafaqat ishchi kuchi resurslari miqdori, balki ularning tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Oxirgi yillarda Respublikamiz aholisi va ishchi kuchi resurslari tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bu asosan mehnatga layoqatli yoshdagilarning umumiy aholi sonidagi ulushining ortishi bilan bog'liq.

Yosh-jins tarkib bo'yicha guruhlar ulushida mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholining salmog'i yuqoridir. Jumladan, 2000-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi doimiy aholiga nisbatan 49,7 foizni, ishchi kuchi resurslariga nisbatan 98,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2005-yilda mos ravishda 54,5 foiz va 98,7 foizni, 2016-yilga kelib esa 57,7 foiz va 99,4 foizni tashkil qilgan. Ushbu holat mamlakatdagi demografik vaziyatning nisbatan barqarorlashuvi, ishchi kuchini takror hosil qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish tizimining samarali yo'lga qo'yilishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishi natijasidir. (8.3.2-jadval)

8.3.2-jadval

Ishchi kuchi resurslari tarkibi
(yil boshiga; mln. kishi)¹⁴⁵

	2000			2005			2010			2016		
	soni	Doimiy aholiga nisbatan (%)	Ishchi kuchi resurslariga nisbatan (%)	soni	Doimiy aholiga nisbatan (%)	Ishchi kuchi resurslariga nisbatan (%)	soni	Doimiy aholiga nisbatan (%)	Ishchi kuchi resurslariga nisbatan (%)	soni	Doimiy aholiga nisbatan (%)	Ishchi kuchi resurslariga nisbatan (%)
Ishchi kuchi resurslari, jami:	12,5	50,6	-	14,4	55,2	-	16,7	58,6	-	18,5	58,1	-
<i>Shu jumladan</i>												
Mehnatga yaroqli yoshdagi aholi	12,2	49,7	98,2	14,3	54,5	98,7	16,5	57,9	98,9	18,4	57,7	99,4
Iqtisodiyotda band bo'lgan o'smirlar va katta yoshdagi aholi	0,22	0,9	1,8	0,19	0,7	1,3	0,19	0,7	1,1	0,12	0,4	0,6

Ishchi kuchi resurslari o'ziga iqtisodiyotda mehnat bilan band bo'lgan kishilarni ham, band bo'lmasa-da, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilarni ham qamrab oladi. Boshqacha aytganda, ishchi kuchi resurslari faol (real) va potensial xodimlardir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda oxirgi yillarda ishchi kuchi resurslarining faol va potensial qismi o'rtasidagi nisbatda uncha katta bo'lmagan o'zgarishlar seziladi. (8.3.3-jadval)

8.3.3-jadval

O'zbekistonda ishchi kuchi resurslari tarkibida faol va potensial qismlarning ulushi (ming kishi)¹⁴⁶

	2010	2015	2016	2017*
Jami ishchi kuchi resurslari	16726,0	17814,1	18492,7	19440,8
<i>Shahar</i>	9134,1	9599,5	10208,0	10206,7
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	54,6	53,9	55,2	52,5
<i>Qishloq</i>	7591,9	8214,6	8284,7	9234,1
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	45,4	46,1	44,8	47,5
Ishchi kuchining faol qismi	12286,6	13163,0	15382,6	15941,6
<i>Shahar</i>	6840,8	7098,7	8414,3	8927,3
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	55,7	53,9	54,7	55,8
<i>Qishloq</i>	5445,8	6064,3	6968,3	7014,3
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	44,3	46,1	45,3	44,2
Ishchi kuchining potensial qismi	4439,4	4651,1	3110,1	3499,2
<i>Shahar</i>	2293,3	2500,8	1713,7	1889,6
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	51,7	53,8	55,1	54,2
<i>Qishloq</i>	2146,1	2150,3	1397,0	1609,6
<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	48,3	46,2	44,9	45,8

*2017-yilning 9 oylik ma'lumotlari

8.3.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Respublikamizda ishchi kuchi resurslarining faol va potensial qismi o'rtasidagi nisbat oxirgi yillarda juda sezilarsiz darajada bo'lgan. Buning asosiy sababi tahlil qilinayotgan har bir davrdagi ishchi kuchi resurslari tarkibidagi faol ishchilar keyingi yillarda pensiyaga chiqib, ular o'rniga yangi ishchilar (oldingi davrlardagi potensial ishchi kuchlari) amaliyotga kirib kelayotganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, jadval ma'lumotlaridan ishchi kuchi resurslarining har ikkala qismida ham shaharlarda band bo'lganlar ulushi yuqoriligicha qolmoqda.

Mamlakatdagi ishchi kuchi resurslari miqdoriga ishchi kuchi migratsiyasi ham ta'sir qiladi. Ishchi kuchi migratsiyasi murakkab jarayon bo'lib, turli omillar ta'siri ostida (masalan, ish haqi

¹⁴⁵ <https://stat.uz/uz/statinfo/demografiya-va-mehnat/aholi-bandligi/2435-2000-2016-yillarda-mehnat-resurslari-va-aholi-bandligi-ming-kishi>. Internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

¹⁴⁶ <http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1451-demografik-korsatkichlari-tahlili>

darajasidagi o'zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko'chib o'tishini bildiradi.

Migratsiya ikki darajada, ya'ni mamlakat ichida va xalqaro miqyosda ro'y berishi mumkin. Ishchi kuchining mamlakat ichida ko'chib yurishi ichki migratsiya deb atalib, u quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

1) tugal migratsiya – aholining doimiy yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq migratsiya;

2) tebranuvchi migratsiya – ishchi kuchining bir hududdan boshqa hududga muntazam davriy ravishda qatnab ishlashi bilan bog'lik migratsiya;

3) mavsumiy migratsiya – mavsumiy ish faoliyati bilan bog'liq migratsiya;

4) tasodifiy migratsiya – ishchi kuchining ba'zi hollarda boshqa hududlarga borib kelishi bilan bog'liq migratsiya.

Ishchi kuchi migratsiyasi shunchaki ro'y bermay, uning negizida ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy sabablar yotadi. Ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiy vazifasi sifatida mamlakat bo'ylab mehnat resurslari samarali taqsimlanishini ta'minlash, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif nisbatini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu vazifaning amalga oshishi natijasida ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi oshadi.¹⁴⁷

Aholining migratsion harakatlari ishchi kuchi resurslarining hududlar bo'yicha qayta taqsimlanishi va takror ishlab chiqarilishini yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biridir.

O'zbekiston iqtisodiyotining bugungi holati uchun manfiy migratsion saldo xos bo'lib, u mamlakat mustaqilligidan so'ng avj oldi (8.3.4-jadval).

8.3.4-jadval

O'zbekiston Resublikasida aholining yillik migratsion harakatlari (ming kishi)¹⁴⁸

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2015-y.	2016-y.
Kelganlar soni	149,6	139,7	147,4	146,1	144,9
Sh.j. qishloq joylarda	64,9	49,7	60,3	60,5	59,3
Ketganlar soni	224,8	232,7	243,5	253,1	210,2
Sh.j. qishloq joylarda	85,3	87,0	105,1	111,8	97,4
Migratsion saldo	-75,2	-93,0	-96,0	-107,0	-65,3
Sh.j. qishloq joylarda	-20,4	-23,3	-44,8	-51,3	-38,1

Mamlakatda 2000-yil jami manfiy migratsion saldo 75,2 ming kishini tashkil etib, uning yuqori miqdori Toshkent, Samarqand, Andijon viloyatlari hamda Toshkent shahri ulushiga to'g'ri kelgan.

Mazkur yillarda aholi ko'chish strukturasi tahlil qiladigan bo'lsak, yuqori migratsion saldo asosan boshqa millat vakillarining mamlakatdan ko'chib ketishi hisobiga ro'y berganining guvohi bo'lamiz. Shu sababli turli millat vakillari istiqomat qiladigan yirik shahar va hududlarda aholining jo'nab ketish koeffitsienti yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan.

Respublikada keyingi yillardagi aholining migratsion harakatlari ularning nisbatan sanoatlashgan shaharlarga va yaqin xorijiy mamlakatlarga ish izlab borishlari bilan asoslanadi. Chunki, bu vaqtga kelib ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan hududlardagi aholi o'zlariga munosib ish topish va yuqori mehnat daromadini qo'lga kiritish maqsadida o'z yashash joylarini tark eta boshladilar. Mazkur ko'rsatkich 2005-yildan boshlab oshib borib (93,0 ming kishi), 2015-yilda o'zining eng yuqori nuqasiga etib, 107,0 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2016-yil yakuniga ko'ra esa 65,3 ming kishidan iborat bo'lgan. Jami migratsion saldo miqdorida Qoraqalpog'iston

¹⁴⁷ Sh.Shodmonov, U.G'afurov Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: Moliya. 2010-y. 368-b.

¹⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Respublikasining ulushi katta bo'lib, mazkur vaziyat noqulay ekologik muhit natijasida aholi sog'lig'ining yomonlashuvi, o'limlar miqdorining oshishi, turmush darajasining pasayishi va ishsizlikning yuqori ko'rsatkichi kabi holatlar oqibatida kelib chiqqan. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Namangan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham aholining migratsion harakatlanish sur'ati yuqori bo'lib, ushbu hududlardagi demografik jarayonlarning murakkab ko'rinishga egaligi va unga bog'liq ravishda mehnat bozorining katta bosimli holati oqibatida yuz bermoqda.

YaIM hajmi va o'sish sur'atlarining oshishiga mamlakatdagi ishchi kuchi resurslari juda katta ta'sir qilar ekan, demak, ulardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga ko'plab omillar ta'sir qilib, uning natijasida ishchi kuchi bozori holati va tarkibi, ishchi kuchi taklifi, unga bo'lgan talab miqdor va sifat jihatdan o'zgarib turadi. Shu sababli, ishchi kuchi resurslari mamlakat iqtisodiyotiga va uning tarmoqlariga safarbar qilinishi holatini tahlil qilishda omilli yondashuv talab etiladi. Ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishda ularni geografik va tabiiy-iqlimiy, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar kabi guruhlarga bo'lib o'rganamiz.

Ishchi kuchi bandligini ta'minlashga geografik va tabiiy omillar sezilarli darajada ta'sir qiladi. Chunki, Respublika mintaqalari turli tabiiy va geografik xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat hududiy mehnat bozorlarining tabiiy sharoitga yuqori ta'sirchanligini anglatadi. Masalan, Orolbo'yi mintaqasidagi ishsizlikning yuqori darajasi ekologik vaziyat bilan asoslanadi. Bundan tashqari, iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi tarmog'ining yuqori ulushi Respublikada ish bilan bandlikning mavsum va iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqligini keltirib chiqaradi. Noqulay kelgan ob-havo sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishga salbiy ta'sir ko'rsatib, hosilning keskin kamayishiga sabab bo'ladi. Ushbu holat esa sanoat,

jumladan, qayta ishlash, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari korxonalarining to'la quvvatda ishlamasligi, ishchilarning bo'sh qolishi va qisqartirilishiga olib keladi. Shuningdek, ushbu omillar norasmiy sektorda ish bilan bandlar sonining o'sishi va ishsizlikning ko'payishiga ham sababchi bo'ladi. Respublikamizning qishloq joylarida mavjud yuqori darajadagi mavsumiy ishsizlik holati ham aynan mavsum va ob-havo sharoiti bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, qishloq xo'jaligida mehnat qilayotganlar mavsumdan tashqari vaqtda ishsiz qolmoqda yoki nomuayyan, vaqtinchalik va bir martalik ishlar bilan shug'ullanishga majbur bo'lmoqda.

Hududlarda ishchi kuchi bandligi mintaqada mavjud tabiiy resurslariga ham bog'liqdir. Tabiiy resurslar hududiy iqtisodiyot tarmoqlarining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi. Masalan, tabiiy xom ashyo resurslariga boy bo'lgan Navoiy, Toshkent, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlangan bo'lib, ushbu mintaqalar ishchi kuchining salmoqli qismi ushbu tarmoqlarda banddir.

Ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga demografik omillarning ham ta'siri kattadir. Bunda, demografik omillar ishchi kuchining tabiiy harakati va ish bilan bandlik tarkibidagi tabiiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Aholi, jumladan, ishchi kuchining o'lim ko'rsatkichi ish bilan bandlikka sezilarsiz bo'lsa-da ta'sir qiladi. Agar ushbu ko'rsatkich yuqori darajada ro'y bersa, u holda mamlakat ishchi kuchi tarkibining sifat va miqdor jihatdan qisqarishiga olib keladi. Shu bilan birga kasalliklarning ko'payishi, ayniqsa, kasb kasalligi va jarohatlari natijasida ham ish bilan band fuqarolar o'z ish joylarini yo'qotib qo'yishlari va ishchi kuchi safidan chiqib ketishlari mumkin.

Shuningdek, demografik jarayonlar ichida tug'ilish ko'rsatkichi ish bilan bandlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki, farzand dunyoga kelishi natijasida ayollar vaqtinchalik ishchi kuchi safidan chiqadi va iqtisodiy nafaol aholi tarkibiga qo'shiladi. O'zbekistonda ayollar

farzandi 2 yoki 3 yoshga etguncha tugʻruq taʼtilida boʻladi. Demak, bu holatda ayollar kamida 2-yildan soʻnggina yana iqtisodiy faol aholi tarkibiga qaytishi mumkin boʻladi. Shu sababli mamlakatda tugʻilishning yuqori koʻrsatkichi ayollar ish bilan bandligiga taʼsir qiluvchi bosh omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Respublikada yiliga oʻrtacha 550 ming nafar chaqaloq tugʻiladi, bu esa, oʻz navbatida, shuncha miqdordagi ayollarning mehnat bozoridagi faolligiga maʼlum muddat boʻlsa-da chek qoʻyadi.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, gender omili ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanish va ularni safarbar etishga taʼsir qiluvchi demografik omillar ichida alohida oʻrintutadi. Oʻzbekistonda ayollarning iqtisodiyotga jalb qilinishi va jamiyatning faol aholisi tarkibiga qoʻshilishi oʻziga xos xususiyatga egadir.

Respublikada soʻnggi yillarda roʻy berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va tub oʻzgarishlar ayollarning bandlik muammolari hamda ularning ishchi kuchi bozoridagi oʻrmini belgilab berdi. Jumladan, ayollar sogʻligʻiga alohida eʼtibor berilishi natijasida ularning faollik darajasi sezilarli oshdi.

Mamlakat ishchi kuchi resurslari oʻzgarishiga taʼsir qiladigan yana bir eng asosiy omillardan biri bu ishchi kuchi migratsiyasi, ayniqsa, tashqi migratsiyadir. Mamlakatimiz aholi sonining yildan yilga ortib borishi va ishchi kuchining yetarlicha ish oʻrinlari bilan taʼminlanmaganligi oqibatida Respublikamizda emigrantlar soni hamon yuqoriligicha qolmoqda. Tadqiqot natijalari koʻrsatishicha, norasmiy tarzda xorijga ishlash uchun ketayotganlarning asosiy qismini (85,0%) avval hech qaerda ishlamagan yoki doimiy ish joyiga ega boʻlmagan aholi tashkil etmoqda. Shuningdek, ularning 70,0% ga yaqini faqatgina oʻrta maʼlumotga ega aholi boʻlsa, oʻrta maxsus maʼlumotlilar 20,0% ni tashkil etmoqda. Bunday holat oʻrta yoki oʻrta maxsus maʼlumotga ega boʻlgan ishsizlar mahalliy mehnat bozorida raqobatbardosh emasligi sababli oʻzlariga munosib ish topishga qiynalishlaridan dalolat beradi.

Demak, taʼlim tizimi ham ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga taʼsir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu omilning mehnat bozoriga, ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga koʻrsatadigan taʼsirini quyidagilarda koʻrish mumkin:

- aholi, jumladan, yoshlar savodxonlik darajasining yuqori koʻrsatkichi malakali ishchi kuchi bozorini vujudga keltiradi;

- ishchi kuchi bozorida raqobat kurashining paydo boʻlishiga olib keladi;

- ishchi kuchi taklifining sifat tarkibini takomillashtiradi;

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda taʼlim olayotgan yoshlar sonining koʻpayishi ishchi kuchi resurslari tarkibida iqtisodiy nafaol aholi ulushining ortishiga sabab boʻladi;

- iqtisodiyot tarmoqlarining tegishli yoʻnalishlardagi malakali kadrlarga boʻlgan talabini optimal qondirishni taʼminlaydi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit va milliy urf-odatlarining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishning milliy modeli ishlab chiqildi. Chunki, islohotlardan oldingi kadrlar tayyorlash va taʼlim tizimi Respublikada amalga oshirilayotgan demokratik va bozor oʻzgarishlari talabiga javob bermay qoʻydi.

Oʻzbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan, mamlakatda iqtisodiy taraqqiyotga erishish milliy modeli kadrlar tayyorlash boʻyicha yangi tizimning asosi, yadrosi hisoblanadi. Bunda kadrlar tayyorlash milliy modelining mazmuni va oʻziga xos xususiyati tizimning butunligi, unga asosiy tashkil etuvchilar sifatida davlat, jamiyat, shaxs, uzluksiz taʼlim, fan va ishlab chiqarish kabi komponentlarni kiritishdan iborat.

Mamlakat ishchi kuchi resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning eng birinchi yoʻli boʻlib, qonunchilik bazasini mustahkamlash, meʼyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ularni amaliy hayotga tatbiq etish hisoblanadi. Chunki, bugungi

kunda mamlakatimizda amal qilayotgan ba'zi bir me'yoriy hujjatlar qayta ko'rib chiqish, tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi.

Fikrimizcha, mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotga erishish, aholi turmush darajasini ko'tarish va xalq farovonligini oshirishda ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishning quyidagi yo'nalishlarida chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, ta'lim islohotlarining amalga oshirilishi natijasida aholining ishchi kuchi bozoriga chiqishi kamida 3-yilga kechikishi, mamlakatda turmush darajasining yaxshilanishi natijasida aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi oshib borayotganligi va bugungi kunda ushbu ko'rsatkich 72,1 yoshni tashkil etayotganligini e'tiborga olib, Respublikada aholi mehnatga qobiliyatli yoshning yuqori chegarasini o'zgartirish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, bunda mazkur chegarani ayollar uchun ham, erkaklar uchun ham kamida 2-yilga kechiktirish zarur. Buning natijasida ba'zi tarmoq va lavozimlarda nafaqa yoshidagilar mehnati diskriminatsiyasining oldi olinadi, shu bilan birga, pensiya yoshi chegarasida bo'lgan aholining daromadlari oshadi, ularning jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlariga to'lovlar hajmi ko'payadi. Bundan tashqari, davlat byudjetiga tushumlar (daromad solig'i, ijtimoiy to'lovlar) ko'payib, uning xarajatlari (transfert to'lovlar) kamayadi. Shuningdek, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining kishi boshiga to'g'ri keladigan xarajatlar yuklamasi ham kamayishi ro'y beradi.

Ikkinchidan, «Mehnat organlariga bo'sh ish o'rinlari va lavozimlar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish tartibi to'g'risida»gi Nizomni qayta ko'rib chiqish kerak. Chunki, mazkur Nizomning amaliy tatbiqi past ko'rsatkichga ega bo'lib, ish beruvchilarning mavjud bo'sh ish o'rinlari va lavozimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni mehnat bo'limlariga taqdim etish mexanizmi samarasiz amal qilmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, yirik korxonalarining 50% dan

kamrog'igina bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishsa, kichik korxonalar va firmalar esa, bo'sh ish o'rinlari bankini shakllantirishda deyarli ishtirok etmaydilar. Shu bois, mehnat organlarida ro'yxatga olingan vakansiyalar soni ularning haqiqiy miqdoridan bir necha barobar kamdir. Mazkur holatlar mehnat organlarining ish beruvchilar bilan o'zaro aloqasini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab etmoqda.

Uchinchidan, ishsizlarni ishga joylashtirishda xususiy sektorning ishtirokini kuchaytirish va bu ishda xususiy kadr agentliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash lozim. Bugungi kunda Respublikamizda xususiy kadr agentliklari faoliyati deyarli mavjud emas. Faqat ayrim internet saytlaridagina bo'sh ish o'rinlari va ish qidiruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilmoqda. Ishga joylashtirish va ishchi kuchi yollash bo'yicha xususiy sektor xizmatidan foydalanish natijasida mehnat bozorida raqobat muhiti shakllanadi. Sog'lom raqobat esa talab va taklifning qondirilishi hamda ular o'rtasidagi o'zaro miqdoriy va tarkibiy nisbatning yaqinlashuvini ta'minlaydi.

Umuman, xulosa qilib aytganda, mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishda eng asosiy omillardan biri ishchi kuchi resurslari hajmi, tarkibi, sifati va eng asosiysi, ularning samarali bandligi juda katta ahamiyat kasb yetadi. Shuning uchun mamlakatda ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishda Yuqorida ko'rsatilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy tayanch tushunchalar.

Makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy mutanosiblik va muvozanatlik, iqtisodiy sikl, inqiroz, jonlanish, yuksalish, yalpi hududiy mahsulot, yalpi ishchi kuchi, ishchi kuchi resurslari, emmigratsiya, immigratsiya, potensial ishchi kuchi, samarali bandlik.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish omillari nimalardan iborat?
2. O'zbekiston YaIM hajmi va o'sish sur'atlariga qanday omillar ta'sir qiladi?
3. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish mexanizmi nimadan iborat?
4. Hududning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun tabiiy, mineral-xomashyo resurslaridan foydalanishda qaysi omillarga e'tibor qaratiladi?
5. Hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil qilish qaysi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
6. Mamlakat ishchi kuchi resurslari hajmiga qanday omillar ta'sir qiladi?

9-MAVZU. IJTIMOY SOHANI RIVOJLANTIRISH VA AHOLI DAROMADLARI

9.1. Mamlakatda bandlik va aholi daromadlarining o'sish tendensiyalari

Ijtimoiy soha – ijtimoiy hayotning nisbatan mustaqil sohasi, unda xilma-xil ijtimoiy manfaatlar va ijtimoiy subyektlarning munosabatlari amalga oshadi, shaxsning ijtimoiy shakllanishi yuz beradi; shu bilan bir vaqtda ijtimoiy ne'matlar yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatishda band bo'lgan kishilar faoliyatining sohasi "ijtimoiy munosabatlar" ma'nosidan ancha keng, chunki moddiy negiz va ijtimoiy munosabatlarni amalga oshiruvchi kishilarni qamrab oladi.

Ijtimoiy soha insonning normal darajada yashash sharoitini tashkillashtirish, ijtimoiy iste'molga bo'lgan talablarni, jumladan, turar-joy, bilim olish, kasb-korlikka va malakaga ega bo'lish, sog'liqni saqlash va musthkamlash, dam olish, madaniy va ma'naviy etuk bo'lishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga bevosita xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiyot tarmoqlari majmuidir. Ijtimoiy soha (sektor) – davlat va jamoat tashkilotlari (shu jumladan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari) ihtiyorida bo'lgan iqtisodiyot resurslari majmuasi bo'lib, iqtisodiy muhim (maydon)ning shunday qismiki, unda quyidagi xususiyatlar mujassam bo'ladi:

1. Iqtisodiy faoliyatni ayirboshlanishini tashkil etishning nobozor turi ustuvor bo'ladi, bozor amal qilmaydi yoki qisman amal qiladi;

2. Ijtimoiy (jamoat) ne'matlar ishlab chiqariladi, taqsimlanadi va iste'mol qilinadi;

3. Jamoat (ijtimoiy) ne'matga talab va taklif o'rtasidan iqtisodiy muvozanat davlat, maxalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ko'ngilli- jamoat tashkilotlari tomonidan tegishli ijtimoiy dastaklar, birinchi navbatda byudjet-moliya siyosati yordamida ta'minlanadi.

Ijtimoiy soha ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy yordam mehnatga layoqatsiz yoki qaramog'ida bolalar bo'lganligi uchun ishlay olmaydiganlarga yordam ko'rsatishni ifodalaydi. Ijtimoiy yordam asosan davlat byudjetidan moliyalashtiriladi va xayriya, ya'ni ijtimoiy transfertlar hisoblanadi. Ijtimoiy yordamning namoyon bo'lish shakllari quyidagilardan iborat:

- kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar;
- bolali oilalarga nafaqalar;
- nogironlarga nafaqalar;
- oziq-ovqat talonlari;
- uy-joy xo'jaligiga dotatsiyalar.

Ijtimoiy sug'urta pensiyaga chiqish, vaqtinchalik mehnat layoqatini yo'qotish va ishsizlik bilan bog'liq bo'lgan ish haqini yo'qotishlarni qoplashni ifodalaydi. Ijtimoiy sug'urta ish haqidan ijtimoiy ajratmalar hisobidan moliyalashtiradi va topilgan huquq hisoblanadi. Uning namoyon bo'lish shakllari quyidagilardan iborat:

- pensiya;
- ishsizlik bo'yicha nafaqa;
- tibbiy sug'urta.

Ijtimoiy xizmatlar sohasi inson kapitalini shakllantirish va investitsiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy xizmatlar o'z ichiga quyidagi sohalarni oladi:

- ta'lim;
- sog'liqni saqlash;
- madaniyat, sport;
- mehnat birjasi xizmatlari.

Ijtimoiy soha amal qilishining maqsadi taqsimlash funksiyalarini amalga oshirish mexnanizmlari yordamida ma'lum bir mintaqa (hududda) insonning ijtimoiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishning yagona ijtimoiy-iqtisodiy maydonini shakllashtirishdan iboratdir. Ijtimoiy sohada iqtisodiy faoliyat tarkibi davlat, ijtimoiy, aralash, xususiy sektorlardan iborat.

Ijtimoiy soha rivojlanishi quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

– ijtimoiy xarajatlar hajmi va tarkibi inson ijodiy potentsiali ahamiyatining oshishi, inson rivojlanishi uchun xarajatlarning o'sishi;

– ijtimoiy iqtisodiyot aralash sektoridagi raqobat va bozor mexanizmi imkoniyatlarining kengayishi. Bu holda ijtimoiy xarajatlar kamayishi uchun imkoniyatlar yaratiladi;

– davlat mulkini oqilona xususiylashtirish.

Davlatning ijtimoiy siyosat deganda davlatning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning hal qilinishiga bo'lgan munosabati, ijtimoiy infratuzilmalar samarali va bir maromda amal qilishini ta'minlashga qaratilgan kundalik davlat faoliyati, ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni bajarilishini ta'minlanishidagi strategiya va taktik yondashuv nazarda tutiladi. Davlatning ijtimoiy siyosati bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishga yo'naltiriladi.

O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

– ijtimoiy siyosatni o'tkazishda davlatning boshqarish funksiyasiga egaligi;

– ijtimoiy islohotlarning bosqichma-bosqichligi;

– aholining yashash darajasini keskin tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik;

– mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari mahallalar orqali aholiga aniq manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish;

– ijtimoiy islohotlarning iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

– aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash;

– mahsulot, xizmat va uy-joyning kuchli ichki iste'mol bozorini shakllantirish;

– aholining to'lov talablarini keng miqiyosda qondirish va uning o'sishini ta'minlash;

– aholining daromad va mulkka egalik darajasining keskin tabaqalashuvining oldini olish;

– ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan zarur kafolatni ta‘minlash.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda davlat ijtimoiy siyosati quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

– davlat ijtimoiy iste‘mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a‘zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;

– davlatning markazlashgan ijtimoiy sug‘urta fondini tashkil etish;

– ko‘rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;

– ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;

– ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqalar;

– kam ta‘minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko‘rsatish;

– bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

– talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalari;

– ishsizlik nafaqasi;

– eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarini belgilangan narxlarda sotilishini ta‘minlash;

– ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjet hisobidan qoplash;

– ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog‘liqni saqlash, ta‘lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasining rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Ijtimoiy soha rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari insonning xar tomonlama rivojlanishi, hayot sharoitlarining

yaxshilanishi, moddiy va ijtimoiy farovonligining oshishida o‘z ifodasini topadi. Bu ko‘rsatkichlarning umumlashtirilgan ifodasi sifatida inson potentsiali rivojlanishi indeksi qo‘llaniladi. Inson potentsiali rivojlanishi indeksi (IPRI) kutilayotgan umr uzoqligi, aholi jon boshiga xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha AQSh dollarida YaIM va savodxonlik darajalarining o‘rtacha arifmetik indeksi bilan o‘lchanadi. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish darajalari ushbu indeks bilan ham o‘lchanadi. Shuningdek, ijtimoiy sohaning rivojlanishi aholi jon boshiga inson kapitali-davlat, korxonalar, shaxs tomonidan sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlariga qilingan aholi jon boshiga investitsiyalar hamda aholi turmush darajasi va sifati ko‘rsatkichlari bilan o‘lchanadi. Ijtimoiy soha aholi daromadlarini qayta taqsimlash, inflyatsiya va kambag‘allikni qisqartirish, mintaqalararo ijtimoiy farqlarni bartaraf etish va boshqa ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ygan. Ijtimoiy dasturlarni bajarish innovatsion iqtisodiyotga o‘tish va ijtimoiy mehnat unumdorligining o‘stirilishiga bog‘liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati shu sohadagi bozor va bozor mexanizmi qondira olmaydigan shunday ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, bozor pensiya yoshidagi kishilarning ijtimoiy himoyasiga, ishsizlarga, mehnat nogironlariga, tug‘ilgandan nogironlarga, ko‘p bolali oilalarga yordam berish kabi jamiyat xarajatlariga befarq. Bozor hattoki aholi daromadlari darajasini keskin tabaqalashuvining o‘shishiga sabab bo‘ladi va mavjud tarixiy madaniy qadriyatlarga bozor befarqlik bilan qaraydi.


O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar maqsadi inson va uning manfaatlari, farovonligini ta‘minlash hamda insonni har tomonlama kamolga yetkazishga qaratilgandir.

Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta'lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham o'rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko'paytirish maqsadga muvofiq.

“2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da ham byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish ham ustuvor vazifa qilib qo'yilgan.

Respublika aholisining daromadlari va turmush darajasini yana-da muttasil oshirib borish, fuqarolarga ijtimoiy madadni kuchaytirish maqsadida 2017-yilning 1-dekabridan boshlab byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar hamda nafaqalar miqdori o'rta hisobda 1,15 baravar oshirildi. 2017-yilning 1-dekabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida eng kam ish haqi – oyiga 172240, yoshga doir pensiyalar – 336880, bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa – 292 940, zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa 206720 so'm miqdorida belgilandi.

Ta'kidlash joizki, o'tgan yillarda ham mamlakatimizda mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va aholi daromadlari o'sishiga qaratilgan ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat samarali amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatimizda 2016-yilda byudjet tashkiloti xodimlarining o'rtacha ish haqi bir necha barobarga oshdi. (9.1.1-rasm)



9.1.1-rasm. O'zbekistonda o'rtacha ish haqi va aholi jon boshiga real daromadlarning o'sish sur'atlari. (2000-yilga nisbatan barobar)¹⁴⁹

9.1.1-rasm ma'lumotlaridankorinadiki, Respublikamizda aholining real daromadlari uzoq-yillar davomida muttasil oshib bormoqda. Hususan, Respublikada o'rtacha ish haqi darajasi 2000-yilga nisbatan 2005-yilda 3,1; 2010-yilda 13,4; 2015-yilda 22,5 va 2016-yilda 23,6 barobarga oshgan. Buning natijasida aholi real daromadlari 2000-yilga nisbatan 2005-yilda 2; 2010-yilda 6,2; 2015-yilda 10,4 va 2016-yilda 11,7 barobargacha oshgan. Bu mamlakatimizda olib borilayotgan odilona va oqilona ijtimoiy va ish haqi siyosatining natijasidir.

Mamlakatimizda “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” va uning “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari” deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishining 4.1.-bandida – “Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish, aholining real pul daromadlari va harid qobiliyatini oshirish, byudjet muassasasi hodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalarning hajmini inflyatsiya sur'atlariga nisbatan jadal miqdorda

¹⁴⁹ <http://stat.uz/136-tahliliy-ma-lumotlar/1477-o-zbekiston-respublikasida-aholi-turmush-darajasi-va-faravonligining-rivojlanishi-tahlili>

bosqichma-bosqich oshirish¹⁵⁰ – vazifalarining belgilab qo'yilishi mamlakatimizda ish haqi va ijtimoiy to'lovlarni oshirish orqali aholi turmush darajasini yuksaltirishga naqadar katta ahamiyat berilayotganligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yana-da oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o'sib borgan va yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Quyida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2000–2016-yillarda aholi jon boshiga daromadlar, ish haqi va pensiyalarning yildan yilga o'sib borish tendensiyalarini kuzatish mumkin. Ammo so'nggi yillarda daromadlarning tarkibidagi asosiy manbalaridan hisoblangan ish haqi hamda pensiyalarning o'sish sur'atlari pasaygan bo'lib, bu holat aholi-ning umumiy daromadlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. (9.1.1-jadval)

9.1.1-jadval

2000–2016-yillarda Respublika aholisi daromadlari, ish haqi va pensiyalarning o'zgarish dinamikasi¹⁵¹

Ko'rsatkichlar nomi	2000	2005	2010	2016
I. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'mda	96,4	371,8	1668,1	4565,2
<i>o'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sishi, foizda</i>	124,7	117,4	120,1	110,0
II. Yillik o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda	13,5	81,5	504,8	1293,8
<i>o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda</i>	146,0	138,7	129,4	110,4
III. Belgilangan o'rtacha pensiya miqdori (yil oxiriga), ming so'mda	7,4	31,7	171,9	494,2
<i>o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda</i>	152,0	143,5	125,9	112,8

¹⁵⁰ “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”. http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy

¹⁵¹ <http://stat.uz/136-tahliliy-ma-lumotlar/1477-o-zbekiston-respublikasida-aholi-turmush-darajasi-va-faravonligining-rivojlanishi-tahlili>

O'tgan davr mobaynida aholi jon boshiga daromadlar mun-tazam ravishda oshib borgan va 2016-yil ma'lumotlari bo'yicha real daromadlar 2000-yildagi darajasiga nisbatan 11,7 marta osh-gan. Shuningdek, ushbu davr oralig'ida o'rtacha ish haqi hamda pensiyalar miqdori mos ravishda 23,6 va 18,1 marta ortgani kuzatildi.

O'z navbatida, 2016-yil ma'lumotlari bo'yicha daromadlar tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning ulushi 73,3 foizni (2010-yilda 69,9 foiz), transfert shaklida olingan daromadlarning ulushi 20,3 foizni (2010-yilda 25,9 foiz), mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 4,0 foizni (2010-yilda 2,4 foiz), shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi esa 2,4 foizni (2010-yilda 1,8 foiz) tashkil etgan. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar ulushi ko'payishining asosiy omili bo'lib yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini oshirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida yuzaga kelganligidir.

Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash tizimini tubdan takomillashtirish, pensionerlar, talabalar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoyasini so'zsiz ta'minlash, ularning O'zbekiston Respublikasining barcha hududida xarid qiladigan tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni to'siqlarsiz amalga oshirishi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-2753-sonli qarori¹⁵² qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan 2017-yilning fevral oyidan boshlab:

¹⁵² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-2753-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 73-modda.

– barcha turdagi pensiyalar butun mamlakat hududida hech qanday cheklovlarsiz to‘liq hajmda naqd shaklda beriladi;

– 58 ta tog‘li va olis tumandagi byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi to‘lash, ijtimoiy to‘lovlar hech qanday cheklovlarsiz to‘liq hajmda naqd shaklda amalga oshiriladi;

– oliy o‘quv yurtlari talabalariga stipendiyalarning kamida 50 foizi naqd shaklda beriladi.

Bundan tashqari, hududlarda shakllangan ish haqini naqd shaklda hamda plastik kartalarga o‘tkazish yo‘li bilan to‘lashda odamlar o‘z ish haqidan foydalanishda muammolarga duch kelmasligi va o‘zlariga kerakli

Aholini ish bilan ta‘minlash biz uchun nafaqat iqtisodiy, ayni paytda katta ijtimoiy ahamiyatga egadir. Hokimliklar, vazirlik va idoralar, ish beruvchi tashkilotlar bilan bir qatorda bank muassasalarini ham bu ishga yana-da faol jalb etishi kerak. Aholi bandligini hal etishda turizmni rivojlantirish bo‘yicha katta imkoniyatlarni ham ishga solishimiz lozim.

Shavkat Mirziyoyev

tovar va xizmatlarni erkin xarid qilishlari uchun mavjud to‘lov terminallari infratuzilmasi hisobga olinadi.

Mamlakatimizda aholi bandligini ta‘minlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, xalq turmush darajasi va sifatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida belgilangan.

Binobarin, yurtimizda har yili milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, hududlar bo‘yicha mehnat resurslaridan yana-da to‘liq va oqilona foydalanish, aholining ijtimoiy muhofazasini ta‘minlashga qaratilgan tegishli dasturlar qabul qilinyapti.

Milliy mehnat bozorining e‘tiborga molik o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi: aholining asosiy qismini yoshlar tashkil etishi (har yili yarim milliondan ortiq bitiruvchilar ishga joylashish bo‘yicha ko‘makka muhtoj); 700 mingdan ortiq ishsizlarning, shuningdek, ishchi kuchining talab va taklifi bo‘yicha nomutanosiblikning mavjudligi; ayrim tumanlarda ishsizlik va norasmiy sektorda ish bilan bandlikning yuqori darajasi kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2016-yilda Bandlikka ko‘maklashish markazlariga ish so‘rab murojaat qilganlarning 93,2 foizi ishga joylashtirilgan (9.1.2-jadval).

9.1.2--jadval

Respublika bo‘yicha mehnat bozori va aholi bandligi to‘g‘risida ma‘lumot (2016-yil)

№	Xududlar nomi	Bandlikka ko‘maklashish markazlariga ish so‘rab murojaat qilganlar	Shundan ishga joylashtirilgan	foiz	Xaq to‘lanadigan jamoat ishlarida qatnashgan	Kasbga tayyorlashga yuborilgan	Kvota o‘rinlariga ishga joylashtirilgan
	O‘zbekiston	133693	124558	93,2	4918	3462	36825
1.	Qoraqalpog‘iston viloyatlar:	10142	9840	97,0	642	182	1286
2.	Andijon	12482	11921	95,5	309	244	1898
3.	Buxoro	9848	9412	95,6	95	89	2994
4.	Jizzax	5624	5044	89,7	200	111	506
5.	Qashqadaryo	9107	8205	90,1	283	141	1170
6.	Navoiy	5519	4738	85,8	102	77	1937
7.	Namangan	13304	12499	93,9	1244	250	2493
8.	Samarqand	17580	17044	97,0	521	306	3614
9.	Surxondaryo	5507	4948	89,8	133	144	1501
10.	Sirdaryo	3023	2562	84,8	75	67	792
11.	Toshkent	9832	9225	93,8	260	205	4895
12.	Farg‘ona	19777	18931	95,7	551	565	6011
13.	Xorazm	7771	7090	91,2	499	245	1175
14.	Toshkent sh.	4177	3099	4,2	4	836	6553


Manba: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi ma‘lumotlari // www.mehnat.uz.

Yurtimizda yiliga 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj bo‘lsa-da, o‘tgan 2016-yilda Bandlikka ko‘maklashish markazlari atigi 248 ming kishini yoki 16,5 foizini ishga joylashtirgan. Buning asosiy sabablari ish faoliyatidagi eskirgan shakl va usullar hamda bandlik muammolarini hal etishdagi rasmiyatchilik bilan bog‘liq¹⁵³.

¹⁵³ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak // Xalq so‘zi gazetasi, 2017-yil 16-yanvar, №11 (6705)

Bunday holat bandlikka ko'maklashishning faol siyosat choralari amalga oshirish, ya'ni ish o'rinlarini yaratish, avvalo yoshlarni va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalarini ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish chorasini ko'rishga zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 20-apreldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ishbilarmonlik muhitining holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasi indikatorlarini har chorakda baholash tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 117-sonli qaroriga ilovada ishsiz darajasini baholash mezonini keltirilgan. Unga ko'ra, Respublikada ishsizlik darajasi (5,2 foizi) mo'tadil hisoblanadi. Ammo Respublikada ishsizlik darajasi birmuncha yuqori bo'lgan, tog'li, chegara oldi hududlarida joylashgan, ishlab chiqarish va ijtimoiy soha yetarli darajada rivojlanmagan 34 ta tuman mavjud. Mazkur tumanlarda ish o'rni tashkil etishga aholi bandligini ta'minlash dasturlarini alohida e'tibor qaratilgan va 2017-yilda aynan shu tumanlarda 46,8 mingta ish o'rni tashkil etish rejalashtirilgan (9.1.2-rasm).



9.1.2-rasm. Ishsizlik darajasi yuqori va mehnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan 34 ta tumanda yaratiladigan ish o'rinlari tarkibi (2017-yil)¹⁵⁴

¹⁵⁴ O'sha manba.

Yangi ish o'rinlarini tashkil etishda erkin iqtisodiy zonalarining ham o'rni katta. Hususan, mamlakatimizda "Navoiy" "Angren" va "Jizzax" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi 4931-sonli farmoni bilan «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etildi¹⁵⁵. Bu iqtisodiy zonalarda meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to'qimachilik, gilam to'qish, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo'nalishlarda yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish yangi ish o'rinlarining yaratilishiga zamin yaratadi.

Aytish joizki, 2017-yilda kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarining 508,8 ming nafar bitiruvchisini ishga joylashtirish mo'ljallangan.

Yaqin kelajakda kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- bitiruvchilarni birlashtirish ishlarini puxta tashkil etish;
- bitiruvchilar bandligini ta'minlashda yangi samarali shakllar va uslublarni davom ettirish;
- bitiruvchilar bandligini ta'minlashda belgilangan imtiyozlardan kengroq foydalanish;

¹⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi 4931-sonli farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 3-son, 40-modda.

Bugunning o'zida har bir bitiruvchini aniq bir tashkilotga birlashtirishni ta'minlash bilan birga, uning bo'lajak ish joyi, ish haqi va ijtimoiy sharoitlarini aniq belgilash zarur.
Shavkat Mirziyoyev

– bitiruvchilarga o‘z binisini tashkil etishlari uchun mikro-kreditlar ajratish amaliyotini davom ettirish.

O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan metodika asosida mehnat bozorida vaziyat murakkab bo‘lgan tuman va shaharlar ro‘yxati aniqlanadi, unga muvofiq aholi bandligi dasturlarining manzilli ro‘yxatlari, kichik sanoat zonalari, xizmatlar sohasini rivojlantirish, chorvachilik, parrandachilik va issiqxona xo‘jaliklarini barpo etish, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari uchun «start-ap» loyihalarini amalga oshirishga mikro-kreditlar va lizing asosida ishlab chiqarish vositalarini ajratish ishlari amalga oshiriladi.

“2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da mehnat bozori talablariga asosan, professional kadrlarni qayta tayyorlash yuzasidan qisqa muddatli trening va o‘quv kurslarini o‘tkazish bo‘yicha nodavlat ta‘lim muassasalari faoliyatini rag‘batlantirish, nodavlat ta‘lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash tartibini soddalashtirish, davlat akkreditatsiyasiga ega bo‘lgan nodavlat ta‘lim muassasalari uchun davlat namunasidagi hujjatlarni berish bo‘yicha mavjud cheklovlarni bartaraf etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, Harakatlar strategiyasida o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi muassasalarida kerakli talabdan ortiq hajmda tayyorlanayotgan gumanitar ta‘lim yo‘nalishlarini qisqartirishni va mos ravishda agrar sektor, qurilish va ishlab chiqarish sohasi, uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasi mutaxassislari tayyorlashni kengaytirishni ko‘zda tutuvchi o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘lim mutaxassislik yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish rejalashtirilgan. Joriy va istiqboldagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda mutaxassislarni tayyorlash, agrar sektor, qurilish va ishlab chiqarish sohasi, uy-joy kommunal xo‘jaligini malakali mutaxassislar bilan

hamda bitiruvchilarni kafolatlangan ish bilan ta‘minlash imkonini beradi.

Hududlarda aholi bandligini ta‘minlash hamda qo‘shimcha daromad manbaini yaratish maqsadida tijorat banklari tomonidan mikro-kreditlar ajratish hajmini yana-da oshirish quyidagi sohalarda nazarda tutilgan:

- fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish
- qoramol, qo‘y, echki, quyon boqish va go‘shet etishtirish
- parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish
- ixcham issiqxonalar tashkil etish
- urug‘ va ko‘chatlar etishtirish

Buning natijasida aholi tomorqasidan foydalanish samaradorligi oshadi, ishlab chiqariladigan sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi ko‘payadi.

Harakatlar strategiyasida olis va tog‘li hududlarda turizm va ekoturizmni tashkil etish, dorivor o‘simliklarni etishtirish, yig‘ish va qadoqlash bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Bunda, tog‘ oldi hududlaridagi qishloqlarda 10-15 ta xonadonlarda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish uylari tashkil etilib, ya‘ni uyning bitta yoki ikkita xonasi devorlari so‘zana, adras bilan bezatilib, ko‘rpacha to‘shilib, xontaxta qo‘yilib, tualet va oshxonaning sanitar holatlari tartibga keltirilib, chet ellik sayyohlarga tabiiy manzaralarni ko‘rsatish bilan birga non yopish, milliy taomlarni tayyorlash, milliy urf-odatlar bilan tanishtirish kabi xizmatlar ko‘rsatilishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida ayollarning jamiyatdagi mavqei va ular bandligi masalalariga to‘xtalib, quyidagilarni ta‘kidlab o‘tdilar: “Uchinchi vazifa – ayollarni ularga

munosib mehnat bilan bandligini ta'minlash masalasidir. Ayollar uchun doimiy ish joylari yaratish borasidagi muhim masala bilan bir qatorda, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo'jaligini keng rivojlantirish ishlari ham oqsamoqda"¹⁵⁶.

Harakatlar strategiyasida xotin-qizlarning va kollej bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish, tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida:

– «Mahallaning eng namunali tadbirkor ayoli» tanlovining mahallalararo va tuman (shahar) bosqichlarini o'tkazish;

– «Tadbirkor qizning eng yaxshi loyihasi – 2017» Respublika tanlovini o'tkazish;

– Qo'rg'ontepa, Olot, Paxtakor, Dehqonobod, Koson, Nurota, Uzun va Qo'shko'pir tumanlarida ayollarni kasbga o'qitish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;

– pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan, biroq bola parvarishlash munosabati bilan vaqtincha ishlamayotgan ayollarga oilaviy maktabgacha ta'lim tarbiyachisi sifatida kasanachilik faoliyati tashkil etish.

Bu tadbirlarning amalga oshirilishi xotin-qizlarda va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchi qizlarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi, ularning huquqiy va iqtisodiy bilimlarini oshiradi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan nisbatan sust rivojlangan tumanlarning ishsiz yoshlarini Toshkent va Samarqand shaharlaridagi (Koreya Respublikasi hukumati grant mablag'lari hisobidan tashkil etilgan) kasb-hunarga o'qitish markazlarida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga qayta o'qitish orqali ularning bandligi ta'minlanishi nazarda tutilgan.

¹⁵⁶ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // Xalq so'zi gazetasi, 2017-yil 16-yanvar, №11 (6705)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 13-sentyabrdagi "Toshkent shahridagi kasb-hunarga o'qitish markazi faoliyatini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 270-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan Toshkent shahridagi Kasb-hunarga o'qitish markazida bugungi kunga qadar 2 ming nafardan ortiq band bo'lmagan fuqarolar quyidagi yo'nalishlarda kasb-hunarga qayta o'qitilgan va to'liq ishga joylashtirilgan:

– "Mashinasozlik ishlab chiqarish texnologiyalari" (tokarlar, frezerchilar, payvandchilar, metallga ishlov berish mutaxassislari);

– "Elektronika va elektrotexnika" (elektron qurilmalar, maishiy elektron texnika, radio va teleapparatlarni ta'mirlash va servis xizmati ko'rsatish mutaxassislari);

– "Avtomobillarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish" (avtochilangarlar, motorchilar, avtotransport vositalarini diagnostika qilish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish);

– "Axborot texnologiyalari va tizimlari" (kompyuterlarni dasturlash, kompyuter va boshqa tashkiliy texnikaga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash).

2016-yil sentyabrdan o'z faoliyatini Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Janubiy Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) hamkorligida "O'zbekistonda kasb ta'limi imkoniyatlarini rivojlantirish" loyihasi doirasida boshlagan kasb-hunarga o'qitish markazida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 4 ta yo'nalish bo'yicha 240 nafar band bo'lmaganlar kasbga qayta o'qitilmoqda.

Shahrisabz shahrida tashkil etiladigan o'quv markazining loyihalashtirish ishlari yakunlanib, qurilish ishlari boshlandi va bu markaz 2018-yilda ishga tushiriladi. Urganch va Qo'qon shaharlarida xuddi shunday o'quv markazlarini 2019-yilda tashkil etish bo'yicha Koreya Xalqaro Hamkorlik agentligi (KOICA) bilan

kelishildi, Buxoro va Termiz shaharlarida esa 2020-yilda shunday markaz tashkil etish rejalashtirilgan.

Bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini tashkil qilish ham mehnat bozoridagi ta'sirchan siyosatning muhim uslubi sanaladi. Bundan maqsad – ish izlovchilarni taklif etilayotgan bo'sh joylar bilan tanishtirish, shuningdek, ularga mehnat bozori, mavjud bo'sh ish o'rinlari va yangi kasbga o'qitish to'g'risida to'liq ma'lumot berishdan iborat. Shuning uchun ham 2017-yilda barcha shahar va tumanlardagi korxonalar va tashkilotlar ishtirokida band bo'lmagan aholi, kollej va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari va migrantlar uchun 1000 dan ortiq yarmarkalar tashkil etish rejalashtirilgan.

9.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish

Chorak asrlik mustaqil taraqqiyotimiz davrida mamlakatimizda inson hayotini yaxshilash, uning qulay turmush sharoitlarini yaratish maqsadida o'lgan ishlar amalga oshirildi. Demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish, bunda aholini ijtimoiy himoya qilish, uning sog'ligini kafolatlash yo'nalishida jaxon tajribasi va milliy tajribaga asoslangan holda yaxlit tizim yaratildi.

Ayni vaqtda zamon talabi mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, aholining ijtimoiy himoyasi, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Shu sababli "Harakatlar strategiyasi"da aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi.

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston Sobiq Ittifoqdan meros bo'lib qolgan tizimlashmagan, umumiy shaklga ega bo'lgan ijtimoiy himoya tizimini tubdan yaxshilab, tizimli, manzilli xarakterga ega

bo'lgan va ko'lami bo'yicha aholining barcha qatlamlarini har tomonlama himoyasini tashkil etishga qaratilgan takomillashgan tizimni joriy yetdi va bugungi kunga kelib aholiga ijtimoiy kafolatlarni ta'minlanmoqda.

Bugungi kunda Davlat byudjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. 1991-yilga taqqoslaganda, aholining real daromadlari 12 barobardan ziyod ko'paydi, ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalar salmoqli darajada oshdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni jadal sur'atlar bilan oshirish va aholining ularga bo'lgan talabini qondirish ta'minlanmoqda¹⁵⁷.

Taraqqiyotimizning bugungi bosqichida ijtimoiy sohaning aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyatning demokratlashuvi jarayonida aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini yana-da yaxshilash uchun «Nuroni» jamg'armasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni muhofaza qilish tizimini yana-da takomillashtirish, uning manzilliligini ta'minlash, keksa yoshdagilar, imkoniyati cheklangan odamlar va yolg'iz keksalarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordam darajasi va sifatini ko'tarishni, shuningdek joylarda tuman va shaharlar aholisining zamonaviy diagnostika va davolanish uslublaridan foydalanish imkonlarini ta'minlaydigan tubdan yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Keksalarni qo'llab-quvvatlash davlat tizimini yana-da takomillashtirish maqsadida qariyalar va faxriylarni ijtimoiy

¹⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. // Xalq so'zi, 2016-yil 9-sentyabr.

himoyalash, ularning faolligini oshirish, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash sohasida katta avlod vakillarining rolini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 28-dekabr kuni «O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroni» jamg'armasi faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»¹⁵⁸gi Farmon va «Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yana-da takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»¹⁵⁹gi Qarorning qabul qilinishi bu borada islohotlarning yangi bosqichga kutarilishi bo'ldi. Mazkur farmon va qarorda oqsoqollar, keksalar va faxriylarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, joylarda keksalar turmush sifatini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda yolg'iz va muhtoj keksalarga ijtimoiy va moddiy ko'mak ko'rsatish, «Nuroni» jamg'armasi markaziy apparatini, uning viloyat va tumanlardagi bo'linmalarini moddiy qo'llab-quvvatlash, «Nuroniylar maskani» komplekslarini yaratish, kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolash uchun 2,8 million keksa yoshdagi fuqarolarning barchasi ixtisoslashtirilgan tibbiy brigadalar tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlash, biriktirilgan patronaj hamshiralari tomonidan salomatliklari ustidan doimiy nazorat orqali keksa yoshdagi fuqarolar orasida kasalliklar profilaktikasi choralari kengaytirish, 15,5 ming yolg'iz keksalarning turmush sifati va darajasini ularga shaxsiy ijtimoiy xodimlarni biriktirish orqali

¹⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda «O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroni» jamg'armasi faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4906-sonli Farmoni.

¹⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda «Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yana-da takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2705-sonli, qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 10-modda.

oshirish, keksa yoshdagi shaxslarni to'lovsiz asosda davolash va sog'lomlashtirish ko'zda tutilgan. Shu munosabat bilan Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlariga 20 ming va viloyatlardagi tibbiyot muassasalariga 215 mingdan ziyod, jami 178,9 milliard so'm miqdoridagi orderlar ajratish ko'zda tutilgan. Joylardagi barcha tibbiyot birlashmalari va muassasalarini, shuningdek, barcha viloyatlardagi onkologiya dispanserlarini umumiy miqdori 108,7 million AQSh dollariga teng bo'lgan tegishli zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlash, keksalar va nogironlarning 23 ta «Saxovat» va «Muruvvat» uy-internatlari moddiy-texnik bazasini umumiy miqdori 207 milliard so'm hajmda mustahkamlash mazkur farmon va qaror ijrosida o'z aksini topdi.

Ushbu ishlarni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturni moliyalashtirishga 688,2 milliard so'm yo'naltiriladi, shuningdek, xalqaro moliyaviy tuzilmalarning 108,7 million AQSh dollari hajmidagi kredit va grant mablag'larini jalb etish ko'zda tutilgan¹⁶⁰.

Bundan tashqari, 2016-yil 26-dekabrda «Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy hojatmand toifalariga ijtimoiy xizmatlar to'g'risida»gi qonun kabul qilindi.

Mazkur qonun mohiyati aholining hojatmand toifalariga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning umumiy talablari va asosiy yo'nalishlarini belgilash, shuningdek, ushbu sohada davlat va nodavlat tashkilotlarining rolini oshirish, ijtimoiy himoya sohasi tizimidagi asosiy tushunchalarni belgilashga qaratilgan bo'lib, unda ijtimoiy xizmatlarni aniq va manzilli amalga oshirish, ehtiyojmand shaxslarga yordam ko'rsatish, ularga boshqa fuqarolar bilan bir qatorda jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish va ularning odatiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash bo'yicha kompleks huquqiy, iqtisodiy,

¹⁶⁰ <https://www.gazeta.uz/uz/2016/12/29/keksalar>.

psixologik, ta'limiy, tibbiy, rehabilitatsion va boshqa choralarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj ehtiyojmand qatlamlari himoyasini kafolatlash bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Hususan, bu masala 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturida to'la o'z aksini topdi.

Dasturda keksa yoshdagi aholi ijtimoiy faolligini oshirish va ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish maqsadida 2017-yil davomida «Nuroni» jamg'armasi, «Mahalla» jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, «Oila» ilmiy-amaliy markazi, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ishtirokida keksa yoshdagi fuqarolarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida keng qamrovli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, jamiyat, oilalar va mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, shuningdek, yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik an'alarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash ishidagi rolini oshirishga erishish nazarda tutildi. Mazkur tadbirlar uchun ijrochilar mablag'lari hisobidan 200 million so'm mablag' yo'naltirilishi rejalashtirilmoqda¹⁶¹.

¹⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" 4947-sonli Farmoni, 214-and.

Mazkur yo'nalishda keksa avlodni qo'llab-quvvatlash va manzilli ijtimoiy himoyasini kengaytirish borasida ish beruvchilar va kasaba uyushmalarining mas'uliyatini oshirish nazarda tutilmoqda. Hususan, bunda jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali keksa avlod vakillarini ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 15 ming nafar pensiya yoshidagi shaxsga pensiyaga chiqishdan oldin bir yo'la moddiy yordam berish va ularni qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash, 14 ming nafar xodimga yubiley sanalari munosabati bilan qimmatbaho sovg'alar topshirish, 55 ming nafar ishlaydigan pensionerga (korxonalarining sobiq xodimlariga) moddiy yordam berish kuzda tutilgan. Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun ish beruvchilar mablag'lari hisobidan 7 milliard, Kasaba uyushmalari mablag'lari hisobidan 1 milliard so'm mablag' yo'naltirilmoqda.

Aholining himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, ularning sog'ligini tiklash, sifatli tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish borasida bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilishi rejalashtirildi. Ayniqsa, manzilli, hududlarda, chekka joylarda bu borada yirik loyihalarning amalga oshirilishi e'tiborga loyiqdir.

2017-yil davomida 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari, nafaqaxo'rlar, nogironlar, yolg'iz qariyalar va aholining boshqa nochor qatlamlaridan kamida 35 ming nafarining sanatoriy muassasalarida bepul davolanishini tashkil etish uchun davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 18 milliard so'm mablag' yo'naltirilmoqda.

Birgina 2017-yilda nogiron shaxslarni protez-ortopediya vositalari, rehabilitatsiya texnika va yordamchi vositalar bilan bepul ta'minlash yo'li bilan qo'llab-quvvatlash, ularni jamiyatga qaytarish maqsadida rehabilitatsiya tadbirlarining samaradorligini oshirish maqsadida bepul asosda kamida 10 ming nafar nogiron va yolg'iz qariyani protez-ortopediya buyumlari va texnik rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash rejalashtirilgan. Bu yo'nalishda ishlarni amalga oshirish uchun byudjet va ijrochi mablag'lar hisobidan 2,5 milliard so'm mablag' yo'naltirilmoqda.

Mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab, davlatimiz tomonidan inson salomatligini yana-da mustahkamlash, sog'lom insonlar safini kengaytirish, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini keng omma o'rtasida shakllantirish, oilada tibbiy madaniyatni oshirish, har bir shaxsning salomatligi o'z qo'lida ekanini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, sog'lom jamiyatni tashkil etishga katta e'tibor qaratilgan. Bu borada 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi Qonun, 1998-yil 10-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida»gi 2107-sonli Prezident Farmoni, 2011-yil 28-noyabrdagi «Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yana-da chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1652-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori hamda 2015-2020-yillar davrida O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash konsepsiyasini va chora-tadbirlar kompleksini ta'minlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining Qarori aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Fuqarolarning dam olish, sog'lig'ini qayta tiklash, sport bilan shug'ullanish imkoniyatlarini oshirish uchun infratuzulmani yaxshilash va jihozlash uchun 2017-2018-yillar davomida jami 49,5 milliard so'm mablag' yo'naltirilib, mamlakatimiz bo'yicha sanatoriylar, yoshlar markazlari, suzish havzasi, o'yingohlar, stadion, madaniyat va sport majmuasi barpo etilishiga yo'naltirilmogda.

Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini o'rnatilgan tartibda qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun Kasaba uyushmalari mablag'lari hisobidan 18 milliard 540,7 million so'm mablag' yo'naltirilib, Surxondaryo viloyatida 200

o'rinli «Amudaryo sohili» oromgohini qurish ishlarini yakunlash; Andijon viloyatidagi «Bog'ishamol» oromgohini rekonstruksiya qilish; Sirdaryo viloyatidagi «Sirdaryo» oromgohini rekonstruksiya qilish; Navoiy viloyatidagi «Ishonch» oromgohida suzish havzasini qurish¹⁶² ishlarining amalga oshirilishi, hech shubhasiz, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashga hukumatni e'tiborining amaldagi ifodasidir.

Bundan tashqari, xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish va dam olishini tashkil etish maqsadida kasaba uyushmalari tizimidagi «Oqtosh» sanatoriysida, «Zomin» sanatoriysida yotoq binolarini qurish; Surxondaryo viloyatidagi «Termiz marvaridi» sanatoriysini kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish; Namangan viloyati «CHodak» qishloq fuqarolar yig'inida dam olish uyini qurish ishlarni amalga oshirish uchun, yil davomida Kasaba uyushmalari mablag'lari hisobidan 17 milliard 810 million so'm yo'naltirilmogda. Bunda asosiy e'tibor, ayollar va bolalarni sog'lomlashtirish va dam oldirish samaradorligini oshirishga qaratiladi.

2016-yil – “Sog'lom ona va bola yili” davlat dasturi doirasida mamlakatimizdagi tibbiyot muassasalarini zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash uchun 80 million dollar qiymatidagi kredit va grant mablag'lari yo'naltirildi.

Davlat dasturida belgilangan tadbirlar bo'yicha 9 millionga yaqin farzand ko'rish yoshidagi ayollar va 10 millionga yaqin bolalar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, sog'lomlashtirildi. Jumladan, Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida eshitish bo'yicha nuqsoni bo'lgan 350 dan ortiq bolada koxlear implantatsiya operatsiyalari amalga oshirildi. Buning uchun 21 milliard so'm mablag' sarflandi. Ana shunday ishlar

¹⁶² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” 4947-sonli Farmoni, 241-band.

qatorida 700 ming nafar bola pnevmokok infeksiyasi va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi emlandi¹⁶³.

Mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish borasidagi izchil islohotlar tufayli "Sog'lom ona va bola yili" davlat dasturi umummilliy harakatga aylandi. Shu boradagi ishlar izchil amalga oshirilayotgani tufayli keyingi besh-yilda mamlakatimizda har 100 ming chaqaloqqa nisbatan onalar o'limi 23,1 dan 19 taga, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 14,8 tadan 13,9 taga, chaqaloqlar o'limi 11 tadan 10,7 taga kamaydi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga to'liq erishdi¹⁶⁴. Nufuzli xalqaro institutlarning e'tirof etishicha, O'zbekiston dunyoning 125 davlati orasida xotin-qizlar uchun qulay sharoitlar yaratish va onalikni muhofaza qilish borasida yetakchi o'rinlardan birini egallab turibdi. Jahon reytingida mamlakatimiz yosh avlod salomatligiga eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatayotgan 10 ta davlat safidan joy oldi. Aholi genofondini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ayollarning o'rtacha umri 66 yoshdan 73,5 yoshga uzaydi. Onalar va go'daklar o'limi 3 barobar kamaydi¹⁶⁵.

Mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza etishga qaratilgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar qabul qilindi. Sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh etish asosida ona va bola sog'lig'ini asrash

¹⁶³ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligini ta'minlash va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2016-yil 8-dekabr.

¹⁶⁴ Farzandlari sog'lom yurt. www.xs.uz

¹⁶⁵ "Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!" O'zbekistonning 23 yillik mustaqil taraqqiyot yo'lida turli sohalarida qo'lga kiritilgan yutuq va natijalar, mamlakatimizning salohiyati va qudrati, tub islohotlarning mohiyati va ahamiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazish, joylarda tashkiliy-amaliy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlarida foydalanish uchun uslubiy qullanma / O'zbekiston Respublikasi Prezidenta huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi; Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi; Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. — Toshkent: «Ma'naviyat», 2014. 126-6.

bo'yicha dunyo e'tirof etayotgan milliy model yaratildi. Bolalar va o'smirlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga, oilalarning moddiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlashga, har tomonlama sog'lom farzandlarni shakllantirish, ularning salomatligini muhofaza qilishga katta e'tibor qaratildi. Chunonchi, ilk davlat mukofotlaridan biri – "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etilishi ham ramziy ma'no kasb yetdi. Respublikamizda mustahkam oilada sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirishga qaratilgan barcha sa'y-harakatlarimiz islohotlarimiz strategiyasiga mos bo'lib, kelgusida yurtimizda tinchlik-totuvlik hamda taraqqiyotga, yosh oilalarning mustahkamligiga qo'shilgan hissa bo'ladi.

Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish xalq manfaatlarini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Aynan shu sohani rivojlantirish hamda kompleks chora-tadbirlarni yana-da kengroq amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 5-yanvar va 7-fevral kunlari sog'liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashdi.

Sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini, mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini yana-da takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, davolashning zamonaviy texnologiya va usullarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratdi. Tibbiyot sohasida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar, yechimini kutayotgan muammolar haqida atroflicha to'xtaldi.

Mamlakatimiz sog'liqni saqlash sohasini yana-da rivojlantirish, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, yosh mutaxassislarni tarbiyalash jarayoniga ilg'or ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish, dunyoning yetakchi tibbiyot markazlari va o'quv muassasalari, taniqli olimlar va mutaxassislar bilan hamkorlikni kengaytirish masalalari yuzasidan aniq topshiriqlar berildi. Birlamchi tibbiyot muassasalari, ayniqsa, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, patronaj xizmati,

tez tibbiy yordam tizimining faoliyati hamon qoniqarsiz ahvolda qolayotganligi, shifoxonalar va aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash, jumladan, ijtimoiy dorixonalar tashkil etish bo'yicha berilgan topshiriqlar ijrosi talab darajasida emasligi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda mamlakatimiz hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisidagi nutqida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida mavjud kamchilmiklarga to'xtalib o'tar ekan, Prezident Sh. Mirziyoyev qishloq vrachlik punktlarini isloh qilish samaradorligi pastligi, bugungi kunda ularda 2 ming 500 nafar vrach yetishmasligi, bu maskanlarni zamonaviy uskunalalar bilan jihozlash va dori vositalari bilan ta'minlash darajasi juda past, diagnostika darajasi pastligi va vrachlarning malakasi yetarli emasligi, tez tibbiy yordam tizimida jiddiy kamchiliklar mavjudligi ta'kidlandi. Sohadagi mazkur muammolarni bartaraf etish uchun qishloq vrachlik punktlari, yuqori texnologiyalar asosidagi ixtisoslashgan markazlar va tez tibbiy yordam stansiyalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflarni va tegishli hujjatlar loyihalarini tayyorlash, vrachlar va tibbiyot xodimlari malakasini ham mamlakatimizda, ham yetakchi xorijiy klinikalarda oshirish bo'yicha ta'sirchan tizim yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, 340 nomdagi dori vositalari va tibbiyot buyumlari chegaralangan narx bo'yicha sotilishini tashkil etish ishlariga kelgusida jiddiy e'tibor qaratish ta'kidlandi¹⁶⁶. Jumladan, Xarakatlar strategiyasiga muvofiq, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot

¹⁶⁶ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Xalq so'zi, 2017-yil 16-yanvar.

markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda. Sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'ini bo'lgan qishloq vrachlik punktlari faoliyatini yana-da rivojlantirish maqsadida qishloq vrachlik punktlarning muntazam faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida ularning vrachlariga ish joyi yonidagi hududlarda uy-joylar qurib berish, qishloq vrachlik punktlarning moddiy-texnik bazasini kuchaytirish hamda ularni malakali kadrlar bilan ta'minlash ko'zda tutilmoqda¹⁶⁷.

2017–2021-yillarda Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, ilmiy-tekshirish institutlari va Oliy o'quv yurtlari klinikalari yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda, keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish va erta aniqlashga qaratilgan «Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin» shiori ostida keng qamrovli tibbiy ko'rik tadbirlarini o'tkazish rejalashtirilmoqda. Natijada kelgusi 5-yilda mamlakatimizning chekka tumanlari aholisini chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish, kasalliklarni erta aniqlash va oldini olishga qaratilgan tadbirlar amalga oshiriladi. Viloyatlar aholisini sifatli tibbiy yordam bilan ta'minlash maqsadida Respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlari shifokorlarining joylarga chiqib, jarrohlik amaliyotlari va boshqa tibbiy xizmatlar ko'rsatishini tashkil etish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar dasturi qabul qilinadi. Bu jarayonda esa Respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlari xizmatidan foydalanuvchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratiladi. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati yana-da oshadi¹⁶⁸.

Sog'liqni saqlash bo'yicha qonunchilik asoslarini yana-da mustahkamlash maqsadida «Odam a'zolari va to'qimalarini

¹⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” 4947-sonli Farmoni, 233, 235-band.

¹⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” 4947-sonli Farmoni, 219-band.

transplantatsiya qilish to'g'risida»gi Qonun loyihasini ishlab chiqish rejalashtirilmogda. Mazkur qonun loyihasini qabul qilish orqali aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar doirasi kengaytiriladi hamda odam a'zolari va to'qimalarining transplantatsiya qilinishi tartibi belgilanadi, shuningdek, aholining transplantatsiyaga muhtoj bo'lgan toifasiga qonuniy asoslar va tartiblarda shu turdagi tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati yaratiladi¹⁶⁹.

“Harakatlar strategiyasi” doirasida 2017–2021-yillarda 220 million so'm evaziga ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun tibbiy-ijtimoiy patronaj brigadalarining kuchi bilan tog'li, cho'l va borish qiyin bo'lgan hududlarda, shuningdek, alohida e'tibor talab etiladigan tumanlarda aholi tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi, ekologik jihatdan noqulay mintaqalarda yashovchi (Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi) aholi uchun «Salomatlik» poezdlari tashkil etiladi. Borish qiyin bo'lgan hududlarda yashovchi aholini chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazish orqali aholining ijtimoiy holatini aniqlab, sog'lom oila shakllantiriladi va aholida tibbiy savodxonlik madaniyati oshiriladi¹⁷⁰.

Onalar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini oshirish, onalar va yangi tug'ilgan chaqaloqlarga yuqori malakali tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida 5,8 million AQSh dollari miqdorida, Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi, «Salomatlik-3» loyihasi, byudjet mablag'lari hisobidan onalar va bolalarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish uchun tuman va shahar tibbiyot birlashmalarining 40 ta tug'ruq bo'limi negizida

Tibbiy xizmat inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Tibbiyot xodimlari uyma-uy yurib, kasalliklarni profilaktika qilishi, sohadagi o'zgarishlarni odamlar sezishi kerak. Buning uchun shifokorlarning madaniyatini, ma'naviyatini, mas'uliyatini oshirish, ishga va bemorlarga munosabatini o'zgartirish zarur.

Shavkat Mirziyoyev

¹⁶⁹ O'sha manba, 221-band.

¹⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” 4947-sonli Farmoni, 222-band.

tumanlararo perinatal markazlar tashkil etish¹⁷¹ ko'zda tutilmogda.

Chaqaloqlar hamda homilador ayollardagi tug'ma va avloddan-avlodga o'tuvchi patologiyani erta aniqlash orqali sog'lom avlod tug'ilishi uchun shart-sharoitlar yaratish asosida 1625,8 ming dollar sarmoya hisobidan Respublika skrining markazida va uning hududiy filiallarida homilador ayollar hamda chaqaloqlar orasida perinatal va neonatal skrining hamda sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini darajasida homilador ayollarning ommaviy, barvaqt perinatal skriningini o'tkazish rejalashtirilmogda¹⁷².

Bu sohada ishlar sifatini tubdan yaxshilash maqsadida bugun sog'liqni saqlash sohasining uzviy bo'g'ini sanalgan tibbiy-profilaktika xizmati jahon andozalari talablariga to'liq javob beradigan zamonaviy tizimga aylanmog'i zarur.

Ma'lumki, mazkur bo'g'in mohiyatan keng jamoatchilik orasida kasallanishning oldini olish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu maqsadda surunkali kasalliklarni, jumladan, yashirin va avval aniqlanmagan kasalliklarni erta aniqlash tadbirlarini amalga oshirish, ko'p tarmoqli poliklinikalarning 7-9 nafar tor soha mutaxassislari va umumiy amaliyot shifokorlari tomonidan xavf guruhiga mansub aholini chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar, surunkali kasalligi bor aholini yiliga 2-6 marta (bemor holatidan kelib chiqib) tizimli dispanser ko'riklari, nikohga kiruvchi shaxslarni tibbiy ko'riklar, 3,6 million aholini flyurografik ko'riklar bilan qamrab olish¹⁷³ ko'zda tutilmogda. Aholining profilaktik tadbirlar bilan qamrovini yana-da kengaytirish maqsadida o'zgaralar parvarishiga muhtoj,

¹⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” 4947-sonli Farmoni, 224-band.

¹⁷² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” 4947-sonli Farmoni, 223, 225-band.

¹⁷³ O'sha manba, 228-band.

urush va mehnat fronti qatnashchilari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholidan surunkali kasallikka chalinganlarni jadval asosida tashkillashtiriladigan «Patronaj oyligi»da tibbiy xodimlarning faol qatnovlari amalga oshiriladi.

2017-yil Investitsiya dasturi doirasida 519 350 million so'm miqdorida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirish, davolash-profilaktika muassasasi, tug'ruqqa yordam beruvchi va bolalar tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini yana-da mustahkamlash, qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va asbob-uskunalar bilan jihozlash ishlari ko'zda tutilmoqda¹⁷⁴.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yana-da chuqurlashtirish borasida 2017–2021-yillarda barcha tuman, shahar tibbiyot birlashmalari va oilaviy poliklinikalar, onkologik muassasalar, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, Davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazlarini, Respublika ilmiy shoshilinch tibbiy yordam markazi, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining klinikalari va Respublika klinik shifoxonalarini hamda to'rtinchi darajali ko'p tarmoqli bolalar tibbiyot markazlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi va aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifati oshiriladi¹⁷⁵.

Xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratib berish, aholi sog'lig'ini saqlash masalasi davlatimiz va jamiyatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Harakatlar strategiyasida ayollar va qizlarning salomatligini mustahkamlash, ular orasida jismoniy tarbiya hamda sportni ommalashtirish, shuningdek, keksalar, o'zgalar parvarishiga muhtoj, urush va mehnat fronti qatnashchilari, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq dolzarb chora-tadbirlar ham qamrab olinganligi yurtimizda "Inson manfaatlari har narsadan ulug'" tamoyilining amalga oshirilishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

¹⁷⁴ O'sha manba, 232-band.

¹⁷⁵ O'sha manba, 234-band.

9.3. O'zbekistonda ta'lim va fan sohasini rivojlantirish

Mamlakatimizda 2016-yilda siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalar bilan bir qatorda, ijtimoiy sohada xam chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Istiqlol yillarida Respublikamizda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar hajmi 5 barobar ko'paytirildi. Har yili davlat byudjetining qariyb 60 foizi sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xo'jalik, aholini ijtimoiy himoya qilish sohalaridagi vazifalar ijrosiga yo'naltirilmoqda. Jamiyat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasi bo'lib, uning rivoji siyosiy-huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarga bevosita ta'sir yetadi hamda ijtimoiy sohalar me'yoriy mohiyatini, kamolot darajasini belgilab beradi.

Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmunidan va uning dolzarbligidan kelib chiqib, uni quyidagicha izohlash mumkin: **birinchidan**, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarini tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohalarining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir; **ikkinchidan**, ta'lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab, inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi; **Uchinchidan**, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi; **to'rtinchidan**, fan jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli, U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtirib, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashga, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni yaratishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha

Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida¹⁷⁶ maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarida tutadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

1. Maktabgacha ta'lim.
2. Umumiy o'rta ta'lim.
3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi.
4. Oliy ta'lim.
5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.
6. Kadarlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.
7. Maktabdan tashqari ta'lim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim samaradorligi, taraqqiyotning 16 foizi – moddiy-texnik bazaga, 20 foizi – axborot resurslariga, 64 foizi – inson omiliga bog'liq. Bu uchala omil bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiyaning moddiy-texnik bazasi, mavjud resurslaridan, imkoniyatlaridan oqilona foydalanish inson mafaatiga xizmat qiladi va uning ratsional rivojlanishni belgilab beradi. 2017/2018-yillar davomida yurtimizda 459 ta maktabgacha ta'lim muassasasi kapital ta'mirlandi va zamonaviy talablarga mos ravishda jihozlandi.

Bugungi kunda ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan xorijiy texnik yordam hajmi tobora ortib bormoqda. O'tgan davrda bu boradagi yordam 500 million dollardan ortib ketdi. Osiyo taraqqiyot bankining salkam 290 million dollar mablag'i, Janubiy

¹⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni// "Xalq so'zi", 2017-yil 8-fevral.

Koreya hukumatining 110 milliondan ortiq, Jahon bankining 33 million, OPEK fondi, Saudiya fondi, Islom taraqqiyot bankining 42 million, Germaniya Hukumatining "KfV" banki orqali yo'naltirilgan qariyb 20 million va boshqa donorlarning 100 million dollardan ortiq yordamini qayd etish lozim.¹⁷⁷ Bu esa ta'lim jarayonining bevosita davlat nazoratida ekanining so'zsiz isbotidir. Ya'ni, davlat ertangi kun istiqbolini o'ylab, ta'lim jarayonida ana shunday yirik islohotlarni amalga oshirmoqda.

Ta'lim-tarbiya va tibbiyot muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini jadal rivojlantirish uchun 2015 va 2016-yillarda davlat byudjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo'naltirildi. Shu jumladan, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga 34,3 foiz mablag' sarflandi.

Bugungi kunda ta'lim davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlat byudjetidan ta'limga ajratilgan mablag'lar byudjet xarajatlar qismining 33,7 foizi darajasida rejalashtirilib ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz YaIM tarkibida 10-12 foizni tashkil yetadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasida qurilish, kapital rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. O'quv maskanlarining zamonaviy o'quv laboratoriya, mebel jihozlari bilan ta'minlangani ta'lim sifati va mazmuniga yuksak e'tibor qaratilmoqda.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida kam ta'minlangan oilalar va ularning bolalarini davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan. Hususan, bugungi kunda davlat tomonidan kam ta'minlangan oilalar va ularning bolalarini davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlashning quyidagi mexanizmlari mavjud:

¹⁷⁷ Karimov I.A. Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish – T.20. T.: O'zbekiston 2012.– 189–192-b.

– ota-onalar to‘lovi joriy etilgan barcha ta‘lim muassasalarida kam ta‘minlangan oilalarning bolalarini badal to‘lovlaridan ozod qilish (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12-dekabrda PQ-744-sonli qarori);

– maktablarda kam ta‘minlangan oilalarning bolalarini qishki kiyim-bosh to‘plami bilan tekin ta‘minlash (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997-yil 20-avgustdagi 409-sonli qarori);

– umumta‘lim muassasalarida kam ta‘minlangan oilalarning bolalarini darsliklar to‘plami uchun ijara to‘lovlardan ozod qilish va boshqalar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 1-iyuldagi PQ-363-sonli qarori).

2017-yilda amalga oshiriladigan tadbirlar tufayli Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat test markazi, O‘zNNTMA zimmasiga aholining ijtimoiy nochor qatlamlarining sifatli ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish

maqasadida inklyuziv ta‘lim tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish topshirildi. Vazirlar Mahkamasining shu boradagi qarori loyihada quyidagi amaliy natijalar nazarda tutilgan:

1) nogiron bolalarni zarur maxsus adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalar bilan ta‘minlashni qamrab oluvchi inklyuziv tizimni yana-da rivojlantirish;

2) inklyuziv ta‘lim tizimi o‘qituvchilariga imtiyozlar berish;

3) jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olish imkoniyatlarini yana-da kengaytirish;

4) nogiron bolalarni uyda o‘qitadigan pedagoglarning ishini rag‘batlantirish.

Mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo‘yicha 12 yillik uzluksiz umumiy ta‘lim tizimiga o‘tildi, yangi tipdagi, zamonaviy maktab, kollej va litseylar qurildi, oliy ta‘lim tizimi jahon tajribasi va iqtisodiyotimiz, jamiyatimiz va davlatimizning barqaror o‘shish talablaridan kelib chiqib, qaytadan barpo etildi, ularning moddiy-texnik bazasi, saboq berish standartlari butunlay yangilandi.

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi kunda aksariyat maktabgacha ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablariga javob bermaydi. Bolalarni maktabgacha ta‘limga qamrab olish ko‘rstagichi hamon pastligicha qolmoqda. Shu boisdan ham 2200 ta maktabgacha ta‘lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun jami 2,2 trillion so‘m mablag‘ ajratish ko‘zda tutilmoqda. Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘i 50 ta yangi qurilish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasini mukammal ta‘mirlash orqali kengaytiriladi.¹⁷⁸

Maktabgacha ta‘lim muassasalari yil davomida



Maktabgacha ta‘lim muassasalarining 106 tasi rekonstruksiya qilinadi va 195 tasi kapital ta‘mirlanadi;

Mebel va boshqa inventarlar bilan ta‘minlanadi.

Buning uchun umuta‘lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash byudjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari, Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qurilish - montaj ishlari uchun 195 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratiladi.

9.3.1-rasm. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar

Keyingi yillarda maktabgacha ta‘lim muassasalarining faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yo‘naltirilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2015-2016-yillar davomida 459 ta maktabgacha ta‘lim muassasasi mukammal ta‘mirlandi va zamonaviy talablarga mos ravishda jihozlendi.

¹⁷⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda “2017–2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. // Xalq so‘zi, 2016-yil 31-dekabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'lim-tarbiya sohasini yanada isloh etish va tanqidiy baholash, uni takomillashtirish masalasi ham alohida e'tibor qaratdi. "Avvalgi uchrashuvlarda ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi. Bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekani sababli ushbu sohadagi ishlar shaxsan Bosh vazirga yuklatilgan. Birinchi vazifa-maktabgacha ta'lim sohasida. Ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim sohadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdik. Ushbu sohada bolalarni qamrab olish 27 foizni tashkil yetadi".¹⁷⁹ Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Mutaxassislarining tadqiqotlariga ko'ra, inson butun umri davomida oladigan barcha ma'lumotlarning 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan muddatda qabul qiladi. Ilk hayotiy tasavvurlar, inson tafakkurida poydevor bo'luvchi tushunchalar bola ongida aynan shu paytda shakllanadi. Demak, o'g'il-qizlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning kelajakda baxtli bo'lishida nafaqat oila, shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalari ham muhim o'rin egallaydi.

Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va uning asosida dastur ishlab chiqildi.

¹⁷⁹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. //T.:O'zbekiston, 45 bet.

Mazkur qaror maktabgacha ta'lim tizimi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni tadqiq etish, farzandlarimizni intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda muhim dasturilamadir. Binobarin, mazkur hujjatga muvofiq, maktabgacha ta'lim tizimi yanada takomillashtirilib, yangi muassasalar quriladi, mavjudlari rekonstruksiya qilinadi hamda mukammal ta'mirlanadi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha tashkil qilinadigan qisqa muddatli guruhlarda o'g'il-qizlarning kerakli bilimlarni egallashiga alohida e'tibor qaratiladi.


Shuningdek, qarorda qishloq joylarda yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan jihozlar, o'quv-metodik qo'llanmalar va multimedialar vositalari bilan ta'minlash nazarda tutilgan.

Bugun bog'cha yoshidagi bolalarning ziyrakligi axborot texnologiyalarini o'zlashtirib olayotgan maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya dasturlarining ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishni talab yetadi.

Mazkur qaror asosida qabul qilingan dasturda keng ko'lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan (9.3.2-rasm).

Bugungi kunda millionlab bolalarimiz yangitdan barpo etilgan va rekonstruksiya qilingan 10 mingga yaqin maktablarda, 1556 ta litsey va kollejda, 70 dan ziyod oliy o'quv yurtlarida yangi ta'lim tizimi asosida bilim va tarbiya olib, zamonaviy kasb-hunarlariga ega bo'lib, hayotda o'z munosib o'rini topmoqda, mamlakatimiz ta'lim modelining samarasi va raqobatdoshligi xalqaro maydonlarda tan olinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan musiqiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligiga qarashli R.Glier va V. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan akademik musiqa litseylari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktabi Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkazildi.



4.4.2-rasm. "2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror ijrosidan erishiladigan natijalar

Bolalar sportini rivojlantirish va ommaviylashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni sifat jihatidan kuchaytirish, bolalar sporti obyektlarining moddiy-texnik bazasini yana-da mustahkamlash, sport ta'limi va sport zaxiralarini tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi ijro apparati, sport va yo'nalishi bo'yicha 256 ta sport maktabi va sport yo'nalishidagi maktab-internatlar Xalq-ta'limi vazirligi ixtiyoridan Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tasarrufiga o'tkazildi.

Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorij tillarni va zamonaviy kompyuter dasturarini chuqur o'rganish vazifalari hali sifatli va to'liq holda yechilgani yo'q.
Shavkat Mirziyoyev

Bolalar sportining ommaviyligini oshirish hamda musiqa va san'at ta'limini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish orqali:

I. Amalga oshiriladigan tadbir tufayli:

- 1) 251 ta umumta'lim maktabi quriladi.
- 2) 12 ta bolalar va o'smirlar sport maktabida sport zallari barpo etiladi;
- 3) 9 ta yopiq suzish havzalari qurilib, 2 tasi rekonstruksiya qilinadi;
- 4) 8 ta bolalar musiqa va san'at maktabi yangidan quriladi va 12 tasi rekonstruksiya qilinadi.
- 5) Bu chora-tadbirlar bolalar uchun sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari tomonidan 373200 million so'm hajmida mablag' ajratiladi.

II. Erishiladigan natijalar:

- 1) CHora-tadbirlar natijasida bolalar sportining ommaviyligi oshadi.
- 2) Musiqa va san'at ta'limini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Umuman, umumiy oʻrta taʼlimi tizimi islohotlarini yana-da demokratlashtirish tufayli chet tillar hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori boʻlgan fanlarni chuqur oʻrganish yoshlarning bilim va salohiyatini yana-da oshirishga, mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tizimda rahbar va pedagog kadrlarning masofadan malaka oshirishi boʻyicha zamonaviy metodlar joriy etilgan. Birgina 2016-yilda 93 mingdan ortiq rahbar va pedagog kadrlar 140 ta malaka toifasi asosida oʻz mahoratini oshirdi.

Hozirgi kunda yurtimizdagi umumtaʼlim maktablarida 389 ming 740 nafar pedagog faoliyat yuritmoqda. Jumladan, 2016-yilda oʻqituvchilar bilim darajasini oʻrganish boʻyicha sinovlar oʻtkazildi. Jami 20 ming 119 nafar oʻqituvchidan 17250 (89,5 foizi) nafari sinovdan muvaffaqiyatli oʻtdi. Qolgan 2869 nafar oʻqituvchi navbatdan tashqari malaka oshirish kurslarida oʻz bilimini oshirib bormoqda.

2017-yil 14-yanvarda boʻlib oʻtgan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida davlatimiz rahbari taʼlim-tarbiya tizimida oʻquv reja va dasturlarini tubdan qayta koʻrib chiqish zarurligini qayd yetdi. Taʼlim muassasalarida darslarni samarali tashkil etishda, etuk kadrlar bilan bir qatorda taʼlimga doir meʼyoriy hujjatlar, oʻquv-uslubiy taʼminotning oʻrni katta. Prezidentimiz tomonidan oʻqitishning zamonaviy metodologiyasini yaratish va amaliyotga joriy etish, oʻquvchilarning ongli ravishda kasb-hunar tanlash ishtiyoqini kuchaytirish, darsliklarni yaratishga butunlay yangicha yondashish kabi dolzarb vazifalar aynan shu maqsaddan kelib chiqqan holda qoʻyilmoqda. Haqiqatan ham, globallushuv jarayonining jadallashuvi oʻquv dasturlarini tubdan qayta koʻrib chiqishni, keng bilimga ega boʻlgan, mantiqiy fikrlay oladigan yoshlarni voyaga yetkazishga xizmat qiladigan, takomillashgan meʼyoriy hujjatlar, oʻquv-metodik majmualarni yaratishni taqozo etmoqda.

Metodik xizmatning oʻqituvchi ehtiyojiga asoslangan yangi shakllarini yaratish, taʼlim sifatini baholash jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu kabi ishlarning yoʻlga qoʻyilishi ayni paytda aholining haqli eʼtiroziga sabab boʻlayotgan bir qator muammolarni, jumladan, oʻquv muassasalarida taʼlim-tarbiya jarayonidagi kamchiliklarning barham topishiga xizmat qiladi.

Maktab oʻquvchilariga chet tilini oʻrgatish borasida oʻziga xos yondashuvlar tanlandi, xususan, bolalar chet tilini oʻrganish barobarida, milliy qadriyat va anʼanalarimizga solishtirgan holda, tili oʻrganilayotgan xalq madaniyati bilan tanishadi. Darsliklarga oʻzbek hamda jahon adabiyoti ijodkorlari ijodidan naʼmunalar ham kiritilganki, bu bolalarda mutolaa madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

2017–2021-yillarda amalga oshiriladigan tadbirlar tufayli mamlakatimizdagi 135 ta oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasasining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi. Soʻnggi yillarda kollej bitiruvchilari tomonidan oʻz biznesini tashkil etishga boʻlgan intilish kuchayib borayotganini yaqqol kuzatish mumkin. Bitiruvchilarning oʻz biznesini tashkil etish istagi oshib borishiga quyidagi omillar taʼsir koʻrsatmoqda:

1. Kollejlarda taʼlim-tarbiya ishi zamon talablari darajasida tashkil etilayotgani, oʻquv ustaxonalarining sohaga oid eng ilgʻor vositalar bilan jihozlangani natijasida bitiruvchilarda oʻzi tanlagan mutaxassislik boʻyicha yetarli bilim va kasbiy koʻnikmalarni oʻzlashtirish imkoni kengayib bormoqda.

2. Kichik biznes va tadbirkorlik davlat tomonidan har tomonlama qoʻllab quvvatlamogda.

3. Bitiruvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish maqsadida hududlarda “Mikrokreditbank”, Savdo-sanoat palatasi, “Kamolot” YoIH bilan hamkorlikda “Yosh tadbirkor — yurtga madadkor”, “Mening biznes gʻoyam” kabi mavzularda turli seminarlar va koʻrik-tanlovlar tashkil etilmoqda.

4. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan bitiruvchilarga imtiyozli kreditlar berilmoqda.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash masalasiga davlat rahbarining bevosita jon kuydirishi bejiz emas. Bu – mamlakat ertasining hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlar hayoti, qolaversa, ularning ortida turgan odamlar, oilalar taqdiriga daxldor bo'lgan masaladir.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining korxonalarini tanlashi quyidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilmoqda:

- bo'sh ish o'rinlarining mavjudligi;
- o'quvchi va talabalar uchun ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;
- mehnat bozorida raqobatdosh, yuqori talabga ega mutaxassislikka o'rgatish imkoniyatining mavjudligi;
- doimiy ish o'rniga qabul qilish imkoniyatining mavjudligi;
- kasb-hunar o'qitish, malaka oshirish sharoitlarining mavjudligi.

Aksiyadorlik tijorat "Qishloq qurilish bank" kichik biznes su'bektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida bankning o'z mablag'lari hisobidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga 26,6 milliard so'm miqdorida kredit va mikro kreditlar taqdim yetdi.

O'zbekistonda oliy ta'limi muassasalari soni – 60 ta, OTM filiallari – 11 ta, xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalarining filiallari – 7 tani tashkil yetadi.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarimizda 260 ming nafardan ziyod talaba hayotning o'zi talab etayotgan 850 dan ortiq yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha bilim olishmoqda.¹⁸⁰

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hyech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbor etamiz.

Shavkat Mirziyoyev

Birgina 2016-yilning o'zida oliy ta'lim tizimi rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan 10 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti va Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini yana-da takomillashtirish, oliy ta'lim tizimini xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlashga qaratilgan qator farmon va qarorlarning qabul qilinishi yoshlarimizning jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim standartlariga to'la mos kelgan bilimlarni egallashlariga, ularning ijodiy va intellektual salohiyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2011-yil 20-maydagi «Oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1533 sonli Qarori bo'yicha 2011–2016-yillarga mo'ljallangan dasturni amalga oshirish uchun 277 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmi tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlash lozim. 2016-yilda 13 ta oliy ta'lim muassasasi, jumladan, Qoraqalpog'iston, Buxoro va Samarqand davlat universitetlari, Farg'ona politexnika institutidagi qurilish va rekonstruksiya ishlarida 355 milliard so'mlik ishlar bajarildi. Shuningdek, Toshkent davlat stomatologiya instituti binolari, Toshkent shahridagi Inha universiteti va Singapur menejmentni rivojlantirish instituti filiallarining yangi o'quv korpuslari qurildi".

2011–2016-yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha dasturi:

1) o'quv-laboratoriya binolari, sport inshootlari va talabalarning turar-joylarini qurib, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash

¹⁸⁰ Jamolidinova O., Aminov F. Zamonaviy bilim va yuksak intellektual salohiyatga ega yoshlar-buyuk kelajagimiz kafolati // "Ma'rifat", 2016-yil 26-noyabr.

va jihozlash bo'yicha manzilli dasturlarga kiritilgan oliy ta'lim muassasalarining ro'yxatini o'z ichiga oldi;

2) oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan zamonaviy ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari o'z ro'yxatiga ega;

2011–2016-yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish rekonstruksiya, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard so'mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti, Buxoro muhandislik texnologiyalari instituti, O'zbekiston Milliy universitetida yangi o'quv binolari barpo etildi. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2 ming 200 talabaga mo'ljallangan yangi zamonaviy o'quv korpusi, sport majmuasi, shuningdek, o'quv jarayoniga jalb etilgan xorijlik mutaxassislar uchun mehmonxona barpo etildi. Navoiy davlat konchilik institutida yangi o'quv binosi qurildi. 2014-yilda Toshkent tibbiyot akademiyasining stomatologiya fakulteti, Andijon, Buxoro, Samarqand va Nukus shaharlarida Toshkent davlat stomatologiya instituti filiallari ochildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi «Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1990-sonli qarori ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1602-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 20-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 341-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, Toshkent davlat yuridik universitetida o'quv jarayonini yana-da takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi va Adliya vazirligi qarori asosida Toshkent davlat yuridik universitetida o'qitishning modul tizimi sharoitlarida talabalar bilimni nazorat

qilish tartibi va baholash mezonlari to'g'risidagi nizom ishlab chiqilib tasdiqlandi.

Nizomga ko'ra, universitet talabalari bilimni nazorat qilish va baholashning maqsadi — yuqori malakali, raqobatdosh, mamlakatda o'tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlarning yuqori talablariga, zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan yuridik kadrlarni tayyorlash

hamda talabalarda mustaqil ta'lim olish, ta'lim sifatini boshqargan holda yuridik faoliyatning tegishli sohalarida tizimli tahlil qilish va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalarining modullarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat. Shuningdek, modul alohida o'quv fani bo'lib, o'zida bilimga oid hamda kasbiy jihatlarni qamrab oladi va talabaning fan dasturini o'rganishi natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanadi.¹⁸¹

Respublikada “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish” bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq Prezident qarori loyihasi natijasida:

1) akademik soha, o'quv dasturlari ishlab chiqilib, tasdiqlanadi, bunda:

- o'quv jarayonini tashkil etish;
- pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlari vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

¹⁸¹ Toshkent davlat yuridik universitetida o'qitishning modul tizimi sharoitlarida talabalar bilimni nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 16-son, 172-modda

2) milliy kadrlarning raqobatdoshligiga va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim milliy tizimining sifati oshishiga olib keladi.

– Boloniya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o'zaro tan olish;

– o'qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga qo'maklashuvchi 1999-yil 19-iyundagi Boloniya deklaratsiyasiga qo'shilish masalasi ko'rib chiqiladi.

2016-yil 30-dekabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvida qayd etilganidek, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yana-da takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bugun jahonning yetakchi universitetlari, ilmiy markazlari va fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yana-da mustahkamlashni zamonning o'zi talab qilmoqda. Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb yetadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi. Kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi.

Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Bu boradagi ishlar bugun izchil va tizimli davom etmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish to'g'risidagi farmonida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o'rnini yana-da mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama qo'llab quvvatlash, yuqori

Biz bu yo'nalishdagi ishlari-mizni tanqidiy baholagan holda, 2017–2021-yillarda oliy o'quv yurtlari tizimini yana-da rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqishimiz va uni hayotga tadbiiq etishimiz kerak bo'ladi.

Shavkat Mirziyoyev

malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag'batlantirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar belgilangan.¹⁸²

Prezidentimiz Farmonida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o'rnini yana-da mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama kuchaytirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag'batlantirish kabi qator muhim chora-tadbirlar belgilandi.

Agar iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, bu yuksalish zamirida ilm-fani tubdan rivojlantirish turganiga guvoh bo'lamiz. Misol uchun, Yaponiyani olaylik. Ikkinchi jahon urushidan so'ng "Kunchiqar yurt" judayam og'ir axvolga tushib qolgan edi. O'sha vaqtda bu o'lkada asosiy e'tibor insonning boshini "to'ydirish", ya'ni unga kuchli bilim berishga qaratildi. Natijada ilm-fan taraqqiyotiga ajratilgan sarmoya bugungi kungacha o'zining ijobiy samarasini ko'rsatib kelyapti. Bugun il-fanga qaratilayotgan e'tibor ham uzoqni ko'ra bilish, yorug kelajak sari tashlangan qadamdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan bo'lgan muloqotida ko'p masalalar muhokama qililib, taklif va mulohazalar o'rtaq tashlandi, ya'ni quyidagi dolzarb masalalar tilga olindi:

1. Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e'tirof etilgan olimlar ko'pligi, ular o'z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim.

2. Jahonning yetakchi institutlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yana-da rivojlantirish. O'zbek olimlari juda ham katta zaxira to'plaganlar, uni rivojlantirish zarur.

3. Yuqori salohiyatga ega kadrlar tayyorlash maksalasini takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuqori malakali mutaxassislar, dunyo darajasidagi yangi olimlar avlodini tayyorlash darkor.

¹⁸² Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili// "Xalq so'zi", 2016-yil 31-dekabr

4. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi.

5. Ilm-fan iqtisodiyotning barcha tarmog'i taraqqiyotida katta o'rin tutadi, davlat esa bu yo'lda avvalo olimlarga suyanadi. Chunki, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiya bo'lishi – dolzarb masala.

O'zbek xalqining tarixiy-madaniy va intellektual merosini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash hamda ko'paytirish, shuningdek, yosh avlodni umuminsoniy va milliy an'analar hamda qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish zarur. Ta'kidlash kerakki, mazkur masala davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvardagi kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida, Fanlar akademiyasi a'zolari bilan o'tkazgan uchrashuv va muloqoti davomida bu borada asosan ikkita asosiy vazifani hal etish lozimligini bayon yetdi:

1. Ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg'or xorijiy markazlar darajasida va olimlarning talablariga muvofiq, sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning ehtiyojari va uning maqsadli vazifalari inobatga olinishi shart.

2. Akademiklarni xar taraflama qo'llab-quvvatlash, jumladan, moddiy rag'batlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

2017-yilning 1-yanvaridan boshlab akademiklarga eng kam oylik ish haqining 10 barobari miqdorida jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqlardan ozod etilgan oylik ganorar belgilanadi. Bundan tashqari, ular uchun sanatoriy muassasalarida

har yili bepul sog'lomlashtirish kursidan foydalanish huquqi nazarda tutildi. Akademiklar ilmiy, ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlariga keng jalb etilib, ularga yuqori malakali kadrlar tayyorlashda faol ishtirok etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ilm-fan sohasida to'planib qolgan muammolarni hal etishiga qaratilgan keng ko'lamlil aniq maqsadli ishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Mazkur qaror munosobati bilan zamonaviy talablar asosida Fanlar akademiyasining asosiy vazifa va faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

1. Ilmiy tadqiqot infratuzilmasini yana-da mustahkamlash maqsadida Fanlar akademiyasi tarkibida bir qator ilmiy-tadqiqot muassasalari tashkil qilinib, qator muassasalar Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarildi. Bu esa turli fan tarmoqlari bo'yicha mavjud ilmiy salohiyatni mujassamlantirib ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish imkoniyatini beradi;

2. Fanlar akademiyasi boshqaruv apparati tashqiliy tuzilmasi yana-da takomillashadi. Uning tarkibida fizika-matematika, texnika fanlari, kimyo-biologiya fanlari, ijtimoiy-gumanitar fan bo'limlari, Fanlar akademiyasining Navoiy bo'limi tashkil etilmoqda.

3. Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston va Navoiy bo'limlari, Xorazm Ma'mun akademiyasi raislari mavqe'i akademiya vitse-prezidenti darajasiga tenglashtirildi.

4. Ilmiy-tadqiqot muassalarining xo'jalik va tadbirkorlik faolitidan tushgan sof foydaning 10 foizi ajratmalari hisobidan shakllanadigan, salmoqli natijaga erishgan FA ilmiy xodimlarini rag'batlantirish jamg'armasi tashkil etilmoqda.

5. O'zbekiston Bosh vaziri rahbarligida Fan va texnologiyalar bo'yicha davlat komissiyasi tuzilib, uning zimmasiga ilmiy

texnika sohasida yagona davlat siyosati ishlab chiqilib, uning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi tashkil etilmoqda.

6. Fan va texnologiyalar bo'yicha davlat komissiyasi qoshida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan ilmiy-texnik faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilib, quyidagi maqsadga yo'naltirilmoqda:

– ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarida yangi tipdagi va zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan laboratoriya tashkil etilmoqda;

– olimlarimiz tomonidan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini chet elda ro'yxatdan o'tkazish xarajatlarini qoplaydi;

– zamonaviy laboratoriyalarni ilmiy asbob va uskunalar bilan uzluksiz ta'minlaydi;

– ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining jahondagi yetakchi ilmiy elektron ma'lumotlar bazasidan erkin foydalanishi uchun sarflanadi;

– yosh olimlarning yetakchi xorijiy ilmiy markazlardagi qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini moliyalashtiradi.¹⁸³

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasida quyidagi masalalar aks ettirildi:

– ilmiy-tadqiqot muassasalarining innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish, istiqbolli sohalarda qichik innovatsion korxonalar, texnologiyalarni tashkil etish (biotexnika, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, elektronika, robottexnikasi, metallurgiya, nanotexnologiya);

– intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni (mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, ixtirolarga oid huquqlar va boshqalar) buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, shuningdek, bu sohadagi davlat nazoratini kuchaytirish.

¹⁸³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi, 2017-yil 18-fevral.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Bu farmonga muvofiq fan nomzodi va doktorlik ilmiy darajasini berish masalasi qayta ko'rib chiqildi.

Umuman, iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotini ta'minlash ilm-fanning rolini kuchaytirishda amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning davomi bo'lib, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi.¹⁸⁴

Umuman, xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi jahon talablari darajasida, yuksak ma'naviyat zaminida qurilib, davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlandi. Uzluksiz ta'lim tizimi umumdavlat dasturlari, maktabgacha tarbiya, boshlang'ich, umumiy va maktabdan tashqari ta'lim asosida amalga oshirilmoqda. Endilikda uzluksiz ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash siyosatini rivojlantirish hamda uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida qilinayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb yetadi. Maktabgacha ta'lim sifatini yuksaltirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish, fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganishga yangicha yondashuv yuksak taraqqiyot garovi hisoblanadi. Kasb-hunar kolleji talabalarini bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish davlatimiz va jamiyatimiz, mahalliy hokimiyatlarning etibor markazida

Nafaqat akademik ilm-fanni balki oliy o'quv yurtlaridagi ilm-fanni rivojlantirish zarur. Bunga Fanlar akademiyasi a'zolari bilan yaqinda o'tkazilgan uchrashuv va uzoq muddatli muloqot davomida qat'iy ishonch hosil qildim.

Shavkat Mirziyoyev

¹⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, // Xalq so'zi, 2017-yil 8-fevral.

turibdi. Shuningdek, ta'lim va o'qitish sifatini baxolashning xalqaro standartlariga o'tishda oliy ta'lim mussasalari faoliyati va samaradorligini oshirish taqozo etilmoqda. Ilm-fan taraqqiyotining yangi bosqichi, yangi fan, ilmiy tadqiqot, innovatsion yutuqlarni rag'batlantirish va ularni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlari yaratilmoqda.

Asosiy tayanch tushunchalar.

Ijtimoiy soha, ijtimoiy himoya, sug'urta, pensiya, nafaqa, stipendiya, davlat transferti, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalari, innovatsiya, integratsiya.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Bugungi kunda Davlat byudjetining necha foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilmoqda?
2. Xarakteristik strategiyasiga muvofiq tibbiyot sohasida mavjud qaysi muammolarni bartaraf etish rejalashtirilmoqda?
3. O'zbekistonda sog'liqni saqlash va sog'lomlashtirish masalalari yosh avlod tarbiyasida qanday o'rin tutadi?
4. Mustaqillik yillarda farmatsevtika sohasida erishilgan yutuqlar haqida nimalarni bilasiz?
5. Ijtimoiy himoya deganda nimani tushunasiz?
6. Yurtimizda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga qanday e'tibor qaratilmoqda?
7. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, doktorlik ilmiy ishlarini tayyorlash va himoya qilish, ilmiy daraja hamda ilmiy unvonlar berishning qanday tizimi joriy etilmoqda?

10-MAVZU. IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA TASHQI SIYOSAT

10.1. Investitsion muhit va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri

Ma'lumki, «Investitsiyalar» tushunchasi iqtisodiyot uchun yangi emas. Bugungi kunda «Investitsiyalar» tushunchasining ma'nosini anglash, uning mohiyatini to'g'ri tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Sobiq iqtisodiy tuzum davrlarida investitsiyalar tushunchasi ko'prok kapital qo'yilmalar bilan bog'lanib, kapital qurilishlar, kapital ta'mirlashlar va ilmiy-texnika taraqqiyoti uchun sarflanadigan kapital qo'yilmalarini anglatar edi va bu qo'yilmalar asosan markazlashgan fondlar va davlat byudjetidan yuqori davlat idoralari tasdiqlagan rejalar asosida ajratilar edi.

Ko'pgina adabiyotlarda «investitsiya» terminida noaniqliklar uchraydi. Birinchidan, «investitsiyalar»ga fuqarolarning «iste'molchilik investitsiyalari» (maishiy texnika, avtomobil, ko'chmas mulk va boshq) qo'shib yuboriladi. Bunday investitsiyalar esa kapitalni o'sishini va foyda olinishini ta'minlamaydi. Ikkinchidan, «investitsiyalar» va «kapital qo'yilmalar» terminlarini tenglashtirishadi. Kapital qo'yilmalar – korxonaning moliyaviy mablag'larini asosiy kapitalga bo'naklashtirish bilan bog'liq investitsiya faoliyatining shaklidir. Investitsiyalar esa nomoddiy va moliyaviy aktivlarga qo'yilishi ham mumkin. Uchinchidan, ko'pgina manbalarda investitsiyalarni pul mablag'larini qo'yish deb ta'riflanadi. Amaliyotda esa, barcha hollarda bunday bo'lmaydi. Investitsiyalashni boshqa shakllarda ham amalga oshirish mumkin. Masalan, korxonaning ustav kapitaliga badal ko'rinishida ko'chib yuruvchi va ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, nomoddiy aktivlar va boshqalar. To'rtinchidan, ko'pgina ta'riflarda investitsiyalarni

mablag'larning uzoq muddatli qo'yilmalar ko'rinishida bo'lishini ta'kidlashadi. To'g'ri, kapital qo'yilmalar uzoq muddatga investitsiyalanadi. Lekin qisqa muddatli investitsiyalar ham bo'ladi (masalan, montaj qilishga zarurat bo'lmagan va qurilish smetasiga kirmagan mashina va uskunalarni sotib olish).

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi.

Birinchidan, qo'yilish obyektiga qarab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi.

Real investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Moliyaviy investitsiyalar kapitalni, to'lov va moliyaviy majburiyatlarning barcha turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, moliyaviy aktivlarga joylashtirilishini anglatadi. Ushbu moliyaviy vositalarning eng muhimlari qimmatli qog'ozlardir: ulushli (aksiyalar) va qarz (obligatsiyalar). Real investitsiyalardan farqli o'laroq moliyaviy investitsiyalarni ko'proq portfel investitsiyalar deb atashadi, chunki bu holda investorning asosiy maqsadi bo'lib moliyaviy aktivlarning mukammal yig'masini (investitsiyalar portfelini) shakllantirish va qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni boshqarish hisoblanadi.

Ikkinchidan, investitsiyada qatnashish xarakteriga ko'ra bevosita va portfel investitsiyalar farqlanadi. Bevosita investitsiyalar investorni o'z moliyaviy mablag'lag'larni joylashtirish obyektini tiklash imkoniyatini beradi. Portfel investitsiyalar tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Moliyaviy vositachilar to'plangan mablag'larni samarali, daromad keltiradigan qilib joylashtiriladi. Portfel investitsiyalar boshqa emitentlarning anderratting yordamida qimmatli qog'ozlarga joylashtirish shaklida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi) va

uzoq muddatli (bir yildan oshiq muddatga beriladi) bo'ladi. Masalan, oddiy aksiyalar umuman biror – bir muddat bilan cheklanmaydi. Masalan, depozit sertifikati olti oy muddatga beriladi – bu qisqa muddatli qo'yilmalar vositasidir, obligatsiyalar 20-yilda qaytarish muddati bilan uzoq muddatli qo'yilmalar vositasidir.

To'rtinchidan, mulk shakllaridan kelib chiqib investitsiyalar xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy shakllarga ajratiladi. Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslarining va fuqarolarning mablag'larini tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qo'yilishini anglatadi. Davlat investitsiyalari davlat byudjeti va davlat korxonalarining mablag'larini joylashtirish orqali namoyon bo'ladi.

Beshinchidan, hududiy joylashtirish bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Oltinchidan, investitsiyalar tavakkallik darajasi bo'yicha yuqori tavakkalli va past tavakkalli investitsiyalarga ajratiladi. Moliya sohasida tavakkallik deganda investitsiyalarga mutloq yoxud nisbiy miqdordagi foyda kutilganidan ancha kam bo'ladi, boshqacha aytganda «tavakkallik» atamasi kutilmagan natija olish imkoniyatini anglatadi.

Xorijdan kapital qabul qiluvchi tomonidan investitsiya muhiti modelini ishlab chiqish har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vositadir. U orqali xorijiy investorga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'g'risida aniq tushunchalarga ega bo'lish, xorijlik investorlarning xulq-atvorini har tomonlama anglash va mamlakatdagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu jarayonlarning barchasi Respublikamizning boshqa davlatlar bilan dastlabki iqtisodiy munosabatlarini yo'lga qo'yish jarayonida chetdan kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb yetadi.

Xorijiy investitsiya ishtirokida amalga oshirilishi lozim bo'lgan loyiha va dasturlarni ishlab chiqishda nafaqat o'z manfaatlari bilan chegaralanmasdan investorning maqsad va imkoniyatlari bilan hisoblashish alohida e'tiborga loyiqdir.

Investitsion muhit tushunchasi o'zining murakkabligi va mukammalligi jihatidan makro va mikro iqtisodiyot darajasida ko'rib chiqiladi. Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o'z ichiga oladi. Makroiqtisodiyot darajasida yondashilganda xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati, xalqaro shartnomalar shartlarini bajarish xorijiy mulkni milliy lashtirish, turli masalalar bo'yicha xalqaro shartnomalar tizimida ishtirok etish davlat boshqaruv tizimlarining mustahkamligi, siyosiy rahbariyatning muqarrarligi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi, iqtisodiy siyosatning mukammalligi, davlat apparatining ish samaradorligi, banklar tizimining takomillashuv darajasi, pul muomalasi va davlat byudjetining barqarorligi, davlatning ichki va tashqi qarzlari miqdori va boshqalar hal qiluvchi o'rinda turadi. Investitsiya muhitiga kapitalni qabul qiluvchi mamlakatning qonunlarida aks ettirilgan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar va xorijiy firmalarining faoliyatini chegaralovchi yoki taqiqlovchi omillardan tashqari, to'liq aniqlanmagan ba'zi bir qoidalar va muvofiq lashtirilmagan jarayonlarning mavjudligi salbiy ta'sir yetadi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsion muhit bir tomondan, investor-firma va ikkinchi tomondan, xorijiy investitsiyani qabul qiluvchi xo'jalik subyektlari, ya'ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushma va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi ikkiyoqlama munosabatlarni aks ettiradi. Bu darajada investitsiya iqlimi umumlashtirilgan baholar iqtisodiy, huquqiy va madaniy jabhalarda yaqqol ko'rinadi. Makro va mikro iqtisodiyot darajalari birgalikda yagona investitsiya muhitini tashkil yetadi va potensial investorlar hamda kapitalni qabul qiluvchi tomonlarning bo'lajak munosabatlarini belgilab beradi.

Investitsion muhit obyekt kategoriyasi bo'lib, har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda

mavjud bo'lgan shart-sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Lekin hozirgi sharoitda investitsiya muhiti faqat davlat organlari ta'siri ostida shakllanmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda jahon tajribasidan, jumladan xorijiy investitsiya bilan tashkil etilib, yuksak iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishgan kompaniya va firmalar tajribasidan kengroq foydalanish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

Davlat hokimiyatining ta'sirchanligi investitsiya muhitini aniqlovchi omillardan biridir. Shundan kelib chiqib, har bir kapital jalb qiluvchi mamlakat ma'lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta'kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me'yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsiya muhitini o'z ichiga oladi. Xorijiy kapitalni qabul qilish tizimi investitsiya muhitining komponenti bo'lib xizmat qiladi va unga nisbatan mustaqil ravishda tashkil etiladi. Chunki u investitsiya muhitini o'zgartirishga qodirdir. Xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi qabul qiluvchi tomonni xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga qulay ravishda kirib kelishini namoyon esa, investitsiya muhiti kirib kelgan kapitalni mamlakat ichida optimal ravishda o'sib borish vaziyatiga baho beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni yangi zamonaviy texnologiyalar bilan, qishloq xo'jaligida qayta ishlovchi sanoat majmuini va boshqa sohalarda tub o'zgarishlar yasash mumkin. Shunday ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga qulay bo'lgan investitsiya muhitini yaratib berish kerak. Investitsiya muhiti iqtisodiyotda yangi tushuncha emas, ammo mustaqil O'zbekiston sharoitiga nisbatan ishlab chiqilmagan. Endi bu sharoitni yaratishga urinishlar bo'lmoqda. Bir qator rivojlangan davlatlar bu jarayonni ijobiy tarzda amalga oshirgan. Investitsiya muhitining ahamiyati, amaliy jihatdan, qaysi boyliklar va yo'nalishlar tizimi asosida xorijiy investorlar faoliyat

yuritishlari to'g'risida tushuncha beradi va shuning negizida xorijlik investorlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Investitsiya muhiti – juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Investor tomonidan ma'lum bir davlatga investitsiya qilishning qulay va noqulay tomonlari baholanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafko'rasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi. Investitsiya muhiti har tomonlama chuqur tahlil qilinishi asosida investitsiya riski aniqlanadi. Investitsiya muhiti va risk darajalari bir-birlariga teskari nisbatdadir. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko'paytiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, risk darajasi yuqori bo'ladi. Bu esa investitsiya qabul qiluvchining sarf-xarajatlarining o'sishiga olib keladi. Shunday qilib, investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.

Hozir turli mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi investitsiya uchun avj olayotgan raqobat kurashi nuqtai-nazaridan investitsiya riski tushunchasini ko'rib o'tish zarur. Investitsiya oqimlarining u yoki bu mamlakatlarga yo'nalganligi, shuningdek ularning real hajmlari oxir-oqibat shu risklar bilan belgilanadi.

Umuman olganda investitsiya riskini uch toifaga bo'lish mumkin:

1. Asosiy (yoki mamlakat bilan bog'liq) risk:

– investitsiya kiritiladigan mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy barqarorlik;

– hukumat o'tkazadigan makroiqtisodiy siyosatning izchilligi va barqarorligi (inflyatsiya darajasini nazorat qilish, byudjet, kredit siyosati va boshqalar);

– tadbirkorlik faoliyatidan olingan foyda va boshqa daromadlarning investitsiya qo'yilgan mamlakatdan xorijga o'tkazish imkoniyatlari va sharoitlari;

– investitsiyalashning o'zga huquqiy sharoitlari (xorijiy investorlar huquqini himoya qiladigan qonun va qonun doirasidagi harakatlarning mavjudligi).

2. Shartnoma yoki investitsiyaga qadar risk:

– murakkab jarayonlarning davomiyligi va samaradorligi;

– shartnoma shartlarini kelishish va ma'qullash jarayoni, shuningdek tomonlarning shartnomalarda nazarda tutilgan shartlarga rioya etishlarini nazorat qiladigan muassasalarning bo'lishi va samarali ishlashi;

– munosib mahalliy sherik topish imkoniyati;

– yangi tashkil etiladigan korxonalar nizom jamg'armasiga uskuna–jihazlar, texnologiyalar, nou-xau, xom ashyo, materiallar va boshqa ko'rinishida qo'shiladigan hissani baholash tizimining mavjudligi;

– intellektual mulkni himoya qilishning xuquqiy asoslari, shu jumladan texnologiyalarni transfertlash (o'tkazish) masalalari.

3. Operatsion yoki investitsiyadan keyingi risklar:

– operatsion (harakat) qarorlarni qabul qilish jarayoni tartib-qoidalari va davomiyligi;

– foyda va uni taqsimlash masalalari bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida ta'sir ko'rsatish darajasi;

– menejmentni tashkil etish masalalari, shu jumladan investitsiya loyihasi infratuzilmasini, xodimlarni boshqarish, moliyaviy menejmentni tashkil etish;

– mahalliy xom ashyodan foydalanish imkoniyatlari va uni olish tartiblarini hal qilishning davomiyligi;

– mahalliy bozor marketingi;

– malakali mahalliy ish kuchining topilishi;

– jamoat havfsizligi, shu jumladan ushbu mamlakatda ishlayotgan xorijlik xodimlar uchun havf-xatarsiz ishlash sharoitlari.

Investitsion muhitga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qanchalik ijobiy darajada bo'lsa, mamlakatning investitsion faolligi shunchalik yuqori bo'ladi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda qulay investitsion muhitning yaratilganligi uning yildan yilga o'sib borayotganligi bilan izohlanadi. Respublikada 2010-2016-yillarda asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar, uning YaIMdagi ulushining o'zgarish nisbatlarini 10.1.1-jadval ma'lumotlaridan kuzatish mumkin. Tahlil qilingan butun davr davomida YaIMda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi 20-24 % atrofida saqlanib qolgan, jami investitsiyalarda chet el investitsiyalari ulushi nisbatan beqaror o'zgarib, keyingi yillarda pasayib borish tamoyiliga ega bo'lgan. Biroq, Respublikada chet el investitsiyalari ulushi yaqin qo'shni davlatlar darajasidan birmuncha past bo'lgan. Uning asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalardagi ulushi 2000 yilda Qirg'izistonda 53,4 %, Tojikistonda 52 % va Qozog'istonda 38,8 %ni tashkil qilgan¹⁸⁵.

10.1.1-jadval
Respublikada investitsiyalarning YaIM hajmidagi nisbiy ulushining o'zgarishi (% hisobida)¹⁸⁶

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	
1. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi	22,9	19,9	24,6	22,8	23,8	23,7	24,1	24,4	25,0	
2. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda chet el investitsiyalari ulushi	23,2	21,7	28,3	21,5	20,4	19,3	19,8	19,9	20,1	

¹⁸⁵ Обзор социально-экономического развития государств Центральной Азии. Экономическое сообщество за 2000 год. Выпуск 14. – Бишкек, 2001. – С.30.

¹⁸⁶ <https://stat.uz> internet sayti ma'lumotlari

Investitsion faollikning YaIM hajmi va o'sish sur'atlariga ta'sirini o'rganish, uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarni ham tahlil qilishni taqozo yetadi. Bu, avvalo, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar moliyaviy manbalari tarkibiga tegishlidir. (10.1.2-jadval)

10.1.2-jadval
O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi va uning o'zgarishi¹⁸⁷ *

Yillar	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	O'zgarish barobar "+", "-", "x"
	Ko'rsatkichlar									
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	x
Shu jumladan:										
Budjet mablag'lari	29,2	12,3	5,6	6,0	5,1	5,3	4,5	4,5	4,5	-24,7
Korxonalar mablag'lari	27,1	46,1	33,0	34,8	32,7	34,8	34,0	32,4	33,2	6,1
Aholi mablag'lari	12,0	11,4	16,0	18,6	20,0	20,4	20,7	20,5	19,0	7,0
Bank krediti va boshqa qarzi mablag'lar	7,2	3,7	9,7	11,6	11,1	10,3	11,2	11,8	11,1	4,6
Chet el investitsiya va kreditlari	23,2	21,7	28,3	21,5	20,4	19,3	19,8	19,9	21,3	-0,1
Budjetdan tashqari fond mablag'lari	1,3	4,8	7,4	3,6	5,2	6,6	6,3	10,9	10,9	9,6

Tahlil qilingan davrda shu maqsadga yo'naltirilgan investitsiyalar manbalaridagi o'zgarishlar o'zida ikkita muhim omil ta'sirini aks ettiradi. Birinchisi, bu bozor munosabatlarning rivojlanish darajasi. Mazkur omil ta'sirida asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalarda davlat byudjeti mablag'lari ulushi kamayib, (1996 yildagi 24,0 %dan 2006 yilda 10,7 % va

¹⁸⁷ <https://stat.uz> internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

2016 yilda 4,5 %gacha) boshqa ichki nobyudjet manbalar ulushi ortib borgan. Jumladan, shu davrda korxonalar va aholi mablagʻlari ulushi 52,2 %ga, byudjetdan tashqari mablagʻlar ulushi esa 1,3 dan 10,9 %lik darajagacha ortgan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda mulkchilik shakllari ulushining oʻzgarishi ham oʻzida qayd qilib oʻtilgan omil taʼsirini ifoda yetadi. Oʻrganilgan davrda asosiy kapitalga qoʻyilgan investitsiyalarda davlat mulki ulushi 63,9 %dan 16,6 %ga qisqarib shunga mos ravishda nodavlat mulki ulushi ortgan. Bunda oʻsishning yuqori ulushi xususiy mulk hisobiga qoʻyilgan investitsiyalarga tegishli boʻlgan, yaʼni u 2000 yildagi 15,6 %dan 2016 yilda 21,2 %ga ortgan. (10.1.3-jadval)

10.1.3-jadval

Oʻzbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mulkchilik shakllari boʻyicha tarkibi va uning oʻzgarishi (% hisobida)¹⁸⁸

Yillar Koʻr- satkichlar	Yillar									Oʻzga- rishi “+”, “-”
	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	
Jami investitsiyalar	100	100	100	100	100	100	100	100	100	x
Shu jumladan:										
Davlat	63,9	30,9	21,8	22,6	22,3	20,7	19,1	16,3	16,6	-3,8m.
Nodavlat	36,1	69,1	78,2	77,4	77,7	79,3	80,9	83,7	83,4	2,3m.
Undan:										
Hususiy	15,6	12,7	17,2	19,4	20,8	20,2	20,6	21,8	21,2	1,3m
Xoʻjalik birlashmalari	12,7	33,0	28,4	29,6	28,6	30,4	32,3	36,4	36,1	2,8m
Qoʻshma korxonalar, chet elliklar	6,5	16,6	28,5	23,1	21,3	21,7	20,2	20,1	19,8	3,1m
Boshqalar	0,3	6,3	4,1	5,3	7,0	7,0	7,8	5,4	6,3	21m

Respublikada asosiy kapitalga kiritilgan chet el investitsiyalari tarkibida ijobiy oʻzgarishlar toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar va kreditlar foydasiga roʻy bergan. Tahlil qilingan davrda uning chet el investitsiya va kreditlaridagi ulushi 3 barobarga ortgan.

Chet el investitsiyalarining iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha tarkibi-yillar kesimida beqarorlik tamoyili xos. Jumladan, uning sanoat tarmoqlariga yoʻnaltirilgan ulushi 23,6 % (2010 y.)dan 71,4 % (2016 y.)lik darajaga oraliqda oʻzgargan. Bu beqarorlik tamoyili boshqa tarmoqlarga ham xos.¹⁸⁹

Respublikada investitsiyalarning YaIMdagi mavjud tarkib topgan nisbati uning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibini ham takomillashtirib borish zarurligini koʻrsatadi. Keyingi yillarda, Respublikada investitsion sarflarda uning yangi qurilishlarga yoʻnaltirilgan qismi barqaror yuqori ulushga (55,0 % atrofida) ega boʻlib qolmoqda. Rivojlanishning hozirgi bosqichida iqtisodiy samaradorlik va mavjud quvvatlarni yangilash talablari hisobga olinganda ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va texnik qayta qurollantirish hamda mavjud korxonalarni kengaytirishga yoʻnaltiriladigan investitsion sarflarga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq.

Har bir kompaniya oʻzining investitsiyalash strategiyasi, raqobat kurashidagi oʻz oʻrnidan kelib chiqqan holda investitsiya riski majmuini mustaqil baholaydi va u yoki bu mamlakatga investitsiya kiritadi. Keyingi oʻn yillarda rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar bilan sanoat jihatidan jadal rivojlanayotgan mamlakatlarning kompaniyalari oʻrtasidagi farqlar yaqqol koʻzga tashlana boshladi.

Rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar gʻoyat sinchkov va pishiqligi bilan ajralib turadilar. Ular mamlakatdagi siyosiy – iqtisodiy vaziyatni uzoq oʻrganadi, tahlil yetadi va shundan

¹⁸⁸ <https://stat.uz> internet sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

¹⁸⁹ www.stat.uz – Oʻzbekiston Respublikasi davlat statistika qoʻmitasi rasmiy sayti maʼsulotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilindi.

keyingina bu mamlakatga investitsiyalar kiritish yoki kiritmaslik haqida bir qarorga keladi. Yangi sanoati rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar ularga qaraganda faolroq. Ularning strategiyasi hujumkorligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Bu kompaniyalar uchun yangi bozorlarga tez kirish hamda u yerda yetakchi mavqeni egallash asosiy masala hisoblanadi.

Bozorga kirishning ham birinchi, ham ikkinchi strategiyasiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo ularning qaysi biri yaxshi, qaysi biri yomon degan savolga javob berish qiyin. Bu strategiyalar umuman boshqa-boshqa, har biri mazkur mamlakatlarning tarixiy tajribasi, biznes olami an'analari, kishilarning mentaliteti (dunyoqarashi) asosida shakllangan.

O'zbekistonda mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish tizimini yaratishga kirishildi. Bu borada bir qator qonunlar va Prezident farmonlari chiqarildi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "CHet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlarini takomillashtirish to'g'risida"gi qonun va farmonlari shular jumlasidandir. Bu qonun va farmonlar ma'lum ma'noda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asosini tashkil yetadi.

Investitsion muhitga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy omillar:

- xorijiy investitsiya borasida davlat siyosati;
- xalqaro kelishuvlarga rioya qilish;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi;
- iqtisodiy siyosatning hayotiyliigi;
- mamlakatning xalqaro shartnomalar tizimida qatnashuvi;
- davlat apparatining ish faoliyati;
- siyosiy hukumatning investitsiyalarga moyilligi.

Iqtisodiy omillar:

- iqtisodiyotning umumiy holati (yuksalish, pasayish);
- valyuta ko'rsining barqarorligi;

- inflyatsiya jarayonining dinamikasi;
- soliq imtiyozlari;
- bojxona tartibi;
- ish kuchidan foydalanish tartibi;
- ish kuchi qiymati;
- aniq mahsulotlarga talab va taklif;
- kredit qiymati va boshqalar.

Ijtimoiy omillar:

- jamoatchilikning xususiy mulk va xorijiy investitsiyalarga munosabati;
- jamiyatning mafkuraviy birdamlik darajasi;
- mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining asosiy masalalari bo'yicha kelishuvning mavjudligi;
- ishchi guruhining tashkilotchiligi.

Biron mamlakatning investitsion muhitini tahlil qilinganda, amaldor nuqtai nazari emas, balki o'z mablag'ini daromad keltiruvchi loyihaga joylashtirmoqchi bo'lgan xorijiy investorlarning fikrlari ahamiyatlidir. Ularning fikricha, investitsiya muhiti bir qator zaruriy omillarga bog'liq bo'lib, ularning mavjudligi investitsiya muhitining eng qo'lay bo'lishini ta'minlaydi.

Birinchi, **siyosiy barqarorlik** bo'lib, uning mavjud bo'lishi investorning kelgusi ishlarini rejalashtirish va ishonch bilan oldinga intilishiga imkon beradi. U kuchli qonuniy tizimning mavjudligi, tashqi va ichki harbiy nizolar, hamda inqilobiy o'zgarishlarning bo'lmasligida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi, **iqtisodiy samaradorlik**. Har bir investor iqtisodiy o'sish juda yuqori bo'lgan, hukumat iqtisodiyotni rivojlantirish borasida barqaror siyosat olib borayotgan mamlakat iqtisodiyotiga mablag' sarflashni hohlaydi.

Yana bir muhim omil mamlakatdagi hukumat rahbarlari, mehnat jamoalari, muholif partiya vakillari va halqning xorijiy investorlarga nisbatan bo'lgan **do'stona munosabatlaridir**. Undan tashqari oddiy

xalqning xorijliklarga, ularning mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatiga bo'lgan munosabati ham katta ahamiyat kasb yetadi. Ushbu omil ham investorlarning mamlakatdagi faoliyatlariga katta ta'sir o'tkazadi.

Davlat siyosati yana bir muhim omil hisoblanib, investorlarning faoliyatiga turli xil ta'sir o'tkazishi mumkin. Albatta, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat bevosita yoki bilvosita biznes, savdo va investitsiyalash jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunda uch jihatga alohida e'tibor berilishi zarur: **xorijiy investorlarning loyihalarda qatnashish darajasi**. Xorijiy investorlarni o'z biznesining qanday qismiga egalik qilishlari qiziqtiradi. Bu esa loyiha turiga bog'liq: a) agar investitsiya loyihasi eksportga yo'naltirilgan, hamda xom ashyoning asosiy qismi chetdan keltirilayotgan bo'lsa, investor biznesning maksimal darajada katta qismiga (ba'zida 100%oiga) egalik qilishga da'vogar bo'ladi; b) agar investitsiya loyihasi eksportga yo'naltirilgan, hamda xom ashyoning asosiy qismi mamlakatning ichki xom ashyosi bo'lsa, investor xuddi shunday biznesning qo'shni mamlakatlardagi shart-sharoitlariga qarab ish tutadi; v) agar investitsiya loyihasi mahsulotni ichki bozorda sotishga mo'ljallagan bo'lsa, ko'pgina TMKlar sherikchilik asosida ish yuritishga harakat qiladilar, aks holda boshqa raqobatchilar ulardan oldin bozorni egallab olishlari mumkin. **Xorijliklarning mehnati**. Xorijiy investorlar o'z biznesi va daromadlarini hamyurtlari nazorati ostida bo'lgani ma'qul deb fikr lashadi. Ammo ishga juda ko'p xorijliklarni jalb etish xarajatlarni oshirib yuboradi. **Valyuta muomalasini tartibga solish**. Xorijiy investorlarni mamlakatga mablag' olib kirish, uni sarflash imkoniyatlaridan tashqari biznesdan topilgan daromadni konvertirlangan valyutaga ayirboshlash, chetga olib chiqish, valyuta hisob raqamiga ega bo'lish imkoniyatlari nihoyatda qiziqtiradi.

Keyingi omil **infrastruktura** holati bo'lib, u mamlakatdagi yuqoridagi sanab o'tilgan omillarning mavjud bo'lishidan

keyingi muhim omillardandir. Unda ishlab chiqarish uchun yer maydonlaridan foydalanish, erni ijaraga olish shartlari va muddati, avtomobil va temir yo'llarning sanoat hududlarini asosiy transport bo'g'inlari (portlar, aeroportlar) va bozorlar bilan bog'langanligi, elektr energiyasining mavjudligi, suv ta'minoti darajasi (ba'zi hollarda ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi), telekommunikatsiyaning rivojlanish darajasi, telefon, faks, teleks aloqalarining mavjudligi, kompyuter orqali aloqa o'rnatish masalalari muhimdir.

Ishchi kuchi. Ko'pincha xorijiy investitsiyalarni kiritishning asosiy sababi qilib qabul qiluvchi mamlakatda ish kuchining arzonligi ko'rsatiladi. Lekin, investitsiyalarni jalb qilishga savodxonlik, ishchi kuchining malaka darajasi, mehnat qilish etikasi, mehnat unumdorligi darajasi, turli ijtimoiy harakatlarning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri va boshqalar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Banklar va moliya. Mamlakatda jahon savdosi va investitsiya sohasida foydalaniladigan barcha moliyaviy instrumentlar mavjudligi ushbu sohadagi xizmatlar sifatini anglatadi. Investorlar uchun mamlakatda yetarli miqdorda faoliyat ko'rsatuvchi moliya institutlari va jahondagi yirik banklarga tegishli filiallarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb yetadi. Mamlakatda jahonning yirik savdo va investitsiya kompaniyalari filiallarining faoliyat ko'rsatishi investorlar uchun ishonchlilik darajasini oshiradi.

Hukumat strukturalaridagi rasmiyatchilik. Hukumat o'z investitsiya siyosatini qanday baholashi muhim emas. Bunda katta tajribaga ega bo'lgan tadbirkorlar bergan baho muhimdir. Investorlar rasmiyatchilik, qog'ozbozlik avj olgan muhitga kamdan-kam o'z mablag'larini sarflaydilar. Hukumat uchun eng muhimi, rasmiyatchilik sabab bo'lib amalga oshirilishi to'xtab qolgan loyihalarni ekspertizadan o'tkazish, yo'l qo'yilgan xatoliklarni tuzatishdir.

Mahalliy ishbilarmonlik muhiti. Bu tushuncha juda keng bo'lib, unga: advokat, maslahatchilarning ko'pligi, malakali ish yurituvchilar, buxgalterlar, arxitektorlar va konstruktorlarning mavjudligi kiradi. Bundan tashqari qo'shma korxonalar ochishda mahalliy hamkorning tajribasi, aloqalari, mehnatsevarligi va ishonchligi ham hisobga olinadi.

Yashash sifati. Ushbu omil xorijiy investorga taklif qilinayotgan barcha narsalarda o'z aksini topadi. Aholi turmush tarzi va daromadlarining darajasi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning xilma-xilligi va mehnat uchun qilinadigan xarajatlar hajmida o'z aksini topadi.

Investitsiyalash borasidagi qo'shma loyihalar va qo'shma korxonalarini tashkil etishdagi risklarni hisobga olishda ko'pchilik xorijiy investorlar BERI indeksidan foydalanadilar. Ushbu indeks mamlakatdagi investitsiya muhitini turlicha salmoqqa ega bo'lgan 15 ta baholash mezonlari asosida hisoblab chiqadi. Har bir mezonga 0 dan (to'g'ri kelmaydi) 4 gacha (o'ta qulay) baho beriladi. To'plangan yuqori ball «barqaror mamlakat»ni anglatadi. Mamlakat to'plagan ball qanchalik yukori bo'lsa, investitsiyalashdan olinishi mo'ljallangan foyda ham shuncha yukori bo'lishi zarur, aks holda investitsiyalash asossiz hisoblanadi. BERI indeksining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

10.1.4-jadval

BERI indeksi

№	Mezonlar	Salmog'i %
1.	Siyosiy barqarorlik: <i>kutilmagan hukumat to'ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta'sirini baholaydi</i>	12
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat: <i>hususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo'lgan xarajatlar hajmi</i>	6
3.	Milliy lashtirish: <i>beg'araz ekspropriatsiya imkoniyatlaridan to mahalliy xomiyatlarga imtiyozlar berishgacha</i>	6
4.	Devalvatsiya: <i>devalvatsiya ta'siri, hamda korxonalar faoliyatiga devalvatsiyaning ta'sirini yumshatuvchi choralarining hayotiyliigi</i>	6
5.	To'lov balansi: <i>hisoblar balansi va umumiy balansga, hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta'sir etuvchi omillar</i>	6
6.	Rasmiyatchilik masalalari: <i>davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilishi, valyuta o'tkazishlari va boshqa shunday operatsiyalar</i>	4
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari: <i>yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi 3%, 3-6%, 6-10% va 10%dan yukori chegaralarda</i>	10
8.	Valyutaning konvertirlangani: <i>milliy valyutaning xorijiy valyutaga almashirish imkoniyati, hamda milliy valyutaning (korxonalariga zarur bo'lgan darajada) valyutalar bozorida o'rni</i>	10
9.	Aloqa va transportni tashkil etish: <i>faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa tizimini (mamlakat ichidagini ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati. Transport infratuzilmasini baholash</i>	4

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga nisbatan BERI indeksi asosida investitsiya muhiti imitatsion baholangan bo'lib, u quyidagi jadvalda qayd etilgan:

10.1.5-jadval
O‘zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining
imitatsion baholanishi

№	BERI indeksi mezonlari	bahosi	salmog‘i,%	indeks
1.	Siyosiy barqarorlik	4	12	0,48
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat	3	6	0,18
3.	Milliy lashtirish	2	6	0,12
4.	Devalvatsiya	0	6	0
5.	To‘lov balansi	1	6	0,006
6.	Rasmiyatchilik masalalari	1	4	0,04
7.	Iqtisodiy o‘shish sur‘atlari	1	10	0,01
8.	Valyutani konvertirlanganligi	1	10	0,01
9.	Sharnomani amalga oshirish imkoniyati	3	6	0,18
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar	2	8	0,16
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati	1	2	0,02
12.	Aloqa va transportni tashkil etish	1	4	0,04
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor	3	4	0,12
14.	qisqa muddatli kredit	1	8	0,08
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital	2	8	0,16
16.	JAMI		100	1,61

Mamlakat investitsiya muhitini baholashda yana xalqaro kredit reytinglaridan ham foydalaniladi. Ular jahondagi o‘n bir obro‘li agentliklar tomonidan ishlab chiqiladi. Ulardan beshtasi – amerika, uchtasi – Yapon, ikkitasi – Kanada va bittasi Angliya agentliklaridir. Bunda bozorning 90% ikki yirik va mashhur amerika kompaniyalariga tegishlidir – Standart and Poor’s Investor Service va Moody’s Investor Service.

Xorijiy investorlar reytingdagi ma’lumotlardan vaqtini tejash maqsadida keng foydalanadilar. Mamlakatning reytingi yuqori yoki pastligi albatta ahamiyat kasb yetadi. Lekin shu reytingga kirishning o‘zi ham investorlarda ushbu mamlakatga nisbatan u yoki bu darajada ishonch uyg‘otadi.

10.2. O‘zbekistonning investitsion siyosati va xorijiy investitsiyalarning davlat tomonidan boshqarilishi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hukumat tashqi iqtisodiy faoliyatini diqqat markazida bo‘ldi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yana-da erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko‘zlab siyosat yuritish;

- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag‘ni keng jalb etishni ta’minlaydigan xuquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko‘maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;

- mablag‘larni Respublika mustaqilligini ta’minlaydigan, import o‘rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim ustuvor yo‘nalishda jamlash.

Shuningdek Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan o‘tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;

- qo‘shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro‘yxatdan o‘tkazishdagi to‘siqlarni butunlay olib tashlash.

- mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalb etishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

– qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohasini rivojlantirish;

– mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo‘yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;

– transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;

– iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;

– turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalar ichida qo‘shma korxonalar yetakchi o‘rinda turadi. To‘liq xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar kam. Ko‘pchilik davlatlarda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish har xil. Ba‘zi davlatlarda bu vazifani Moliya vazirligi bajarsa, boshqalarida Adliya vazirligi bajaradi. O‘zbekistonda bu vazifani Adliya vazirligi amalga oshiradi. O‘zbekistondagi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar Respublika hududida o‘zining filiallari yoki vakil korxonalarini tashkil etishlari mumkin. Bundan tashqari ular boshqa davlatlarda ham o‘z filiallarini ochishlari mumkin.

O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar O‘zbekiston Respublikasi hududida xo‘jalik assotsiatsiyalari, konsernlar va boshqa birlashmalar tuzishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasi ta‘minlangan. Bu himoya har bir korxonada bo‘lgani kabi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar uchun taaluqli. Milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalari va hududlariga investitsiya kiritgan xorijiy investorlarga O‘zbekiston Respublikasi

qonunchiligi tomonidan qo‘shimcha imtiyozlar berilishi mumkin. Shu bilan birga qonunda xorijiy investorlarning faoliyat turlari ham belgilangan. Xorijiy investorlar yoki xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar mavjud qonunchilikka muvofiq, o‘z maqsadlari va nizomlaridan kelib chiqib, barcha turdagi faoliyatlarni olib borishlari mumkin.

Xorijiy investorlar investitsiya hajmini, turlarini, yo‘llarini belgilaydilar va ularni hoxlagan korxonaga mustaqil ravishda kiritishlari mumkin. Investor o‘zi kiritgan investitsiya obyektlari va natijalariga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega. Shu bilan birga reinvestitsiya va savdo operatsiyalarini O‘zbekiston hududida milliy qonunchilik asosida, undan tashqarida esa xalqaro qonunlar asosida amalga oshirish huquqlariga ega. Investor egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini qonun bo‘yicha boshqa huquqiy va jismoniy shaxsga berishi mumkin. Tomonlarning o‘zaro huquqlarini bir-biriga o‘tkazish vaqtidagi aloqalarni faqat ular o‘rtasida tuzilgan hujjat-shartnomalar hal qila oladi. Xorijiy investorlar va korxonalar qonunchilikda ko‘rsatilgan holatlarda yer uchastkalarini sotib olishlari mumkin. Xorijiy investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etish zarur:

– O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunchilikka amal qilishi;

– O‘zbekistonda mavjud qonunchilik talablari asosida soliq to‘lash va boshqa to‘lovlarni amalga oshirishi;

– Investitsiya loyihasining sanitariya-gigienik ekologiya talablariga amal qilish bo‘limidagi ekspertiza xulosalarini olishi.

O‘zbekiston Respublikasi Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Isroil, AQSh va bir qator boshqa mamlakatlar bilan investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoyalash to‘g‘risida bitimlar tuzdi.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini amalga oshirishda dunyoning 25 dan ortiq mamlakatlari ishtirok etmoqda. Investitsiyalarni jalb etish vazifasini davlatimiz ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini yaratish va rivojlantirish asosida xaqiqiy mulkdorlarni shakllantirish bilan bog'laydi.

"Iqtisodiy islohotlarni yana-da chuqurlashtirish, xususiyl mulk manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoniga binoan xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan paytdan boshlab besh yil muddatga xorijiy valyutadagi tushumdan soliq to'lashdan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga valyutani majburiy sotishdan ozod qilish ko'zda tutilgan. Xorijiy investitsiya jalb etilgan korxonalariga quyidagi imtiyoz va rag'batlantirish omillari berilgan:

- tovarlar eksporti ishlab chiqarish hajmining kamida 30 foizini tashkil yetadigan korxonalariga, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, foyda solig'ini amaldagi stavkalardan ikki barobar kamroq to'lash huquqi;

- xorijiy investitsiyali korxonalar daromadining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiyani yangilashga sarflanadigan qismidan soliq olmaslik;

- Respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar to'lashdan yetti yil muddatga ozod etish;

- ishlab chiqarilgan mahsulotning 25% bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, korxonalar ishga tushgandan boshlab soliqlar to'lashdan besh yil muddatga ozod etish. Keyingi yillarda bu korxonalarining foydasidan olinadigan soliq amaldagiga qaraganda ikki marta pasaytirilgan stavkalarda undiriladi;

- ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy Sherikka tegishli bo'lib, ishlab chiqarish eksportga yo'naltirilgan yoki import

o'rini bosishga mo'ljallangan bo'lsa soliqlar to'lashdan ikki yil muddatga ozod etish;

- foydadan to'lanadigan soliq-18%;

- agar ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy Sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 500000 AQSh dollaridan

- 1 000 000 AQSh dollarigacha bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq-15%;

- agar ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy Sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 1000 000 AQSh dollaridan va undan ko'p bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq-16%;

- agar ustav kapital hajmi kamida 500 000 AQSh dollarini tashkil esa, mol-mulk solig'idan ozod qilish;

- yer solig'idan ikki-yilga ozod qilish;

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnemasiz chetga sotish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish;

- jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatning mulkini xususiylashtirishda bemalol ishtirok etishlari mumkin.

Hozirgi kunda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar investitsiya faoliyatiga yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Bunday yondashuv quyidagi qoidalardan kelib chiqmoqda:

- investitsiya talabini faollashtirish, investitsiya resurslarini iqtisodiy taraqqiyotning ustun sohalariga to'plash;

- investitsion jarayonlarga korxonalar, tashkilotlar, aholi jamg'armalarini to'laroq jalb etish va undan Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda foydalanish;

- chet el kapitalining kirib kelishi uchun qulay iqtisodiy muhit hozirlash.

Respublika Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xususiyl xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni ijrosini ta'minlash tufayli,

Respublikamizda investitsion muhit yaxshilanibgina qolmasdan, bir qator ijtimoiy muammolarga ham barham beriladi, deb o'ylaymiz. Chunki, farmonning 2-bandida ta'kidlab o'tilganidek, xorijiy investitsiyalar hisobidan tashkil etiladigan korxonalar Respublikamizdagi ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan qator mintaqalarga joylashtirilishi ko'zda tutilgan.

Xorijiy korxonalar 2005-yilning 1-iyulidan boshlab, asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, ekologiya solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilinadilar. Bu imtiyozlar xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda beriladi:

– 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga;

– 3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga;

– 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga.

Shunday qilib, o'rnatilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlarini va sarflagan sarmoyasini himoya qiladi.

Umuman olganda, chet el investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha Respublikamiz mintaqalarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga eng qulay investitsion muhit va Yuqori darajadagi tadbirkorlikka ega, eksport faoliyatida qo'shma korxonalar mavqei nisbatan yuqori bo'lgan Toshkent shahri, Andijon, Farg'ona Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlari kiradi.

Ikkinchi guruhga investitsion faollik darajasi nisbatan o'rtacha bo'lgan Buxoro, Namangan va Samarqand viloyatlarini kiritish mumkin.

Uchinchi guruhdan esa, investitsion faollik darajasi o'ta sust, eksport faoliyatida qo'shma korxonalar mavqei deyarli sezilmaydigan mintaqalar Xorazm, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari o'rin olgan.

Ayrim viloyatlarga jalb qilinayotgan sarmoya miqdori juda ham sustdir, tahlillar shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda xorijiy sarmoyalarning asosiy qismi Toshkent, Farg'ona, Andijon, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlariga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda Farmoni bilan Navoiy viloyatida «Erkin industrial – iqtisodiy zona (EIIZ)» tashkil etilishi e'lon qilindi. Uning faoliyat qilish muddati hozircha 30 yil qilib belgilangan, keyinchalik yana uzaytirilishi mumkin. Bu erkin industrial – iqtisodiy zonani tashkil etilishi mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni yana-da ko'proq jalb etilishiga olib keladi.

Ayni paytda “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasida Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSh, Germaniya, Xindiston, Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa mamlakatlar ishtirokidagi 25 ta investitsiyaviy loyiha amalga oshirilmoqda. Yuqori texnologiyalar asosida avtosanoat uchun zarur ehtiyot qismlar ishlab chiqarayotgan “Uz eral Cadle” mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasi – shulardan biridir. Bugungi kunda ushbu korxonada 39 turdagi avtomobil kabellari ishlab chiqarilmoqda. 2012-yilda amalga oshirilgan modernizatsiyalash tadbirlari natijasida Janubiy Koreyadan keltirilgan 272 ming AQSh dollarilik texnologik uskunalarni yordamida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan “Kobalt” rusumli avtomashina akkumlyatorlari uchun jgut tayyorlanmoqda.

Hududda samarali faoliyat yuritayotgan korxonalar qatoriga, “O'zMinda” qo'shma korxonalarini ham kiritish mumkin. “O'zavtosanoat” AK va Hindistonning “Minda

Capital Ltd” kompaniyasi investitsiyalari asosida tashkil etilgan mazkur korxonada “Telecom innovations” raqamli televidenie signallarini qabul qiluvchi DSLAM” va “ADSL modellari ishlab chiqarilayotir.

Hozirgi kunda ushbu qo’shma korxonada “DSLAM” va “ADSL” modellari bilan birga, raqamli “IPTV” qurilmalari tayyorlash ham o’zlashtirildi. Mazg’kur yangi uskuna yordamida raqamli televedenie signallarini internet tarmog’i orqali qabul qilish mumkin. 2016-yilda ham ushbu korxonada modernizatsiya ishlari davom ettirilib, 400 ming AQSh dollarilik investitsiya o’zlashtirildi. Umuman olganda, “Navoiy” erkin industrial – iqtisodiy zonasida faoliyat ko’rsatayotgan “Telecom innovation” qo’shma korxonasiga kiritilgan 582 ming AQSh dollarilik xorij investitsiyasi evaziga bu yerda ishlab chiqarish quvvati ikki barobar ortdi.

“Navoiy” erkin industrial iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon uning hududida umumiy qiymati 100 million dollardan ziyod investitsiya loyihasi ro’yobga chiqarildi. Pirovardida birgina 2013-yilda qiymati 100 milliard so’mlikdan ko’proq mahsulot ishlab chiqarilib, bu boradagi o’sish sur’ati 2015-yildagiga nisbatan 25,8 foizni tashkil yetdi.¹⁹⁰

Shuni ham e’tirof etish lozimki, mamlakatimiz viloyatlariga xorijiy sarmoyalarning jalb qilish hajmi hali ham talab darajasida emas. Jumladan, viloyatlarning eksport qobiliyatlarini to’laligicha ishlatish va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish lozim. Viloyatlarda sarmoya loyihalarini tayyorlash chog’ida hududiy joylashish va resurslar inobatga olinmayapti. Qishloq xo’jaligi xomashyosidan eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish o’rniga, qishloq xo’jaligi texnikasiga butlovchi qismlarni yetkazish bo’yicha loyihalar taklif qilinmoqda. Bizning fikrimizcha, nafaqat viloyatlar, balki, butun

¹⁹⁰ T.Ziyaev, T.Rasulov, O.Yarashov Mustaqillik yillarida O’zbekistonda investitsiyaviy siyosat. “Ishonch” gazetasi. 2017-y. №5 son

Respublikaga ko’proq xorijiy sarmoyalarni va kreditlarni jalb etish maqsadida quyidagilarga e’tibor berish kerak:

1. Investitsion loyihalarni rejalashtirish chog’ida viloyatlardagi eksport salohiyatlarini ko’zda tutish;
2. Viloyatlarda telekommunikatsiya tizimini va mehmonxonalarini rivojlantirish;
3. Xorijiy investorlarni Respublikadagi investitsion muhit va kerakli axborotlar bilan tanishtirish maqsadida taqdimot marosimlari va biznes-anjumanlar o’tkazish zarur;
4. Viloyatlarning eksport qobiliyatini oshirish maqsadida chet eldan olib kelinayotgan zamonaviy va yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo’lgan anjomlarga past boj stavkalari o’rnatilishi lozim, deb o’ylaymiz.

Yuqorida keltirilgan takliflar xorijiy sarmoyalarning viloyatlar o’rtasida teng taqsimlanilishini va ularni o’z vaqtida qoplanishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar – iqtisodiyotda tarkibiy qayta o’zgarishlarni amalga oshirishning va iqtisodiy o’sishning moddiy asosidir. Bu maqsadlarda ulardan foydalanish investitsiyalarni tarmoq tarkibining o’zgarishida o’z aksini topdi. Yangi tarmoqlarning paydo bo’lishi, yoqilg’i-energetika mustaqilligiga erishish, ishlab chiqarishni yangilash investitsiyalar tarkibi o’zgarishini talab yetadi.

10.3. O’zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi

Mustaqil Respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi yangi siyosati jahondagi juda ko’p mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalarni kengaytirishda o’z ifodasini topmoqda. Chet el davlatlari bilan o’zaro munosabatlarda Respublika milliy manfaatlarini amalga oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri

bo'lib, savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha ikki tomonlama hukumatlararo komissiyalar faoliyati hisoblanadi. Hozirda bunday komissiyalar 30 dan ortiq mamlakatlarda asosiy sheriklarimiz bilan tashkil etilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston 140 dan ortiq mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rnatgan. Ularning orasida Janubiy Koreya, Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Turkiya, Fransiya, Yaponiya, eron, Gollandiya, MDH mamalakatlaridan – Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Turkmaniston bilan savdo aloqalari keng yo'lga qo'yildi. O'zbekistonning asosiy tashqi savdo ko'rsatkichlari 10.3.1-jadvalda ko'rsatilgan.

10.3.1-jadval

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (million AQSh dollari) ¹⁹¹

	2012	2013	2014	2015	2016
Tashqi savdo aylanmasi	21197,3	21209,6	22199,2	26365,9	26416,1
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	8659,5	8010,4	9369,2	11345,7	12731,8
Boshqa xorij mamlakatlari	12537,8	13199,2	12830,0	15020,2	13684,3
Eksport	11493,3	11771,3	13023,4	15021,3	13599,6
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	3926,6	3921,3	5647,7	6720,1	7703,4
Boshqa xorij mamlakatlari	7566,7	7850,0	7375,7	8301,2	5896,2
Import	9704,0	9438,3	9175,8	11344,6	12816,5
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	4732,9	4089,1	3721,6	4625,6	5028,4
Boshqa xorij mamlakatlari	4971,1	5349,2	5454,3	6719,0	7788,1
Eksport-import saldosi	1789,3	2333,0	3847,6	3676,7	783,1
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	-806,3	-167,8	1926,2	2064,5	2675,0
Boshqa xorij mamlakatlari	2595,6	2500,8	1921,4	1582,2	-1891,9

O'zbekiston Respublikasi eksporti tuzilmasida xomashyo tovarlari asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekiston paxta tolasi eksporti

¹⁹¹ O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2017. T.: 2014-y. 313-b.

bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlardan birida turadi. O'zbekiston eksportning tovar tarkibida asosiy o'rinni energiya manbalari va neft mahsulotlari (o'rtacha 28%), xizmatlar (o'rtacha 12%), paxta tolasi (o'rtacha 9,7%) va boshqalar (o'rtacha 26%) egallaydi. Import tarkibida esa asosiy o'rinni mashina va asbob-uskunalar (o'rtacha 48,5%), kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar (o'rtacha 12,5%), oziq-ovqat mahsulotlari (o'rtacha 10,1%) va boshqalar (o'rtacha 10,4%) egallaydi (10.3.2-jadval).

10.3.2-jadval

O'zbekiston eksport va importning tovar tarkibi¹⁹²

(foiz hisobida)

	2012	2013	2014	2015	2016
Eksport	100	100	100	100	100
<i>Shu jumladan</i>					
Paxta tolasi	9,3	8,6	12,1	9,0	9,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	4,5	6,0	9,7	13,3	6,4
Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	5,6	5,0	5,1	5,6	5,6
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	24,7	34,2	22,8	18,5	34,6
Qora va rangli metallar	7,0	5,0	6,9	7,4	7,8
Mashina va asbob-uskunalar	7,6	2,9	5,5	6,6	6,5
Xizmatlar	10,4	8,8	10,2	11,8	17,3
Boshqalar	30,9	29,5	27,7	27,8	12,5
Import	100	100	100	100	100
<i>Shu jumladan</i>					
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,3	9,0	10,5	11,5	10,9
Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	11,6	11,1	13,8	12,5	13,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	4,6	3,5	7,1	8,5	6,6
Qora va rangli metallar	7,7	6,3	8,1	7,6	7,2
Mashina va asbob-uskunalar	52,4	56,5	44,0	44,0	45,9
Xizmatlar	4,4	4,4	5,3	5,0	5,8
Boshqalar	11,0	9,2	11,2	10,9	9,9

O'zbekistonga 30 dan ortiq mahsulot turi chetdan keltiriladi. Jumladan, bug'doy, go'sht, sut va sut mahsulotlari, sariyog', shakar,

¹⁹² O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2017. T.: 2014-y. 324-b.

moyli o'simliklar urug'i va mevalar, choy, kofe va shirinliklar, kartoshka, farmatsevtika mahsulotlari, kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari, charm va poyabzal mahsulotlari, avtomobillar, qora va rangli metallar hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlar, teleradioapparat, mashina va ularning uskuna-jihozlari importning asosiy bandlarini tashkil yetadi.

O'zbekiston Evropa Ittifoqining (EI) Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo-iqtisodiy sherigi hisoblanadi. 1994-yilning oktyabrida O'zbekiston bilan EI o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi va Bryusselda, EI huzurida O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi ishlay boshladi. 1995-yilda EI bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi. Bu bitim EIga a'zo mamlakatlar va O'zbekiston o'rtasida iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda.

Mamlakatimizda eksport kilinayotgan mahsulotlar ham tarkiban, ham sifat jihatidan yaxshilanib bormokda. Buni eksport tarkibining-yillar bo'yicha o'zgarishida ham kuzatish mumkin (10.3.3-jadval).

Jadvaldan ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 1990-2016-yillar davomida eksport tarkibida paxta tolasining ulushi 59,7 foizdan, 9,6 foizgacha qisqardi. Natijada eksportning xomashyoga bog'lanib qolish muammosi to'la barham topdi. Xizmatlar eksportining ulushi esa 13,5 marta, mashina va uskunalari – 4,1 marta, kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar – 2,5 marta, yoqilg'i va neft mahsulotlari – 2,2 marta, oziq-ovqat mahsulotlari eksportining ulushi 1,7 marta o'sganligi eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibida xomashyo bo'lmagan tayyor tovarlarning ulushining oshishiga hamda eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanishiga zamin yaratdi.

10.3.3-jadval.

O'zbekiston Respublikasining eksport tarkibining-yillar bo'yicha dinamikasi, foizda¹⁹³

Eksport tarkibi	1990 yil	2000 yil	2015 yil	2016 yil
Paxta tolasini	59,7	27,5	9,0	9,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	5,4	13,2	6,7
Kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar	2,3	2,9	5,6	5,8
Yoqilg'i va neft mahsulotlari	17,1	10,3	18,5	37,4
Qora va rangli metallar	4,6	6,6	7,4	8,0
Mashina va uskunalari	1,7	3,4	6,7	7,0
Xizmatlar	1,3	13,7	11,8	17,6
Boshqalar	9,4	30,2	27,8	7,9

Agar mamlakatimiz importi tarkibining-yillar davomidagi dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, unda ham ma'lum sifat o'zgarishlarini ko'rish mumkin (10.3.4-jadval).

10.3.4-jadval.

O'zbekiston Respublikasining import tarkibining-yillar bo'yicha dinamikasi, foizda¹⁹⁴

Import tarkibi	1990 yil	2000 yil	2015 yil	2016 yil
Mashina va uskunalari	12,1	35,4	41,3	45,4
Kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar	9,7	13,6	13,3	14,4
Yoqilg'i va neft mahsulotlari	3,1	3,8	8,1	7,3
Qora va rangli metallar	10,2	8,6	8,1	7,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	48,9	12,3	12,4	9,9
Xizmatlar	1,5	8,5	5,3	6,1
Boshqalar	14,5	17,8	11,5	9,1

¹⁹³ www.stat.uz

¹⁹⁴ www.stat.uz

Eng avvalo shuni ta'kidlash lozimki, import tarkibida mashina va ishlab chiqarish uskunalari ulushi 2016-yilda 45,4 foizni tashkil qilib, bu 1990-yildagi ko'rsatkichga nisbatan deyarli 4 baravar ko'proqdir. Mazkur holat Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta qurollantirish jarayonlarini amalga oshirishda zamonaviy va yuqori texnologiyalarga asoslangan mashina va ishlab chiqarish uskunalarga bo'lgan ehtiyoj orqali izohlanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 1990-yilda 48,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilga kelib 9,9 foizga qadar, ya'ni deyarli 5 barobar qisqardi. Bu esa, mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish asoslarining tobora rivojlantirib va mustahkamlab borilayotganligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu davrda xizmatlar importi ulushining 4 baravardan ko'proq o'sishi mamlakatimizda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojning tobora o'sib borayotganligidan darak beradi. 2016-yilda jahon bozoridagi konyuktura beqarorligiga qaramasdan, eksport hajmi 2015-yilga nisbatan 10,9 foizga o'sdi. Tashqi savdo faoliyatidagi ijobiy saldo 1 milliard 300 million AQSh dollarini tashkil yetdi. Eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 2016-yilda umumiy eksport hajmining 72 foizdan ortig'i tayyor tovarlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, kelgusida, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy majmuani yana-da takomillashtirish borasida quyidagi masalalarni xalq etish maqsadga muvofiqdir:

– O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari manfaatlarini ham ichki, ham tashqi bozorlarda ximoya qilish;

– milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvini rag'batlantirishga qaratilgan zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;

– tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solish tizimlarini yana-da rivojlantirish;

– eksport salohiyatini rivojlantirishga karatilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;

– ishlab chiqaruvchilar va eksportyorlar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi tizimlarni yana-da takomillashtirish;

– iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqobatbardosh va ilmtalab mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan xalqaro standartlarni joriy etish;

– xorijiy mamlakatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni standartlashtirish, metrologiya va sifatni sertifikatlash sohasida hamkorlik kilish kulamini yana-da kengaytirish;

– xalqaro standart talablariga mos ravishda sifat ustidan nazoratni joriy etish;

– to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro standartlarga javob beradigan hamda jahon bozorida raqobatdosh bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mamlakatning turli xududlarida qo'shma korxonalar yaratilishini ta'minlash;

– O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari bilan savdo-iqtisodiy va moliyaviy hamkorliklarni yana-da kuchaytirish;

– kichik va o'rta biznes subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishiga hamkorlik qilish;

– xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarning transportda tashish xarajatlarini kamaytirish.

Fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va yana-da rivojlantirishga to'stinlik qilib ketayotgan bunday bunday masalalarning o'z vaqtida bartaraf etilishi O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatida samarali ishtirok etish imkonini beradi.

10.4. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari

Globalashuv jarayonining hozirgi bosqichidagi muhim yo‘nalishlardan biri—O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada erkinlashtirish hamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirish hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizning ko‘plab mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishi, jahondagi turli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a‘zosiga aylanishi e‘tiborga molikdir. Hozirgi davrda Respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy strategiyasi import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan birga eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va o‘zining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishdan iborat. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish modelining asosiy tarkibiy qismlardan biri tashqi savdodir. Davlat eksport siyosati mustaqillik yillari davomida birinchi navbatda kerakli tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratishga qaratilgan edi. Bu pirovard natijada tashqi savdo aylanmasi tuzilmasidagi ijobiy o‘zgarishlarga:

- neft va uni qayta ishlash mahsulotlari hamda energiya tashuvchilari eksport bazasining kengaytirilishi;

- import tuzilmasidagi siljishlar – energiya tashuvchilari, bug‘doy, g‘alla ulushining kamaytirilishi hamda mashinasozlik mahsuloti importi hajmlarining ortishi;

- tashqi savdoning ekvivalentligi hamda o‘zaro tovar yetkazib berish hajmlarining teng kuchliligi muammolarining susayishi;

- Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi iqtisodiy integratsiyaning kuchaytirilishiga olib keladi.

Eksportning xom ashyoga yo‘naltirilganligi saqlanib kelaversa, milliy xo‘jalikning zaifligi ortadi, chunki uning samaradorligi ko‘proq jahon xom ashyo bozorlarining

konyukturasiga bog‘liq bo‘lib qoladi, bu bozorlarning ahvoli esa yetarli darajada barqaror emas va tez-tez jiddiy o‘zgarishlarga uchrab turadi. Paxta, gaz, rangli metallar, oltin bozorlari konyukturasining yomonlashishi mamlakat iqtisodiyotini halokat yoqasiga keltirib qo‘yishi mumkin, chunki Respublikamizda eksportning 50%dan ko‘prog‘i ushbu resurslarga to‘g‘ri keladi. Jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O‘zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, neft mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar va boshqa mahsulotlarning narxi tushib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va investorlarning eksportdan oladigan tushumlari kamayishiga olib keladi. Ularning foyda ko‘rishiga va ishlab chiqarish rentabelligiga, oxir-oqibatda esa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarimizning o‘sish sur‘atlari va iqtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta‘sir yetadi. Bunday sharoitlarda, fikrimizcha, quyidagilar O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining imtiyozli yo‘nalishlari bo‘lishi lozim:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni maqsadga yo‘naltirilgan holda liberallashtirish siyosatini o‘tkazish;

- eksport va import tuzilmasini, ularning ishlab chiqarish salohiyotini rivojlantirish yo‘li bilan takomillashtirish;

- respublikamizdagi eksportga mo‘ljallangan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash;

- xorijiy kapitalni avvalo moddiy eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishga jalb qilish;

- O‘zbekistonni jahon transport kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini rivojlantirish.

- yuqori texnikaviy saviyadagi tayyor mahsulot ulushining oshirilishi.

Yuqorida aytib o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun quyidagilarni bajarish zarur:

– respublikamizdagi eksportchilarning mahsulotini sotish bozorini shakllantirishda muhim rol o‘ynovchi xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O‘zbekistondagi eksportchi korxonalar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko‘maklashish;

– chuqur qayta ishlash mahsulotlarini yuqori texnologiya va ilm talab qiluvchi buyumlar ishlab chiqariladigan eksportga mo‘ljallangan ishlab chiqarish sohasi va uning tarkibini takomillashtirish;

– eksportning intellektual mulk obyektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnika va tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohaslarida xizmatlar ko‘rsatish kabi turini rivojlantirish yo‘li bilan Respublikamizda erishilgan fan-texnika yutuqlarining jahon xo‘jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish;

– ilmiy loyihalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy loyihalarga bozor yo‘nalishini berish uchun sharoitlar yaratish maqsadida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish;

– innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijoriy qo‘llab-quvvatlashning optimal uyg‘unlashuvining asosiy yo‘llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnikaviy loyihalarni tijorat ahamiyatiga ega bo‘lgan natijalar darajasigacha yetkazish;

– o‘zbek olimlari va mutaxassislarining chet eldagi yetakchi institutlar, tashkilot va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish;

– yuqori darajali marketing tadqiqotlari o‘tkazish, tijoratlashtirish va texnologiyalar menejmenti sohasidagi yutuqlarni o‘rganish, xorijiy bozorlarning konyukturasi sig‘imi, talabning mavjudligi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, qo‘shma korxonalar tashkil etish bo‘yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma‘lumotlarni o‘rganish zarur bo‘ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda erkin iqtisodiy zonalar ham alohida o‘rin tutadi. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyalashuvi, erkin iqtisodiy zonalarini shakllantirishni taqazo yetadi. Ular xalqaro xo‘jalik aloqalarida muhim ahamiyat kasb yetadi. Erkin iqtisodiy zonalar turli mamlakatlardagi xorijiy va milliy tadbirkorlar faoliyati uchun imtiyozli iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan hududlar bo‘lib, ular iqtisodiy o‘shishni t‘minlash, sotsial va ekologik muammolarni yechish bartaraf etish maqsadida tashkil etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar o‘zining faoliyat yo‘nalishiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin:

1. Erkin savdo zonalarida boj bekor qilinadi yoki uning miqdori ancha past bo‘ladi, eksport-import ustidan nazorat bo‘lmaydi.

2. Eksportga mo‘ljallangan sanoat zonalarida xorijiy kapitalga soliq imtiyozi beriladi, boj puli kamaytiriladi. Bunday imtiyoz milliy kapitalga ham beriladi. Bundan ko‘zlangan bosh maqsad ma‘lum joylarda chet el kapitali faoliyatini kuchaytirib, xorijiy texnologiyani joriy etish, eksportni ko‘paytirib valyuta topish yoki import qilinadigan tovarlar o‘rnini bosuvchi boshqa bir tovarlarni ishlab chiqarishdan iborat bo‘ladi.

3. Bank va sug‘urta zonalarini ham erkin iqtisodiy zona turkumiga kiradi. Bunday zonalarda bank operatsiyalari va sug‘urta ishlari uchun imtiyoz bo‘ladi va kapitalning kirib kelishiga qulay sharoit yaratiladi.

4. Erkin iqtisodiy zonalarining maxsus turi bo‘lib texnologik zonalar hisoblanadi. Bu yerda yangi texnika va texnologiyalarni yaratish uchun imtiyozlar mavjud bo‘lib, ulardan nafaqat xorijiy, balki milliy korxonalar va har xil tashkilotlar ham foydalanadi.

5. Nihoyat kompleks xarakterdagi alohida iqtisodiy zonalarda ham savdo, ham sanoat, ham texnologiya ishlari uchun qulayliklar yaratiladi. Bunday zonalarini hamma uchun ochiq hududlar deb yuritiladi.

Erkin iqtisodiy zonalarni ko'payishi jahon miqyosidagi resurslar doiraviy harakatini tezlashtirib, iqtisodiy samaradorlikni umumjahon miqyosida oshirishga hissa qo'shadi. Globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish mamlakat iqtisodiy aloqalarining rivojlantirishning yo'llaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining hududida EIZlar uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning alohida tartibi (bojxona, valyuta, soliq va boshqalar) o'rnatilishi mumkin bo'lib, u erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solib turiladi. O'zbekistonda 1996-yil 25-aprelda «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi qonun qabul qilingan. Ularni tuzishdan maqsad u yoki bu davlat hududida chet el investorlarini jalb qilish ularni faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay sharoit yaratish yo'li bilan iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zona-aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir. Erkin iqtisodiy zona-mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladi. Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik va jismoniy shaxslar moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yiladi.

Oxirgi yillarda dunyoning ko'pchilik davlatlarida erkin iqtisodiy zona keng tarqalib borayapti. Hozirgi kunda jahonda 5000 ga yaqin har xil ochiq iqtisodiy zonalar mavjud. Rossiyada erkin iqtisodiy zona sezilarli darajada faoliyat ko'rsatayotganiga qaramasdan MDH davlatlarida hozirgacha ham erkin iqtisodiy zona tuzish, ularning faoliyati prinsiplarini huquqiy masalalari aniqlangan emas. MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lib O'zbekistonda erkin industrial-iqtisodiy zona tuzishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda

Farmoni bilan Navoiy viloyatida tashkil etilgan «Erkin industrial – iqtisodiy zona (EIZ)» ning faoliyat qilish muddati hozircha 30-yil qilib belgilangan, keyinchalik yana uzaytirilishi mumkin. Bu erkin industrial – iqtisodiy zonani tashkil etilishi mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni yana-da ko'proq jalb etilishiga olib keladi. Mamlakatimizda Navoiy aeroporti bazasida erkin industrial – iqtisodiy zonani tashkil etish, shuningdek, Navoiy shahrida yangi barpo etilgan aerodromni xalqaro operator – Koreyaning «Korean eyr» kompaniyasi boshqaruviga berish to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi tufayli Respublikamizda katta istiqbollar ochiladi. Xalqaro intermodal logistika markazining tashkil etilishi undan nafaqat Janubi – Sharqiy Osiyoni evropa bilan bog'laydigan qit'alararo transport-ekspeditsiya uzeli sifatida foydalanish imkonini beradi. Ayni paytda u Navoiy viloyati va qo'shni hududlarda yangi, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Yana bir masalani ta'kidlab o'tishni lozim topamiz. Turizm serdaromad soha sifatida jahon iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. BMT Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo iqtisodiyoti ko'rayotgan daromadning 9,4 foizi, ya'ni 5,5 trillion AQSh dollari miqdoridagi mablag' aynan ushbu soha hisobiga shakllanadi. O'z navbatida, turizmga daxldor infratuzilmalarda hozirgi kunda 220 milliondan ortiq kishining mehnat qilayotgani ham uni salohiyati nechog'li yuksak ekanini yana bir karra tasdiqlaydi. Ana shu yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda, jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko'plab tarixiy arxitektura yodgorliklariga ega bo'lgan O'zbekistonning turli xududlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Jizzax viloyatlarida xalqaro turizm bo'yicha erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Xalqaro turizm milliy iqtisodning daromadga va tashqi iqtisodiy

31 /

aloqalarning muhim shakllaridan biridir. Dunyodagi ko'pchilik davlatlar turistik faoliyatini kengaytirib juda katta foyda oladilar. Turizmdan keladigan foyda, ayrim davlatlarda neft va gaz tarmoqlari bilan, avtomobil ishlab chiqarish bilan bahslashadi. Ayrim davlatlarga turizm faoliyatidan olinadigan daromadning ulushi yalpi milliy daromadning 15-35 foizini egallaydi. Gretsiya, Italiya, AQSh, Fransiya, Italiya, misr va boshqa davlatlar shular qatoriga kiradi. Turizmning rivojlanishi bilan boshqa tarmoqlar va xizmat turlarini rivojlanishiga, muhim ijtimoiy vazifalarni hal qilinishiga va shuning bilan hozirgi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotni yana-da rivojlanishiga olib keladi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan va savdo qiladigan korxonalar ochiladi, mehmonxonalar quriladi, kommunal xo'jaligi, transport, aloqa va infratuzilmaning boshqa sohalari rivoj topadi. Turizm rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatayaptiki, bir turistga xizmat ko'rsatish uchun iqtisodiyotning turli sohalarida 3-4 shartli ishchi joyini tashkil qilish zarur bo'ladi. Diversifikatsiyalash tamoyillarini nafaqat ichki siyosatda, balki tashqi siyosatda ham qo'llash mumkin va buning samarasi o'laroq ijobiy natijalarga erishish mumkin. Diversifikatsiya jarayoni natijasida monopolistik birlashmalar murakkab ko'p tarmoqli komplekslar shaklini olib, ularning manfaatlari sohasiga ko'pincha dastlabki faoliyat turi bilan bog'liq bo'lmagan turli korxonalar, kombinatlar, kompaniyalar kiradi. Diversifikatsiya – ilmiy-texnika revolyusiyasi tomonidan hamda kapitalistik xo'jalik ichki ziddiyatlarining kuchayishi orqali vujudga keltirilgan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlar iqtisodiyotida sifat jihatidan yangi hodisa. Diversifikatsiya asosida, xususan, ba'zi tarmoqlarning jadal ravishda o'sishi va ba'zilarining pasayib ketishi orqali namoyon bo'luvchi iqtisodiyotning bir tekisda rivojlanmasligi sharoitida firmalarning yashab qolishga intilishi yotadi. Diversifikatsiya eng ko'p darajada XX asrning

50-yillari o'rtalarida rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda sanoat, transport, qurilish tarmoqlarida ko'zga tashlandi va tez orada barcha kapitalistik davlatlar uchun xarakterli bo'lib qoldi. Birinchi navbatda diversifikatsiyaga ilmiy-texnika revolyusiyasining kengayishi, raqobat kurashining yangi shakllari, iqtisodiyotning harbiylashtirilishi, mazkur mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi. Ko'p tarmoqli yirik monopolistik birlashmalar birinchi navbatda yangi, nisbatan foydali tarmoqlar – kimyo, elektronika, radiotexnika tarmoqlariga kiradi. Kompaniyalarga bir xildagi xomashyodan turli tovarlarni ishlab chiqarish, sarf-xarajatlarni pasaytirish, xususan, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga xarajatlarni qisqartirish imkonini beruvchi mahsulot nomenklaturasini kengaytirish, kombinatsiyalash yo'lidan borish foydali hisoblanadi. Diversifikatsiya iqtisodiy inqirozlarning yirik kapitalistik birlashmalar uchun oqibatlarini yumshatib, ularning ta'sirini pasaytiradi, biroq, tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarishning oldini olish vositasi bo'lib hisoblanamaydi. Diversifikatsiya ham kapitalning konsentratsiyalashuvi, ham kapitalning markazlashuvi asosida amalga oshiriladi. Birinchi holatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasining kengayishi, boshqa tarmoqlarga kirish o'zining xususiy jamg'armalari hisobiga amalga oshiriladi. Ikkinchi holatda esa – mazkur jarayon boshqa tarmoq va ishlab chiqarish turlarida band bo'lgan kapitallarning birlashuvi, «yutib yuborilishi» natijasida amalga oshiriladi. Diversifikatsiyalash maqsadida moliyaviy muassasalarning investitsion trestlar shakllaridan keng foydalaniladi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash eng avvalo kapitalistik dunyoning eng yirik kompaniyalari imkoniyati darajasidadir. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash natijasida, masalan, kimyo kompaniyalari mahsulotlari nomenklaturasi minglab nomda hisobga olinib, odatda, universal hisoblanadi. Yetakchi konsernlarni diversifikatsiyalash

usuli sifatida kapitalning markazlashuvi kompaniyalarning ilmiy-ishlab chiqarish komplekslari tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va optimallashtirish bilan bog'liq yangi xususiyatlari bilan ajralib turdi. Ba'zi hollarda hatto yirik kompaniyalar ham Yakka holda nisbatan qisqa muddatlarda diversifikatsiyalash uchun ilmiy-texnik ishlanmalarni hamda ishlab chiqarish bazasini yaratishga qodir bo'lmay qoladilar.

Diversifikatsiyalashning asosan quyidagi jihatlarini O'zbekistonda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Xo'jalik faoliyatining turli-tumanligini ta'minlash maqsadida eksport qilinayotgan mahsulot nomenklaturasini kengaytirish;

2. Biznesning diversifikatsiyasini amalga oshirish – bu birinchi navbatda iqtisodiy xavfsizlik tomon tutish;

3. Kompaniyalarning ichki xo'jalik resurslarini kam daromad keltiruvchi sohalardan yuqori daromadli sohalarga o'tkazish orqali engillik bilan o'zgartira olishi imkoniyatini yaratish;

4. Diversifikatsiyalash orqali biznesning ba'zi sohalarida olinmagan foyda boshqa sohalardagi yuqori daromad bilan qoplash yo'llarini ishlab chiqish;

5. Diversifikatsiyalashda ham me'yor chegaralariga amal qilish. Aks holda xo'jalik resurslarining haddan tashqari «tarqatib yuborilishi», firmaning o'z faoliyatini qandaydir bir yoki ikki magistrat yo'nalishlarda kuchli namoyish eta olmasligi vaqt o'tishi bilan uning moliyaviy holatini izdan chiqarishi, hattoki bankrotlikka olib kelishi ham mumkin»;

6. Jahon xo'jaligining yangi sohalari va boshqa tarmoqlarga kirib borish orqali ishlab chiqarishning yangi turlarini tashkil etish.

Diversifikatsiyalashni ushbu jihatlaridan foydalanish orqali tashqi iqtisodiy aloqalardan samarali ijobiy natijalarga erishish mumkin deb o'ylaymiz. Hozirgi davr keng xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan bir qatorda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy

muammolarni hal qilishni ham taqozo yetadi. Bular ishsizlikni, jahon mamlakatlarida tez-tez ro'y berib turadigan ocharchilikni, turli-tuman yuqumli kasalliklarni va shuningdek, iqtisodiy qoloqlikni yo'q qilishdir. Butun dunyo jamoatchiligi diqqat markazida turgan bunday muammolar, dunyo mamlakatlarining o'zaro hamkorlik qilishini talab etmoqda va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining taraqqiy ettirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Globallashuv sharoitida milliy xo'jaliklarning umumjahon mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishining muhim shartiga aylanib bormoqda. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirib borishi, Respublikamizning ham ichki, ham tashqi salohiyatni yanada yuksaltirmoqda. O'zbekistonning integratsiya tuzilmalaridagi ishtiroki tufayli uning ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro aloqalari kengayib borayotganligi, dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmoqda. Shunday ekan, integratsiya = O'zbekistonning dunyo xo'jaligi tizimiga kirib borishi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli O'zbekistonning jahon xo'jaligiga qo'shilishi masalasi hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Faqat shu yo'l bilan jahon fan-texnika va iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga erishish mumkindir.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Investitsiya faoliyati, investitsion siyosat, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, diversifikatsiya, kafolatlar, imtiyozlar, ijtimoiy omillar, moliyaviy investitsiyalar, risk, siyosiy omillar, iqtisodiy omillar, real investitsiyalar, tashqi iqtisodiy aloqalar, tashqi iqtisodiy siyosat, tashqi savdo siyosati, kapital migratsiyasi, ishchi kuchi migratsiyasi, valyuta siyosati, eksport, import, bojxona tariflari, eksport va import kvotasi, litsenziyalash, standartlashtirish.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Investitsiya faoliyati nimani anglatadi?
2. Investitsiya fondlari investitsiya faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Xorijiy investitsiyalarni boshqarishni chet el tajribasini xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Xorijiy investitsiyalar uchun O'zbekiston Respublikasida qanday imkoniyatlar yaratilgan?
5. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
6. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishda davlatning qanday vositalari mavjud?
7. Tashqi savdoni boshqarishning tarifi va tarifsiz usullarini ayting.

GLOSSARIY

ARZON UY-JOY – qishloq aholisining talab va ehtiyojlarini hamda to'lov qobiliyatini hisobga olib, davlat dasturiga ko'ra namunaviy loyiha asosida quriladigan uy-joylar.

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI – xususiy, umumiy va ishlab chiqarish kommunikatsiyasida axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va yetkazish bilan bog'liq bo'lgan obyektlar, harakatlar va qoidalar, shuningdek, barcha texnologiyalar hamda sanab o'tilgan jarayonlarni birgalikda ta'minlovchi sohalar majmuasi.

AHOLI BANDLIGI – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy mehnatda qatnashish darajasi, qonunchilikka zid bo'lmagan tarzda fuqaroning shaxsiy va ijtimoiy talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyati.

AHOLI BANDLIGI SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATI = davlat tomonidan fuqarolarning mehnatga, to'liq, samarali va erkin tanlangan bandlikka bo'lgan huquqlarini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyat.

AHOLINING UMUMIY DAROMADI – pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.

AQIDAPARASTLIK – (aqida – arab. – ishonch, biror narsani ikkinchisiga bog'lash) muayyan sharoitda, biron-bir g'oyaga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni hamda ularni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llash.

BARQARORLIK – tinchlik-osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat’iy, uzil-kesil hamda mustahkam o’rnatilgan muqim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy sharti hisoblanadi.

BEPUL TIBBIY XIZMAT – fuqarolarga qulaylik va imtiyozlar berish maqsadida davlat tomonidan kafolatlangan barcha tibbiy xizmatlar majmuasi.

VEB-SAHIFA – internet manzili (url) bilan bir xil ma’noda belgilanuvchi mantiqiy birlik. U veb saytning tarkibiy qismidir.

GEOSIYOSIY MUVOZANAT – ma’lum bir hududdagi mavjud siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish.

GLOBALASHUV – jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega, butun jahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiyalashuv, xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlar madaniyatining qo’shilishi va yaqinlashuvi bilan bog’liq obyektiv jarayon.

DAVLAT BOJI – sudlarga beriladigan da’vo arizalardan, shikoyatlardan, sudlarning qarorlari yuzasidan beriladigan apellyasiya, kassatsiya va nazorat shikoyatlarini, shuningdek, sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun to’lanadigan muayyan pul yig’imi.

DAVLAT IJTIMOYIY YORDAMI – mehnatga layoqatsizligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud bo’lmagani sababli mustaqil ravishda o’zini moddiy ta’minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan beriladigan yordam.

DAVLAT ORGANINING YURIDIK XIZMATI – davlat organi faoliyatini huquqiy ta’minlash maqsadida tashkil etiladigan yoki joriy qilinadigan mustaqil tarkibiy bo’linma yoki lavozim.

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo’lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi.

DAROMADLARNING TABAQALASHUVI – aholi jon boshiga to’g’ri keladigan daromadlar darajasidagi tafovutlar.

DEKRIMINALIZATSIYA – qilmishni ijtimoiy xavfli emas va jinoiy jazoga sazovor emas, deb topish (qilmishni jinoyat qonunidan chiqarib tashlash).

DIVERSIFIKATSIYA – (lotincha *diversus* – har xil, *facere* – qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko’paytirish. Diversifikatsiya jarayoni iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan modernizatsiya va tarkibiy o’zgarishlar bilan bevosita uyg’unlashgan.

DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASI – korxonalar faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasi. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy tendensiyalaridan biri hisoblanib, u orqali korxonalarining bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo’lgan raqobatdoshligini oshiradi. Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo’shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarni sotib olish va boshqa turli uslublarda amalga oshirilishi mumkin.

DINIY BAG'RIKENGLIK – turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat'i nazar, ularning yonma-yon va o'zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarash.

DINIY TASHKILOT – diniy jamoalarning eng yuqori rasmiy uyushmasi.

DINIY EKSTREMIZM – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid bo'lgan g'oyalarni aldoq va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyot; diniy tashkilotlardagi o'ta mutaassib guruhlarning ashaddiy reaksiya, dinni niqob qilib olgan, uning qonun-qoidalariga mafkuraviy tus berib, undan o'zlarining strategik geosiyosiy maqsadlariga erishish yo'lida foydalanishga qaratilgan diniy-siyosiy hodisa.

ERLARNING IRRIGATSION-MELIORATIV HOLATI – suv bilan ta'minlanish va sug'orish tarmoqlari tizimi, yer osti suvlari sathining joylashuvi va tuproqning sho'rlanish darajasidan kelib chiqib sug'oriladigan erlarning holatini ifodalovchi ko'rsatkich.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi.

YOSHLAR (YOSH FUQAROLAR) – o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar.

YOSH OILA – yer-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan beva erkak (beva ayol).

YOSH MUTAXASSIS – oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini bitirgan, ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng

olgan ixtisosligi bo'yicha uch yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga uch-yilda ko'p bo'lmagan o'ttiz yoshdan oshmagan xodim.

YOSHLAR TADBIRKORLIGI – yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta'rischilari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.

YOSHLAR VA BANDLIK – ijtimoiy etuklikka erishish davrini boshdan kechirayotgan o'n besh yoshdan o'ttiz yoshgacha bo'lgan ijtimoiy demografik guruhlarning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilganlik muammosi.

JAMIYAT – insonlardan tashkil topgan ijtimoiy tuzum.

JAMOAT NAZORATI – a) qabul qilingan qonunlar va qonun hujjatlari ijrosi; b) hokimiyat qarorlari qanday qabul qilinishi va ijro etilishi; v) qonun va boshqa qonun hujjatlarining tayyorlanish jarayoni; g) davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyati; d) davlatning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchlik vakillari va jamoat tashkilotlarining nazorati.

JAMOATCHILIK NAZORATI – davlat organlari faoliyatining qonuniyligini ta'minlash, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi qonun hujjatlariga rioya qilmaslik holatlarini aniqlashga qaratilgan faoliyat.

JAMOATCHILIK NAZORATINING OBYEKTI – davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining o'zlariga qonunchilik bilan yuklatilgan majburiyatlarni ijro etishi bilan bog'liq faoliyati. Davlat organi mansabdor shaxsining shaxsiy hayoti, ishchi yozuvlari, shuningdek davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa

sirdan iborat axborot, shuningdek, surishtiruv, dastlabki tergov organlari va sud ish yurituvdagi muayyan ishlar va materiallar jamoatchilik nazoratining obyekti hisoblanmaydi.

JAHON SIYOSATI – umumsayyoraviy mohiyatga ega bo‘lgan, jahon hamjamiyati taqdiri va istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan siyosat.

JINOYATQUROLI – ashyoviy dalil debe‘tirofetilgan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki sodir etish uchun maxsus mo‘ljallangan, tayyorlangan yoki moslashtirilgan narsalar, shuningdek jinoiy maqsadlarga erishish uchun jinoyat sodir etish jarayonida bevosita foydalanilgan mol-mulk.

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH – jinoiy xatti-harakatlarning ijtimoiy xavfliligi va turiga qarab, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning har biri alohida, o‘ziga yuklatilgan vazifalar doirasidan kelib chiqqan holda, idoraviy usul va vositalar orqali kurashishga qaratilgan faoliyat.

IJRO HUJJATLARI – sudlar o‘zlari qabul qiladigan sud hujjatlari asosida beradigan ijro varaqalari; hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish yuzasidan sudlar beradigan ijro varaqalari; chet el sudlari va arbitrajlar qarorlari asosida O‘zbekiston Respublikasi sudlari beradigan ijro varaqalari; sud buyruqlari; alimentlar to‘lash to‘g‘risidagi notarial tarzda tasdiqlangan kelishuvlar; notariuslarning ijro xatlari; mehnat nizolari komissiyalari o‘z qarorlari asosida beradigan guvohnomalar; ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organlar (mansabdor shaxslar) chiqargan qarorlar; o‘zboshimchalik bilan turar joyni egallab olgan yoki avariya holatida deb topilgan uylarda yashayotgan shaxslarni ma‘muriy tartibda ko‘chirish to‘g‘risidagi prokurorlarning qarorlari; sud ijrochilarining qarorlari; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlarning hujjatlari.

IJTIMOII YORDAMGA MUHTOJ SHAXSLAR – o‘zining salomatligi, yoshi, daromad olish imkoniyatining cheklangani tufayli o‘zgalarning ko‘magiga muhtoj shaxs hamda oilalar. Ular o‘zlarining yozma arizalariga ko‘ra ijtimoiy yordamning bir yoki bir necha turlaridan foydalanishga haqli bo‘ladi.

IJTIMOII SOHA – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmuasi. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, sport, madaniyat muassasalari va boshqa tuzilmalarni kiritish mumkin.

IJTIMOII-TIBBIY XIZMAT – joylarida har bir oilani o‘rganishning ijtimoiy, demografik, iqtisodiy va tibbiy jihatlarini o‘z ichiga oluvchi, ijtimoiy sohada faoliyat ko‘rsatadigan turli idoralar, tashkilotlar va muassasalarning say‘-harakatlarini birlashtiradi.

IJTIMOII XIZMAT KO‘RSATISH – xizmatlar ehtiyojmand shaxslarga yordam ko‘rsatish, ularga boshqa fuqarolar bilan bir qatorda jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish va ularning odatiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta‘minlash bo‘yicha kompleks huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ta‘limiy, tibbiy, reabilitatsion va boshqa choralar.

IJTIMOII FAOLLIK – ijtimoiy subyektlarning xatti-harakati, bu xatti-harakatlar ularning hayot faoliyat sharoitlarini yaratadi yoki o‘zgartiradi hamda ularning o‘zliklarini ham rivojlantiradi.

INVESTITSIIYA – iqtisodiy samara (foйда, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklar. Investitsiyalar – foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy sama-

raga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari.

INVESTITSIYA SIYOSATI – investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida iqtisodiy subyektlar uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmui.

INVESTITSIYAVIY FAOLLIK – turli iqtisodiy subyektlar (davlat, korxonalar va tashkilotlar, jamg'armalar va h.k.)ning daromad olish maqsadida milliy yoki xorijiy iqtisodiyotlarga investitsiya resurslarini kiritishga intilishi.

INVESTITSIYAVIY HAMKORLIK – xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabi natijalarni maqsad qilgan.

INVESTOR – xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyekti. Investorlar – xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyektlari.

INTERNET XIZMATLARI – internet tarmog'i abonentlariga amaliy protokollar tomonidan taqdim etiluvchi funksional imkoniyatlar majmui: veb hujjatlarni o'qish, elektron pochta, fayllarni uzatish va qabul qilish, muloqotda bo'lish, tarmoqda hujjatlarni saqlash va ular bilan ishlash va h.k.

INTERFAOL DAVLAT XIZMATLARI PORTALI – aholiga yagona interfaol davlat xizmatlari portali orqali xizmat ko'rsatish.

IPOTEKA KREDITLARI – tijorat banklari tomonidan aholiga uy-joy qurilishi uchun ajratiladigan maqsadli kreditlar.

ISH BILAN BANDLIK – iqtisodiy faol aholining qonun hujjatlariga muvofiq daromad keltiradigan faoliyatga ega bo'lishi.

ISH SAMARADORDLIGINING MUHIM KO'RSATKICHLARI – huquqni muhofaza qiluvchi organlar strategiyasi asosida shakllantirilgan ko'rsatkichlar bo'lib, ular tezkor-xizmatga oid maqsad va vazifalarga erishish bo'yicha xodim faoliyatini baholashga qaratilgan bo'ladi.

ISH HAQI – ishchi kuchi bahosining pul ifodasidagi aniq shakli hisoblanadi, shuningdek, ish haqi ishchilar o'rtasida sarflangan mehnat miqdori va sifatiga qo'yilgan haqiqiy hissaga muvofiq taqsimlanadigan hamda korxonalar ishining pirovard natijalari foydaning asosiy qismidir.

ISH O'RNI – tegishli ravishda jihozlangan va ish qurollari bilan ta'minlangan, miqdor va sifat tavsiflariga ega bo'lgan, belgilangan mehnat me'yoriga ko'ra ishlab chiqarish topshirig'i yoki funksiyasini bajaruvchi xodimning yoki yagona ishlab chiqarish topshirig'ini yoxud texnologiya jihatdan ajralmas funksiyani bajaruvchi xodimlar guruhining mehnat faoliyati amalga oshadigan makon.

ISHLAB CHIQRISHNI MODERNIZATSIYALASH – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon.

IQTISODIYOTNING REAL SEKTORI – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

IQTISODIY O'SISH – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning o'sishi.

KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI – 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va “Ta’lim to’g’risida”gi qonunlarning qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo’lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimining jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash dasturidir.

KELISHUV BITIMI – o’zaro kelishishga asoslangan, da’vo talabi (talablari)ga nisbatan aniqlikka erishishga qaratilgan, nizoni hal qilish to’g’risidagi taraflarning yozma kelishuvidir.

KONFESSIYA – (lotin. – *e'tirof, e'tiqod*) muayyan diniy ta’limot doirasida shakllangan va o’ziga xos xususiyatlarga ega e’tiqod va unga ergashuvchilar jamoasi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo’lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi.

KORRUPSIYA – shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIK – korrupsiya alomatlariga ega bo’lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – korrupsiyaga oid holatlarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek korrupsion

jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida chora-tadbirlar amalga oshirish.

KO’PTARMOQLI FERMER XO’JALIGI – qishloq xo’jaligi mahsulotlarini etishtirish bilan birga ularni chuqur qayta ishlash, aholiga turli ish va xizmatlar ko’rsatish bilan shug’ullanuvchi fermer xo’jaliklari.

KO’CHMAS MULK – yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko’p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog’langan boshqa mol-mulk, ya’ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o’zgartirish mumkin bo’lmaydigan obyektlar kiradi.

MANFAATLAR TO’QNASHUVI – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko’rsatayotgan yoxud ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o’rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo’lgan vaziyat.

MAFKURA – fikr, g’oya va qarashlarning yagona va umumiy majmuasi.

MAFKURAVIY BO’SHLIQ – kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy muhitni noto’g’ri idrok etishga, uning irodasini boshqa kishiga bo’ysundirish va dunyoqarashida agressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan nosog’lom g’oyalar bilan to’ldirilishiga zamin yaratilishi.

MAFKURAVIY TARBIYA – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarini ifoda yetadigan g’oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo’naltirilgan jarayon.

MAFKURAVIY PROFILAKTIKA – g‘ayriinsoniy g‘oya va mafkuralarning oldini olish, ularning tarqalib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun davlat, jamoat tashkilotlari tomonidan ko‘rilidigan chora-tadbirlar tizimi. Bu chora-tadbir g‘oyaviy bo‘shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zarali g‘oyalar ta’siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g‘oyaviy ta’sirning xilma-xil usul va yo‘llaridan foydalaniladi, turli vositalar qo‘llaniladi.

MAFKURAVIY XAVFSIZLIK – shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladigan mafkuraviy tajovuzlar turli mafkuraviy markazlarning buzg‘unchilik ta’siridan himoyalanganlik darajasi.

MAHSULOT SIFATI – mahsulotga nisbatan qo‘yilgan xalq ehtiyoji talablarini qondirilish darajasi, ularning xossa xususiyatlari, tashqi ko‘rinishi, ishlatilishining qulayligi.

MA‘MURIY SUD – ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma‘muriy nizolarni, shuningdek ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan sud.

MA‘NAVIYAT – (arab. – *ma‘nolar majmui*) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma‘naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo yetadi. Ma‘naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. Mustaqillik davri milliy istiqlol ma‘naviyatini tiklash va rivojlantirish, milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy histuyg‘ularni, g‘ururni, vatanparvarlikni o‘stirish va mustahkamlash bilan bog‘liqdir.

MA‘RIFAT – (arabcha *arafa* – *bilmoq* so‘zidan) ta‘lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g‘oyalar majmui asosida kishilarning

ong-bilimini, madaniyatini o‘stirishga qaratilgan faoliyat. “Ma‘rifat” tushunchasi “ma‘naviyat” va “madaniyat” tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq.

MEHNAT BOZORI – mehnatga qobiliyatli aholining faol (ish bilan band va mehnatga muhtoj aholi) qismlari va ish beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi, «mehnat qobiliyati»ni sotish-sotib olishni amalga oshiruvchi hamda ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi nisbatlarni bevosita barqarorlashtiruvchi ko‘p omilli, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tizimi.

MEHNAT RESURSLARI – mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlayotgan shaxslar.

MILLAT – (arab. – *xalq*) kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

MILLATLARARO TOTUVLIK – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lib, u muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining hamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha.

MILLIYINTERNET SEGMENTI – jahon global tarmog‘idagi muayyan mintaqa aholisi foydalanadigan, ma‘lumotlar uzatadigan va qabul qiladigan saytlar doirasi.

MILLIY XAVFSIZLIK – ma‘lum bir davlatning ichki xavfsizligi.

MINTAQAVIY XAVFSIZLIK – ma‘lum bir mintaqaga oid xavfsizlik. Masalan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik, Yaqin Sharq xavfsizligi.

MUVOFIQLASHTIRISH – umumiy maqsadga erishish yo‘lida o‘xshash va turdosh faoliyatni amalga oshiradigan organlar

faoliyatini tartibga solish, bir-birining faoliyatini takrorlamaslik, biri boshqasining funksiyasini bajarmasligi, muayyan aniq maqsad yo'lida kuch hamda imkoniyatlarni birlashtirish, shuningdek umumiy faoliyat samaradorligini yana-da oshirish yo'lida o'zaro kelishuv.

NAFAQA – fuqarolarga qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda qisman yoki to'liq mehnatga layoqatsizlik, og'ir moddiy sharoit, bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, qarindoshlardan biri vafot etgan taqdirda muntazam yoki bir marta beriladigan pul to'lovidir.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOT – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda tuzilgan, o'z faoliyati davomida faqat foyda olishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ymagan va olingan foydani uning ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqaradigan tashkilot.

OLIY TA'LIM – xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli tarmoqlari uchun yuqori, oliy malakali mutaxassislar tayyorlash tarmog'i. Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar negizida asoslanadi hamda ikki bosqich (bakalavriat va magistratura)dan iborat.

OLIYO'QUV YURTIDAN KEYINGI TA'LIM – jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog qadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim turi.

ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH – ayollarni onalik vazifasini bajargan, bola tarbiyasi bilan shug'ullangan holda ishlab chiqarish va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga, ayollar va bolalar salomatligini mustahkamlashga qaratilgan jamiyat va davlat tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar.

PENSIYALAR – qonunchilikda nazarda tutilgan, ya'ni ma'lum bir yoshga etganligi, nogironlik, boquvchisini yo'qotganligi,

shuningdek, qonunchilikka asosan ta'sis etilgan tizimlarga kirmaydigan (masalan, ish beruvchi tomonidan ta'sis etilgan) ijtimoiy ta'minot bo'yicha muntazam amalga oshiriladigan pul to'lovlari.

PETITSIYA – davlat hokimiyati organlariga yoki mahalliy organlarga yuborilgan yozma shakldagi jamoaviy murojaat.

RADIKALIZM – (lotin. – *tomir, ildiz, o'zak*) maqsad-muddaoni keskin, murosasiz amalga oshirish, u yoki bu ishdagi mavjud ahvolni tubdan o'zgartirishga intilish.

RAQOBAT – har qanday bozor mexanizmini tashkil etuvchi ajralmas qism, ko'p miqdordagi erkin xaridorlar (ish beruchilar) va ish kuchini «sotuvchi»larning mavjudligi hamda ular uchun mehnat bozoriga erkin kirish va uni tark etish imkoniyati.

REAL DAROMADLAR – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori.

SIYOSIY BARQARORLIK – ma'lum bir davlat yoki mintaqada tinchlikni ta'minlashga qaratilgan izchil siyosat.

SIYOSIY SALOHİYAT – siyosiy faoliyatda namoyon bo'ladigan qobiliyat, kuch-qudrat. Bu davlat arbobi yoki davlat qiyofasida namoyon bo'ladi.

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI – tibbiy yordamni tashkil etish, kasalliklarning oldini olish, aholi salomatlik darajasini yaxshilashga qaratilgan va ijtimoiy-iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan davlat va jamiyat chora-tadbirlari yig'indisi.

SOG'LOM TURMUSH TARZI – jamiyat va individ salomatligi uchun tibbiy faoliyatning maksimal darajada namoyon bo'lishi.

STIPENDIYA – oliy ta'lim muassasalarining talabalariga to'lanadigan har oylik pul ta'minoti, shuningdek, jismoniy

shaxslarga, shu jumladan, xorijiy davlatlardan ajratiladigan o'quv grantlari.

SUD – davlat idorasi bo'lib, huquqiy nizolarni qonun hujjatlariga asosan hal qiladi.

SUD HOKIMIYATI – sud tomonidan protsessual qoidalarga qat'iy amal qilgan holda protsessual va moddiy huquqni qo'llash orqali o'zining kompetensiyasiga tegishli bo'lgan ishlarni hal etish uchun berilgan hokimiyat vakolati.

TADBIRKORLIK FAOLIYATI (TADBIRKORLIK) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

TA'LIM – shaxsning ma'rifiy va tarbiyaviy darajasini orttirish orqali uning rivojlanishini ta'minlash maqsadida o'rgatuvchi bilan o'rganuvchilar o'zaro birgalikda amalga oshiradigan didaktik chora-tadbirlar tizimi.

TEXNOPARK – materialshunoslik, elektron asbob va kontrollerlar, ozuqa va biologik faol qo'shimchalar, dori vositalari sohasida tadqiqotlar o'tkazish va kichik innovatsion ishlab chiqarishlar tashkil etish maqsadida barpo etiladi. Texnopark faoliyati metallarni qayta ishlash texnologiyasi, energiya tejamkorligi, muqobil energiya manbalari va elektron o'lchov asboblari, robototexnika, mashinasozlik va elektronikani rivojlantirishga xizmat qiladi.

TRANSPORT INFRATUZILMASI – aholiga xizmat ko'rsatuvchi avtomobil to'xtash va yonilg'i quyish shahobchalari, avtostansiyalar, kichik mehmonxonalar, maishiy xizmat ko'rsatish hamda umumiy ovqatlanish va shu kabi boshqa obyektlar.

UZLIKSIZ TA'LIM – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi.

FUQAROLIK JAMIYATI – qonun ustuvorligi va inson huquqlari qaror topadigan, ko'ppartiyaviylik, siyosiy mafkura va fikrlar xilma-xilligi ta'minlanadigan, o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tizim.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamoat fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari.

XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY QO'LLAB-QUVVATLASH – ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlar hamda yoshlarning ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar.

Xususiy MULK HUQUQI – shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi.

QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA – quyosh, shamol, suv va boshqa manbalardan foydalanib ishlab chiqariladigan elektr quvvati.

QONUN USTUVORLIGI – jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etilishi.

HARAKAT STRATEGIYASI – davlatning ma'lum muddatga yoki uzoq yillarga mo'ljallangan rivojlanish dasturi.

HARBIY-SIYOSIY BLOKLAR – bir necha davlatlarning birlashgan harbiy uyushmasi. Masalan, NATO.

HUQUQIY MADANIYAT – umummadaniyatning muhim qismi bo‘lib, davlat tomonidan xalq va jamoat birlashmalari nuqtai nazarlarini ifodalovchi huquqiy siyosatning ishlab chiqilishi va amalga oshirilish, insonlarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olish darajasi, kishilarning qonunlarni teran anglashlari, unga rioya qilishlari, har qanday huquqbuzarlikka murosasiz bo‘lishlari.

HUQUQIY ONG – mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik ahamiyatga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatlarini ifodalovchi huquqiy sezgilari, g‘oyalari, baholar, tasavvurlari.

EKSPORT – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

EKSPORT SALOHIYATI – milliy iqtisodiyotning jahon bozorlarida raqobatdosh bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ularni jahon narxlariga bo‘yicha yetarli hajmlarda eksport qilish qobiliyati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va huquqiy-meyoriy hujjatlari.

1.1. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari:

1.1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 2015-yil. – 40 b.

1.1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2012-yil 26-aprel. 3-modda.

1.1.3. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat Statistikasi to‘g‘risida» gi Qonuni. 2002-yil 12-dekabr №441-11 // O‘zbekiston Respublikasi qonunlar to‘plami. – T.: 2002-yil. №24. 26-31 b.

1.1.4. O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida» gi Qonuni. – T.: 1993-yil. – 56 b.

1.1.5. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonuni. – T.: 1996-yil. – 68 b.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari

1.2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // “Xalq so‘zi”. 2017-yil. 8-fevral

1.2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3165-son Qarori. // “Xalq so‘zi” 2017-yil, 31-iyul

1.2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4966-sonli Farmoni // “Xalq so‘zi» gazetasining 2017-yil 22-fevraldagi 38 (6732)-soni.

1.2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi, 2017-yil 18-fevral

1.2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-son «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 3-son, 40-modda)

1.2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda "2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi, 2016-yil 31-dekabr.

1.2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-sonli Farmoni// "Xalq so'zi" gazetasining 2017-yil 22-fevraldagi 38 (6732)-soni.

1.2.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 5-son, 62-modda.

1.2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldagi "Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2761-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 76-modda.

1.2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda "Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yana-da takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2705-sonli qarori.

1.2.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4906-sonli Farmoni.

1.2.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 26-noyabrda PF-4853-sonli Farmoni.

1.2.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 12-son, 110-modda)

1.2.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi 2008-yil 4-dekabrda Farmoni.

1.2.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrda "Sud-huquq tizimini yana-da isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 43-son, 497-modda.

1.2.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 4-oktyabrda "Tuman va shahar umumiy yuridiksiya sudlari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4570-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 42-son, 556-modda; 2014-y., 37-son, 464-modda.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1.3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2003-yil 11-oktyabr, 439-son.

1.3.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-dekabrda "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 346-sonli Qarori // «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2012-yil, 50-son, 560-modda.

1.3.3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumining "Sud hokimiyati to'g'risida"gi qarori. 1996-yil 20-dekabr, 1/60-son.

1.3.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-martda "Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini yana-da takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 52-son Qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 10-sonli, 115-modda.

1.3.5. «O'zbekiston Respublikasida xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o'tish davlat dasturi». Vazirlar Mahkamasining 433 – sonli qarori. 1994-yil 24-avgust.

1.3.6. «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8-sonli qarori. 2003-yil 8-yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

2.1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston NMIU 2017-y. -488 b.

2.2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 23.12.2017-y.

2.3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// Xalq so'zi. 15-yanvar 2017-yil.

2.4. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, halqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi ma'ruzasi. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining rasmiy sayti.

2.5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2016-yil 8-dekabr.

2.6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. Xalq so'zi, 2016-yil 15-dekabr.

2.7. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvar oyida bo'lib o'tgan "Mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda Respublika hukumatining 2017-

yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan majlisida so'zlagan nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 16-yanvar.

2.8. Mirziyoyev Sh.M. Ilm fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili// "Xalq so'zi" 2016-yil 31-dekabr

2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-yanvar kuni sog'liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashuvidagi nutqidan.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 25-yanvar.

2.11. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: O'zbekiston. 1993. – 116 b.

2.12. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston. 1995. – 124 b.

2.13. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston. 1995. – 269 b.

2.14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009. – 56 b.

2.15. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yana-da chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston. 2010. – 56 b.

3. Kitob va turkum nashrlar

3.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plamlari

a) bir muallif:

3.1.1. Abdullaev Yo. Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob. -T.: «Mehnat», 1998. 384 b.

3.1.2. Abduraxmonov Q.X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv. qo'l. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, TDIU, 2004.

3.1.3. Abulkasimov H.P. Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi. – T.:Akademiya, 2011.

3.1.4. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari.-T.:Akademiya,2012.

3.1.5. Abulkasimov H.P., Hamraev O.Ya. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.-T.: Iqtisod moliya, 2014.

3.1.6. Abduraimova N. Yer uchastkalari tanlov asosida beriladi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, 15.10.2015. – <http://uza.uz/oz/business/er-uchastkalari-tanlov-asosida-beriladi-15-10-2015>

3.1.7. Bag'rikenglik – jamiyat barqarorligining asosi (ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – Toshkent: Universitet, 2003.

3.1.8. Burhonov U. O'z biznesiga ega yoshlar yurtimizning istiqboldagi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi// Ma'rifat, 2012-yil 7-noyabr.

3.1.9. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. Betti Readon. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. YUNESKO, 2005.

3.1.10. Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti", 2007.

3.1.11. Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy hisoblar tizimini takomillashtirish nazariy asoslari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2012-y.

3.1.12. Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish jarayonida yalpi ichki mahsulotni hisoblashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2018-y.

3.1.13. Маршалл Ж. Новые элементы французской системы национальных счетов. -М.: Статистика, 1967. 374 с.

3.1.14. Стоун Р. Метод затраты-выпуск и национальные счета. -М.: Статистика, 1964. 212 с.

3.1.15. Студенский В. Доход нации. -М.: Статистика, 1968. 712 с.

3.1.16. Хансен Е. Экономические циклы и национальный доход. -М.: Инновационная литература, 1959. 256 с.

3.1.17. Хикс Дж. Стоимость и капитал. -М.: Прогресс, 1993. 240 с.

3.1.18. G'oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizimi. -T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004. 125 b.

3.1.19. Doing Business. Оценка бизнес регулирования. <http://russian.doingbusiness.org/>

b) ikki muallif:

3.1.20. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика. -М.: Дело и сервис, 2001. 448 с.

3.1.21. Башкатов Б.И., Рябушкин Б.Т. Практикум по национальному счетоводству. -М.: Финансы и статистика, 2004. 319 с.

3.1.22. Видяпина В.И., Журавлева Г.П. Общая экономическая теория (политекономия). Учебник. Под.ред. -М.: Промедиа, 1995. 390 с.

3.1.23. Дорбнуш Р., Фишер С. Макроэкономика. Пер. с англ. -М.: МГУ: Инфра 1997. 450 с.

3.1.24. Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс 14-е издание, учебник. -М.: Инфра 2002. 540 с.

3.1.25. Образцова О.И., Копейкина О.В. Система национальных счетов. Учебник. – М.: ГУ ВШЕ, 2008. 231 с.

3.1.26. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов. -М.: Финансы и статистика, 2006. 270 с.

3.1.27. Xodiev B.Yu. va boshqalar. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: TDIU. 2017-y. 245-b.

4. Statistika ma'lumotlar

4.1. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2004 год. Статистический сборник. -Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2005. с.204

4.2. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2008 год. Статистический сборник. -Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2009. с.196.

4.3. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2009 год. Статистический сборник. Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2010. с. 203.

4.4. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2015 год. Статистический сборник. -Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2016. с. 206.

4.5. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2016 год. Статистический сборник. -Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2017. с. 198.

4.6. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010-yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015-yillarga mo'ljallangan prognozlari. -T.: O'zbekiston. 2011. 140 b.

5. Internet manbalari

- 5.1. www.stat.uz
- 5.2. www.nbu.uz
- 5.3. www.isbuk.ru
- 5.4. www.gov.uz
- 5.5. www.worldbank.org
- 5.6. www.wikipedia.org

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

1-MAVZU. "O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH STRATEGIYASI" FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. «O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fanining maqsadi va vazifalari maqsadi va vazifalari	6
1.2. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy o'sish tushunchalarining mazmun-mohiyati	11
1.3. Iqtisodiy taraqqiyotning mezon va ko'rsatkichlari	21

2-MAVZU. IQTISODIY RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi klassik nazariyalar ...	39
2.2. Iqtisodiy taraqqiyot tushunchasiga hozirgi zamon oqimlari namoyondalarining qarashlari	48
2.3. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi nazariyalarining shakllanishi	56

3-MAVZU. O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH KONSEPSIYASI

3.1. Iqtisodiy taraqqiyotning turli xil konsepsiya va modellari	67
3.2. Taraqqiyotning "o'zbek modeli"	76
3.3. O'zbekistonda dastlabki strategik vazifalarning belgilanishi	81

4-MAVZU. O'ZBEKISTONNING IQTISODIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI

4.1. O'zbekistonning mustaqillikgacha bo'lgan davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli	88
4.2. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining dastlabki bosqichidagi asosiy muammolar va ularning hal qilishini	100
4.3. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti-ning barqaror rivojlanish bosqichi	106

**5-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANA-
DA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA “HARAKATLAR
STRATEGIYASI”NING ISHLAB CHIQLISHI**

- 5.1. O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning ishlab chiqilishi, maqsad va vazifalari 115
- 5.2. “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”ning asosiy yo‘nalishlari 119
- 5.3. “Harakatlar strategiyasi”ning dastlabki natijalari va “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturining ustuvor yo‘nalishlari 136

**6-MAVZU. DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHINI
TAKOMILLASHTIRISH HAMDA QONUN USTUVORLIGINI
TA‘MINLASH IQTISODIY TARAQQIYOTNING OMILI
SIFATIDA**

- 6.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yana-da kuchaytirish 146
- 6.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish 157
- 6.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish 173

**7-MAVZU. IQTISODIYOTNI YANADA
RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISH**

- 7.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik huquqini himoya qilish hamda ularning mavqeini yana-da kuchaytirish – iqtisodiyotni yana-da rivojlantirish va liberallashtirishning bosh omilidir 189
- 7.2. Iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda tarkibiy siyosat va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning ahamiyati 207
- 7.3. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning o‘rni va roli 226

**8-MAVZU. MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI
YANADA MUSTAHKAMLASH VA YUQORI IQTISODIY
O‘SISH SUR‘ATLARINI TA‘MINLASH**

- 8.1. Respublikada iqtisodiyotning tarmoq tarkibini takomillashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikning ta‘minlanishi 246
- 8.2. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish hamda ular salohiyatidan samarali foydalanish 264
- 8.3. Iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta‘minlashda ishchi kuchi resurslarining samarali bandligiga erishishning ahamiyati 277

**9-MAVZU. IJTIMOIIY SOHANI RIVOJLANTIRISH
VA AHOLI DAROMADLARI**

- 9.1. Mamlakatda bandlik va aholi daromadlarining o‘shish tendensiyalari 293
- 9.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish 310
- 9.3. O‘zbekistonda ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish 325

**10-MAVZU. IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI
TA‘MINLASHDA INVESTITSIYA VA TASHQI SIYOSAT**

- 10.1. Investitsion muhit va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta‘siri 347
- 10.2. O‘zbekistonning investitsion siyosati va xorijiy investitsiyalarning davlat tomonidan boshqarilishi 366
- 10.3. O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi 374
- 10.4. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari 381

GLOSSARIY 392

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 410